

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

**Tuychiyeva Nilufar,
Mirodil Xaydarov**

TASAVVUF VA HOZIRGI ZAMON

O‘QUV QO‘LLANMA

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 297
KBK: 86.38
T 97

Tasavvuf va hozirgi zamon [Matn]: o‘quv qo‘llanma / N. Tuychiyeva, M. Xaydarov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. –176 b.

Mas’ul muharrir:

D.Rahimjonov – O‘zXIA “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrası dosenti

Taqrizchilar:

M.Agzamova – O‘zXIA “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrası dosenti, v.b.

B.Muxtorov – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi kafedra mudiri, islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Mazkur o‘quv qo‘llanmada tasavvufning bugungi ko‘rinishlari, ta’limoti va g‘oyalari, tariqatlarning qadimdagi va hozirgi holatlari, mintaqaviy xususiyatlari, globallashuv sharoitida tariqatlar faollashuvi, soxta sufiylik, tariqatchilik va boshqa ko‘plab mavzular yoritilgan. Ushbu qo‘llanmani tuzishda manba va adabiyotlardan keng foydalanilgan. Qo‘llanma tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati, glossariy, mavzuga oid savollar, tayanch iboralar, mustaqil ish topshiriqlari bilan ta’minlangan.

(Kitobni yozish jarayonida “Globallashuv sharoitida zamonaviy tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar” (mas’ul muharrir I.Usmonov) kitobidan foydalanilgan).

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy kengashining 2023-yil 26-iyundagi 9-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mitaning 24.04.2024 sanadagi 03-07/ 2252-sonli” xulosasi asosida nashrga tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-070-0

© Tuychiyeva N., Xaydarov M.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

SO‘Z BOSHI

Tasavvuf haqidagi zamonaviy tadqiqotlar hozirgi kunda dunyo olimlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Islom falsafasi va tasavvuf haqida izlanishlar olib borayotgan bir qancha sharqshunos va islomshunos olimlar tasavvufning inson ruhiyati har qachongidan ham tarbiyaga, tasalliga muhtojligini ta’kidlab, tasavvufni bevosita inson kamoloti bilan bog‘liq ekanligini e’tirof etmoqdalar.

“Ilm-fan va texnika taraqqiyoti insoniyatga ko‘plab qulayliklar beribgina qolmay, ko‘plab ruhiyat va tarbiya bilan bog‘liq muammolarga ham sabab bo‘lmoqda. Barcha ilmiy yutuqlar va taraqqiyotning fundamental asosi bo‘lmish inson ruhiyati uchun foydali bo‘lgan axloqiy kodekslar susayib, moddiyat sari intilish bugungi zamon odami fitratiga o‘rnashib, uning oliy maqsadiga aylanish holatlari ham kuzatilmoqda.

Moddiy manfaat uchun ko‘plab illatlar, mamlakatlararo kelishmovchiliklar, urushlar, yadro qurolining yaratilishi, tabiiy resurslar uchun kurash kuchayishi, turli geosiyosiy o‘yinlar, nazariyalarning barchasi insoniyatni yo‘q qilish evaziga gegemon bo‘lishni maqsad qilib olgan ma’lum bir guruhlar tufayli insoniyatning tinchi buzilgan. Shunday vaziyatda tasavvufni o‘rganish har qachongidan ham muhim vazifaga aylanib qolmoqda.

Tasavvuf murakkab va bosqichli taraqqiyotga ega bo‘lib, islomning ruhiy, aqliy, axloqiy, botiniy falsafasini o‘zida mujassam etgan. Uning asosida o‘z-o‘zini isloh qilish, tarbiyalash, rivojlantirish va o‘zgalarga yaxshilik qilish orqali kamolotga erishish yotadi.

Tasavvufning jamiyat hayotini yaxshilashdagi tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Tasavvufdan ko‘zlangan eng oliy maqsad bu – axloqni sayqallashdir. Ba’zi ulamolar axloqni “irodaning odati” deb ta’riflaganlar. Ya’ni iroda o‘ziga bir narsani odat qilib olsa, mana shu odat axloqqa aylangan bo‘ladi. Misol uchun, kishining irodasi xayr – ehson qilishga azmu qarorli bo‘lib, bu uning odatiga aylansa, mana shu “komil xulq deyiladi”.

Bu o‘quv qo‘llanmada dunyoning turli hududlarida tasavvufga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xosliklari tahlil qilingan. Turli millat vakillarining tasavvufga nisbatan yondashuvlari va islom dini kam

tarqalgan yerlarda ruhiy quvvat sifatida qaralishining sabablari ko'rib chiqildi.

Tariqatlarning bugungi kundagi ko'rinishlari, tariqat a'zolarining faoliyati, murshidlarning zamonaviy faoliyat turlari, tasavvufning yangicha tendensiyalari ko'rsatib berildi. Shuningdek, mumtoz tasavvuf va zamonaviy tariqatlar orasidagi farqlar o'quv qo'llanmada tahlil qilingan.

“Tasavvuf va hozirgi zamon” o'quv qo'llanmasi o'quvchi talabalarni ushbu sohadagi qiziqtirgan savollarga javob topishlariga xizmat qiladi degan umiddamiz. Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari avj olgan davrda tasavvufning yangi ko'rinishlari ilmiy muhokama qilingan. Magistr-talabalar uchun ahamiyatli ma'lumotlarni o'z ichiga manba bo'ladi deb o'ylaymiz.

1-MAVZU. “TASAVVUF VA HOZIRGI ZAMON” KURSIGA KIRISH

Reja:

1. “Tasavvuf va hozirgi zamon” kursini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad.
2. Globallashuv sharoitida tasavvufning namoyon bo‘lish shakllari.
3. Musulmon Sharqida tariqatlarning qayta jonlanishi.

Tayanch iboralar: *globallashuv, g‘arb sivilizatsiyasi, tasavvufiy tariqatlar, sufiylar.*

1. “Tasavvuf va hozirgi zamon” kursini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad. Kundalik hayotda globallashuv deganda, asosan, umuminsoniy ahamiyatga ega muammolarni tushunish keng tarqalgan. Bunday tushunish biryoqlamalik bo‘lib, tushunchaning tub mohiyatini ochib bera olmaydi va uning faqat salbiy hodisa sifatida talqin etilishiga olib keladi. Vaholanki, eng umumiy ma’noda, globallashuv bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi. Shu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta’lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv hamda g‘oyaviy ta’sir, targ‘ibot va tashviqot bilan bog‘liq mafkuraviy globallashuv ham sodir bo‘layotganini yoddan chiqarmaslik zarur¹. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda din omili tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu omilga asosan, ko‘pgina diniy tashkilotlar va birlashmalar xalqaro siyosatda faol ishtirok etmoqdalar.

Xalqaro jarayonlarning globallashuvi hamda xalqaro munosabatlarning uyg‘unlashuvi sharoitida din ayrim davlatlar, davlatlararo ittifoqlar va tuzilmalarning o‘zini-o‘zi anglashi uchun zaruriy vositaga aylandi. Dinlar va diniy jamoalar hududiy chegaralarni tan olmasligi sababli, bir davlatda yashovchi biron-bir din vakillari

¹ Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 113.

boshqa davlatda yashovchi dindoshlari bilan muntazam ravishda aloqa qilib, xalqaro munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib keladilar².

Shu bilan birga, diniy omilning faollashuvi natijasida fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm kabi g'oyalarning mavjudligi ham xalqaro maydondagi barqarorlikka ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda jahon ma'naviy muhitini g'arb andozalari asosida shakllantirishga zo'r berib intilish amaliyoti uni mutlaq istamayotgan xalqlar va sivilizatsiyalarda keskin noroziliklar keltirib chiqarmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, aynan ularning o'zlarida qandaydir teskari kuch, ya'ni g'arb sivilizatsiyasini yo'q qilib, dunyoni aksi-g'arbiy tarzda o'zgartirishga bo'lgan intilishlar ham shu tarzda kuchaymoqda³.

Zamonaviy taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri ham dunyo, ham har bir alohida davlat siyosati, qolaversa, sivilizatsiyalar, madaniyatlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimiga musulmon olamida ro'y berayotgan voqealarning aniq ta'sirining kuchayishi desak, xato bo'lmaydi. Shunday ta'sirlardan bir ko'rinishi – tasavvufiy tariqatlar orqali kechayotganini alohida ta'kidlash zarur. Zero, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tasavvufning har qanday muhitda yashovchanligi uning turli xalqlarning madaniy yutuqlari va milliy urf-odatlarini o'zlashtirib, islomiy ko'rinishda qayta taqdim etish xususiyati bilan belgilanadi. Tasavvuf tarixiga nazar solinsa, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi sufiylar hayoti va dunyoqarashiga ta'sir etib turganini ko'ramiz⁴.

Tariqatlarning rivojiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Hakim Termiziy (820-932), Ahmad Yassaviy (1105-1166/67), Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1179), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Xoja Muhammad Porso (1345-1420), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1490), Alisher Navoiy (1441-1501), Mahdumi A'zam Kosoniy-Dahbediy (vaf. 1542 y.) kabi mutafakkirlarning xizmati katta bo'lgan. Ular tomonidan boyitilgan tasavvuf ta'limoti xalqni jipslashtirib, jamiyatning turli qatlamlari orasida do'stlik, hamjihatlik rishtalari ildiz otishiga zamin hozirlagan.

² Lukashuk I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. – Toshkent: Adolat, 2006. – B. 353.

³ Milliy manfaatlar va boshqaruv ma'uliyati. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: G'. G'ulom nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 179-182.

Tasavvuf o'ziga xos san'ati, adabiyot va she'riyati, musiqasiga ega bir tizimni tashkil eta boshlagan. Tasavvufga oshufta bo'lgan adabiyot va san'at ahli halollik, mehnatsevarlik, adolatpeshalik, muruvvat, jasorat kabi umuminsoniy qadriyatlarni madh etganlar. Sharqdagi musulmon davlatlarda, qisman janubiy-sharqiy va g'arbiy Yevropa davlatlarida ham XX asrning 90-yillaridan boshlab, tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi, tasavvufning jamiyatning turli qatlamlariga ta'siri tobora oshib borayotgani, yurtimizda ham bu hodisaning o'ziga xos ko'rinishlari kuzatilayotgani – bu jarayonlarni chuqur tadqiq etib borish lozimligini ko'rsatadi. Chunonchi, ayrim Sharq davlatlarida tariqatlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi partiyalar va ularning yetakchilari ilgari surayotgan g'oyalar orqali tariqatlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, diniy-fundamentalistik g'oyalar keng tarqalgan ayrim davlatlarda tasavvufga munosabat nisbatan salbiy tus olgani namoyon bo'ladi. Yevropa davlatlarida ham tasavvufiy an'analar o'ziga xos g'arbona xususiyatlar kasb etib bormoqda.

2. Globallashuv sharoitida tasavvufning namoyon bo'lish shakllari. Tasavvufning G'arb olamiga ta'siri ancha avval boshlangan bo'lib, o'rta asrlarda Yevropani islom olamidan ruhiy jihatdan ta'sirlangani qayd etilmoqda. G'arb musulmonlarining aksariyati islomni ikki qism va to'rt jihatdan iborat deb biladilar:

1. Tashqi – ekzoterik (zohir);

2. Ichki – ezoterik (botin).

To'rt jihati esa quyidagilardan iborat;

1. shariat;

2. tariqat;

3. haqiqat;

4. ma'rifat.

Karadeniz universiteti ilohiyot fakulteti tadqiqotchisi Betul Trakchining fikriga ko'ra "Islom olamida bu dinning ikki aqidaviy va to'rt fiqhiy mazhabdan iborat ekanligi sir emas. Ammo Indoneziya, Eron, Hindiston va Xitoyda ekzotik va ezoterik, shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat kabi tartibda tushunish keng tarqalgan. Amerikada tasavvufni tarqalishiga sabab bo'lgan eng muhim shaxs hind millatiga mansub bo'lgan bastakor Inoyat Xondir. Tasavvuf, Hinduizm va Zardushtiylikdan ta'lim olgani va ingliz tilini yaxshi bilgani uchun

Amerika va Yevropaning ayrim hududlarida sinkretik islomni targ'ib qilishga boshladi. Uning shaxsiyati islomni Amerikada yoygan shayx sifatida e'tirof etilmoqda".⁵

Inoyat Xon tomonidan "Ma'naviy erkinlikning sufiylik deklaratsiyasi" nomli o'n to'rt jildli kitob yozilgan bo'lib, unda bosh g'oya kishi ruhiyatining erkinligi bilan bog'liqdir. Allohning sevganlari qaysi irqqa, kastaga, e'tiqodga, millatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar Uning sevgisi barchani o'z ichiga oladi degan qarashni ilgari suradi. Tasavvufni faqat islom zahirida yoki boshqa din tarkibida vujudga kelganini asoslash muhim emas, muhimi uning barcha falsafa va dinlarga asos bo'lgani va islomning ruhi sifatida tan olinishidir.⁶

Tasavvufni islomdan ayri holga keltirgan uch xususiyat mavjud:

1. Islomni bir xavf yoki cheklov sifatida ko'rmaslik g'oyasi ostida kishilar sonini ko'paytirishga urinish. New Age tashkilotining asl mohiyati shu asosga tayanadi. Aslini olganda bu qarashni G'arb madaniyati doirasida ko'rib chiqish va g'arbliklarni qo'rquv hissini yo'qotish uchun qo'llayotgan uslub ekanini anglash qiyin emas.

2. G'arblik kishilar o'z diniy qarashlariga sodiqlikni ibodat va fidokorlik g'oyalariga tayangan holda emas balki tasavvufga aloqador musiqa tinglash, samo va boshqa rituallarni amalga oshirish vositasida amalga oshirish bilan namoyon qilishga urinmoqda. Bu rituallarga amal qiluvchi guruhlar Amerika, Kanada va Angliya mamlakatlarida faoliyat olib bormoqda. Angliyada tasavvuf va psixologiya bilan bog'liq sohalarda tadqiqotlar olib borgan Javod Nurbahsh kabilar tomonidan turli harakatlarga asos solindi va bu faoliyat turi hali ham rivojlanishda davom etmoqda.

Tasavvufning G'arb olamiga ta'siri faqat yuqorida keltirilganlar bilan cheklanmagan. Ulardan tashqari sanat sohasida ham o'z aksini topmoqda. Tasavvufiy she'rlarni tarjima qilish orqali turli guruhlar raqsga asoslangan kechalarini mavlaviylikdan qolgan an'ana sifatida ko'rsatishga harakat qilmoqdalar. Bu kabi amaliyotning tasavvufga qanday salbiy ta'siri borligini ikki asosda ko'rish mumkin. Birinchisi, tasavvufni faqatgina raqsu samodan iborat amaliyot deya tushunish.

⁵ Betül Tarakçı, Batı'da Tasavvuf: İnterspiritüel Çağ'da İslam // Karadeniz Teknik Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi Karadeniz Technical University Journal of The Faculty of Divinity. –S. 7.

⁶ Pir Zia Inayat Khan, "Welcome Note" (13 Eylül Hicret Günü, 2005) erişim:(Anjumani-owner@yahoo.com) 8 Kasım 2005.

Ikkinchisi, tasavvufni haqiqiy maqsadidan uzoqlashishiga sabab boʻlmoqda.

3. Tasavvufga gʻarbcha yondushuvning oqibatlari tarixda kuzatilganidek, yirik kuchlarni islom olamiga taʼsirni oshirishda qoʻl kelishi. Yaʼni, ayrim harakatlar ortodoksal islom mavqeyiga putur yetkazishda tasavvufdan foydalanmoqda.

Tariqatlar zamonaviy axborot kommunikatsiyasi vositalari – internet, sunʼiy yoʻldosh orqali uzatiluvchi telekanallar, davriy matbuot kabi OAVning turli sohalaridan unumli foydalangan holda Yevropaliklar va musulmon immigrantlar orasida targʻibot-tashviqot ishlarini olib bormoqda. Tasavvufning Yevropaga tarqalish omillari sifatida ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda Yevropa davlatlarida tasavvuf, asosan, musulmon muhojirlari hisobiga tarqala boshlagani qayd etish zarur. Jumladan, Buyuk Britaniyaga tasavvuf anʼanalari keng tarqalgan sobiq mustamlakalar – Hindiston, Pokiston, Bangladeshdan, Fransiya va Germaniyaga esa, Turkiya, Jazoir, Tunis, Marokash kabi davlatlardan kelgan muhojirlar tasavvufiy qadriyatlarga sodiq qolgan holda yangi muhitda oʻz diniy anʼana va marosimlarini saqlab qolishga muvaffaq boʻldilar. Natijada, Yevropa davlatlarida asta-sekin yangicha hayotga moslashgan tariqatlar ham kurtak yoza boshladi va ularning baʼzilar tub aholi orasida ham muvaffaqiyat qozona oldi. Shu oʻrinda Gʻarbdagi muhojirlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga nazar tashlaydigan boʻlsak, ularning gʻarb madaniyatiga taʼsir doirasi nechogʻliq ekani yanada oydinlashadi. Migratsiyaga bagʻishlangan tadqiqotlarda muhojirlarni qabul qiluvchi jamiyatga milliy ozchilikning integratsiyalashuvida asosiy toʻrtta model koʻrsatiladi. 1) imperialistik, unga koʻra yagona etnos dominant va imtiyozlarga ega boʻlgan, multietnik jamiyatga boshqa xalqlarning integratsiyasi;

2) respublikacha, bu model imperialistik modelga zid boʻlib, unda millat siyosiy hamkorlik sifatida namoyon boʻladi va xalqlar konstitutsiya, qonunlar hamda fuqarolik asosida birlashadi;

3) etnik, yaʼni biryoqlama, yopiq jamiyat, unda fuqarolik huquqlari taʼminlanishi va ijtimoiy hayotdagi mavqe kabilar milliy asosga koʻra amalga oshadi;

4) multimadaniyat, har bir muayyan davlatga muvofiq tarzda, turlicha boʻladi.

Uning asosiy jihati – muhojirlar ularni qabul qiluvchi jamiyatning siyosiy tartib-qoidalariga rozi bo‘lgan holda, o‘zlarining etno-konfessional va madaniy o‘ziga xosliklarini saqlab qolishlari mumkin bo‘ladi, hatto ba’zi hollarda bunga rag‘batlantiriladi. Mazkur modelni o‘zida tatbiq etayotgan davlatlar qatorida Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada, Avstraliyani qayd etish mumkin. O‘ta liberal multimadaniyat strategiyasi ba’zan salbiy oqibatlarga olib kelishi ham kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada oq tanli bo‘lmaganlar britaniyaliklar qadriyatlarini qabul qilishga majbur etilmasligi, davlat milliy ozchilikka tegishli diniy va madaniy sohalarni qo‘llab-quvvatlashi haqidagi talablar yangray boshladi. Multietnik Britaniya ko‘plab jamoalardan tashkil topib, ularning barchasini bir-biriga bog‘laydigan va manfaatlarini markaziy hokimiyat oldida himoya qiladigan millatlar hamdo‘stligiga ega emasligi ham jamiyatda etnik begonalashuvni hamda har bir etnik qatlamning o‘z qobig‘iga o‘ralib qolib, separatistik kayfiyatlarning vujudga kelishiga olib kelmoqda.

Globallashuv jarayonlari tezlashib borishi, xalqaro mehnat taqsimoti hamda arab davlatlaridagi iqtisodiy islohotlarning salbiy oqibati o‘laroq yuzaga kelgan jamiyatdagi tabaqalashuvning kuchayishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar musulmonlar tomonidan vesternizatsiya bilan bir qatorda G‘arb majburlab tiqishtirayotgan yot hodisa sifatida noxush qabul qilinmoqda. Shu jihatdan ham diniy taassubning avj olishi – islom sivilizatsiyasining zamonaviy dunyoning chaqirig‘iga javobi, deb baholovchi qarashlar ham vujudga kelgan. Dunyodagi talaygina musulmonlar islom dini va madaniyati, tarixiy an‘analarining saqlanib qolishi jamiyat rivojining muhim sharti deb hisoblaydilar⁷.

S.Xantington ham mashhur amerikalik dinshunos G.Veygelning: “XX asr yakuniga ko‘ra desekulyarizatsiya – eng dominant ijtimoiy omilga aylandi”, degan fikriga qo‘shiladi. Shunga asosan, bunday holatda xalqlar milliy davlatga mansublikdan ko‘ra, diniy identifikatsiyani ko‘proq his eta boshlaydilar⁸.

⁷ Долгов Б. Арабский мир в начале XXI века: между демократией и исламизмом. // (Oriens) № 5, – Москва: Наука, 2009. – С. 90.

⁸ Тихонравов Ю. Геополитика. – Москва: ЗАО. “Бизнес школа “Интел-Синтез”, 1999. – С. 202-205.

3. Musulmon Sharqida tariqatlarning qayta jonlanishi.

Hozirgi kunda musulmon dunyosining deyarli barcha davlatlarida turli tasavvufiy tariqatlar faoliyat yuritayotganini ko‘rish mumkin. Turkiya, Misr, Liviya, Jazoir, Tunis, Indoneziya, Malayziya, Iordaniya, Pokiston kabi davlatlarda mavjud tariqatlarning sanog‘iga yetish qiyin. Shu bilan birga, ularning ko‘pchiligi tasavvufning ilk sarchashmalaridan ancha uzoqlashib ketgani ko‘zga tashlanadi. Xususan, Pokiston va Hindiston hududlarida tarqalgan tariqatlar buddaviylik, hinduiylik dinlari va qadimgi hind falsafasidan bir qadar ta’sirlanganini ko‘rish mumkin. Barlaviya, mehmandiya va boshqa qator tariqatlarda qadimgi hind falsafasidagi tanosux, ya’ni ruhning ko‘chib yurishi g‘oyasi keng o‘rin olgan. Ular namoz yoki zikr vaqtida yuqoridan bir joyni bo‘sh qo‘yadilar va unga Muhammad payg‘ambar ruhi kelib o‘rnashadi, deb hisoblaydilar. Masjidlarining qibla tarafida esa o‘z tariqatlarining asoschisi yoki pirlarining qabri joylashgan bo‘lib, namozdan avval va keyin uni tavof qiladilar⁹.

Tasavvufga nisbatan ijobiy mavqeni egallagan Osiyo va Afrika davlatlarida tariqatlar globallashuv sharoitida o‘z a‘zolari sonini ko‘paytirish yo‘lida qo‘llayotgan uslub va vositalar, shu qatorda, MDH davlatlarida va xususan, O‘zbekistonda faollashuvi kuzatilgan tariqatlarning ba’zi holatlarda mintaqa uchun noan’anaviy bo‘lgan amaliyot va g‘oyalarni qo‘llashi e’tiborni jalb eta boshladi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, ba’zi musulmon davlatlarda tariqatlar zamonga moslashuvchanlik namunalarini ko‘rsatib, jamiyatdagi yangi funksiyalarni o‘z zimmalariga olishga harakat qilmoqda. Masalan, Indoneziyada ayrim tariqat dargohlarida sufiyona mashqlar, zikr va meditatsiya orqali giyohvandlik ta’siridan qutulish hamda ruhiy xastaliklardan davolanish taklif qilinmoqda¹⁰.

Bu ham tashviqotning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Bugun tasavvuf tariqatlari Misr, Pokiston kabi davlatlarda hamon sezilarli ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida jamiyatda salmoqli “vazn”ga ega. Senegal, Sudan va yana boshqa arab o‘lkalarida siyosiy partiyalar tegishli tariqatlarning manfaatlarini ifoda etishini ko‘rish mumkin.

⁹ Yo‘ldoshxo‘jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko‘rinishlari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2010. – B. 3-8.

¹⁰ Кныш А. Суфизм. – Москва: Диля, 2004. – С. 332.

Afrika va Osiyodagi musulmon davlatlarda XX asrning 90-yillaridan boshlab tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi kuza-tiladi. Bugungi murakkab sharoitda mintaqaning yetakchi davlatlari tasavvufga qaratayotgan e'tibor qo'shni davlatlarda ham aks-sado bermay qolmaydi. Zero, jiddiy o'zgarishlar bo'sag'asida turgan bu musulmon davlatlar uchun diniy asosdagi siyosiy jarayonlar katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalarida diniy qadriyatlarning tiklana boshlashi "qayta qurish" davridayoq boshlangan va sovet islom-shunoslari orasida aynan tasavvufga qiziqish orta boshlagan edi. Turli ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallarda ham ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratilgan. Bu holat Sobiq Ittifoq hududida avj ola boshlagan "qayta islomlashuv" jarayonlarida yuz berayotgan edi. Mana shu ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar to'lqinida MDH davlatlari va xossa tan, O'zbekistonda an'anaviy va noan'anaviy tariqatlar faoliyati ham kurtak yoza boshladi.

Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy jabhalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunday sharoitda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyor va teran nazar bilan qarab, ularga o'z vaqtida to'g'ri va xolisona baho bera olish davrning eng birlamchi va dolzarb talabiga aylanib bormoqda. Qo'lingizdagi kitobda yuqorida keltirib o'tilgan masalalar, globallashib borayotgan dunyoda tariqatlarning faoliyati, MDH va boshqa hududlarda tariqatlar jonlanishi qay tarzda kechayotgani, hozirgi voqeliklarning tarixiy ildizlari va boshqa bir qancha mavzular atroflicha tadqiq va tahlil etilgan. Mualliflarning mavzularni yoritishdagi ilmiy-tahliliy yondashuv va uslublari imkon qadar asl holatida saqlab qolishga harakat qilindi.

Mavzu bo'yicha savollar

- Tariqatlar globallashuv sharoitida targ'ibotning qanday zamonaviy usullaridan foydalanmoqdalar?
- Xalqaro munosabatlarda din omili qanday o'rin tutgan?
- Sufiylar hayotiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tasavvufiy qarashlarga asos bo'lgan oyat va hadislar tahlili

**O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan
adabiyotlar:**

1. Sufism and the modern in Islam. Martin Van Bruinessen, Julia Day Howell. – London-New York, I.B.Tauris, 2005.
2. Sufizm v Syentralnoy Azii (zarubejnie issledovaniya) – SPb.: Filologicheskiy fa-kultet SPbGU, 2001
3. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
4. Tasavvuf atamaları izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
5. Кныш А. Суфизм. – Москва: Диля, 2004. – С. 321.
6. Ali-zade A. Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Ansar, 2007.

2-MAVZU. ZAMONAVIY DUNYODA TASAVVUFGA MUNOSABAT VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA TARIQATLAR FAOLIYATI

Reja:

1. Tasavvuf va globallashuv jarayonlari.
2. Tasavvufning Yevropaga tarqalish omillari.
3. Xalqaro Sufiylik tariqati.

Tayanch iboralar: *globallashuv, diniy identifikatsiya, “sufiy klublar”, xalqaro munosabatlar, missionerlik, prozelitizm.*

1. Tasavvuf va globallashuv jarayonlari. Globallashuv jarayonlarini tasavvuf bilan aloqadorligini tahlil qilar ekanmiz uning G‘arb madaniyati bilan to‘qnash kelayotganini ta’kidlash zarur. Tasavvuf va globalizatsiya o‘lkalar va madaniyatlar o‘zaro dinamik aloqaga kirishish jarayonida bir nuqtada birlashmoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda din omili tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ushbu omilga asosan, ko‘pgina diniy tashkilotlar va birlashmalar xalqaro siyosatda faol ishtirok etmoqdalar. Xalqaro jarayonlarning globallashuvi hamda xalqaro munosabatlarning uyg‘unlashuvi sharoitida din ayrim davlatlar, davlatlararo ittifoqlar va tuzilmalarning o‘zini-o‘zi anglashi uchun zaruriy vositaga aylandi. Dinlar va diniy jamoalar hududiy chegaralarni tan olmasligi sababli, bir davlatda yashovchi biron-bir din vakillari boshqa davlatda yashovchi dindoshlari bilan muntazam ravishda aloqa qilib, xalqaro munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib keladilar¹¹. Shu bilan birga, diniy omilning faollashuvi natijasida fundamentalizm, missionerlik, prozelitizm kabi g‘oyalarning mavjudligi ham xalqaro maydondagi barqarorlikka ma’lum ma’noda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda jahon ma’naviy muhitini g‘arb andozalari asosida shakllantirishga zo‘r berib intilish amaliyoti uni mutlaq istamayotgan xalqlar va sivilizatsiyalarda ulkan noroziliklar keltirib chiqarmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, aynan ularning o‘zlarida qandaydir teskari kuch,

¹¹ Lukashuk I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. –Toshkent: Adolat, 2006. –B. 353.

ya'ni g'arb sivilizatsiyasini yo'q qilib, dunyoni aksi-g'arbiy tarzda o'zgartirishga bo'lgan intilishlar ham shu tarzda kuchaymoqda¹².

Zamonaviy taraqqiyotning muhim xususiyatlaridan biri ham dunyo, ham har bir alohida davlat siyosati, qolaversa, sivilizatsiyalar, madaniyat va millatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimiga musulmon olamida ro'y berayotgan voqealarning aniq ta'sirining kuchayishi desak, xato bo'lmaydi¹³. Shunday ta'sirlardan bir ko'rinishi – tasavvufiy tariqatlar orqali kechayotganini alohida ta'kidlash zarur. Zero, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tasavvufning har qanday muhitda yashovchanligi uning turli xalqlarning madaniy yutuqlari va milliy urf-odatlarini o'zlashtirib, islomiy ko'rinishda qayta taqdim eta olish xususiyati bilan belgilanadi¹⁴.

Tasavvuf tarixiga nazar solinsa, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi sufiylar hayoti va dunyoqarashiga ta'sir etib turganini ko'ramiz¹⁵. Tariqatlarning rivojiga Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarning xizmati katta bo'lgan. Ular tomondan boyitilgan tasavvuf ta'limoti xalqni jipslashtirib, jamiyatning turli qatlamlari orasida do'stlik, hamjihatlik rishtalari ildiz otishiga zamin hozirlagan.

Sharqdagi musulmon davlatlarda, qisman janubi-sharqiy va g'arbiy Yevropa davlatlarida ham XX asrning 90-yillaridan boshlab, tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi, tasavvufning jamiyatning turli qatlamlariga ta'siri tobora oshib borayotgani, yurtimizda ham bu hodisaning o'ziga xos ko'rinishlari kuzatilayotgani – bu jarayonlarni chuqur tadqiq etib borish lozimligini ko'rsatadi. Chunonchi, ayrim Sharq davlatlarida tariqatlarning manfaatlariga xizmat qiluvchi partiyalar va ularning yetakchilari ilgari surayotgan g'oyalar orqali tariqatlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, diniy-fundamentalistik g'oyalar keng tarqalgan ayrim davlatlarda tasavvufga munosabat nisbatan salbiy tus olgani namoyon bo'ladi. Yevropa davlatlarida ham tasavvufiy an'analar

¹² Milliy manfaatlar va boshqaruv ma'uliyati. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: G'.G'ulom nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 179-182.

¹³ Jo'rayev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiydashgan diniylik. –Toshkent: Akademiya, 2008 – B. 49.

¹⁴ Qarang: Акимущкин О. Суфийские братства: сложный узел проблем. / Предисловие к Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – Москва: Наука, 1989. – С. 3-17.

¹⁵ Komilov N. Tasavvuf. , – Toshkent: Mavarounnahr, 2009. – B 15.

o'ziga xos g'arbona xususiyatlar kasb etib bormoqda. Tariqatlar zamonaviy axborot kommunikatsiyasi vositalari – Internet, sun'iy yo'ldosh orqali uzatiluvchi telekanallar, davriy matbuot kabi OAVning turli sohalaridan unumli foydalangan holda Yevropaliklar va musulmon immigrantlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bormoqdalar.

G'arbdagi tasavvuf guruhlarining aksariyatida shariatga nomuvofiqlik amaliyoti kuzatilib kelinmoqda. Yangi davr G'arb sufiy amaliyotchilari islomning ezoterik o'lchoviga e'tibor berishadi. Yevropada o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra Fransiyada islomga kirgan kishilarning aksariyati tasavvuf sababi bilan imonga kelgani qayd etilgan. G'arbda eng keng tarqalgan tariqatlar safiga shoziliya-alaviya, halvatiya-jarrohiya va Andalusiyada "Takror islomga qaytish" jamoasi kiradi.

G'arb olamining tasavvuf bilan qiziqisha va unga yaqinlashuvining asosiy sabablaridan biri ruhiy bo'shliq. Ruhiy daldaga muhtojlik va yolg'izlik hissini yengishga intilish. Yevropada shu kemtiklikni o'rnini to'ldirishning bir yechimi tasavvuf deb qaralmoqda. Ammo tasavvuf bo'lganda ham shariatga muvofiq islom an'alaridan chetlashmagan asl yo'nalish nazarda tutilmagan. Ular faqatgina musiqa tinglash, she'r o'qish va hech qanday cheklovga asoslanmagan "tasavvuf"ni yoqlamoqdalar. Bu ko'rinishdagi qo'shtirnoq ichidagi tasavvuf esa Inoyat Xon kabilar tomonidan Yevropa aholisiga mos va ularning madaniyatidan uzoq bo'lmagan, ba'zan esa islom ta'limotiga zid tasavvufning sun'iy ko'rinishi yaratildi. Bu holatni musulmonlar safini kengaytirish bilan bog'lab ijobiy qarayotganlar masalaning ikkinchi tarafiga ahamiyat qaratsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Birinchidan, musulmonlar orasida bir-birini anglamaslik natijasida ziddiyatni vujudga kelishi va ikkinchi tomondan esa islomning asl mohiyatini mutlaqo boshqa tomonga burib yuborish xavfi yuzaga keladi. Natijada, turli dinlar aslida bir faqat nomlanishi har xil yoki tasavvufda din chegarasi kerak emas qabilidagi talqinlarni paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

2. Tasavvufning Yevropaga tarqalish omillari. Bolqon davlatlariga (Albaniya Bolgariya) tasavvuf Usmonilar hukmronligi davrida islom dini bilan birga kirib kelgan edi. Fransiya, Germaniya va Angliyada tasavvuf XVII asrda paydo bo'lgan bo'lib, bu vaqtda

endigina yozma manbalar ko‘rinishida yetib kelgan edi. Keyinchalik XIX asr oxirlarida amaliy tasavvuf ham tarqala boshladi. Yevropada tasavvufning yoyilishi fors she‘riyatining g‘arb tillariga tarjima qilinishi bilan uzviy bog‘liq. Ikkinchi jahon urishidan keyin esa sufiylar tomonidan Yevropa hududlarida tasavvufiy qarashlar ko‘zga tashlana boshladi. Bu davrda Yevropa davlatlarida tasavvuf asosan, musulmon muhojirlari hisobiga tarqala boshlagani kuzatildi. Jumladan, tasavvuf an‘analari Buyuk Britaniyaga sobiq mustamlakalari – Hindiston, Pokiston, Bangladeshdan, Fransiya va Germaniyaga esa, Turkiya, Jazoir, Tunis, Marokash orqali kirib keldi. Muhojirlar tasavvufiy qadriyatlarga sodiq qolgan holda yangi muhitda o‘z diniy an‘ana va marosimlarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldilar. Natijada, Yevropa davlatlarida asta-sekin yangicha hayotga moslashgan tariqatlar ham kurtak yoza boshladi va ularning ba‘zilari tub aholi orasida ham muvaffaqiyat qozona oldi. Shu sababdan bu hududda tariqatlar ikki ko‘rinishda faoliyat yuritadi: islom an‘analariga tayangan va noislomiy tariqatlar.

Shu o‘rinda G‘arbdagi muhojirlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning g‘arb madaniyatiga ta’sir doirasi nechog‘liq ekani yanada oydinlashadi. Migratsiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda muhojirlarni qabul qiluvchi jamiyatga milliy ozchilikning integratsiyalashuvida asosiy to‘rtta model ko‘rsatiladi. 1) – imperialistik, unga ko‘ra yagona etnos dominant va imtiyozlarga ega bo‘lgan, multietnik jamiyatga boshqa xalqlarning integratsiyasi. 2) – respublikacha, bu model imperialistik modelga zid bo‘lib, unda millat siyosiy hamkorlik sifatida namoyon bo‘ladi va xalqlar konstitutsiya, qonunlar hamda fuqarolik asosida birlashadi. 3) – etnik, ya’ni biryoqlama, yopiq jamiyat, unda fuqarolik huquqlari ta’minlanishi va ijtimoiy hayotdagi mavqe kabilar milliy asosga ko‘ra amalga oshadi. 4) – multimadaniyat, har bir muayyan davlatga muvofiq tarzda, turlicha bo‘ladi. Uning asosiy jihati – muhojirlar ularni qabul qiluvchi jamiyatning siyosiy tartib-qoidalariga rozi bo‘lgan holda, o‘zlarining etno-konfessional va madaniy o‘ziga xosliklarini saqlab qolishlari mumkin bo‘ladi, hatto ba’zi hollarda bunga rag‘batlantiriladi¹⁶. Mazkur modelni o‘zida tatbiq etayotgan davlatlar qatorida Buyuk

¹⁶ “Globallashuv sharoitida zamonaviy tariqatlar: ta’limotlar, uslublar, tahlil va xulosalar”. Mas’ul muharrir: I.Usmonov. –Toshkent: 2015. –B.6.

Britaniya, Niderlandiya, Kanada, Avstraliyani qayd etish mumkin. O'ta liberal multimadaniyat strategiyasi ba'zan salbiy oqibatlariga olib kelishi ham kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada oq tanli bo'lmaganlar britaniyaliklar qadriyatlarini qabul qilishga majbur etilmasligi, davlat milliy ozchilikka tegishli diniy va madaniy sohalarni qo'llab-quvvatlashi haqidagi talablar yangray boshladi. Multietnik Britaniya ko'plab jamoalardan tashkil topib, ularning barchasini bir-biriga bog'laydigan va manfaatlarini markaziy hokimiyat oldida himoya qiladigan millatlar hamdo'stligiga ega emasligi ham jamiyatda etnik begonalashuvni hamda har bir etnik qatlamning o'z qobig'iga o'ralib qolib, separatistlik kayfiyatlarning vujudga kelishiga olib kelmoqda¹⁷. Globallashuv jarayonlari tezlashib borishi, xalqaro mehnat taqsimoti hamda arab davlatlaridagi iqtisodiy islohotlarning salbiy oqibati o'laroq yuzaga kelgan jamiyatdagi tabaqalashuvning kuchayishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar musulmonlar tomonidan vesternizatsiya bilan bir qatorda G'arb majburlab tiqishtirayotgan yot hodisa sifatida noxush qabul qilinmoqda. Shu jihatdan ham diniy taassubning avj olishi – islom sivilizatsiyasining zamonaviy dunyoning chaqirig'iga javobi, deb baholovchi qarashlar ham vujudga kelgan. Dunyodagi talaygina musulmonlar islom dini va madaniyati, tarixiy an'analarining saqlanib qolishi jamiyat rivojining muhim sharti deb hisoblaydilar¹⁸. S.Xantington ham mashhur amerikalik dinshunos G.Veygelning: "XX asr yakuniga ko'ra desekulyarizatsiya – eng dominant ijtimoiy omilga aylandi", degan fikriga qo'shiladi. Shunga asosan, bunday holatda xalqlar milliy davlatga mansublikdan ko'ra, diniy identifikatsiyani ko'proq his eta boshlaydilar¹⁹.

Mana shunday chigal vaziyatda tariqatlar qaysidir ma'noda muhojirlarning o'z etnokonfessional identikliklarini saqlab qolgan holda g'arb jamiyatiga integratsiyalashuvida vositachilik va ruhiy-ma'naviy tasalli vazifasini o'tayotgani kuzatiladi.

Hozirda Yevropada tariqatlar o'z faoliyatlarini quyidagi shakllarda tashkil etgan: jamoaviy zikr guruhleri, Sharq davlatlaridagi

¹⁷ Плещунов О. Политика мультикультурализма в Великобритании и радикализация исламской молодежи страны. // Восток (Oriens) № 1, – Москва: Наука, 2009. – С. 100-103.

¹⁸ Долгов Б. Арабский мир в начале XXI века: между демократией и исламизмом. // (Oriens) № 5, – Москва: Наука, 2009. – С. 90.

¹⁹ Тихонравов Ю. Геополитика. – Москва: ЗАО. "Бизнес школа "Интел-Синтез", 1999. – С. 202-205.

mavjud tariqatlarning G'arbdagi bo'linmalari, umumiy tasavvufiy qonun-qoidalarga bo'ysungan holda yangicha targ'ibot usullaridan keng foydalanuvchi intellektuallashtirilgan to'garaklar ko'rinishida, Sharq madaniyati namunalari muxlislarini o'ziga jalb etuvchi "tasavvuf klublari" va boshqa madaniy muassasalar ko'rinishida. Yevropada eng keng tarqalgan tariqatlardan shoziliya, naqshbandiya, ne'matul-lohiya va tijoniyalarni keltirib o'tish mumkin.

G'arbda shakllangan tariqatlar o'z targ'ibot faoliyatlarida noan'anaviy uslublardan keng foydalanadilar, jumladan, dunyoviy universitetlarda ma'ruzalar o'qish, seminar va konferensiyalar tashkil etish, xayriya konsertlari uyushtirish bilan shug'ullanadilar, shu bilan birga, ular o'z nashrlari va teleradio tarmoqlari, internet saytlari, davriy matbuoti chiqarish, yoshlar targ'iboti uchun yozgi lagerlar uyushtirish, bog'cha, maktab va hatto mehribonlik uylari tashkil etish imkoniyatiga egadirlar.

Sotsialistik lagerning qulashi natijasida Sharqiy Yevropa davlatlarida ham tariqatlarning jonlanishi kuzatildi. Jumladan, Albaniyadan XX asrning 90-yillarida tarixan mashhur bo'lgan Bektoshiya tariqati "qayta tirildi". Mustafo Kamol Otaturk davrida Turkiyada, grek okkupantlari, keyinroq kommunistlar davrida tazyiqlarga uchrab, deyarli yo'q bo'lib ketish arafasida qolgan mazkur tariqat yana tiklandi²⁰. Shu bilan birga, XX asrda Sharq davlatlarida boshlangan sekulyarizatsiya jarayonlari hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Hatto dinga ham, din orqali tariqatlarga ham bu jarayonlar o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Sekulyarizatsiya ta'siri deyarli sezilmasdan, ammo muttasil ravishda davom etdi²¹.

3.Xalqaro Sufiylik tariqati. Hozirgi kunda musulmon dunyosi-ning deyarli barcha davlatlarida turli tasavvufiy tariqatlar faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin. Turkiya, Misr, Liviya, Jazoir, Tunis, Indoneziya, Malayziya, Iordaniya, Pokiston kabi davlatlarda mavjud tariqatlarning sanog'iga yetish qiyin. Shu bilan birga, ularning ko'pchiligi tasavvufning ilk sarchashmalaridan ancha uzoqlashib ketgani ko'zga tashlanadi. Xususan, Pokiston va Hindiston hududlarida tarqalgan tariqatlar buddaviylik, hinduiylik dinlari va

²⁰ Кныш А. Суфизм. – Москва: Диля, 2004. – С. 321.

²¹ Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе. / пер. С английского А.Ставиской. – Москва: Наука, 1989. – С. 135.

qadimgi hind falsafasidan bir qadar ta'sirlanganini ko'rish mumkin. Barlaviya, mehmandiya va boshqa qator tariqatlarda qadimgi hind falsafasidagi tanosux, ya'ni ruhning ko'chib yurishi g'oyasi keng o'rin olgan. Ular namoz yoki zikr vaqtida yuqoridan bir joyni bo'sh qo'yadilar va unga Muhammad payg'ambar ruhi kelib o'rnashadi, deb hisoblaydilar. Masjidlarining qibla tarafida esa o'z tariqatlarining asoschisi yoki pirlarining qabri joylashgan bo'lib, namozdan avval va keyin uni tavof qiladilar²².

Tasavvufga nisbatan ijobiy mavqeni egallagan Osiyo va Afrika davlatlarida tariqatlar globallashuv sharoitida o'z a'zolari sonini ko'paytirish yo'lida qo'llayotgan uslub va vositalar, shu qatorda, MDH davlatlarida va xususan, O'zbekistonda faollashuvi kuzatilgan tariqatlarning ba'zi holatlarda mintaqa uchun noan'anaviy bo'lgan amaliyot va g'oyalarni qo'llashi e'tiborni jalb eta boshladi.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, ba'zi musulmon davlatlarda tariqatlar zamonga moslashuvchanlik namunalarini ko'rsatib, jamiyatdagi yangi funksiyalarni o'z zimmalariga olishga harakat qilmoqda. Masalan, Indoneziyada ayrim tariqat dargohlarida sufiyona mashqlar, zikr va meditatsiya orqali giyohvandlik ta'siridan qutulish hamda ruhiy xastaliklardan davolanishni taklif qilinmoqda²³. Bu ham tashviqotning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Bugun tasavvuf tariqatlari Misr, Pokiston kabi davlatlarda hamon sezilarli ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida jamiyatda salmoqli "vazn"ga ega. Senegal, Sudan va yana boshqa arab o'lkalarida siyosiy partiyalar tegishli tariqatlarning manfaatlarini ifoda etishini ko'rish mumkin.

Afrika va Osiyodagi musulmon davlatlarda XX asrning 90-yillaridan boshlab tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi kuzatiladi. Bugungi murakkab sharoitda mintaqaning yetakchi davlatlari tasavvufga qaratayotgan e'tibor qo'shni davlatlarda ham aks-sado bermay qolmaydi. Zero, jiddiy o'zgarishlar bo'sag'asida turgan bu musulmon davlatlar uchun diniy asosdagi siyosiy jarayonlar katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda²⁴.

²² Yo'ldoshxo'jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2010. – B. 3-8.

²³ Кныш А. Суфизм. – Москва: Диля, 2004. – С. 332.

²⁴ Usmonov I. Globallashuv sharoitida zamonaviy tasavvufiy tariqatlar. // Davlat va jamiyat boshqaruvi. Toshkent: 2012. № 1.

Markaziy Osiyo respublikalarida diniy qadriyatlarning tiklana boshlashi “qayta qurish” davridayoq boshlangan va sovet islomshunoslari orasida aynan tasavvufga qiziqish orta boshlagan edi. Turli ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallarda ham ushbu mavzuga alohida e’tibor qaratilgan. Bu holat Sobiq Ittifoq hududida avj ola boshlagan “qayta islomlashuv” jarayonlarida yuz berayotgan edi²⁵. Mana shu ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar to‘lqinida MDH davlatlari va xossatan, O‘zbekistonda an’anaviy va noan’anaviy tariqatlar faoliyati ham kurtak yoza boshladi.

Globallashuv jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy jabhalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bunday sharoitda atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga hushyor va teran nazar bilan qarab, ularga o‘z vaqtida to‘g‘ri va xolisona baho bera olish davrning eng birlamchi va dolzarb talabiga aylanib bormoqda.

Neosufizm – hozirgi iqtisodiy globallashgan dunyoda transnatsional korporatsiyalar shaklida ish yurituvchi, tariqat xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan diniy-falsafiy oqimlarni vakillari faoliyatining umumlashgan nomidir. Transnatsional korporatsiyalar haqida so‘z ketar ekan, bu iqtisodiy atamaga qisqa bo‘lsa-da, tushuncha berib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Transnatsional korporatsiyalar deganda ishlab chiqarishni uzluksiz o‘stirish hamda integratsiyalashuv siyosati, firma, kompaniyalarning bir maqsadni ko‘zlab qo‘shilishi hisobiga paydo bo‘ladigan yirik iqtisodiy potensialga ega uyushma-korxonalar tushuniladi²⁶. Bunday korporatsiya bir necha o‘lkalarda sanoat birlashmalariga ega bo‘ladi. Boshqa manbalarga ko‘ra, xalqaro faoliyat asosiy ahamiyat kasb etadigan birlashmalar Transnatsional korporatsiyalar deya nomlanishi mumkin²⁷.

Nihoyatda katta pul aylanmasiga ega bo‘lgan bunday korporatsiyalar ixtisoslashuviga ko‘ra, sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq,

²⁵Бабаджанов. Б.М. Возрождение деятельности суфийских групп в Узбекистане. / Суфизм в центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912-1998). Сост. и отв. редактор А.А.Хисматулин. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПб ГУ, 2001. – С. 332.

²⁶ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. T. 8. – B. 585.

²⁷ Михайлушкин А. И., Шимко П. Д. Экономика транснациональной компании: Учеб. пособие для ВУЗов – Москва: Высшая школа экономики, 2005. – С. 24.

bank, sugʻurta va boshqa tarmoqlarda faoliyat olib borib, asosiy eʼtiborni qabul qiluvchi davlatlarda oʻz shoʻba-korxonalarini ochib, shu yoʻl bilan xalqaro maydonni egallash va oʻz mavqeyini xalqaro miqyosda mustahkamlab borishga qaratadi.

Globalashuv sharoitida iqtisodiy integratsiyalashuvning asosiy qiyofalaridan biriga aylanib borayotgan mazkur hodisaning aks-sadolari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi. Dunyoning turli chekkalarida yuzaga kelayotgan turfa xil inqiroz va tangliklar globalashuv jarayonlari natijasida jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarayotgani sir emas. Shu bilan birga, globalashuv dunyoni bir butun va yaxlit koʻrinishga keltira borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi oʻlaroq alohida millat va jamiyatlar hayotida oʻzlikni anglashga, oʻziga xoslikni saqlab qolishga boʻlgan intilishlar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa, kishilarni yana turli diniy jamiyatlarga va etnik jamoalarga birlashishga undamoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda diniy xarakterdagi turli guruh va maslaklar jahoniy darajada birlashtiruvchilik vazifasini bajarishga daʼvogar boʻlib chiqa boshladi. Bu harakatlar umumlashgan holatda “Yangi Davr” (“New Age”) dini deb nomlanib, aslida XX asr boshlarida, Gʻarbdagi teosofiya jamiyatlari taʼsirida yuzaga kelgan²⁸. Buning natijasida XX asrning koʻplab diniy-falsafiy oqimlarida oʻziga xos oʻzgarish va toyilishlar, diniy manzarada esa, kommersiylashishga moyilliklar koʻzga tashlana boshladi. Yaʼni boshqacha qilib aytganda, Gʻarbdagi ayrim diniy oqimlar – “Biz qavmimizga ruhiy osoyishtalik va taskin beramiz, ular esa, buning uchun bizga haq toʻlaydilar”, qabilida “yangicha yondashuv” bilan ish koʻra boshladilar²⁹. Diniy tashkilotlar hududiy chegaralanishni tan olmasligi jihatidan, ana shunday “yangicha yondashuv”ga ega boʻlgan ayrim diniy-falsafiy oqimlar tom maʼnoda xalqaro miqyosdagi Transnatsional diniy korporatsiyalarga aylanib bora boshladi.

Gʻarbdagi bu jarayonlar albatta u yerda oʻrnashib, oʻziga xos shakllarga kira boshlagan tasavvufiy doiralarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. XX asr oxirlariga kelib, tariqatlar oʻzlarining mintaqaviy xususiyatlarini yoʻqotib, tobora qamrovini kengaytirishga

²⁸ Qarang: Baer Randall N. Inside the New Age Nightmare. Nuntington House. 1989. – R. 47.

²⁹ Qarang: Dvorkin A.L. Sektovedeniye. Nijniy Novgorod, 2002 g. – S. 492.

boʻlgan urinishlar koʻzga tashlanmoqda. Bunda ular jahon dinlariga xos jihatlardan biri – “universalizm”ga murojaat qilib, kishilarni millatidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va hatto dinidan qatʼiy nazar oʻz tariqatlariga qabul qilishlari mumkinliklarini daʼvo qilmoqdalar. Albatta, buning natijasida tariqatning muxlislari tomonidan kelib tushadigan xayr-ehsonlarning koʻlami yanada kengayadi, tinglovchilar soni ham borgan sari koʻpayib boradi.

“Universalizm” islom, xristianlik, buddaviylik kabi jahon dinlariga xos tushuncha boʻlib, insonlarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼiy nazar najotga erishish imkoniyati mavjudligi hamda milliy va urugʻ-qabilaviy dinlardan farqli ravishda, butun bashariyat uchun moʻljallanganlikni ifoda etadi. Islomdagi tariqatlar yoki xristianlikdagi rohiblik ordenlari esa, mazkur dinlar tarkibida vujudga kelgan va taʼbir joiz boʻlsa, muayyan ijtimoiy doiralarning maslak va qarashlari asosida tarkib topgan jamoalar hisoblanadi. Garchi ularning baʼzilarida oʻta oʻziga xosliklar va diniy asoslardan uzoqlashuvlar kuzatilgan boʻlsada, tariqatlarning hech biri mustaqil diniy jamoa darajasida baholanmagan. Aftidan, “universalizm”ni daʼvo qilayotgan ayrim tariqatlar shu yoʻl orqali maqsadlariga toʻgʻri boʻlishi mumkin boʻlgan barcha diniy “toʻsiq”larni ham oshib oʻtib, chegara bilmas tashkilotlarga aylanishni moʻljallagan koʻrinadi.

Tariqatlarning Transnatsional uyushmalarga aylanib borishi haqida gap ketganda bir qator oʻziga xosliklar koʻzga tashlanishini yoddan chiqarmaslik zarur. Bu oʻrinda moliya-iqtisodiy manfaatlarga emas, balki mafkuraviy, ruhiy-maʼnaviy ustunlikka ega boʻlish uchun kurash jarayonlari ham maydonga chiqishi sir emas. Muayyan bir din (islom) vakillari oʻrtasida targʻibot-tashviqot olib borish tabiiy ravishda maʼlum cheklavlarga amal qilish, maʼlum chegaralar doirasida faoliyat yuritishni taqozo etadi. Buning ustiga, hozirda musulmon olamidagi tariqatlarning soni nihoyatda koʻpligini hisobga olsak, qaysidir maʼnoda ular orasida raqobat muhitining mavjudligi ham koʻzga tashlanadi. Chunki, har qanday tariqat ham hozirgi zamon kishisining “nega aynan shu tariqat?” degan savoliga joʻyali javob topib berishning imkonini topa olmasligi mumkin. Hozirda ayrim tariqatlarning nafaqat geografik, balki, dinlararo chegaralarni ham oshib oʻtishga harakat qilayotgani:

– bir tarafdin targʻibot qamrovini kengaytirish, aʼzolar sonini cheksiz miqdorlarga koʻpaytirish, jahoniy darajada nufuzga ega boʻlishga intilish deb baholansa;

– boshqa tarafdin, ularning oʻz muhitida, musulmonlar orasida yetarli nufuzga ega boʻla olmagan, anʼanadan chetga chiqmagan tariqatlar bilan raqobatlasha olish salohiyatiga ega emasligi sababidan ham oʻz tarafdorlarini boshqa din vakillari orasidan izlashiga olib kelgan, deyish mumkin. Bu esa, oʻz navbatida mazkur tariqatlarning anʼanaviy tasavvuf suluklari oldida bir qadar zaifligi, ular bilan bir saviyada turishga ojizligini koʻrsatadi;

– uchinchi tarafdin esa, moddiy manfaat, har qanday qulay vaziyatdan foyda undirib qolishga boʻlgan intilishning kuchliligi yaqqol koʻzga tashlanadigan bunday tariqatlarda, targʻibot uchun duch kelgan uslubdan tap tortmay foydalanish, oʻrni kelganda yolgʻon maʼlumotlar, vahima xabarlar tarqatish kabilarni ishga solinishi ularning anʼanaviy eʼtiqod vakillari tomonidan rad etilishiga olib kelgan.

Hozirda Yning koʻpgina hududlarida aʼzolar yigʻishda faollik koʻrsatayotgan tariqatlarning aksariyatida yuqorida keltirilgan tamoyillar ilgarilab ketayotgani qayd etilmoqda. Misol uchun mavlaviylarning musiqa va raqs joʻrligidagi yigʻinlari Yevropaliklar uchun oʻziga xos “sharqona ekzotika” boʻlib tuyulsa-da, shu yerdagi tariqat shoʻbalarining moliyaviy taʼminotini ham qoplash barobarida, musulmon boʻlmagan yerli aholiga vizual targʻibot vositasi vazifasini ham oʻtamoqda. Shu va boshqa yoʻllar bilan jamlangan tariqat muxlislarining aksariga islomni qabul qilmay turib ham sufiylik mashqlari va ruhiy-maʼnaviy koʻnikmalarini oʻzlashtirishi mumkinligi toʻgʻrisida qatʼiy ishonch singdirilmoqda. Rumiyning oʻzi esa, nomusulmon Yevropaliklar uchun Sharqdan kelgan navbatdagi “maʼnaviy rahnamo” – “guru” sifatida talqin etilmoqda³⁰. Bu holatlarni Gʻarbdagi boshqa bir qator tariqatlarda ham kuzatish mumkin.

Masalaning mohiyatini oydinlashtirish uchun mazkur iddaoni ilgari surayotgan tariqatlardan baʼzilarining faoliyatiga nazar tashlash kerak boʻladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yuqoridagi tamoyillarni oʻzlashtirishda ancha ilgarilab ketgan tariqat –Xalqaro

³⁰ Qarang: Uinter J. Timoti. XXI asrda islom. – Toshkent: “Sharq” NMAKBT, 2005. – B. 190.

Sufiylik Tariqati faoliyati va targʻibot uslublarini koʻrib chiqish yetarli boʻladi. Aynan mazkur tariqatning tanlab olinishining sababi – ularning rus tili orqali muloqot qilish imkoniga ega MDH davlatlari aholisi orasida ham targʻibot boshlaganidir. Targʻibotlar aksar holda jonli tarzda boʻlmay, koʻplab Internet saytlari orqali olib borilmoqda. Xalqaro Sufiylik Tariqati koʻproq mahalliy Yevropaliklarni (ruslar) oʻziga jalb etishni maqsad qilib qoʻygan deyish mumkin.

Umuman olganda, Gʻarbda bu kabi gʻayri odatiy-noanʻanaviy tariqatlar ancha rivojlangan boʻlib, asosan, XX asr boshlarida va oʻrtalarida Yevropa va AQSHda urf boʻlgan Sharq diniy-falsafiy taʼlimotlariga qiziqishning oshib ketishi va bu ishtiyoqning natijasi oʻlaroq, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan turli sharqona din vakillari Yevropaga yopirilib kirishi, yoga, meditatsiya va umuman, Sharq falsafasidan saboq beruvchi “guru” topishga qiziqayotgan Yevropaliklarga oʻzlarining “xizmatlarini” taklif qilishi bilan bir vaqtda yuzaga kelgan.

Gʻarbdagi turli sub-madaniyatlarning sinkretik sintezi natijasi boʻlgan – “New Age” eʼtiqodi bu kabi behisob “guru” va “pir”larning rahnamosi sifatida maydonga chiqdi. Sharqdan kirib kelgan har qanday noanʻanaviy diniy-falsafiy taʼlimotlar qisqa muddat ichida Yevropada katta shuhrat qozonib, toʻp-toʻp muxlislarga ega boʻlayotgan edi. XX asrning 70-80 yillarida Yevropa yoshlarining “yulduziga” aylanib ulgurgan koʻplab zamonaviy musiqa va kino sanʼatkorlarining maʼlum bir sharqona taʼlimotga kirishi yoki oʻz gurusiga egaligi bu jarayonni yanada ommalashib ketishiga sabab boʻldi³¹.

Mavzu boʻyicha savollar

- Tariqatlar globallasuv sharoitida targʻibotning qanday zamonaviy usullaridan foydalanmoqdalar?
- Yevropa davlatlarida tasavvufning tarqalishiga qanday omillar xizmat qilmoqda?
- Markaziy Osiyo davlatlaridagi islomlashuv jarayonlarida tariqatlarning oʻrni qanday?

³¹ Qarang: Дворкин А.Л. Сектоведение. Нижний Новгород: 2002. – С. 492.

- Global miqyosda faoliyat yuritayotgan tariqatlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Zikr marosimlarining turlari va mintaqaviy ko‘rinishlari

O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sufism and the modern in Islam. Martin Van Bruinessen, Julia Day Howell. – London-New York, I.B.Tauris, 2005.
2. Sufizm v Sentralnoy Azii (zarubejnye issledovaniya) – SPb.: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2001
3. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
4. Tasavvuf atamalari izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
5. Кныш А. Суфизм. – Москва: Диля, 2004. – С. 321.
6. Ali-zade A. Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Ansar, 2007.

3-MAVZU: TARIQATLARNING TRANSMILLIY UYUSHMALARGA AYLANIB BORISH TENDENSIYALARI

Reja:

1. Xalqaro sufiylik tariqatiga xos jihatlar.
2. Transnational korporatsiyalar faoliyati.
3. Universalizm g'oyasining asosiy mazmuni.

Tayanch iboralar: *axborot, transnatsional korporatsiyalar, teosofiya jamiyatlari, “yangicha yondashuv”, internet, chishtiya.*

1. Xalqaro sufiylik tariqatiga xos jihatlari. Bugungi kunda Transnatsional diniy korporatsiyalarga aylanib borayotgan tariqatlardan yana biri – Xalqaro Sufiylik Tariqati nomi bilan faoliyat yuritayotgan tariqat aslida G'arbga Chishtiya tariqatining kichik bir shahobchasi sifatida kirib kelgan edi. Bugungi kunda bu tariqat AQSH va Yevropada ancha mashhur bo'lib, MDH davlatlarida ham faollashuvi kuzatilmoqda. Xususan, tariqat asoschisining deyarli barcha asarlari rus tiliga tarjima qilinib, 1997-2000-yillar oralig'ida Moskvadagi “Sfera” nashriyotida chop etilgan. Kitoblarning elektron nusxalari Internet sahifalariga joylashtirilgan bo'lib, ba'zi veb saytlar faqat asarlarni onlayn tizimida o'qish uchun tuzilgan. Tariqatdagi tamoyillarning vujudga kelishi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun albatta, uning asoschisining hayot yo'li va tariqatning yaqin o'tmishdagi tarixi haqida ham ma'lumotga ega bo'lish lozim. Asoschining tarjimai holi uning psixologik qiyofasini, u orqali esa, tariqat, uning a'zolarining ruhiy holatini ochib berishda xizmat qilishi mumkin.

Tariqat asoschisi Inoyat Xon (ingl. Inayat Khan, urdu: عنایت خان) 1882-1927 oralig'ida yashab, ijod qilgan hindistonlik sufiy-faylasuf, musiqanavis bo'lib, Hindistonning Gujarot viloyati Vadadora shahrida zodagon musulmon oilasida tug'ilgan. Avvaliga Chishtiya tariqatiga mansub bo'lib, ushbu tariqatning Nizomiya shahobchasi shayxi Muhammad Abu Hoshim Madaniydan bag'ishlov olgan. Shu bilan birga, u Suhravardiya, Qodiriya, Naqshbandiya tariqatlariga ham kirgan. Uning silsilasi Abu Is'hoq Shomiydan (vaf. 940-y.) orqali chishtiya tariqati asoschisiga, undan Nosiriddin Chirog' Dehlaviyga (vaf. 1356-y.) borib taqaladi, deyiladi.

Inoyat Xon o‘z shayxining undovi bilan 1910-yilda avvaliga Yevropani, keyinroq sufiy pir sifatida uchala qit’ani sayohat qildi. Nihoyat Nyu-Mexikolik Ora Rey Beyker ismli ayolga uylangach, oilasi bilan Parij yaqinidagi Syurenda istiqomat qildi. U 1914-yili G‘arbda (London) sufiy tariqatiga asos solib, o‘zi shunday nomlagan “universal sufiylik”dan saboq berdi. U G‘arbga avvaliga, shimoliy-hindistonlik mumtoz musiqachi sifatida bordi, biroq tez orada sufiy tafakkuri va amaliyotini singdirishga o‘tdi. Keyinroq, 1923-yilda Londonda asos solingan sufiy tariqati tarqatib yuborilib, Shveysariya qonunlariga muvofiq tarzda, yangi “Xalqaro Sufiylik Harakati” (International Sufi Movement) tashkil etildi. 1922-yilda Niderlandiyaning Katveyk viloyatida yozgi ta’lim vaqtida o‘ziga xos “ruhiy tajriba”ni³² boshdan kechirdi. U shu zahotiyoq shogirdlariga meditatsiyaga kirishishni va o‘sha yerni muqaddas deb bilishni buyurdi. Bu yerda 1969-yili “Universal sufiy ibodatxonasi” (Universal Sufi Temple) qurildi. Inoyat Xon 1926-yilning oxirida Hindistonga qaytdi va u yerda o‘z qabrining o‘rnini tanladi. Bu Dehlidagi “Nizomiddin Dargoh” majmuasi bo‘lib, Chishtiya tariqati asoschisi Nizomiddin Avliyo (vaf.1325-y.) shu yerga dafn qilingan. Inoyat Xon tez orada – 1927-yilning 5-fevralida vafot etdi³³. Uning missiyasi – muhabbatga yo‘naltirilgan tavhid, mutanosiblik va go‘zallik tushunchalariga asoslanadi. Inoyat Xon harakatining sho‘balari Niderlandiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, AQSH, Kanada, Rossiya va Avstraliyada ham topiladi.

Inoyat Xonning qisqacha tarjimai holi shulardan iborat. Qolgan o‘rinlarda asosan uning musiqa san’atiga qo‘shgan hissasi va dunyo bo‘ylab qilgan safarlari zikr qilinadi. Faqat, shuni qo‘shimcha qilib o‘tish kerakki, Inoyat Xon 1913-yilda Rossiyaga tashrif buyurgan va yetti oy davomida konsert va ma’ruzalar qilib, ziyolilar bilan yaqin munosabatlar o‘rnatgan edi. Bu vaqt ichida u Rossiyada “Ruhning erkinligi haqida sufiyona noma” nomli asar chop etishga, “Sufiy tariqati”ning filialini ochishga ulguradi. Aytish joizki, Inoyat Xon

³² “Spiritual experience”, tariqat o‘z g‘oyalarni ifodalashda ko‘pincha g‘arbona iboralar ishlatgani sababli ba’zi o‘rinlarda nima nazarda tutilayotganini tushunish mushkil. Ehtimol, ekstaz yoki gallyutsinatsiya holatlari ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, buni tasavvufdagi “jazba” yoki “shatahot”ga qiyoslash mumkindir.

³³ http://en.wikipedia.org/wiki/Inayat_Khan

musiqa borasida anchagina iste'dodli bo'lib, rus san'at ahli bilan hamkorlikda balet ham sahnalashtirdi³⁴.

Inoyat Xonning o'limidan keyin uning vasiyatiga ko'ra tariqatga ikkinchi o'g'li Pir Viloyat Inoyat Xon (1916-2004) rahbarlik qilishi kerak edi. Otasi o'lganida u 10 yoshda bo'lib, faqat 1957-yilga kelib tariqatga rasmiy ravishda rahbarlik qila boshladi. Ungacha tariqatga Inoyat Xonning akasi boshchilik qilib, keyinchalik rahbarlik uning qarindoshlariga o'ta boshladi. Taxminan shu davrlardan boshlab tariqatda bo'linish yuzaga keldi. Pir Viloyat Inoyat Xon "Xalqaro Sufiy Tariqatiga" (Sufi Order International) asos solganini e'lon qildi. Faoliyatiga ko'ra esa, "Xalqaro Sufiylik Harakati" (International Sufi Movement) yoki "Universal sufiylik" (Universal Sufism) va "Xalqaro Sufiy Tariqati" (Sufi Order International) bitta tashkilot bo'lib, faqat avvalgisiga rahbarlik Inoyat Xonning qarindoshlari qo'lida qoldi, uning o'g'li Pir Viloyatga esa yangi tariqat tuzishdan boshqa chora qolmadi. Shunday qilib ikkala tashkilot parallel faoliyat yuritib kelaverdi. Faqat 1985-yilga kelib "Xalqaro Sufiylik Harakatiga" rahbarlik qilayotgan Murshid Fazal tariqatning rasman shahobchalarga bo'linganini e'lon qildi³⁵. Hozirda targ'ibot ishlarida faollik aynan Pir Viloyat Inoyat Xon asos solgan "Xalqaro Sufiy Tariqatiga" tegishli bo'lib turibdi.

Pir Viloyat Inoyat Xon ham musiqa sohasini puxta egalladi. 1950-yillarning boshlarida Meri Steni degan kelib chiqishi Yevropa-lik ayolga uylandi. Undan bir qizli bo'ldi. Keyinroq amerikalik Toj Inoyat Glans bilan erkin munosabatlaridan ikki o'g'il – Ziyo va Merlin tug'ildi. Pir Viloyat Inoyat Xonning "New Age" harakati yig'inlarida muntazam ishtirok etib borgani ma'lum³⁶. 2000-yilning fevralida Ziyo Inoyat Xonni o'zining o'rinbosari deb e'lon qildi va pirlikka tayinladi. Ziyo Inoyat Xon otasining vafotidan keyin, 2004-yildan boshlab tariqatga rahbarlik qilib kelmoqda. Pir Viloyat Inoyat Xon esa Dehliga, otasining yoniga dafn etildi. Tariqatning g'oyaviy asosi bo'lib Inoyat Xonning yozgan asarlari, ma'ruzalari va hikmatli so'zlari xizmat qilib kelmoqda.

³⁴ <http://ru.wikipedia.org/wiki/>

³⁵ http://en.wikipedia.org/wiki/International_Sufi_Movement

³⁶ Chittick W.C. Sufism. A Beginner's Guide. Oxford: Oneworld Publications, 2008. – P. 37.

Tariqat sufiylikning islomga daxli yoʻqligi haqidagi daʼvolarini oʻz ergashuvchilariga qanday tushuntirishi eʼtiborni tortsa kerak. Zotan, tariqatlar butun tarixi davomida oʻzining islomiy ildizlarga ega ekanini uqtirib kelgan. Har qaysi tariqat oʻz silsilasini Paygʻambarga taqashga harakat qilishi yoki bu ishni avvalroq amalga oshirgan biron tariqat silsilasiga borib ulash odati ham aynan shu maqsadlarni ifoda etib kelgan. Koʻpgina tariqat namoyandalari hozirda ham tasavvuf sof islomiy taʼlimot boʻlib, islomdan ilgari oʻtgan taʼlimotlarning asl tasavvufga taalluqli yeri yoʻq, deydilar. Inoyat Xon esa, bu fikrdan ancha yiroq. Aytib oʻtilganidek, uning bir qancha asarlari rus tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqqan. Ulardan birini koʻrib chiqsak. Kitob 1998-yili Moskvada, “Sfera” matbaasida chop etilgan. Kitobning nomi “Taʼlimot” (“учение”) boʻlib, oʻz nomiga koʻra tariqatning asosiy taʼlimotlariga bagʻishlangan asarlar toʻplamini tashkil etadi. Kitobning ilk sahifasidayoq quyidagi soʻzlarga koʻzingiz tushadi:

“Sufiylikning hech qachon ibtidosi (boshlangʻich nuqtasi) boʻlmagan va u hech qachon tarixiy hodisa sifatida yuzaga kelmagan. U har doim mavjud boʻlgan, chunki ziyo har doim insonning ichki mohiyati boʻlib kelgan. Bu nur oʻzining oliy roʻyobida Xudoning ilmi, ilohiy hikmat – sufiylik deb atalishi mumkin. Sufiylik har doim amalda boʻlgan, uning jarchilari esa, qalb kishilari edi. Shuning uchun ham, u murshid-asoschilarga va shu jumladan, boshqa hammaga tegishlidir.

Rivoyatda aytilishicha, birinchi paygʻambar Odam boʻlgan, yaʼniki, yer yuzidagi birinchi inson allaqachon donishmandlikka ega edi. Insoniyat ichra har doim donishmandlikka intiluvchi kishilar topilardi. Ular uzlatga chekingan ruhiyat kishilarini izlashar, ularga sadoqat bilan xizmat qilib, ulardan donishmandlikni oʻrganishar edi. Xudoning tanlangan bandalari nimani oʻrgatayotganini kamdan-kam kishi tushunishi mumkin edi, ammo ular shaxsiyatining ulugʻligi koʻpchilikni oʻziga jalb qilardi. Kishilar paygʻambarga: “Biz sen bilan borib, xizmatini qilamiz, senga ishonamiz va boshqalarga ergashmaymiz”, deyishar, avliyolar esa ularga: “Bolalarim, sizlarni duo qilamiz. Unday qiling, bunday bajaring. Hayotda mana bunday yashash kerak”, deb javob berar edilar. Shunday qilib insonlarga

kamtarlik va insoniylikni tarbiyalaydigan ahd va qonunlar berar edilar. Shu yo'sinda dinlar vujudga keldi³⁷".

Ko'rinib turibdiki, Inoyat Xon sufiylik allaqanday azaliy ilohiy ta'limot bo'lib, u barcha dinlardan oldin ham bor edi, payg'ambarlarning barchasi avvalo sufiy bo'lgan, boz ustiga dinlarning o'zi sufiylikdan kelib chiqqan, degan g'oyani ilgari suradi. Albatta, boshqacha g'oya bilan tariqatning an'anaviy dinlardan ustunligini tushuntirish qiyinchilik tug'dirardi. Shuning uchun mana shunday spekulativ usullar qo'llaniladi. E'tibor berilsa, matnda savol payg'ambarga berilgani holda javob "avliyolar"dan olinmoqda. Shu yo'sindagi noaniq savol-javoblardan allaqanday dinlar vujudga kelishi haqidagi rivoyatlar donishmandlikdan ko'ra ko'proq sodda-jo'n yoki e'tiborsiz fikrlash mahsuli deyilishi mumkin. Boshqa tarafdin payg'ambar va avliyo o'rtasidagi farqni atay oradan ko'tarib yuborish – o'zini valiy deb biluvchi murshidning maqomini muridlar o'rtasida payg'ambar darajasiga ko'tarib olishga qo'shimcha tirkak vazifasini o'taydi.

Inoyat Xonning ruhiy-ma'naviy erkinlikka alohida urg'u berishi ko'pgina g'arbliklarga uning sufiylik unvoni mohiyatiga ko'ra islom bilan bog'liq emasligini anglatdi. Garchi, uning izdoshlari zikr tushishda davom etsalar ham. Chishtiya pirlari va ba'zi tariqatlarda o'z ergashuvchilardan islomni talab qilmaslik odati mavjud. Biroq, XX asrgacha nomusulmon sufiylarning soni odatda nisbatan kam bo'lib kelgan³⁸.

Lekin "Xalqaro Sufiy Tariqati" faoliyatida buning mutlaqo teskarisi ko'zga tashlanadi. Rossiyaning zamonaviy dinshunoslik muammolariga bag'ishlangan Religio.ru saytining sharhlovchisi A.Galashina "Shimoliy Amerika Sufiy Tariqati" (tariqatning yana bir shahobchasi) bosh kotibi Hasan Suhravardiy Gebel bilan suhbatida tariqat a'zolari kontingenti to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun yetarli ma'lumotlar berilgan. Suhbatda tariqatning asosiy e'tiborni tortadigan jihatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, undan kelib chiqadigan xulosalar quyidagichadir:

– Xalqaro Sufiy Tariqati (Sufi Order International) a'zolari odatda, har biri alohida o'zlarini sufiy deb atamaydi. Ularga nisbatan

³⁷ Xazrat Inayyat Xan. Ucheniye sufiyev. Sbornik. – Moskva: "Sfera", 1998. http://www.futura.ru/hazrat/002_02_000.htm

³⁸ Ernst C., Lawrence B. Sufi Martyrs of Love. New York: Palgrave Macmillan, 2002. – R. 142.

“neosufiy” atamasi ham qo‘llaniladi, biroq ular bu atamani an‘ana-viylikdan og‘ish deb baholaydilar. Ular o‘zlarini Muinuddin Chishtiy va Nizomiddin Avliyo kabi Hindistonning ba‘zi ko‘zga ko‘ringan avliyolari bilan bog‘liq Chishtiya sufiylik tariqati davomchilari deb hisoblaydilar.

– Tariqat 70-yillarda “New Age” harakatining bir qismi sifatida faoliyat yurita boshlagan. Lekin, tariqatning o‘sha paytdagi yetakchisi Pir Viloyat “New Age” aksar yuzaki va o‘tkinchi shakllarni olayotganini his qilgani uchun asta-sekin tariqatni undan ajratadi. Tariqat vakillari avvaliga, “New Age” harakatining maqsadlari yuksak, u ulkan miqyoslarda kishilar ongini uyg‘otish imkoniyatiga ega edi, deb hisoblaydi.

– Tariqatga kirish uchun islom dinini qabul qilish shart emas. Bu holat – a‘zolari o‘z dinlariga ergashishlarini rag‘batlantirish an‘ana-viylikning bir qismi, deya talqin qilinadi. Dalil sifatida Hindistonga XI asrda sufiylikni olib kirgan Muinuddin Chishtiy hinduiylikka e‘tiqod qiluvchilardan islomga kirishlarini talab qilmasdan tariqatga qabul qilavergan, u esa ularni o‘z dinlari an‘anasida o‘rgatib, ularning gurusiga aylandi, degan fikrlar keltiriladi.

– Ibodatlarda Qur‘ondan foydalanish shart emas. Ibodat marosimlari “Universal Ibodat” deb nomlanib, unda barcha muqaddas kitoblar e‘tirof etiladi. Asosiy muqaddas kitob – Tabiat kitobi (atrof-muhit, tabiatning o‘zi) bo‘lib, u eshitishga sabri yetadigan har bir kishi bilan gaplashadi, deyiladi.

– Namoz o‘qish shart qilinmaydi. Tariqatning har bir a‘zosi o‘z an‘anasi bo‘yicha ibodat qilishi taqozo etiladi. Musulmonlar musulmoncha ibodat qilishadi. Shuningdek, har kuni bajariladigan maxsus vaqtlardagi ibodatlar ham bor.

– ovqatlanishda diniy taqiqlarga e‘tibor qilinmaydi. Har kim o‘z diniy qarashlaridan kelib chiqqan holda istagan narsasini yeyishi yoki yemasligi mumkin.

– Tariqatning AQSH va Kanadadagi ko‘plab markazlaridan tashqari Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya, Daniya, Norvegiya, Shveysariya, Avstriya, Litva, Gretsiya, Ispaniya, Rossiya, Pokiston, Malayziya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Chilida ham markazlari mavjud.

– Sufiy tariqati saralangan insonlar guruhi sifatida har doim kamchilikni tashkil qiladi. Boshqa tarafdin, Murojaat barcha insonlarga mo‘ljallangan. Tariqat iloji boricha ko‘proq tarafdorlarni zabt etishga intiladi. Ularning ishi – urug‘ sepish. Hosil – vaqti kelganida, kelajakda olinadi³⁹.

Ma‘lumotlarga ko‘ra tariqatning uchdan ikki qismidan ortig‘i musulmon bo‘lmagan a‘zolari tashkil etadi. Tariqat XX asrning yetmishinchi yillarida “New Age” harakati tarkibida bo‘lgani uning xarakteri qanday bo‘lishini oydinlashtirib turibdi. Yigirmadan ortiq davlatda o‘z markazlarini ochib, jo‘shqin faoliyat olib borayotgan tariqat faqat Afrika qit‘asidagina o‘z sho‘basini joylashtirmagan bo‘lib chiqmoqda. Balki, bu ham vaqt masalasi bo‘lib, transnatsional korporatsiya xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirib ulgurgan tariqat, bu qit‘aga ham ertami-kechmi o‘z ta‘sirini o‘tkazishga harakat qilishi tayin. Faqat, hozirda o‘z muammolariga o‘zi qorishib yotgan Afrika davlatlaridagi an‘anaviy tariqatlar bilan raqobatlashish “g‘arbona rivojlangan tariqat” uchun unchalik istiqbolli ko‘rinmayotgandir. Sho‘balar asosan iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan, ijtimoiy muammolari kam, Yevropalashgan jamiyatga ega davlatlarda ochilgani esa, buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. Albatta, tariqatga xos keskin g‘arblashgan “o‘ta bag‘rikenglik” xususiyati sharqona jamiyatlarning shakllangan mentalitetiga har doim ham mos tushavermasligini unutmash kerak. Nima bo‘lganda ham, tariqatning hozirgi erishgan natijalari – sezilarli darajada katta.

Shuni aytib o‘tish joizki, tariqat G‘arb mentalitetini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lib, o‘z faoliyatida ochiqdan-ochiq pul yig‘imlari, sayoz tashviqot hamda tovlamachilik usullarini qo‘llamaydi. U pragmatik G‘arb jamiyatining tinimsiz maishiy tashvishu g‘alvalaridan charchagan kishilari uchun o‘zining “ruhiy-ma‘naviy muvozanatga erishish”, dunyo tashvishlarini bir muddat bo‘lsa ham unutish borasidagi maslahatlarini va xizmatlarini taklif qiladi xolos. Bunda tariqat o‘z “mijoz”larining diniy mansubligining mutlaqo ahamiyati yo‘qligiga alohida urg‘u beradi va ularni diniylikdan “yuqori” darajada birlashtirishga harakat qiladi. Albatta, kapitalistik jamiyatda har qanday xizmat turi xizmat haqiga ega. Lekin diniy korporatsiya

³⁹ <http://religo.ru/journal/11824>

bu siyosatni ehtiyotkorlik bilan olib borishi kerak. Birinchi navbatda, “iste’molchi”larga tashkilot avvalo, ularga tegishli ekani, uni har taraflama, jumladan, moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash har bir a’zoning vijdoniy burchi ekani singdiriladi. Asta-sekin a’zolar tashkilotning manfaatlari o‘z manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanini “anglashganida” pul mablag‘lari o‘z-o‘zidan oqib kela boshlaydi. Umuman olganda, bu holat “New Age” fenomeniga tegishli barcha diniy harakatlarga xos tushunchadir. XX asrda vujudga kelgan yana bir sekta “Sayentologiya Cherkovi” asoschisi, sobiq fantast yozuvchi va psixolog Ron Xabbard o‘z vaqtida aytganidek, “Pul topishni istaysanmi? Diniy tashkilot och!” qabilida ish ko‘rish bunday oqimlarning asosiy shiori bo‘lib kelgan⁴⁰. Yuqorida aytilganlarning barchasi tariqatning “islomsiz tasavvuf” tamoyillarini to‘liq o‘zlashtirib, o‘zida har tomonlama namoyon qila olganini ko‘rsatadi.

Globalashuv – o‘tmishda qolgan yoki kelajakda yuz berishi kutilayotgan jarayon emas. Globalashuv bu – kechayotgan, har bir kishining hayotida o‘zi sezsa-sezmasada, e’tibor bersa-bermasada chuqur iz qoldirayotgan jarayondir. G‘arb davlatlarining chegarasiz erkin muhitida tariqatlarning faoliyati, jamiyat hayotiga ta’siri, sekulyarizatsiya jarayonlariga moslashuv ko‘rinishlari, ulardagi g‘oyaviy asoslarning o‘zgarishi va asliyatdan og‘ish jihatlari bugungi kun tadqiqotchilarining nigohidan chetda qolmagani maqsadga muvofiq. Nega deganda, globalashuv epkini tez fursatda G‘arbda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy hamda diniy va ruhiy-ma’naviy o‘zgarishlarni barcha keltirib chiqaruvchi oqibatlari bilan birgalikda butun dunyoga yoyib yuborishi mumkinligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanib bo‘ldi.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish lozimki, bir qarashdayoq kelib chiqadigan barcha xavf-xatarlarni to‘lig‘icha anglab olish o‘ta qiyin bo‘lgan globalashuv sharoitida hushyorlikni yo‘qotmaslik tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, buzg‘unchi uydirma g‘oyalar, soxta aqidalar bilan qurollanib, kishilarning diniy e’tiqodi va qadriyatlaridan o‘zlarining tor doiradagi maqsad-manfaatlari yo‘lida foydalanib qolmoqchi bo‘lgan taraflar, guruhlar va kimsalar borligini esdan chiqarmaslik hozirgi tahlikali zamonning

⁴⁰ Qarang: Dvorkin A.L. Sektovedeniye. Nijniy Novgorod: 2002. – S. 137.

eng asosiy talabidir. Shu jihatdan ham jahondagi diniy jarayonlarni o'rganish bilan bir qatorda zamonaviy tasavvuf va tariqatlar faoliyatini o'rganishning ahamiyati kundan-kunga oshib borishi shubhasiz. Zero, hozirda jahon hamjamiyatidagi siyosiy, ijtimoiy-madaniy globallashuv bilan bir qatorda g'oyaviy ta'sir targ'ibot va tashviqot bilan bog'liq mafkuraviy globallashuv ham keng quloch yozmoqda. Bu hodisalarda din bilan bog'liq jarayonlar ham o'z ta'siriga ega bo'lishi muqarrar, degan xulosani aytishga yetarli asoslar bor.

2. Transnational korporatsiyalar faoliyati. Jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, tezkor va shiddatli zamonamizda globallashuv jarayoni hayotga o'z ta'sirini sezilarli darajada o'tkaza boshladi. Bugunga kelib, insoniyat masofalar va chegaralar faqat moddiy to'siqlar vazifasinigina bajara oladigan, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan yer kurrasi kichik bir shaharcha qiyofasini ola boshlagan davrni boshdan kechirayotir. Dunyoning qay bir nuqtasida paydo bo'lgan yangilik, xoh u mafkuraviy, ilmiy-ma'rifiy, xoh iqtisodiy yoki ijtimoiy-siyosiy jabhaga oid bo'lsin, qisqa muddat ichida jahoniylik kasb etib, axborot tarzida butun olamga tarqab ulgurmoqda. "Shu ma'noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir¹".

Transnatsional korporatsiyalar haqida so'z ketar ekan, bu iqtisodiy atamaga qisqa bo'lsa-da tushuncha berib o'tish o'rinli bo'ladi. Transnatsional korporatsiyalar deganda ishlab chiqarishni uzluksiz o'stirish hamda integratsiyalashuv siyosati, firma, kompaniyalarning bir maqsadni ko'zlab qo'shilishi hisobiga paydo bo'ladigan yirik iqtisodiy potensialga ega uyushma-korxonalar tushuniladi. Bunday korporatsiya bir necha o'lkalarda sanoat birlashmalariga ega bo'ladi. Boshqa manbalarga ko'ra, xalqaro faoliyat asosiy ahamiyat kasb etadigan birlashmalar transnatsional korporatsiyalar, deya nomlanishi mumkin. Nihoyatda katta pul aylanmasiga ega bo'lgan bunday korporatsiyalar ixtisoslashuviga ko'ra, sanoat, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq, bank, sug'urta va boshqa tarmoqlarda faoliyat olib borib, asosiy e'tiborni qabul qiluvchi davlatlarda o'z sho'ba-korxonalarini ochib, shu yo'l bilan xalqaro maydonni egallash va o'z mavqeyini xalqaro miqyosda mustahkamlab borishga qaratadi.

Globallashuv sharoitida iqtisodiy integratsiyalashuvning asosiy qiyofalaridan biriga aylanib borayotgan mazkur hodisaning aksadolari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Dunyoning turli chekkalarida yuzaga kelayotgan turfa xil inqiroz va tangliklar globallashuv jarayonlari natijasida jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarayotgani sir emas. Shu bilan birga, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit ko'rinishga keltira borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi o'laroq alohida millat va jamiyatlar hayotida o'zlikni anglashga, o'ziga xoslikni saqlab qolishga bo'lgan intilishlar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa, kishilarni yana turli diniy jamiyatlarga va etnik jamoalarga birlashishga undamoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda diniy xarakterdagi turli guruh va maslaklar jahoniy darajada birlashtiruvchilik vazifasini bajarishga da'vogar bo'lib chiqa boshladi. Bu harakatlar umumlashgan holatda "Yangi Davr" ("New Age") dini deb nomlanib, aslida XX asr boshlarida, G'arbdagi teosofiya jamiyatlari ta'sirida yuzaga kelgan. Buning natijasida XX asrning ko'plab diniy-falsafiy oqimlarida o'ziga xos o'zgarish va toyilishlar diniy manzarada esa, kommersiyalashishga moyilliklar ko'zga tashlana boshladi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, G'arbdagi ayrim diniy oqimlar – "Biz qavmimizga ruhiy osoyishtalik va taskin beramiz, ular esa, buning uchun bizga haq to'laydilar", qabilida "yangicha yondashuv" bilan ish ko'ra boshladilar. Diniy tashkilotlar hududiy chegaralanishni tan olmasligi jihatidan, ana shunday "yangicha yondashuv"ga ega bo'lgan ayrim diniy-falsafiy oqimlar tom ma'noda xalqaro miqyosdagi transnatsional diniy korporatsiyalarga aylanib bora boshladi.

G'arbdagi bu jarayonlar, albatta, u yerda o'rnashib, o'ziga xos shakllarga kira boshlagan tasavvufiy doiralarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. XX asr oxirlariga kelib, tariqatlar o'zlarining mintaqaviy xususiyatlarini yo'qotib, tobora qamrovini kengaytirishga bo'lgan urinishlar ko'zga tashlana boshladi. Bunda ular jahon dinlariga xos jihatlardan biri – "universalizm"ga murojaat qilib, kishilarni millatidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va hatto dinidan qat'iy nazar o'z tariqatlariga qabul qilishlari mumkinliklarini da'vo qilmoqdalar. Albatta, buning natijasida tariqatning muxlislari tomonidan

kelib tushadigan xayr-ehsonlarning ko‘lami yanada kengayadi, tinglovchilar soni ham borgan sari ko‘payib boradi.

3. Universalizm g‘oyasining asosiy mazmuni. “Universalizm” islom, xristianlik, buddaviylik kabi jahon dinlariga xos tushuncha bo‘lib, insonlarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘iy nazar najotga erishish imkoniyati mavjudligi hamda milliy va urug‘-qabilaviy dinlardan farqli ravishda, butun bashariyat uchun mo‘ljallanganlikni ifoda etadi. Islomdagi tariqatlar yoki xristianlikdagi rohiblik ordenlari esa, mazkur dinlar tarkibida vujudga kelgan va ta’bir joiz bo‘lsa, muayyan ijtimoiy doiralarning maslak va qarashlari asosida tarkib topgan jamoalar hisoblanadi. Garchi ularning ba’zilarida o‘ta o‘ziga xosliklar va diniy asoslardan uzoqlashuvlar kuzatilgan bo‘lsa-da, tariqatlarning hech biri mustaqil diniy jamoa darajasida baholanmagan. Aftidan, “universalizm”ni da’vo qilayotgan ayrim tariqatlar shu yo‘l orqali maqsadlariga to‘g‘onoq bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha diniy “to‘siq”larni ham oshib o‘tib, chegara bilmas tashkilotlarga aylanishni mo‘ljallagan ko‘rinadi. Tariqatlarning transnatsional uyushmalarga aylanib borishi haqida gap ketganda bir qator o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanishini yoddan chiqarmaslik zarur. Bu o‘rinda moliya-iqtisodiy manfaatlarga emas, balki mafkuraviy, ruhiy-ma’naviy ustunlikka ega bo‘lish uchun kurash jarayonlari ham maydonga chiqishi sir emas. Muayyan bir din (islom) vakillari o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot olib borish tabiiy ravishda ma’lum cheklovlarga amal qilish, ma’lum chegaralar doirasida faoliyat yuritishni taqozo etadi. Buning ustiga, hozirda musulmon olamidagi tariqatlarning soni nihoyatda ko‘pligini hisobga olsak, qaysidir ma’noda ular orasida raqobat muhitining mavjudligi ham ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda tasavvufga nisbatan yangicha yondashuvlar paydo bo‘la boshladi. Eng e’tiborli jihati bu qarashlar ta’sirida o‘zini tasavvufiy tariqat deb atovchi jamoalar ham shakllanmoqda. Bular orasida naqshbandiya haqqoniya yo‘nalishini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Kiprlik Nozim Haqqoniy ushbu guruhga asos solgan bo‘lib, ba’zan uning tarafdorlari rabboniylar nomi bilan ham atalgan⁴¹.

⁴¹ Цибенко В.В. Накшбандийский тарикат хакканийа (раббанийа) и неоосманский проект шейха Назима Киприотского / Ислам и суфизм. Исламоведение 2014. № 4. –С.94.

Mavzu bo'yicha savollar

- Tariqatlar globallashtirish sharoitida targ'ibotning qanday zamonaviy usullaridan foydalanmoqdalar?
- Yevropa davlatlarida tasavvufning tarqalishiga qanday omillar xizmat qilmoqda?
- Markaziy Osiyo davlatlaridagi islomlashuv jarayonlarida tariqatlarning o'rni qanday?
- Global miqyosda faoliyat yuritayotgan tariqatlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tariqatlarning umumiy va farqli jihatlari

O'tilgan mavzuni o'zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды / Отв. ред. А.Н.Болдырев, Сост. М.Н.О.Османов. - Москва: Наука, 1965.

1.al-Kalobodiy, Abu Bakr Muhammad. at-Taarruf li-mazhabi ahl at-tasavvuf. Dor Sodik, 2005.

2.2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

3.3. Jo'zjoniy A. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001.

4.4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqol, 1999.

5.Кныш А. Мусульманский мистицизм. – Москва: Диля, 2004.

Tasavvuf atamallari izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.

4-MAVZU. NEOSUFIZM TUSHUNCHASI

Reja:

1. Yevropada tariqatlar faoliyati.
2. Neosufizm atamasi va uning o'ziga xosligi.
3. G'arb tasavvufiga xos jihatlar.

Tayanch iboralar: *o'tish davri, xirqa, neofit-Yevropaliklar, neosufist, "vahdat al vujud" ta'limoti.*

1. Yevropada tariqatlar faoliyati. Yevropa hududlarida tariqatlar faoliyati ilk marotaba XIX asrning oxirlarida yuzaga kela boshlagan deydi ukrainalik mutaxassis Oleg Yarosh. Uning fikriga ko'ra birinchi bo'lib Yevropaning Buyuk Britaniya va Fransiya shaharlarida tariqat jamoalari yuzaga kela boshlagani kuzatilgan⁴².

Bugungi kunda Yevropa hududlarida keng tarqalgan tariqatlar sirasiga qodiriylik va naqshbandiylikning haqqoniy yo'nalishini kiritish mumkin. Umuman olganda, G'arbda so'fiylikning birinchi to'ldirini XX asrning birinchi uchdan birida sodir bo'lib, an'anachilar harakati bilan bog'liq edi. Bu Rene Guenon, Mishel Valsan va boshqalar bilan ifodalangan juda tor doiradir. Bunga parallel ravishda G'arbda yana bir yo'nalish tarqaldi, bu Inoyatxonning missiyasi bilan ifodalangan. Uning ba'zi fikrlari noodatiy talqin egaligi sababli sof islomiy chegaradan tashqariga chiqish sifatida baholangan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, 50-80-yillarda Titus Burkhart va Martin Lings kabi an'anaviylik harakati vakillari faoliyati keng tarqaldi. Shuningdek, bu muhitda Mayramiya va Murabitun G'arb tariqatlari paydo bo'ldi. Hozirga kelib esa Inoyatxonning jamoasi faol rivojlanmoqda. Germaniyada birinchi G'arb ko'rinishidagi jamoalar 70-yillarning oxirida paydo bo'lgan va yana an'anaviylik bilan bog'langan.

Garchi o'sha paytda Germaniyada ochilayotgan sufiylik markazlarga tadqiqotchilar aytganidek, muqim bo'lmagan shayxlar kelgan. Shayx Nozim al-Qudrisiy va boshqalar kabi. O'shandan beri immigratsiya tufayli Germaniyada so'fiylik Yevropada o'zini ochiq

⁴² ОЛЕГ ЯРОШ. ВСЕ БОЛЬШЕ ЛЮДЕЙ ИСПЫТЫВАЮТ ПОТРЕБНОСТЬ ЗНАКОМСТВА С МУСУЛЬМАНСКОЙ ТРАДИЦИЕЙ // <https://islam.in.ua/ru>

namoyon qildi. Ma'lumki, oltmishinchi yillarda Germaniya sanoatni rivojlantirish maqsadida Turkiya, Tunis, Marokash kabi davlatlar bilan immigratsiya shartnomalari tuzib, musulmon aholining o'z mamlakatlariga ommaviy kirishini ta'minladi. Albatta, Usmonli va Usmonlilardan keyingi davrlarda keng tarqalgan o'ziga xos so'fiylik an'analarini olib kelgan musulmonlar ham keldi.

Berlin, biz bilganimizdek, 1989 yilgacha bo'lingan edi. Sharqiy qismida asosan Jazoir, Afg'oniston va sotsialistik lagerga aloqador boshqa mamlakatlardan kelgan musulmonlar yashar edi va ularning soni kam edi. G'arbiy Berlinda esa asosan Turkiyadan kelgan 120 ming musulmon muhojir bor edi. Berlin qayta birlashtirilgandan so'ng, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lganda, immigratsiya avjiga chiqishni boshlandi. 1990-yildan 2011-yilgacha musulmonlar soni ikki baravardan oshgan. Hozir ularning deyarli 250 mingtasi bor. Ularning 73 foizi turk millatiga mansub, 80 mingga yaqini fuqarolikka ega, qolganlari vaqtinchalik maqomga ega.

Yevropadagi so'fiy jamoalariga kelsak, eng keng tarqalganini Sulmajala harakati deb hisoblash mumkin. Bu klassik so'fiy jamoasi emas, lekin u haqiqatan ham bu hududda keng tarqalgan, Germaniyada 100 mingga yaqin tarafdorga ega. Qolganlari Naqshbandiya-rabboniya kabi 50 dan 100 kishigacha bo'lgan kichik sonli jamoalardir. Bular Shayx Nozimning izdoshlari bo'lib, hozir uning o'g'li bu tariqatga boshchilik qilmoqda. Sudan va kurd filiallari mavjud. Bu jamoalar aralash madaniy amaliyotlar mavjud bo'lgan gibril sifatida tavsiflanishi mumkin, chunki ularning muhim qismini islomni qabul qilgan Yevropaliklar tashkil qiladi.

Naqshbandiya-haqqoniya jamoasida nafaqat musulmon bo'lganlar balki musulmonlarga xayrixohlar ham borligi juda qiziq. Shayx Nozimga o'xshagan yetakchilar a'zolarga nisbatan qat'iy shart qo'ymagan, bay'at ham talab qilmagan. Islomni rasman qabul qilmasdan turib, zikr va boshqa amallarga qo'shilish mumkin deb hisoblagan. Qizig'i shundaki, bu odamlar hatto zikr amaliyotini ham bajaradilar. Bu esa biroz g'ayrioddiy amaliyot bo'lib, kishini hayron qoldirmay qo'ymaydi.

Ammo masalaning yana bir ahamiyatli jihati mavjud. Ko'pgina nemis muridlari o'zlarining musulmonligini yashiradilar. Ular

oilalarining salbiy munosabatidan qo'rqishadi, ammo Germaniya diniy an'anaviy mamlakat bo'lib qolmoqda, ayniqsa katoliklar orasida, masalan, Bavariya yoki Kyolnda. Ba'zilar ishda muammolar paydo bo'lishidan qo'rqishadi. Lekin islom dinini yashirmaganlar ham ko'p, ayniqsa ayollar orasida.

Yevropadagi yana bir sufiy jamoa – Burxoniya tariqati. Burxoniya tariqati shayxi Xartumdan ko'chib o'tgan va Gamburg yaqinida doimiy yashasa ham sudanliklar juda ozchilikni tashkil qiladi. Ular shaxsiy hayotlarida faqat marosimlarda emas, balki Islomning barcha qoidalariga amal qiladilar. Ular arab tilini o'rganishga, asl matn va Qur'onni, shayxlarning aksariyati tarjima qilinmagan asarlarini o'qishga harakat qilmoqda. Ular nafaqat an'anaviy, balki Yevropaliklarga xos bo'lgan integratsiyalashgan juda qiziqarli shakllarni qo'llashadi.

Yaroshning fikriga ko'ra vaqt o'tib yaqin kunlarda nemislar o'z madaniyati va an'alariga mos tariqat turlarini shakllantirishiga shubha yo'q. Ammo katta ehtimol bilan shuni alohida ta'kidlash zarur-ki, Yevropa tariqatlari yoki klassik islom urfini o'zlashtiradi yoki erkit faoliyat asosida mentalitetga xos ko'rinishda faoliyat olib boradi.

2. Neosufizm atamasi va uning o'ziga xosligi. Yevropaliklarning dastlab tasavvuf g'oyalari bilan qiziqishlari umume'tirof etilganidek O'rta asrlarga o'tish davridan boshlanadi. Zohida ayol Robiya al-Adaviya (vaf. 801 y.), misrlik zohid Ibn al-Farid (vaf. 1235 y.), fors adabiyotining klassik vakillari Sa'diy Sheroziy (vaf. 1292 y.) va Hofiz (vaf. 1390 y.)larning she'riy uslubda sayqallangan tasavvufiy qarashlar aks etgan ijod namunalari Yevropada katta mashhurlikka erishdi. Ikki madaniyatning tibbiyot, falakkiyot, matematika, falsafa kabi ilm va fanning turli sohalarida o'zaro ta'siri mavjudligiga ko'plab misollar bor. Shunga qarmasdan Sharq va G'arb o'zaro aloqalarining keyingi xarakteri Uyg'onish davridan ilmiy, texnologik, pirovardida madaniy sohalarida ham Yevropaliklarda oldinga siljish holati kuzatildi. Mustamlakachilik davrida Yevropa uchun musulmon olami qiziqish markaziga aylandi. XX asrning boshlarida Yevropalik sayohatchilar va izlanuvchilar tomonidan tasvirga olingan yamoq xirqa kiygan, turli ko'rinishdagi musulmon darveshlari, qalandarlarining fotosuratlarini vujudga kela

boshladi. Yevropaliklar uchun bu suratlar Xofiz o‘z she’rlarida tasvirlagan xarobotlarda istiqomat qiluvchi zohid va rindlarning ayni ko‘rinishi edi. “Etnografik ekzotika”ning bu ko‘rinishi musulmon tasavvufining g‘arb tushunchasidagi elementlari edi.

Taxminan shu davrdan boshlab, dastlabki neofit-Yevropaliklar tomonidan sufiylarning xirqalarini qo‘llash amaliyoti paydo bo‘la boshladi. Birinchilardan bo‘lib ayollar ushbu amaliyotni qo‘llab ko‘rishga muvaffaq bo‘ldilar. Aljirda ishlagan va fransuz armiyasiga qarshi kurashlarda arablar tomonida turib harbiy amaliyotlarda ishtirok etgan jurnalist va tadqiqotchi Izabel Eberxardt (Isabelle Eberhardt, 1877–1904) shular jumlasidandir. 23 yoshida suluk yo‘liga o‘tib, Tunisdagi qodiriya tariqati a‘zosi bo‘ldi. Ushbu davrda Yevropaliklarga katta ta’sir o‘tkazgan shaxs Iogann Gustav Ageli (Johann Gustaf Agelii, 1869–1917) edi. 1889-yilda o‘ziga Ivan Aguelli nomini bergan. 1903-yilda yosh italyan shifokori Enriko Ensabato bilan birga Misrga tashrif buyuradi. U yerda shoziliya tariqati yetakchisi Abdurahmon Kabir bilan tanishadi. Uning ta’siri natijasida islomni qabul qilib, tariqat vakiliga aylanadi. Shu vaqtda unga Abdulhodiy Mag‘ribiy ismi beriladi. Bu nom ostida tasavvuf bilan bog‘liq ko‘plab gazeta maqolalari va kitob nashrlarni amalga oshiradi. U asosiy e’tiborini Ibn Arabiyning ijodini o‘rganishga qaratgan. U 1911 yilda Parijga qaytib keladi va akbariya tariqatiga asos solishga muvaffaq bo‘ldi. Ma’lumki, Ibn Arabiylga nisbatan “Shayxul akbar” kunyasi qo‘llanilgani Mag‘ribiyga katta ta’sir qilgan.

Ammo XX asr boshlarida G‘arbda tasavvuf amaliyoti yetarli darajada ekzotik tashkilot bo‘lib qoldi. Yevropa jamiyatida har doimgidan ham sezilarli darajada rezonans kuzatildi. Xuddi shu davrda ko‘plab kishilar orasida Aguellining qarashlari ta’sirida islomni qabul qilish jarayoni ro‘y berdi. Bu davrda musulmon olamida g‘arb g‘oyalari ta’siri ostida modernizatsiya jarayonlari jonlandi. Zamon ruhiga mos ravishda yangilanish g‘oyalari sufiylik muhitiga ham sezilarli ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Klassik sufiylik an’analarini qayta ko‘rib chiqish kerak degan fikrlar ham bugungi kunda eshitilib turibdi.

Hozirda ilmiy adabiyotlar qo‘llanilib kelayotgan “neosufizm” atamasi birinchi marotaba Fazl Rahmon tomonidan qo‘llanilgan. F.Rahmonning ishida keltirilishicha dastlabki neosufiylar tradisionalist

(ahli hadis)lardan ta'sirlanganlar. Aqniqsa Ibn Taymiya (vaf.1328 y.) va uning shogirdi Ibn Javziy (vaf. 1350 y.) qarashlaridan foydalganlar. Ularga ko'ra, tasavvuf o'zining asosiy jozibasi va metafizik xususiyatini yo'qotgan. "Neosufist"larning asosiy g'oyasi tasavvuf amaliyotini individga tegishli deb cheklanib qolmaslik balki "musulmon jamiyatini ijtimoiy va ruhiy tiklash"ga qaratilgani bilan belgilanadi. Neosufistlarning o'ziga xos jihatlari F.Rahmon va boshqa mualliflar fikriga ko'ra bir qancha an'analardan voz kechish sanaladi. Voz kechilgan amaliyotlar ichida eng mashhurlari: samo, jahriy zikr, avliyolarga ta'zim qilish taqiqlash, ziyoratgohlarga borishni cheklash, Ibn Arabiyning "vahdat al vujud" ta'limotini rad etish, ayrim sufiylar qo'llaydigan jam' va fano tushunchalarini tark etish va boshq.

Bugungi kunda neosufizm masalasi sharqshunoslar tomonidan salbiy nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Sababi "Neosufist" ta'rifini turlicha ta'riflarga sabab bo'layotganida. Ushbu mavzuda bir necha maqola yozgan sharqshunoslar ham mavjud. R. S. O'Fei va B. Radtke hammualliflikda "Neosufizmga yangicha qarash" nomli maqolasini yozganlar. An'anaviy sharqshunoslikda asosiy e'tibor tasavvufning falsafiy jihatlari o'rganishga, o'rta asr mutasavviflarining nazariy qarashlarini tahlil qilishga va bu boradagi taxminlarni izohlashga ahamiyat qaratiladi. Klassik tasavvuf manbalarida esa aksar sufiylik amaliyoti (zikr, samo, ziyorat, tariqat) bilan bog'liq ma'lumotlar aks etadi. Neosufistlar uchun yuqoridagi masalalar orasida eng muammolisi "Xatmul avliyo"dir. Garchi bu mavzu Hakim Termiziy asarlarida atroflicha yoritilgan va unga bir qancha munosabatlar bildirilganiga qaramasdan haligacha bir to'xtamga kelinmagani neosufistlar uchun ochiqlicha qolmoqda. Sababi ular avliyolarga ehtirom va valiylik borasida bir qolipga tushib qolishni istamaydilar. Xattoki inkor qiladilar.

Ayrim tadqiqotchilar "neosufizm" tushunchasini "o'zgartirilgan sufizm" deb ham atamoqdalar. Chuni islom an'alaridan ko'ra ko'proq Garb izoterizmiga mos keladi deb baholaydilar⁴³. Ular G'arb ommaviy madaniyati sohasida islom tasavvufiy ta'limotlariga bo'lgan qiziqish XX asr o'rtalari - ikkinchi yarmida kuchayishi

⁴³ Sedgwick M. Against the Modern World. P. 217

sharqona ma'naviy an'analarga qiziqish va yoshlar submadaniyatlarining paydo bo'lishi foni ostida paydo bo'lgan degan fikrni ilgari surmoqdalar. Neosufizm tarafdorlari nafaqat islom an'analari inkor qilishga balki G'arb qadriyatlarini ham pisand qilmaslikka harakat qiladilar.

Dastavval Hindistonda yashagan, musulmon oilasida tug'ilgan o'z davrining chishtiyluk tariqati shayxi sanalgan Xazrat Inoyatxon birinchi bo'lib neosufizm qarashlariga asos soldi. U yoshligidan diniy bilim olishga qiziqib kelgan. Shu bois veda dinlari matnlarini o'qish, musulmon olimlarining risolalari bilan tanishish va xristian manbalarini o'rganishga qiziqqan. Uzoq davom etgan ruhiy ehtiyoj Inoyatxon tasavvuf olamiga olib kirdi. Uning fikriga ko'ra tasavvufda boshqa dinlarga qaraganda ko'proq erkinlikni his qilgan. Shu tarzda sufiyluk yo'lini tanlab, shayxi said Muhammad Madaniy boshchiligidagi chishtiya tariqatining tartib va qoidalarini o'rgana boshladi. Mazkur davrda unda tasavvufga universallik g'oyasini kiritish va uni G'arb olamida kengroq yoyish fikri uyg'ondi.

Inoyatxonning fikriga ko'ra, neosufizm o'ziga xos ruhiy hodisa bo'lib, diniy va milliy jihatdan chegaralanmagan. Uning fikriga ko'ra, har bir dinda haqiqat bor. Haqiqat esa Xudodir deb ta'kidlaydi. Sufiy aniq bir dinga e'tiqod qilishi shart emas degan fikrga tayanib, yangi bir yo'nalishga asos soldi. Inoyatxon Xudoni inson va dunyoning yaratuvchisi hamda Mutlaq deb ataydi. Neosufiylukda Xudo barchani birlashtiruvchi yagona yig'indi deb ataladi. Bu kabi qarashlar klassik tasavvuf g'oyalariga zid ekanligi ko'rinib turibdi. Bundan tashqari Inoyatxon inson ruhi o'lmaydi va jism o'lgach ruhi qayta tiriladi deb ishonadi. U ruhning qayta tirilishi masalasini xristianlikdagi aqidaga ko'ra tushuntirishga urinadi.

G'arb yoshlari orasida XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran diniylukka qiziquvchanlik foni ortib bordi. 1950-1960 yillar oxirida paydo bo'lgan ezoterik va boshqa shu kabi yo'nalishdagi ko'plab guruhlar va oqimlar "New Age" umumiy nomini oldilar.

G'arb tasavvufiga xos jihatlar. G'arb dunyosida so'fiylukka munosabatni yagona qarash bilan ifodalab bo'lmaydi. Ya'ni aniq bir shaklga ega deb ayto olmaymiz. Lekin G'arbda sharqshunoslik va mistitsizm yo'nalishi qarashlarning ikkita asosiy ustuni sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Bu ikki asos bir-biridan ba'zan uzoqlashib,

ba'zan esa chambarchas bog'langanini ko'rish mumkin. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu ikkita tomir bu ular orasidagi munosabatlarni ko'rish uchun mo'ljallangan. G'arbda tasavvufni oriyentalistik nuqtai nazardan o'rganish amaliyoti keng tarqalgan.

G'arbning tasavvufga munosabati islom olamini ham o'ziga jalb etib kelmoqda. Chunki XX asrdan keyingi davrda Yevropada tasavvufga oid asarlar bilan tanishuv holati yuz bera boshladi. Tasavvufga qiziqish ko'plab arab tilidagi tasavvufga oid asarlarning g'arb tillariga tarjima qilish boshlandi. Oriyentalistlar orasida tasavvufga islomning asosiy bilim sohalaridan biri sifatida emas balki, boshqa madaniyatlardan o'zlashtirilgan tafakkur mahsuli sifatida qarash ko'proq qo'llab quvvatlanadi. Tasavvufni faqatgina islom taalluqli deb bilmaslik, uni turli madaniyatlar qorishiqqligi mevasi sifatida ko'rishni ixtiyor qiladilar. Ularning bu qarashlari g'arbliklarga katta ta'sir o'tkazgan.

Tasavvufning tamal manbalarini islomdan bo'lmagan asoslarga tayanishini iddao etadiganlar quyidagi fikrlarni keltiradilar:

Hind manbalaridan olingan deydigan olimlar sirasiga Toluk, Fon Kramer, Goldsiger, Zaihnerlar kiradi. Tasavvufni yahudiylik va xristianlikdan kelib chiqqanini qayd etuvchilar Geyger, Kayfman, Vinsik, Trimengemlar. Yunonlardan olingan deydiganlar toifasiga Ubinini, Hammer, Horovits, Nikolson, Eski Eron ta'sirida shakllangan deydiganlar Kopengau, Dozy, Palmer.

Hindistonda faoliyat olib borgan tadqiqotchi Villiam Jons va Jon Malkolmlarning tasavvuf Misr emas aynan Eron va Hind manbalariga asoslangani haqidagi fikrlariga qarshi Shimmel va Hartenlar ham bu qarashni yoqlashlarini ammo ishinchli manbaga ega emasliklarini qayd etganlar. Nemis olimi Njker df ingliz tadqiqotchisi Palmer esa tasavvufni Eron panteizmiga asoslanishini ta'kidlagan. Ammo Afifining yondashuviga ko'ra tasavvufni Eronga oid deguvchilarning iddaolari o'zlarini oliynasab deb bilguvchi oriylarning arablardan ustunligini ko'rsatish uchun o'ylab topilgan.

G'arbda turli tadqiqotchilar tarafidan ilgari surilayotgan bu qarashlarga (Erondan kelib chiqqanligi yuzasidan) nisbatan Trimingem va Massignonlar bu fikrlarni asossiz deb biladilar. G'arbning bu yondashuvlari tasavvuf islom dinining ichkarisida

yuzaga kelganini qayd etuvchi musulmon olimlari tomonidan ham bu fikrni asoslash maqsadida bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Musulmon olimlari esa tasavvufni islom dinining ehson borasidagi hadisga asoslanishini, islomning amaliy qismi ekanligini, islom odob normalarini oʻzida aks ettirishini qayd etganlar. Har bir taʼlimotga tarqalgan geografik hududi va urf-odatlaridan taʼsir qilishi tabiiy hol. Tasavvufga gʻarbiy qarashlar taʼsir qilgani uning kelib chiqishini anglatmaydi.

Baʼzi musulmon tadqiqotchilari ham tasavvufni islomdan kelib chiqmaganligi koʻrsatish kabi fikrlarni uchrab turadi. Bunga sabab qoʻsh tirnoq ichidagi sufiylarning shariatga nomuvofiq hatti-harakatlaridir. Ularning bu faoliyati haqiqiy sufiylar uchun ham xavf tugʻdirmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkin-ki, tasavvufni islom manbalaridan emas boshqa asoslardan kelib chiqqanini iddao qiluvchi Gʻarb mutaxassislari quyidagi 3 sababni keltirish bilan fikrlarini ilgari surishda davom etmoqdalar:

1. Islomning oʻzi mustaqil din emas, balki yahudiylilik, xristianlik va boshqa qadim dinlarning negizida shakllangan degan qarash;

2. Haqiqiy islom faqat salafiliylik gʻoyalariga tayanadi degan notoʻgʻri yondashuv

3. Tasavvufga oid tamal kitoblarni faqatgina badiiy adabiyot bilangina bogʻlash⁴⁴.

Ammo har uchala fikrda ham biryoqlamalik va yuzaki qarash koʻzga tashlanadi. Axir islom dini salafiyli gʻoyasiga tayanmasligi, koʻpqirrali ekanligi, bir qancha mavzularni oʻzida jamlashi hech kimga sir emas. Bundan tashqari tasavvufning badiiy adabiyot bilan aloqadorligi X-XII asrlarda koʻproq kuzatiladi. Tasavvuf esa VII-VIII asrdayoq zohidlik koʻrinishida namoyon boʻlgan edi.

Mavzu boʻyicha savollar

-Yevropada tarqalgan tariqatlarga xos jihatlar nimalarda aks etadi?

⁴⁴ Zafer Erginli. ORYANTALİZM İLE MİSTİSİZM ARASINDA BATI DÜNYASINDA TASAVVUFA BAKIŞ BİÇİMLERİ ÜZERİNE // Gümüşhane Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 2018, 7, cilt:7, sayı: 13, Sayfa: 1-35.

- Gʻarbda tasavvuf qay koʻrinishda namoyon boʻlmoqda?
- Neosufizm atamasining kelib chiqish sabablari
- Neosufistlarning asosiy gʻoyasi nimadan iborat?
- Inoyatxonning fikriga koʻra neosufizm qanday jarayon deya taʼriflangan?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Nursafardiyaning anʼanaviy tariqatlarga yod gʻoyalari

Oʻtilgan mavzuni oʻzlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009.
3. Wainwright W. Concepts of God. The Stanford Encyclopedia of Philosophy // ed. Edward N. Zalta 2010.
4. Joʻzjoniy A. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001.
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.
4. Tasavvuf atamalari izohli lugʻat. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
5. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – Москва: Энигма, 2000.
6. Кныш А. Мусульманский мистицизм. – Москва: Диля, 2004.

5-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA ZAMONAVIY TARIQATCHILIKNING KO'RINISHLARI

Reja:

1. Tariqatchilik tushunchasi va uning ta'rifi.
2. Tariqatchilikning tashqi belgilari.
3. Tariqatchilikning ijtimoiy zararlari.

***Tayanch iboralar:** tariqatchilik, pirchilik, eshon, soxta sufiy, muridbozlik, murid ovlash, an'anachilar, sharqshunoslik.*

1. Tariqatchilik tushunchasi. Tasavvuf ta'limoti uzoq davrlar mobaynida jamiyatning turli tabaqalari o'rtasida do'stlik, birodarlik rishtalarini ildiz otishiga zamin yaratgan. Hozirgi paytda dunyoning ko'p mamlakatlarida Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati katta nufuzga ega. Chunki, mazkur tariqatda islom shariati mezonlari buzilishiga yo'l qo'yilmay, chin insoniy fazilatlarni ilgari surgan.

Ammo barcha davrlarda ham tasavvufni o'zlarining tor doiradagi maqsadlari yo'lida talqin etuvchilar ham bo'lganini unutmaslik kerak. Abdulqodir Jiloni "Sirru-l-asror" kitobining "Tasavvuf ahli xususining bayoni" deb atalgan 23-faslida tasavvuf ahlini ikkiga bo'ladi: avvalgi guruh – "sunniylar", ikkinchisi esa "bid'at ahli" deb tilga olinadi. Birinchi toifa so'zda, amalda, shariat va uning ma'nosi bo'lgan tariqatda tamoman qoimdir. Ularni "ahli sunna va jamoa" nomi bilan ataydi. Bid'atchilar toifasiga esa shariat va tariqatga mos tushmagan ishlarni qilishga odatlanganlarni kiritadi.

Hozirgi kunda tasavvuf deganda tor ma'nodagi turli marosim-bozlik, tariqatga ruju qo'yish, "pirparastlik", xudoyima-xudoyi va ehsonma-ehson yurish, boshqalardan ajratib turadigan liboslar kiyish, boshqalardan ajralib turadigan turfa rasm-rusumlarga berilib yashash tushuniladigan bo'lib, odamlarga tariqatni shunday tushuntiradigan ayrim toifalar ham ko'payib bormoqda. Shuningdek, bu toifalar haqiqiy mumtoz tasavvuf vakillarining tasavvufni komil musulmon yetishtirishdagi bir vosita xolos ekani haqidagi o'gitlarini unutib, musulmon kishilarning asosiy maqsadi tariqatga kirish, pirga qo'l berib, uning xizmatini qilish ekani haqidagi noto'g'ri talqin va da'volarni ilgari surmoqdalar. Shu sababli, soha mutaxassisleri

tomonidan bunday toifalarni mumtoz tasavvuf namoyandalari va vakillaridan farqlay bilish hamda ularni boshqa turli oqimlardan ajratib ko'rsatish maqsadida ularga nisbatan "tariqatchilar" atamasi iste'molga kiritildi.

Tariqatchilar deganda tasavvufning faqat tashqi jihatlariga, marosimchilik, turli zikr majlislariga asosiy e'tiborni qaratib, uning falsafiy-irfoniy xususiyatlaridan bexabar faoliyat yuritayotgan, muayyan bir kishini pir deb sanab, uning etagidan tutuvchi, jamiyatning boshqa a'zolaridan chetlashib, pir xizmatini hayotdagi eng asosiy maqsad deb biluvchi kishilar yoki jamoalar, guruhlar tushuniladi. Mazkur guruh va jamoalar orasida qabrlarga sig'inish, pirlarni haddan ziyod ulug'lash, pirlarning tahoratidan ortgan suvlarni ichish, dunyoviy ilmlardan, taraqqiyot yutuqlaridan chetlanish kabi turli zararli hamda islomiy nuqtai nazardan bid'at-xurofot deb baholalanuvchi holatlar keng tarqalgan.

Mustaqillik yillarida yuzaga kelgan qulay diniy muhitdan mahalliy tariqatchilik vakillari ham foydalanishga harakat qildilar. Muta-xassislarning fikricha, ularning keskin faollashuvi 2000-yillardan boshlab ko'zga tashlana boshladi. Tariqatchilikning uyg'ongan shakli an'anaviy tarzda "fazilatli" deb topilgan turli yetakchilar (pirlar) atrofiga birlashgan muridlar jamoalaridan iborat edi. Bunday yetakchilar "eshon", "shayx", "hazrat" kabi unvonlar bilan atala boshlandi. Ularning orasida Ibrohim eshon (Ibrohim Mamatqulov, 1937-2009, Farg'ona viloyati), Mulla Do'stmuhammad (Do'stamamat Tursunov, 1935-2013, Surxondaryo viloyati), kabi shaxslar nomi ancha mashhur bo'lgan. Ayni paytda mazkur sanab o'tilgan eshonlar va ularning izdoshlari hamda muridlari orasida keskin raqobat muhiti mavjud bo'lib, har bir guruh aynan o'zi eng to'g'ri tariqatda ekanini da'vo qiladi.

Tariqatchilik harakatlarida ekstremistik unsurlar, siyosiy maqsadlar yo'q. Biroq tariqatchilik tarafdorlari tomonidan ilgari surilayotgan ilmning inson hayotida shart emasligi, pirni haddan ziyod ulug'lanishi kabi fikrlar, qiz bolalarning ta'lim olishlariga to'sqinlik qilish, ijtimoiy hayot tarzida o'z zamondoshlaridan katta farqlanish, shar'iy asosga ega bo'lmagan fatvolarga amal qilish kabi harakatlar har jihatdan isloh qilinishi kerak bo'lgan masalalar hisoblanadi.

2.Tariqatchilikning tashqi belgilari. Shu bilan birga tariqatchilarning ajralib turuvchi jihatlari haqida soʻz borganda, ularni birma-bir sanab chiqish ham mumkin. Fargʻona vodiysi, ayniqsa, Qoʻqon va uning yon-atroflarida faoliyat yurituvchi tariqatchilar orasida bir qator noanʼanaviy amallar kuzatilgan:

- tahajjud namozini oʻqish farz (yoki vojib), deb bilish;
- shukri vuzu (tahorat olgandan soʻng shukr namozi) namozini qaysi vaqtda boʻlsa ham oʻqib olish zarur, deyish;
- pirga qoʻl berganning oldingi gunohlari kechiriladi, qazo boʻlgan (oʻqilmagan) namozlari zimmasidan soqit boʻladi, deb bilish;
- tariqatchilardan boshqa kishilarning toʻy-marakalariga bormaslik;
- rasmiy imomlarning maʼruzalarini mensimaslik.

Bundan tashqari ayrim muridlar tomonidan ham mutaassibona xatti-harakatlar namoyon boʻlayotgani maʼlum:

- pirning tahoratidan ortgan suvni tabarruk deb bilib ichish;
- pirning uyi tomonga oyoq uzatish qiblaga oyoq uzatishdek gunoh boʻladi, deb bilish;
- doimiy katta salla, uzun oq koʻylak va mahsi-kovushda guruh-guruh boʻlib yurish.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan tariqatchilardan ayrimlari masjidlarda soqolsiz va sunʼiy (tilla va sariq) tishlar qoʻygan imom-xatib va noib imomlar faoliyat koʻrsatayotgani, bu holat esa islom diniga zidligi, aksincha ular oʻrniga barcha masjidlarda soqol qoʻygan dindorlardan imom saylash lozimligini targʻib qilib, oʻzlari ham soqolsiz, sunʼiy tish qoʻygan imom xatiblar faoliyat olib borayotgan masjidlarga bormaydilar. Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi ayrim tariqatchilar orasida quyidagi nooʻrin holatlar koʻzga tashlanadi:

- jamoat joylarida uzun beoʻxshov soqollar qoʻyib olib, guruh-guruh boʻlib yurish;
- barcha oila aʼzolarini ham oʻz pirlariga xizmat qilishga majbur qilish;
- televizor, radio kabi axborot vositalaridan foydalanishni man qilish;
- oʻz voyaga yetmagan farzandlarini amaldagi qonun hujjatlarni qoʻpol ravishda buzgan holda, davlat majburiy taʼlimidan ajratib olib, pirlar qoʻlida diniy taʼlim olishga berish;
- yashash joylarida oddiy xalq bilan umuman muloqot qilmaslik;

- tilla tish qo‘ygan yoki soqolini qirdirgan imomga iqtido qilish nojoiz deyish.

Tariqatchilik vakillarida kuzatilayotgan noo‘rin holatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- tarkidunyochilik kayfiyati;
- pirlarni haddan ziyod ulug‘lash;
- ibodat marosimlarida ixtilofli masalalarga berilib ketish;
- e‘tiborni jalb qiladigan kiyimda yurish (yozda ham salla-chopon, mahsi-kavush, uzun ko‘ylak-nimcha, beo‘xshov soqol qo‘yish) orqali boshqalardan ajralib turishga urinish;
- yosh, mehnatga layoqatli yigitlarning pirlar etagidan tutib ijtimoiy sustlashib ketishi, oilalarini tark etib, erta-yu kech pir xizmatida – aslida esa xudoyi va ehsonlarga qatnab bekor yurishlari va h.k.

Tariqatchilikning ijtimoiy zararlari. Tasavvuf deganda, oila, tirikchilik, mas’uliyatni unutib, tarkidunyo qilish tushunilmaydi. Payg‘ambar (a.s.): “Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxiratni, oxiratni deb dunyoni tark qilmaydigan va odamlarga maloligini tushirmaydiganlaringizdir” degan hadislaridan ham shuni anglash mumkinki, musulmon odam boshqalarga nafi tegadigan, og‘irligi tushmaydigan, oilasiga g‘amxo‘rlik qiladigan bo‘lishi kerak.

Ba’zi kishilar tariqatga kirganlarini pesh qilib, tashqi qiyofa va marosimlarga katta ahamiyat beradilar, ammo oilalari, farzandlari oldidagi majburiyatlarini unutib qo‘yadilar. Ular oilasini o‘zlaricha “Allohga tavakkal qilib” majburiy ta’minotini tark etib, pir xizmatini oila oldidagi vojib mas’uliyatdan ustun qo‘ymoqdalar. Shu yo‘l bilan, tasavvufning asl mohiyatini anglamagan va haqiqatidan bexabar johillik otiga minganlar tariqat ahliga ham, tasavvuf nomiga ham dog‘ tushirmoqdalar. Tariqatchilar faoliyati tufayli ijtimoiy nizolarga sabab bo‘layotgan holatlar haqida fikr yuritar ekanmiz quyidagi holatlarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak bo‘ladi. Tariqatchilar orasida:

- tariqatda bo‘lmaganlarga nisbatan past nazar bilan qarash kuzatiladi;
- ilm olishga bo‘lgan rag‘batning susayishi – go‘yoki “ko‘pgina avliyolar o‘qimasalar ham katta maqomlarga yetishganlar” qabilida ish tutish;

- oilali tariqatchilar oilalarining ta'minotini "Allohga tavakkal" qilib, pirdan vazifa olganlik bahonasida oila moddiy ta'minotidan bosh tortish holatlari;

- zamonaviy taraqqiyot yutuqlariga salbiy munosabatda bo'lish, zamonaviy kiyim kiyib yurganlarga nisbatan yaxshi fikrda bo'lmaslik va h.k.

Ehtiyoti peshin masalasi ham tariqatchilar tomonidan ilgari surilayotgan masalalardan biri bo'lib, bir qancha muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Yurtimizning ba'zi hududlarida juma namozidan keyin ehtiyoti peshin deb to'rt rakaatli namoz o'qish odati mavjud. Ulamolarimiz fikrlariga ko'ra bu ish bid'at hisoblanadi. Ehtiyotan peshin o'qilishining Qur'on va sunnatda dalili yo'q. Ulamolarning fikricha ibodatning mohiyati Rasululloh (s.a.v.)ning sunnatlariga muvofiq bo'lishdir. Juma namozidan keyin ehtiyotan peshin o'qish haqida esa Muhammad (a.s.) hech narsa demaganlar.

Nursafardiya. Saparboy Kushkarov 1952-yili Baxmal tumanidagi Uzunbuloq qishlog'ida tug'ilgan. Ma'lumoti oliy. Jahon tillari institutini tamomlagan⁴⁵. Bir necha chet davlatlarda, jumladan, Hindiston va Tibetda safarda bo'lgan. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida hech qanday diniy bilimga ega bo'lmagan holda va biror bir tayinli tariqat vakilidan irshod-yo'llanma olmay turib o'zini pir, shayx deb atay boshladi va yangi tariqat tuzganini e'lon qildi.

Saparboy Kushkarovga tegishli deb hisoblanadigan bir qancha risola va kitoblar nursafardiya tariqatining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Unga nisbat berilayotgan "asar"larning yozilish uslubi ham, mavzular doirasi ham yaxlit emas. Umuman mazkur kitob va risolalar bir kishi tomonidan yozilganiga ishonish qiyin. Tilshunoslik jihatidan ham bu holat yaqqol ko'zga tashlanib turishini qayd etish lozim. Shuning uchun ularni shartli ravishda muqovada ko'rsatilgan Saparboy Kushkarov qalamiga mansub, deya olamiz, xolos. Tasavvuf tariqatlari o'z-o'zidan, kimningdir ixtiyori bilan tashkil etiladigan (korxona ochishga o'xshash) ish emas. Shariat ilmlarini to'la o'rganmagan, yoki yetarli darajada egallamagan Saparboy Kushkarovning dabdurustdan yangi tariqat – nursafardiya asos solganini e'lon

⁴⁵Komil Avaz. Nursafardiy. O'zlikni anglash xiyoboni. – Toshkent: Musiqa, 2007. – B.8.

qilishi, qo‘pol qilib aytmaganda – tushunib bo‘lmaydigan mantiqsiz holdir.

Nursafardiya tariqatchilari tomonidan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining diniy ta’lim olish xususidagi bandi buzilgan. Qonunda aytiladiki: “Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o‘zlariga zarur bo‘lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o‘quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o‘quv yurtlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatidan o‘tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladi... Diniy o‘quv yurtlarida diniy fanlarni o‘qitayotgan shaxslar diniy ta’lim olgan bo‘lishlari va o‘z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim. Xususiy tartibda diniy ta’lim berish man etiladi”. Nursafardiya markazlarida sufiylikni o‘rgatayotganlarning maxsus litsenziyasi va diniy ta’lim olgani haqidagi ma’lumotnomasi yo‘qligi aniq.

Bugungi kunda yurtimiz hududida faoliyat olib borayotgan tariqatchilar umumiy xavfsizlikka tahdid solmayaptilar, deyish mumkindir. Biroq, bu – masalaga doir bir necha muammolar mavjud. Shuningdek, tariqatchilar tarafdorlarining ko‘payishi, moddiy bazasining mustahkamlanishi, tariqatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning chuqurlashuvi jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Tariqatchilar tomonidan shariat talablarining noto‘g‘ri talqin qilinishi, an’anaviy islom tamoyillariga zid bo‘lgan qoidalar ishlab chiqilishi tariqat tarafdori bo‘lmaganlar va rasmiy din xodimlari o‘rtasida noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari ayrim tariqatchilar xalqona tabobat usullari orqali davolash, turli o‘t damlamalar tayyorlab sotish, sufiy tabobati, sufiy gimnastikasi, sufiy jang san’ati kabi markazlarni ochib, shu orqali odamlarning e’tiborini jalb qilish usullaridan ham foydalanishmoqda. Bunday tariqatchilar islom asoslarini buzib talqin qilish, turli boshqa dinlarning ta’limotlarini va amaliyotlarini tasavvufga oid, deb targ‘ib etish, islom diniga aloqasi bo‘lmagan turli buddaviylik g‘oyalarini musulmonlar orasida tarqalishiga, ularning e’tiqodlari buzilishi, sog‘lom aqidaga putur yetishiga sabab bo‘lmoqdalar. O‘zlarining noqonuniy faoliyatlarini xalq tabobati bilan xaspo‘shlashga urinmoqdalar.

Tariqatchilar orasida uchrab turadigan o‘z guruh a‘zolarini piriga qo‘l bermagan boshqa oddiy musulmonlardan ustun qo‘yish, “piri yo‘qning – dini yo‘q” qabilidagi gaplarni gapirib, o‘zlaricha ibodat deb bilayotgan marosimbozliklar tufayli kibrga berilib ketishlarini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Tasavvuf odamlarni turli tabaqalarga bo‘lish, birovni boshqasidan ustun qo‘yish, odob-axloqni qo‘yib marosimbozlikka berilish, kimningdir xizmatiga zo‘r berib o‘z tashvishlarini hal etishdan chetlashib ketish, o‘ziga o‘xshash bir insonni bandaga xos bo‘lmagan sifatlar bilan ulug‘lab, uni muqqadaslashtirib olishga chaqirmagan. Tasavvuf kishilar orasida tenglik, birodarlik, ijtimoiy adolat, jamiyatga manfaatli mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishni targ‘ib etgan. Bahouddin Naqshbandning “dil ba Yoru dast ba kor” shiori buning yorqin isbotidir.

Movarounnahr tasavvufi musulmon mamlakatlari ijtimoiy-ma‘naviy hayotiga chuqur kirib borgan, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini mutaxassislar ham qayd etganlar. Tasavvufiy qarashlarning yaxlit ta‘limotga aylanib, islom o‘lkalariga keng yoyilishi va kishilar hayotida muhim voqelikka aylanishida movarounnahrlik Hakim Termiziy, Abu Bakr Kolobodiy, Abdulxoliq G‘ijduvoni, Xoja Muhammad Porso, Ya‘qub Charxiy, So‘fi Allohyor va boshqa tasavvuf olimlarining arab, fors va turkiy tillarda bitgan asarlari islom olamida hozirga qadar e‘zozlanadi. Shuni alohida qayd etish zarurki, o‘rta asrlarda eng keng tarqalgan uch til – arab, fors va turkiyda asarlar bita olish malakasi asosan Movarounnahr ulamolarida shakllangan. Zero, mintaqa aholisining talab va ehtiyoji ham aynan shuni taqozo qilgan edi.

Allomalarimiz merosida farzandni jismonan baquvvat, aqlan zakovatli, odob-axloqli qilib tarbiyalashning yo‘llari ilmiy asoslar, hayotiy tajriba, muayyan qarashlar tizimida chuqur tahlil qilingan. Mana shu kabi xususiyatlar bilan bir qatorda farzand tarbiyasida bag‘rikenglik, diniylik va dunyoviylik masalalarida muvozanat hissini shakllantirish masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Markaziy Osiyo tasavvufi va tariqatchilik o‘rtasidagi nomutanosiblik aynan o‘sha ulkan ilmiy meros va an‘naviylikdan uzoqlashishning natijasidir. Mumtoz tasavvufga xos go‘zal axloq, yuksak ma‘naviy fazilatlarini shakllantirish, komil inson, nafs tarbiyasi, vatanparvarlik kabi g‘oyalar xalqimizning asrlar davomida takomiliga yetib borgan

ma'naviy boyligini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda ham tasavvufning ana shunday xususiyatlarini ko'rsatib berish, kishilarni turli asossiz g'oyalar va maslaklarga adashib kirib qolishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzu bo'yicha savollar

- Tariqat va tariqatchilik tushunchalari orasida qanday tafovut mavjud?
- Tariqatchilarning ijtimoiy sohada beqarorlikni keltirib chiqaruvchi qanday holatlari kuzatiladi?
- Nursafardiyaning noo'rin faoliyati aynan nimalarda kuzatiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tariqatchi guruhlar internet saytlaridagi faoliyati tahlili.

O'tilgan mavzuni o'zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yuldashxodjayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
2. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta'limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
3. Tasavvuf atamalari izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
4. Suhravardiy. Avorif al-maorif / Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. T.5. – B. 69-71.

6-MAVZU: MDH HUDUDIDA TARIQATCHILIKNING FAOLLASHUVI

Reja:

1. MDHda tariqatlar faoliyati
2. Shimoliy Kavkazda bugungi tariqatlar
3. Qozog‘istonda zamonaviy tariqatlar

Tayanch iboralar: *zamonaviy tariqatlar, virdlar, suluklar, shaxobchalar, mintaqalar, Osiyo, Vo‘lgabo‘yi.*

1. MDHda tariqatlar faoliyati. MDH davlatlarida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab musulmon jamoalari orasida kechgan qayta islomlashuv jarayonida tasavvufiy doiralarning ham faolligi kuzatildi. Rossiya musulmon hamjamiyatida qayta-islomlashuvning bir-biridan sezilarli darajada farqlanib turuvchi ikkita asosiy ijtimoiy-madaniy hududiy bo‘linmalarni ajratish qabul qilingan: bular markazi Volgabo‘yi bo‘lgan Rossiyaning Yevropa qismi va Shimoliy Kavkazdir. Albatta, bu ikki mintaqalarning ichida ham jiddiy ichki-mintaqaviy bo‘linishlar, masalan, Dog‘iston va Shimoli-G‘arbiy Kavkaz respublikalari, Tatariston va Boshqirdiston o‘rtasida bo‘lgani kabi bo‘linishlar ham mavjud. Kavkazda kechgan islomlashuv jarayonlari Volgabo‘yi xalqlariga qaraganda anchagina keskin ko‘zga tashlanadi⁴⁶. Volgabo‘yi, Ural, G‘arbiy Sibir va Qrim musulmonlari ushbu mintaqadagi naqshbandiya tariqatining so‘ngi haqiqiy sufiysi sifatida Zaynulla eshon Rasulov (1835-1917) tan oladilar. Garchi bu hududda asrlar davomida O‘rta Osiyodan kirib kelgan yassaviya tariqati tarqalgan bo‘lsa-da, XVIII asrning oxiridan boshlab naqshbandiya yoyila boshladi. Tariqatning naqshbandiya-mujaddidiya yo‘nalishi Faizxon al-Qobuliy (vaf. 1802-y.) va uning muridlari tomonidan sovet davriga qadar rivojlantirildi⁴⁷. Shunga qaramay, asrlar davomida mahalliy aholiga radikal kayfiyatdagi turli mutaassib guruhlarining va tariqatchilik vakillarining ta’siri kuzatilmagan.

⁴⁶ Makarov D. Radikalnyy islamizm v rossiyskix regionax: obshche i osobennoye (na primerax Dagestana, Kabardino-Balkarii, KarachayevoCherkessii i Tatarstana). // Islam v sovetskom i postsovetskom prostranstve. Sost. i nauch. red. R.M. Muxametshin. Kazan: 2004. – S. 47-48.

⁴⁷ Muxetdinov D. Sufizm vEvropeyskoy Rossii i Sibiri. //Mesto i rol sufizma v Islame. Mejdunarodnaya islamskaya konferensiya. 23-avgusta 2011 goda. Groznyy.

2. Shimoliy Kavkazda bugungi kunda tariqatlar. Shimoliy Kavkaz hududida esa, ayni buning aksi ko‘zga tashlanadi. Tasavvufning mazkur mintaqadagi ta’sir darajasi yaxlit emas. Shia Ozarbayjonida ba’zi etnik ozchiliklarning diniy hayotida namoyon bo‘ladigan amaliy tasavvuf sezilarli o‘ringa ega emas. Islom g‘oyalari Dog‘iston, Checheniston, Ingushetiya, Qorachoy-Cherkessiyada kuchli ta’sirga ega, ammo Shimoliy Kavkazning boshqa respublikalarida nisbatan past darajada. Umuman Shimoliy Kavkaz mintaqasida uchta tariqat an‘analari - naqshbandiya, qodiriya, shoziliya yoyilgan⁴⁸.

Chechenistondagi qodiriya virdlarining soni 5-6ta atrofida bo‘lsa-da, aynan ular chechen jamiyatida katta nufuzga ega hisoblanadi. Ingushetiyada ham Chechenistondagi kabi qodiriya tariqati naqshbandiyaga qaraganda katta ta’sir kuchiga ega. Ko‘pchilik ingushlar oilaviy an‘anaga ko‘ra o‘zlarini faqat qodiriyaga emas, chechen shayxi Kunta hoji an‘anasiga tegishli deb sanaydilar. Qodiriya shayxi Bammatt-girey hojining izdoshlari Chechenistonda ham Ingushetiyada topiladi. Ingushetiyada faqat Deni shayxning izdoshlarigina naqshbandiya an‘alariga ergashadilar.

Faqat Dog‘istonda tarqalgan shoziliya an‘anasi naqshbandiya shayxi Sayfulloh (Saypulla) qozi Boshlarovga borib taqalib, u Boshqirdistonga surgun qilinganda bunga tegishli ijozatni olgan. Dog‘iston musulmonlari Diniy idorasi vakillarining fikriga ko‘ra respublikada to‘rttagina “asl” shoziliya shayxlari bor. Ular: Said afandi Chirkaviy, Badriddin (Qodirov) Botlixiy (1919-y.), Arslonali (Hamzatov) Parauliy (1954y.) va Abdulvohid Kakamaxiniy. Shimoliy Kavkazdagi sufiy tariqatlar o‘rtasida ochiqdan-ochiq ziddiyatlar mavjud⁴⁹. Ular etnik tangliklar, urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, o‘zgacha fikrlovchilar bilan chiqishmaslik, yetakchilar o‘rtasidagi raqobat, ta’sir doiralari uchun kurash, imom, muftiylik lavozimlari uchun kurash va hokazolar bilan bog‘liq⁵⁰.

XX asrning 90-yillaridan boshlab Dog‘iston va Chechenistonda qodiriya, naqshbandiya va shoziliya tariqatlari faollashuvi kuzatildi. Dog‘iston musulmonlari idorasi hamda asosiy islomiy ta’lim

⁴⁸ Alikberov A.K. Sovremennyy sufizm na Kavkaze. <http://islamica.ru/sufism/?uid=126>

⁴⁹ Qarang: Kudryavsev A.V. Islam na Severnom Kavkaze. – Postsovetskoye musulmanskiye prostranstvo. Religiya, politika, ideologiya. M., 1994. S. 154–175.

⁵⁰ Аликберов А.К. Современный суфизм на Кавказе. <http://islamica.ru/sufism/?uid=126>

muassasalari tariqatchilar tomonidan boshqarildi, bundan tashqari ular mahalliy diniy mutaassib guruhlar – “vahhobiylar” bilan doimiy kurash olib bormoqdalar. Shu bilan birga, bu davrda Shimoliy Kavkazda turli-tuman musulmon ta’limotlari vakillari faol harakat qila boshladi. Ularning orasida shayx Muhammad Nozim Haqqoniy asos solgan naqshbandiya-haqqoniya tariqati alohida e’tiborga loyiq. 1997-yilning yozida shayx Nozim Dog‘istonda bo‘ladi. Mahalliy matbuot uni “naqshbandiya tariqatining oliy murshidi” deb nomladi. U Dog‘iston va Qorachoyda hamfikrlari uchun tariqatining ma’naviy to‘garaklar shaklidagi bo‘limlarini ochdi. Shayx Nozim dog‘istonlik shayxlarning shogirdi hisoblanib, u Abdulloh Dog‘istoniyan (vaf. 1973-y.) ijozat olgan.

Shuningdek, Kavkazda “muridchilik” harakati ham o‘ziga xos tarixga ega. Shimoliy Turkiya orqali Kavkazga kirib kelgan naqshbandiya-mujaddidiya tariqati muridchilikning mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qildi. Muridchilik XIX asrning 20-yillarida Xolid Bag‘dodiy, shirvonlik shayx Ismoil va buxorolik ulamo Xos Muhammad orqali Shimoliy Kavkazga tarqaldi. Muridchilik Dog‘iston va Chechenistonda tashkil topgan davlat — imomlik (imomlar: G‘ozi Muhammad, Hamzatbek, Shomil)ning diniy-siyosiy va harbiy asosini tashkil qilib, Kavkaz urushlari davrida tog‘liklarning Rossiya imperiyasiga qarshi olib borgan kurashlarida g‘oyaviy mafkura sifatida xizmat qildi. Bu kurashlar 1813-yilgi Guliston shartnomasi tuzilib, Janubiy Dog‘istonning sufiy shayxlaridan biri Muhammad-afandi ibn mulla Ismoil tomonidan “g‘azot”ga (muqaddas urush) chaqirilgandan so‘ng boshlangan⁵¹. Ma’lumki, Usmoni turk imperiyasi va Eron bilan Rossiyaning manfaatlari Kavkazda to‘qnashganligi bu yerdagi kurash jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Kavkazdagi xalqlar Rossiya bosqiniga qarshi milliy ozodlik harakatini avj oldirdilar. Bu harakatga 1830 yillarda G‘ozi Muhammad, Hamzat, 1834 yildan imom Shomil boshchilik qildi. Shomil o‘ziga xos diniy davlat — imomat barpo etgan, undagi dunyoviy va diniy hokimiyat imomning qo‘lida bo‘lgan. Shu kabi

⁵¹ Qarang: Alikberov A.K. Epoxa klassicheskogo islama na Kavkaze: Abu Bakr ad-Darbandi i yego sufiyskaya ensiklopediya “Rayxan al-xaka’ik” (XI-XII vv.). – M.: Vostochnaya literatura, 2003. – S.684.

voqealar Marokashda ham ro'y bergan: Abdulqodir o'z tariqati vakillari bilan fransuzlarga qarshi harbiy harakatlar olib borgan⁵².

Dog'istonlik tadqiqotchi M.Gadjiyev muridchilik harakatini izohlab quyidagi fikrlarni bildiradi: "Kavkaz urushlarining asosiy maqsadi Kavkazni musulmonlardan xoli hududga aylantirish bo'lgan. Aynan shu maqsadga erishish uchun Rossiya imperiyasi uch milliondan ortiq musulmonlarni o'z yerlaridan ko'chirib yuborgan..."⁵³. Tadqiqotchi tasavvuf namoyandalari doim hukumat qonunlarini hurmat qiladigan fuqarolar bo'lganligi, ulardan davlatning yaxlitligi va barqarorligiga zarar yetmaganligini aytib, "Ayrim kimsalar sufiylar boshchiligidagi milliy-ozodlik harakatlarini bugungi kun bilan bog'lashga urinmoqdalar. Ularning aytishicha, tariqat shayxlaridan bo'lgan Shomil o'z muridlari bilan Rossiyaga qarshi kurashgan bo'lsa, demak, bugungi shayxlardan ham shu kabi harakatlarni kutish mumkin..." mazmunidagi fikrlarini asossiz, deb biladi. U Chechenistonda harbiy harakatlar boshlangan dastlabki kunlarda mahalliy aholi vakillari orasida Rossiyaga qarshi "jihod" e'lon qilish va shariatga asoslangan mustaqil davlat tuzish g'oyasi tarqalganda, aynan sufiy shayxlari bunga qarshi chiqqanligini eslatib o'tadi. U bugungi kunda davlat xavfsizligiga rahna solayotgan vahhobiylikka qarshi kurashda tasavvuf - Rossiyaning "strategik sherigi"dir, zero, bu sohada har ikki tomonning manfaatlari, harakatlari bir maqsadga qaratilganini qayd etadi⁵⁴.

Rossiyadagi tariqat vakillari zamonga moslashuvchanlik ko'rsatib, jamiyatdagi yangi funksiyalarni o'z zimmalariga olishga harakat qilmoqda. Moskvada turli sufiy jamoalari, mutaassib diniy guruhlar, shia oqimlari vakillari mavjud bo'lib, ular o'zaro to'qnashishdan saqlanadilar. Ushbu shaharda tasavvuf ilmidan saboq beruvchi haqiqiy pirlar uchramasa-da, turli davlatlardan kelgan muridlar,

⁵² Mazkur ikki holatni qiyosiy o'rgangan fransiyalik arabshunos Marius Kanar (Canard) 1956-yilda o'zining tadqiqotini chop etgan. Bu hada qarang: Frits Mayer (Bazel, Shveysariya). Uchitel i uchenik v ordene Nakshbandiya // Sufizm v Sentralnoy Azii (zarubejnye issledovaniya). Sank-Peterburg. 2001. – S. 276.

⁵³ Qarang: Gadjiyev M.M. Sufizm v sovremennyx publikatsiyax // Sufizm kak faktor soxraneniya mira i stabilnosti: Materialy Respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (29-maya 2004g.) – Maxachkala, 2005. – S. 84.

⁵⁴ Qarang: Gadjiyev M.M. Sufizm v sovremennyx publikatsiyax // Sufizm kak faktor soxraneniya mira i stabilnosti: Materialy Respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii (29-maya 2004g.) – Maxachkala, 2005. – S. 83.

o‘zlarini chishtiya tariqatiga mansub deb bilgan darveshlar, tibbiy-jismoniy mashqlar (meditatsiya) orqali sufiylikni targ‘ib etuvchi shaxslar istiqomat qiladilar. Ular o‘z markazlarida sufiyona mashqlar, zikr va boshqa amaliyotlar orqali giyohvandlik ta’siridan qutulish, sog‘liqni tiklash, turli kasalliklardan hamda ruhiy xastaliklardan davolanishni taklif qilmoqdalar.

Ukrainada esa asli kasbi shifokor-terapevt bo‘lgan Muzaffar hoji Usmanov tomonidan boshqariladigan “Sufiy falsafasi va amaliyoti akademiyasi” (Академия суфийской философии и практики) faoliyat yuritmoqda. Ushbu akademiya internet saytlari orqali rus va ingliz tillarida o‘z targ‘ibot ishlarini olib boradi⁵⁵. Akademiyaning a’zolariga sufiyona mashqlar, zikr va meditatsiya orqali davolanish bilan birga turli ziyorat-safarlari (выездной курс) taklif qilinadi. Jumladan, saytda naqshbandiya tariqati vatani bo‘lgan O‘zbekistonga qilinadigan safar Buxoro, Samarqand, Jizzax kabi shaharlarda uyushtirilishi, Sayid Amir Kulol, Bahouddin Naqshband maqbaralari va ziyoratgohlarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi haqida tashviqot materiallari o‘rin olgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiya (Sankt-Peterburg, Yekaterinburg), O‘zbekiston, Ukrainada bu kabi seminarlar tashkil qilingan. Bundan tashqari Muzaffar hojining “Sufiy tayog‘i” (Posox sufiya), “Qalb bilan o‘qish darslari” (Uroki chteniya serdsem), “Salomatlik sirlari” (Суфийские секреты и здоровья), “Qanday qilib 112-yil umr kechirish mumkin?” (Как прожить 112 лет?) va boshqa kitoblari, shaxsning ma’naviy, ruhiy va jismoniy tarbiyasi, ko‘rish qobiliyatini yaxshilash, biznesda muvaffaqiyat qozonish va boshqa shu kabi mavzulardagi video yozuvlari aks etgan DVD-disklar ham keng targ‘ib qilinadi. Bu ham tashviqotning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi kunda Kiprdagi turk jamoalari, Turkiya, Bolqon davlatlari hamda Yevropa va Yaqin Sharq musulmonlari orasida tarqalgan shayx Muhammad Nozim Odil al-Kubrusiy al-Haqqoniy (1922-y. Kipr – Larnak) asos solgan Naqshbandiya-haqqoniya tariqati MDH davlatlarida ham ancha faol harakat qilmoqda. Ushbu tariqatni Shayx Nozimning vafotidan (2014-yil 7-may) so‘ng uning o‘g‘li Shayx Mahmud (Mehmet) boshqarib kelmoqda. Global tarmoq

⁵⁵ <http://www.muzasufy.ru>; www.youtube.com/user/muzasufyOrg

– Internetda rus tilida bir qator saytlar orqali tinimsiz targ‘ibot ishlarini olib borilmoqda⁵⁶. Ushbu saytlarning arab va ingliz tillaridagi ko‘plab o‘rinbosar-nusxalari ham mavjud. Saytlardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, 2010-yildan boshlab qo‘qonlik pir Ibrohimning izdoshi boshqirdistonlik Shayx Abdurafiq MDH davlatlari bo‘yicha Shayx Nozimning o‘rinbosari, bosh sufiysi etib tayinlangan. Shayx Abdurafiqning ushbu “lavozi”ga tayinlanishiga oid video lavhalar internet tarmoqlariga joylashtirilgan. Shu bilan birga, MDH “bosh sufiy”sining rus tilidagi alohida sayti (<http://www.abdurafik.moy.su>) targ‘ibot ishlarini boshlab yuborgan. Saytda Shayx Abdurafiqning biografik ma‘lumotlari haqida ma‘lumot berilmasa-da, uning yashash manzili, ya‘ni Boshqirdistonning Melauz rayoni Toshlikul qishlog‘iga borishni xohlovchilar uchun aniq va batafsil ma‘lumot, yo‘lda adashganlarga bog‘lanish uchun telefon raqami berilgan. Haftaning shanba va yakshanba kunlari soat 10.00 dan keyin qabul o‘tkazadigan ushbu Shayx ziyoratiga keluvchilar o‘zlari bilan “dam soldirish uchun” choy, shakar, tuz olib kelishlari mumkinligi aytilgan.

MDH davlatlari hududida ham, ayniqsa, musulmon aholi an‘anaviy tarzda istiqomat qilib kelayotgan davlatlarda tasavvuf tariqatlarining faollashuvi va ichki jarayonlardagi o‘rni tobora oshib borayotgan mintaqalar mavjud. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tasavvufning mahalliy urf-odat va an‘analarga nisbatan bag‘rikengligi hamda moyilligi tufayli mutaassib-radikal kayfiyatdagi turli guruhlar tomonidan izdan chiqarilayotgan diniy vaziyatni yumshatishga xizmat qilishi, mahalliy aholining “xalqona” udumlarini o‘zida mujassam etgan muqobil diniy ta‘limot sifatida maydonga chiqishi mumkinligini qayd etmoqdalar.

Aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda sufiy tariqatlarning faoliyati, to‘g‘rirog‘i qayta jonlanishi ilmiy nashrlarning mavzusi sifatida nisbatan yaqinda yoritila boshladi. Sobiq sovet o‘lkalarida “ma‘naviy uyg‘onish” deb nom olgan o‘zlikni anglash mo‘ljallari-ning o‘zgarishi bu hududda mahalliy an‘analar, jumladan, tasavvufga ham boshqacha nigoh tashlashga undadi. Uning ba‘zi axloqiy qadriyatlari va ma‘naviy tartibotlari yangi milliy ruhiyatni shakllantirishda ayni muddao bo‘lib chiqdi. Bir qatorda sufiy yetakchilari

⁵⁶ Qarang: <http://www.saltanat.org>; <http://sheiknazim.ru>; <http://ru-sufism.ru>; <http://www.nptm.ru/sufi-2012.htm>; sultanmehmet.moy.su.

muridlar to'plashda faollasha bordilar va aholining turli qatlamlarida amaliy tasavvufga bo'lgan qiziqish tezda ortib bordi. Natijada, xarizmatik yetakchi va uning o'rinbosarlari (xalfalar) atrofiga to'plangan sufiy halqalar vujudga keldi. Sufiy guruhlarining yuzaga kelishi mintaqaning ko'pgina hududlarida hali-hanuz davom etmoqda.

Bir qarashda, mintaqadagi zamonaviy tasavvuf garchi, hammadan ko'ra ko'proq ma'naviy qadriyat, an'ana va marosimlar hamda milliy madaniyatga sodiqlikni namoyish etsa-da, avvalgi qiyofasidan ancha farq qiladi. Shunday bo'lsada, mintaqa davlatlari mustaqilligining ilk davrida sufiy jamoalarning ko'pchilik a'zolari uchun musulmonchilikka qaytish an'anaviy "sufiycha" shaklga ega marosim an'alarini (zikr, mavluddagi jamoaviy rasm-rusumlar) qayta tiklash ko'rinishida namoyon bo'la boshladi. Biroq, bugunga kelib sufiy guruhlarining haqiqiy ruhan uyg'onish, hatto kichik jamoaviy o'zlikni anglash jihatidan mahalliy jamiyatlarda o'z ta'sir doirasini kengaytirishi haqida gapirishga asos bor.

Markaziy Osiyoda asrlar davomida shayx-murid instituti yaxshi rivojlangan, shayx atrofida turli uyushmalar tashkil qilinib, unga yangi insonlarni jalb qilishga harakat qilingan. Shayxlar o'lka ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta rol o'ynaganlar. Ular o'zlarining alohida xonaqohlari bo'lishiga qaramasdan ko'p vaqtlarini uzlatda kechirganlar va jamiyatda katta nufuzga ega bo'lganlar. Ularning aksariyati ma'rifatli, bilimli insonlar bo'lib, tashkilotchilik qobiliyatiga ega edilar. Shayxlar Xudoga yaqin insonlar sifatida ulug'lanib, karomat ko'rsata oladigan, haqiqatga "erishish" yo'liga dalolat qiladigan kishilar sifatida qaralgan.

Qozog'iston dashtlariga islom dini aynan sufiylar orqali tarqalgan. Ular ilgari surgan g'oyalar va diniy amallar mahalliy urf-odatlar bilan qorishib ketish jarayoni oson kechgan. Shar'iy masalalarda urfning inobatga olinishi, ajdodlar ruhini yod etish, ularning maqbaralarini ziyoratgohlarga aylantirish bilan bog'liq holatlar mahalliy aholi tomonidan dinni qabul qilish jarayonlarini tezlashtirgan. Shu bois, uzoq yillardan beri qozoq xalqida Xoja Ahmad Yassaviy, Aristan (Arslon) bob va boshqa avliyolarning maqbaralari ulug'lanadi. Ayrim tadqiqotchilar yassaviya tariqati vakillari naqshbandiya tarafdorlaridan farqli o'laroq 800-yillik tarixi davomida biron marta ham siyosiy jarayonlarga aralashuvi kuzatilmaganini ta'kidlab, Qozog'istonda

sufiylarning siyosiylashuviga asosli sabab yo‘q, degan fikrni bergan edilar.

Tariqatlar tarixi, sufiylar faoliyatidagi siyosiylashuv jarayonlari nihoyatda murakkab va ziddiyatli bo‘lib, ularni har tomonlama o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga molik bo‘lgan masalalardandir. Tadqiqotchilar, sufiylarning turli ko‘rinishdagi amaliyotlari, ularning tashkiliy asoslari va siyosiy hayotdagi ishtiroklari davlat boshqaruvi institutlarining faoliyatiga bog‘liq. Agar davlat hokimiyati, ya’ni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq muayyan tuzilmaga birlashgan davlat faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining tizimi kuchli bo‘lsa, tariqatlar faqat diniy amaliyot bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Aksincha, davlat boshqaruvi muayyan sabablarga ko‘ra sustlashsa, sufiylar o‘zlarining mustahkam jamoalari bilan aksariyat hollarda siyosiy kuchga aylanadilar, deb ta’kidlaydilar.

So‘nggi yillarda asosan musulmon aholi yashaydigan Qozog‘iston janubida jahriy zikrga asoslangan yassaviya tariqatining qayta jonlanishi kuzatila boshladi. Bu jonlanish hozirda “jahriyya” deb nomlanayotgan sufiy guruhlarining yetakchisi shayx Ismatulloh taqsir faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Ismatulloh taqsir va uning izdoshlari tomonidan amal qilinadigan rasm-rusumlar jahriy zikrning 3-4 turi birlashmasidan iborat.

Shayx Ismatulloh (Ismatulla Abdugappar) Afg‘onistonning qozoq diasporasi vakili bo‘lib, bir guruh qozoqlar Oktyabr inqilobidan keyin ko‘p o‘tmay u yerga ko‘chib o‘tgan. U yaqin o‘tmishda Pokistonda istiqomat qilgan. 1996-yil Qozog‘istonga qaytib, Olmota shahrida yashaydi. Qozog‘iston va Qirg‘izistonning turli shaharlarida ko‘plab muridlarga ega bo‘ladi. O‘z silsilasini yassaviya va qodiriya tariqatlari bilan bog‘lab ko‘rsatadi.

Dastlab, Ismatulloh taqsir boshchiligida qayta tiklanayotgan sufiylik an‘analari bilan birga o‘zaro yordam, xayrixohlik tushunchalari ham qaytadan mazmun kasb etayotgandek, deb bilinardi. Tariqat a‘zolari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, homiylik, beg‘araz yordam, xayr-saxovat tushunchalari singdirib borish barobarida, zikr yordamida giyohvandlikdan davolash usullarini qo‘llash holatlari ham kuzatilgan.

Ammo voqealarning salbiy rivoj topib borishi bir necha yildan keyin yuz berdi va ba'zi noxush holatlarning mavjudligi ko'zga tashlandi. 2005-yilda tariqat markazida giyohvandlikdan davolanishni istagan K.Nurdjan ismli kimsa tushkunlikka tushib o'z joniga qasd qilgani haqida xabar tarqadi. Bu xabarlar qay darajada asosli bo'lishidan qat'i nazar tariqatning nufuziga jiddiy putur yetkazdi. 2011-yil 25-avgustda Kazakhstan Today rasmiy axborot agentligi xabar berishicha, 2010-2011-yillar davomida olib borilgan keng qamrovli tergov ishlari natijasida Ismatulloh taqsir jamoasi ekstremizmning barcha xususiyatlariga ega deb topildi. Ismatulloh taqsir neyrolingvistik dasturlash, transga tushirish usullarini qo'llab, ergashuvchilarining ongini boshqargan va o'ziga butkul itoat qilinishiga erishgan.

2011-yilning avgustida Ismatulloh Abdugapparning izdoshlari "diniy ekstremizm", "shpionaj", "millatlararo va konfessiyalararo adovat qo'zg'ash" kabi moddalar bo'yicha ayblanib, qozoq-qirg'iz chegaralarini noqonuniy kesib o'tishga urinayotganida qo'lga olingan. 2011-yilning oktyabrida Qozog'iston sudi Ismatulla Abdugapparni 14 yilga ozodlikdan mahrum etdi.

Ushbu tariqat haqiqiy mumtoz tasavvufiy tariqatlar kabi faoliyat yuritmasa-da, pir-ustozning avtoriteti yuqori bo'lgan jamoalardan tashkil topgandi. Mazkur sufiy jamoasining yashirin faoliyat yuritishi, tarafdorlarini ko'paytirish maqsadidagi sa'y harakatlari hukumat idoralarining shubha ostiga olinishlariga sabab bo'lgan. Avvalgi tariqatchilardan farqli o'laroq qozoq millatiga mansub bo'lgan Ismatulla Abdugappar Afg'onistondan ham mafkuraviy, ham tashkiliy jihatdan "toblanib" kelgan.

Qozog'istonning dashtli tabiiy iqlim sharoitida tasavvufiy tariqatlarning faoliyati uchun iqtisodiy imkoniyat yetarli bo'lmagan. Markaziy Osiyoning o'troq hayot tarzi tarqalgan o'lkalarda esa sufiylarning vaqf yerlari asosiy daromad manbai bo'lgan. Imomlar Volgabo'yi tatarlari yoki o'rta osiyolik mullalardan tayinlanganlar. Ismatulla Abdugapparning faoliyati bu o'ziga xos fenomen bo'ldi. Jahriy zikr, ezoterik amaliyotni targ'ib etgan mazkur shayxning muridlari orasida mahalliy aholining oliy tabaqa vakillari, mashhur ziyolilar bo'lganlar. Uzoq yillardan beri keskin kurashlar davom etayotgan Afg'onistonda ta'lim olib kelgani bu pirning faoliyati

xavfsizlik idoralarining shubhalariga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Bundan tashqari zamonaviy radikal guruhlar rahbarlarining aksariyati dastlab muayyan tariqatlarning a'zosi bo'lganlar.

3.Qozog'istonda zamonaviy tariqatlar. Bugungi fan-texnika jadal rivojlanib, turli mafkuraviy va g'oyaviy tahdidlar hamda inson ongini egallashga bo'layotgan urinishlar tobora kuchayib borayotgan murakkab davrda tasavvuf va uning zamonaviy tariqatlari ham inson hayotiga sezilarli darajada o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, qo'shni Qozog'iston Respublikasida o'zlarini yassaviya tariqatining davomchilari deya da'vo qilayotgan "jahriya" sufiy jamoasining jonlanishi kuzatilmoqda. Ushbu guruh o'z atrofiga aholining turli ijtimoiy qatlamlariga mansub kishilarni to'plab, ilmsizligi, sodda va ishonuvchanligidan foydalanib, o'zlarining soxta g'oya va maqsadlarini kishilar ongiga singdirishga urinmoqdalar.

Yurtimizning ba'zi viloyatlarida ham bir necha yil avval yuqoridagi kabi soxta tariqatchi jamoalar paydo bo'lib, g'arazli niyatlarini amalga oshirishga urindilar. Ularga ergashganlar asosan tajribasiz, g'o'r yoshlar, ayollar va ishsiz kishilar bo'lib, ular tarkidunyochilik, o'z pirlarini haddan ziyod ulug'lash, mehnatga layoqatsizlik kabi illatlar ta'siriga tushib qolganlar. Buning natijasida soxta tariqatlarga kirgan yoshlar ilm olishga umuman qiziqmay qo'ygani, oilali tariqatchilar pirdan vazifa olganlik bahonasida o'z oilalarini moddiy ta'minlamaslik, zamonaviy taraqqiyot yutuqlariga salbiy munosabatda bo'lish kabi ijtimoiy nizolarga sabab bo'lgan holatlar yuzaga kelgan. Jamiyatimizdagi bunday salbiy hodisalar keng yoyilishining o'z vaqtida oldi olindi.

Aslida buyuk ajdodlarimiz xususan, Xoja Ahmad Yassaviy qoldirgan boy ma'naviy meros ming yillardan beri kishilarni ezgulik, bunyodkorlik, halollik, poklik, mehr-oqibat, rostgo'ylik, imon-e'tiqod, insof-diyonat kabi umuminsoniy fazilatlarga chorlab kelmoqda. Bugungi murakkab global axborot va texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda ham ushbu ma'naviy meros o'z qadr-qimmatini aslo yo'qotgani yo'q. Aksincha, Yassaviy va yassaviya tariqatini yanada chuqur o'rganish, uning purma'no va hayotiy hikmatlari kishilarni ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning komil inson bo'lib yetishishida muhim tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

So‘nggi yillarda asosan musulmon aholi yashaydigan Qozog‘iston janubida jahriy zikrga asoslangan yassaviya tariqatining qayta jonlanishi kuzatila boshladi. Bu jonlanish hozirda “jahriya” deb nomlanayotgan sufiy guruhlarining yetakchisi shayx afg‘onistonlik etnik qozoq Ismatulloh taqsir faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Ismatulloh taqsir va uning izdoshlari tomonidan amal qilinadigan rasm-rusumlar jahriy zikrning 3-4 turi birlashmasidan iborat bo‘lgan. Dastlab, Ismatulloh taqsir boshchiligida qayta tiklanayotgan sufiylik an‘analari bilan birga o‘zaro yordam, xayrixohlik tushunchalari ham qaytadan mazmun kasb etayotgandek, deb bilinardi. Tariqat a‘zolari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, homiylik, beg‘araz yordam, xayr-saxovat tushunchalari singdirib borish barobarida, zikr yordamida giyohvandlikdan davolash usullarini qo‘llash holatlari ham kuzatilgan.

Ammo voqealarning salbiy rivoj topib borishi bir necha yildan keyin yuz berdi va ba‘zi noxush holatlarning mavjudligi ko‘zga tashlandi.

2011-yilning avgustida Ismatulla Abdugappar va uning 30tacha izdoshlari “diniy ekstremizm”, “shpionaj”, “millatlararo va konfessiyalararo adovat qo‘zg‘ash” kabi moddalar bo‘yicha ayblanib, qozoq-qirg‘iz chegaralarini noqonuniy kesib o‘tishga urinayotganida qo‘lga olingan. 2011-yilning oktyabrida Qozog‘iston sudi Ismatulla Abdugapparni 14 yilga ozodlikdan mahrum etdi.

Qozog‘istonning dashtli tabiiy iqlim sharoitida tasavvufiy tariqatlarning faoliyati uchun iqtisodiy imkoniyatlar yetarli bo‘lmagan. Markaziy Osiyoning o‘troq hayot tarzi tarqalgan o‘lkalarda esa sufiylarning vaqf yerlari asosiy daromad manbai bo‘lgan. Imomlar Volgabo‘yi tatarlari yoki o‘rtaosiyolik mullalardan tayinlanganlar. Ismatulla Abdugapparning faoliyati bu masalada o‘ziga xos fenomen bo‘ldi. Jahriy zikr, ezoterik amaliyotni targ‘ib etgan mazkur shayxning muridlari orasida mahalliy aholining oliy tabaqa vakillari, mashhur ziyolilar bo‘lganlar. Uzoq yillardan beri keskin kurashlar davom etayotgan Afg‘onistonda ta‘lim olib kelgani bu purning noan‘anaviy faoliyati huquq-tartibot idoralarining e‘tiborini tortdi.

Mavzu bo'yicha savollar

- Yassaviya tariqatining vujudga kelish tarixi?
- Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi?
- Tariqatdagi zikrning o'ziga xosligi?
- "Devoni hikmat" mazmun-mohiyati?

Mustaqil ta'lim:

MDH davlatlarida tarqalgan tariqatlar

O'tilgan mavzuni o'zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yassaviy, Ahmad. Xikmatlar / Nashrga tayёрlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi Ibrohim Haqqulov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford 1971.
3. Jo'zjoniy A. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001.
4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.
5. Кыш A. Musulmanskii mistitsizm. – Moskva: Dilya, 2004.
6. Globalashuv sharoitida tariqatlar: ta'limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
7. Tasavvuf atamallari izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014

7-MAVZU. SUNNIY VA SHIA TASAVVUFING O‘ZARO MUNOSABATI

Reja:

1. Shia tariqatlarining paydo bo‘lish sabablari.
2. Shia tariqatlariga xos jihatlari.
3. Ne‘matullohiya, nurbaxshiya, bektoshiya va zahabiya.

Tayanch iboralar : *ilk tasavvufiy qarashlar, “tashayyu”, alaviy tariqat, o‘n ikki imom, sunniy tariqati.*

1.Shia tariqatlarining paydo bo‘lish sabablari. Shia tariqatlari bilan bog‘liq tadqiqotlar bugungi kungacha chuqur olib borilmagani bois bu mavzu haligacha to‘liq ochib berilmagan. Tariqatlarning aksari sunniylik bilan bog‘liq bo‘lib, bu tariqatlarda tasavvuf bilan bog‘liq barcha amaliyot va nizomlar to‘liq ishlab chiqilgan. Ammo bu xususiyat shia tariqatlarida mustasnodir. Hatto aksar manbalarda shia mazhabining o‘zida tariqatga qarshilik mavjudligi, tasavvufni islomdan tashqari hodisa sifatida baholash an‘anasi uchrab turadi. Tasavvuf bilan shialikning ilk aloqalari shoirlar faoliyatida aks eta boshlagan. Ilk marotaba tasavvufning shialikda aks etishi she‘riyat yo‘nalishida paydo bo‘ldi. Bu tur shoirlarning eng ko‘zga ko‘ringani Sayid Haydar Omuliy edi. U nafaqat tasavvufni shialikka aloqador deb biladi balki, ikkisining tamoyillari ayni ekanini ko‘rsatishga urinadi. Shia shoir va mutafakkirlari tasavvuf borasida ikki guruhga bo‘linadilar:

Birinchi toifa, tasavvuf va sufiylarga mutlaqo qarshilar jamoasi bo‘lib, ular sufiylarni kuforda ayblashgacha borganlar. Ikkinchi toifa, tasavvufni shialik bilan uyg‘un shaklda ko‘radigan, qarashlarini esa irfon o‘laroq qabul qiladiganlar. Har ikki tarafning ham tarafdorlari teng miqdorda.

Turk olimi Mustafo Oltinkayaning fikriga ko‘ra tasavvuf tadqiqotchilari va shia yozuvchilariga ko‘ra shialikda tasavvuf “irfon” atamasi bilan keltiriladi. Shialikda sufiylarni “oriflar” deb atash urfga kirgan. Ular imkon qadar tasavvuf va sufiy so‘zidan qochadilar. Aslida sunniy tasavvufda ham irfon tushunchasi keng qo‘llaniladigan atama bo‘lib, ma‘rifat yoki haqiqatni vositasiz bilish ma‘nosida

qo'llaniladi. Ibnul Arabiyga ko'ra, botiniy ilmga nisbatan irfon tushunchasi aynan mos keladi. Ko'rinib turibdiki, bu kabi tushunish sunniylik tasavvufiga begona emas. Sunniylik va shialik irfoni orasidagi yagona farqli jihati shundaki nasni tushunishda zohir va botinga ahamiyat qaratilar ekan shialikda imomatga hurmat bajo keltirish, barcha oyatlarni anglashda Ali (r.a.)ga nisbat berish masalasi bilan ajralib turadi.

Shialikdagi ilk tasavvufiy qarashlarning yuzaga kelishi. Shia yo'nalishida ham sunniylikdagi kabi tasavvufiy qarashlar mavjud bo'lib, u tasavvufga juda katta ta'sir o'tkazgan. Shialikda islom bilimlari yetti turga bo'linadi: 1. Mantiq, 2. Falsafa, 3. Kalom, 4. Irfon, 5. Fiqh. 6. Usulul fiqh. 7. Hikmat va axloq. To'rtinchi fan irfon deb atalyapti shialar nazdida mana shu tasavvufga to'g'ri keladi. Zamonaviy tadqiqotlarda tasavvuf va shialikning o'zaro bog'liqligi haqida ayrim fikrlar bayon etiladi. Tasavvufda oz bo'lsa-da mavjud bo'lgan shialik ta'siri va nash'asi "tashayyu" kalimasi bilan ifodalangan. Tariqatlar bilan shialik orasida ba'zi jihatlarda tashqi juz'iy yaqinlik bor. Hazrat Ali ko'pchilik tariqatlarning silsilalarida halqaning ibtidosida turgan shaxs bo'lib, bu tariqatlar e'tiqodda alaviylik bilan hech qanday aloqasi bo'lmasa ham, "alaviy tariqat" deyiladi. Shu bois Hazrat Ali va avlodiga ba'zi tariqat muhitlarida ziyodasi bilan mehr-muhabbat va hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. O'n ikki imomni ham hurmat bilan tilga olishadi. Ayniqsa, sakkizinchi imom Ali ar-Rizo ba'zi tariqat silsilalarida joy olgan. Mashhur sufiy Ma'ruf Karxiy uning muridi sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, Ja'far as-Sodiqning ham alohida e'tiborga loyiqligi, uning "Majmau-l-bahrayn va multaqu-n-nahrayn" ("ikki dengiz qo'shilgan va ikki daryo uchrashgan joy"), degan laqab egasi ekanidan ma'lum. O'n ikki imomdan biri yoki bir nechtasi mansub bo'lgan tariqat silsilasiga esa "silsilatuz zahab" (oltin silsila) deyiladi. E'tiqodiy jihatdan batamom sunniy bo'lgan tariqatlarda ham Hazrat Ali, ahli bayt va o'n ikki imomga nisbatan hurmat ko'rsatiladi. Shunday ekan, biron tariqatda bu shaxslarga ko'rsatilgan hurmat va tavajjuh, bu tariqatning shia e'tiqodiga mansubligini ko'rsatmaydi. Faqatgina bektoshiya tariqati, asoschisi Hoji Bektosh Valiyning shialik bilan aloqasi yo'qligiga qaramay¹, vaqt o'tishi bilan shia xarakterini qozona boshlagan. Ya'ni, bektoshiya tariqati avvaliga sunniy tariqati bo'lib, keyinchalik

esa shia tariqatiga aylangan. O'n ikki imom tushunchasining ta'siri bilan asta-sekin "tariqatlarning adadi o'n ikki ekani" degan fikr ham o'rnamashgan⁵⁷.

Tariqatlar bilan shialik orasidagi bunday zohiriy yaqinlik bilan bir qatorda har ikki muhitda ham mavjud bo'lgan ba'zi fikriy unsurlar borki, asosan shialikning tasavvufga ta'siri shu bilan mutasavviflarning qarashlari o'rtasida to'la-to'kis bir xillik mavjud emas. Bu mushtarak jihatlar quyidagilardir: valiyning mahfuziyati, shialikdagi imomning ma'sumligiga o'xshaydi. Avliyo mozorlariga qudsiylik tusi berish, hurufiylik va abjad tushunchasi, oyatu hadislarni ta'vil orqali tafsir qilish, shayxlarga mutlaq qo'l berish, Mahdiy tushunchasi, rijolu-l-g'ayb tushunchasi, tariqat silsilasi, futuvvat tashkiloti (ta'limoti), ilm manbai masalasi, ahli baytga qattiq mehr qo'yish, avliyolik tushunchasi va hokazo tushunchalar tariqatlar muhitida keng tarqalgan bo'lib, shia qarashlari bilan yaqinligi bor.

Bu fikrlarning tasdig'i sifatida quyidagi olimning so'zlarini keltirish kifoya. J.Trimingemning fikricha, shia tariqatlari Eron hududida shia harakatlarining kuchayishi bilan bog'liq. Bu shia rahbarlarini o'zlarini kubraviya ta'limotida namoyon bo'lgan sufiylik maktabi o'rinbosarlari, deb hisoblashlaridan ham ko'rinib turibdi. Sufiylik libosidagi shialik kubraviya, xalvatiya, bektoshiya, bayramiya tariqatlari ichida mustahkam oqimga aylandi. Usmonilar imperiyasida u yashirin ishlagan bo'lsa-da, biroq Fors o'lkasida sufiy shialarning turli harakatlari mavjud edi.

2.Shialik tariqatiga xos jihatlari. Shialik faqihlari tomonidan orif va hakimlar imomlarga teng darajadagi kishilar sifatida tan olishini iddao etadiganlar ham bor ekan.

Shialik ta'limoti safaviylar davrida qayta tug'ilgandek bo'ldi, go'yo. Ularning g'oyalarini ifodalovchilar – sufiylar Mir Muhammad Bakir Domod (vaf. 1631 y.), Qozi Said Qummiy (vaf. 1691 y.) va Mulla Sadra Sheroziy (vaf. 1640 y.) bo'lgan.

Tarixiy nuqtai nazardan, eng diqqatga sazovor shia-sufiylik harakati safaviya – dastlab sunniy tariqati bo'lgan. Uning asoschisi o'zini yettinchi imom – Muso Kozimning avlodi deb e'lon qilgan Safiyuddin (1249-1334, Ardabil) bo'lib, u uzoq vaqt o'ziga

⁵⁷ Globallashuv sharoitida zamonaviy tasavvufiy tariqatlar: ta'limotlar, uslublar, tahlil va xulosalar. Mas'ul muharrir I.Usmonov. –Toshkent. –Toshkent islom universiteti. 2015.

yo'lboshchi topa olmadi, ammo oxir-oqibat 25 yil umrini birga o'tkazgan va o'limidan so'ng uning o'rinbosari bo'lib qolgan Shayx Zohidni uchratdi. Tariqatga rahbarlik Safiyuddindan sulolaviy tarzda o'ta boshladi: 2) Sadruddin (vaf. 1396 y.); 3) Xoja Ali (vaf. 1429 y.); 4) Ibrohim SHoh (vaf. 1447/48 y.); 5) Junayd (1460 y. jangda halok bo'lgan); 6) Haydar (u ham 1488 y. jangda halok bo'lgan,) va Safaviylar sulolasi asoschisi Shoh Ismoil (vaf. 1524 y.). Bu tariqatning qachon shia tariqatiga aylangani noma'lumligicha qolmoqda. Xoja Ali shialikka tortgan bo'lsa, Shayx Junayd esa "Oq qo'yunlilar" sulolasi rahbari Uzun Hasanning oldiga qochdi. Shayx Haydar unga marhamat qilingan "ilohiy kashf" g'oyasi ta'siri ostida o'zining tarafdorlariga "o'n ikki imom" ramzi bo'lgan o'n ikki burma qilib o'ralgan sallali qizil bosh kiyim kiydirishga erishgan va ularni shundan keyin turk tilida "qizilbosh" deb atay boshladilar. Shoh Ismoilning qilichida esa: "Alloh! Allah! Va Ali valiyulloh!" degan so'zlar bor edi. Aynan u o'n ikki raqami to'g'risidagi shia e'tiqodini yagona e'tiqod sifatida mavjud bo'lgan davlat diniga aylantirdi. Oxir oqibat, Safaviylar o'z tarafiga bir qancha guruhlarini og'dirganlar. Ularning orasida Nurbaxsh va Musha'sha' avlodlari ham bor edi. Safaviya turkiylarning nufuzli tariqat sifatida Onado'liga sezilarli darajada diniy va siyosiy ta'sir ko'rsata oldi. Xalvatiyaning o'zlarini sunniy deb bilgan bir qancha turkiy tariqatlari (bayramiya va jilvatiya) ham shu an'anaga bog'liqdir. Shoh Ismoil hokimiyatga intilish davrida tariqatlar ta'siri sezilarli bo'lgan o'lkalarda, xususan Sanjak takya aholisidan o'ziga juda kuchli ko'mak topdi Ko'rib turganimizdek, ular o'z silsilalarini sufiylik otasi hisoblangan shaxslarga bog'laydilar. Xususan, shialikning asosiy va zamonaviy tariqatlaridan bo'lgan Ne'matullohiya tariqati davomchilari tasavvuf asoschisi bo'lgan Junayd Bag'dodiyga imomlarning bay'at berganliklarini da'vo qiladilar. Bu fikrlardan esa, tasavvufga asli shialar asos solgan degan xato xulosa ham kelib chiqishi mumkin. Shu bilan birga, shialardagi ilk tasavvufiy qarashlarning aksariyat jihatlari dastlab mumtoz tasavvuf bilan o'xshash bo'lgani, keyinchalik esa shialarning asliga zid bo'lgan aqida va ta'limotlariga og'ish va mazkur fikrlarni o'ziga singdirish, natijada to'liq shialikka o'tib ketish holatlari kuzatiladi. Natijada, shia tariqati va tasavvufining mumtoz tasavvufga juda katta ta'sir ko'rsatishiga olib kelgan. Bu esa, shia tasavvufi

namoyandalarining tizimli ravishda o'z g'oya va ta'limotlarini puxta reja bilan singdirib borganliklaridan dalolat beradi.

3.Ne'matullohiya, nurbaxshiya, bektoshiya va zahabiya.

Ularning ba'zilar hozirda ham eng zamonaviy tariqatlar sirasiga kirib, o'zining ko'p sonli tarafdorlariga ega. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar, xususan, Amerika, Yevropa davlatlarida samarali faoliyat olib bormoqdalar. Ne'matullohiya tariqati. Ne'matullohiya tariqati XIII/XIV asrlarda Eron va vujudga kelgan. Avvalida sunniylik yo'nalishidagi tariqat, keyinchalik shialik tariqatiga og'ib ketgan. Ushbu tariqat asoschisi Shoh Ne'matulloh Valiy (vaf.1431 y.) hisoblanadi 1. Ne'matulloh Valiy Samarqand, Hirot, Yazdda yashab, hayotini shu tariqatga bag'ishlagan edi. Ne'matulloh omma orasida juda ham mashhur bo'lgan. Uni muqaddas shaxs deb bilishar va uni "tasavvuf otasi" degan ma'noda "shoh" deb atashardi. Shundan beri tariqatning barcha bosh shayxlari o'zlarini "shoh" deb ataydilar. Ne'matulloh Valiyga ko'plab tasavvufiy risolalar nisbat beriladi. Shular ichida uning she'riy devonlari juda mashhur. Uning she'rlaridagi asosiy mavzular – Ibn Arabiyning "Vahdatu-l-vujud" ta'limoti, qiyomat alomatlari, Imom Mahdiy va Isoning (a.s.) kelishi, qiyomat kuni dahshatlari kabilardir 2. Bu tariqat Eron va Hindistonda keng tarqaldi va undan bir nechta tarmoqlar ham ajralib chiqqan. Ne'matulloh 1330 yili Halab Suriya)da tug'ilgan, shofeiylilik mazhabi izdoshlaridan bo'lgan. Uning otasi Mir Abdulloh sufiy ustozlardan biri bo'lgan. Balog'atga yetganidan so'ng, u juda ko'p sayohat qiladi va mashhur Shayx Abdulloh al-Yofiyning o'quvchisi, keyinchalik esa, uning xalfasi bo'ladi. Yetti yil davomida u Ibn Arabiyning ilmiy ishlarini o'rganadi va keyinchalik uning bir nechta kitobiga sharhlar yozadi. Shundan so'ng Ne'matulloh yana sayohat qilishni boshlaydi. U Iroq, Misrda bo'lib, keyin Movarounnahrda keladi va bu yerda mahalliy turkiy aholi orasida faol targ'ibot ishlarini olib boradi. Bu esa Amir Temurga yoqmaydi. Shu sababdan, Ne'matulloh Hirotga, u yerdan Mashhadga so'ng, Yazdga ketadi. Oxiri, u Kirmondagi Moxon qishlog'iga kelib o'rinishib, qolgan 25 yil umrini shu yerda o'tkazadi. Uning o'limidan so'ng bu tariqat nafaqat Eronga, balki uning hududidan tashqariga ham yoyiladi. Uning o'g'li Burxonuddin Xalilulloh Hindistonda ushbu tariqatning bir bo'limiga asos soladi. Keyinchalik bu bo'limni uning o'g'li Habibuddin Muhibbulloh

boshqaradi. Vaqt o'tishi bilan tariqat namoyandalari Eron ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallay boshlaydi. Hokimiyat uchun kurashda ne'matullohiya tarafdorlari Haydariya shia-sufiylik tariqati bilan to'qnashadilar. Safaviylar shohi Abbos I davrida ne'matullohiya tarafdorlari hokimiyatni to'ntarishga harakat qilayotgan isyonchilarni ochiqdan-ochiq qo'llab quvvatlashdi. Buning oqibatida Shoh Abbos I ularni qattiq ta'qib ostiga oldi va Eronda bu tariqatning faoliyati to'xtatiladi. Tariqat XVIII asrga qadar faqat Hindistonda faoliyat yuritib oldi. 1775 yilda Eronga Hindistondan ne'matullohiya tariqati vakili Sayyid Ma'sum Ali Shoh Daqqoniy keladi va tariqatni qayta tiklaydi. Qajar sulolasining qo'llab-quvvatlashi natijasida bu tariqat yana Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tuta boshladi. Ammo, XIX asrda tariqat o'z yaxlitligini to'la saqlab qola olmadi va uchta katta – Saodat Ali Shoh (Gunobodiy), Safi Ali Shoh va Munavvar Ali Shoh kabi yo'nalishlarga bo'linib ketdi. Keyinchalik esa mazkur uchinchi yo'nalishni Javod Nurbaxsh rivojlantirdi va mazkur tariqat boshlig'i sifatida 1953 yildan 2008 yilgacha faoliyat yuritdi. Hozirda esa, ne'matullohiya tariqatiga uning o'g'li Alirizo Nurbaxsh rahbarlik qiladi. Ne'matullohiya tariqati vakillari o'z faoliyatlarida ham ijtimoiy va ma'naviy hayotni birlashtirish an'anasini saqlab qolishni davom ettirdilar.

Nurbaxshiya tariqati. Nurbaxshiya – shialik ichidagi sufiylik tariqati; XV asr boshida kubraviylik tariqatidan uning shialikdagi tarmog'i sifatida ajralib chiqqan. Asoschisi – Sayyid Muhammad ibn Muhammad Nurbaxsh (1392-1464), bahraynlik arab bo'lgan. U o'z shajarasini shia imomi Muso al-Kozimga bog'lagan. Shia shayxi Xoja Ishoq al-Xuttaloniyni muridi bo'lgan. Qur'on va "barcha fanlar"ni yaxshi o'zlashtirgani uchun ustoziga Nurbaxsh laqabini hamda o'zining vafot etib ketgan ustoziga Kubroviylar shayxi sayyid Ali al-Hamadoniyni xirqasini berib, xonaqohga bosh bo'lishni topshirgan. Nurbaxsh tarafdorlari uni adolat o'rnatish uchun kelgan imom Mahdiy va xalifa deb e'lon qilganlar. Iroqda uning sha'niga atab tangalar zarb etilgan va xutbalar o'qilgan. Uning dovruqi Kurdiston, Ozarbayjon, Gilonga tarqalgan. Temuriylardan Shohruh davri (1405-1447)da Nurbaxshiya tariqati qattiq quvg'in ostiga olingan. Nurbaxsh qolgan umrini Ray viloyatidagi kichik qishloqda shogirdlari orasida o'tkazgan.

Zahabiya shia tariqati. Najmiddin Kubro asos solgan kubraviya tariqatining shahobchalridan biri sanalgan zahabiya sunniylik tariqatidan ajralib chiqqan shialik tasavvuf yoʻnalishidir. Kubro yashagan davrda Horazmda shofeilik mazhabi tarqalgani bois uning oʻzi ham shu mazhabga mansub edi. Sunniylik yoʻnalishi, shofeʼiylik fiqhiga asoslangan va sheʼriyatga tayanmagan hadis ilmi bilan koʻp yillar shugʻullangan Najmiddin Kubroning shialik tariqatiga bilan aloqador deya daʼvo qilayotgan asossiz iddaolari uchrab turibdi. Najmiddin Kubro asarlarida barcha musulmonlar kabi Ali (r.a.) va ahli baytga koʻrsatilgan hurmatni shialikning belgisi sifatida koʻrsatish nooʻrin albatta. “Favoihul jamol”da Hazrati Ali yashagan maʼnaviy yoʻl va tajribalar haqida bayon qilgan.⁵⁸ Lekin bu degani Kubroning shialik yoʻnalishi bilan aloqadorligiga asos boʻlolmasligi koʻrinib turibdi. “Favoihul jamol”dan: “Bir marta gʻaybat holida ekanman Paygʻambarimizning oldida Ali (r.a.)ni koʻrdim. Yugurib borib Alining qoʻllarida tutib salomlashdim. Shu vaqt menga ilhom keldi. Rasulullohdan kelgan xabarlarda shunday narsa eshitgandek boʻldim “Kim Alining qoʻlini tutib soʻrashsa jannatga kiradi” kabi. Shundan ilhomlanib borib, shu hadis rostmi deb Alidan soʻray boshladim. U kishi esa toʻgʻri ekanini tasdiqladilar”⁵⁹. Kubroning shu kabi fikrlarini misol qilib keltiradigan shia jamoalari uning tariqatini ham shialikka aloqador deb hisoblamoqdalar.

Shayx Kubroning halifalaridan Saʼdiddin Hamaviy tariqatda ilk shialik unsurlarini kiritgan kishi sanaladi. U kubraviylikdan ijozasi boʻlishi bilan birga Ibn Arabiyning qarashlariga juda yaqin fikrda edi. Chunki u nafaqat kubraviylikdan balki boshqa tariqatlardan ham ijoza olgan kishi edi. U Shomda bir muddat istiqomat qilgan vaqtda Ibn Arabiy va shogirdi Sadridin Qunaviy (vaf.1274) bilan bir necha marotaba uchrashgani qayd etiladi. Ibn Arabiy bilan iliq munosabatlari alohida eʼtiborga loyiq.

Ammo manbalarda ikki sabab bilan Himaviyni kubraviylik tariqati shayxlari eʼtirof etmaganlari keltiriladi. Birinchisi, Ibn Arabiyda koʻp taʼsirlangan holda uning “vahdat al vujud” taʼlimotiga tez-tez murojaat qilgani. Eng buyuk sufiy kishilar roʻyxatini keltirarkan Najmiddin Kubrodan avval Ibn Arbiyzi zikr etishi ham kubraviylik

⁵⁸ Sübkî, Tabaktü’9-:âfiyye, VIII, 25; Şbnü’l-Şmâd, :ezerât, V, 79.

⁵⁹ N. Kübrâ, Fevâihu’l-Cemâl, s. 100-101.

tariqati vakillari tomonidan tanqidga uchragan. Ikkinchi sababi, mo'gulla istelosi davrida ularning siyosatini qo'llab quvvatlagani ham ayrim e'tirozlarga sabab bo'lgan.

Sa'diddin Himaviyning shogirdi Aziz Nasafiy shunday ustozining valiylik haqida fikrlarini shunday keltiradi. "Payg'ambarimizdan oldingi dinlarda valiy tushunchasi yo'q edi. Allohga eng yaqin kishilar payg'ambar deb nomlanar edi. Valiy nomi Muhammad payg'ambardan keyin yuzaga chiqdi. Buyul Alloh uning ummatidan 12 kishini tanlab olib, ularga o'zini yaqin qildi. Ularga valiylikni tuhfa etarkan, Hazrati Muhammadni noiblari etib sayladi. Olimlar payg'ambar vorislaridir. Shayx (Hamaviy)ga ko'ra ummat ichida 12 kishidan boshqa valiy yo'qdir. O'n ikkinchisi valiylarning so'ngisi bo'lib, ismi Mahdiy va "Sohibi Zamon"dir. Ilm va qudratda komil kishi bu Mahdiydir. Butun yer yuzini o'z hukmi ostiga olur. Dunyo hazinalari unga ko'rinib turadi. Kufr va zulmni bir onda yerdan siqib chiqaradi"⁶⁰. Imomlarga mubolag'a bilan hurmat ko'rsatish va ulardan boshqa valiylar yo'qligini da'vo qilish ahli sunna val jamoa aqidasi zid.

Xulosa sifatida kubraviylik tariqatidan ajralib chiqqan nurbahshiya va zahabiya kubraviylik paydo bo'lgandan ikki asr o'tib shialik unsurlarini o'zlashtira borgan. Safaviy davlatini tashkil etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashishiga turtki bo'ldi. Kubraviya tariqatida shajarasining Ali (r.a.)ga borib taqalishi va Kubro tomonida asarlarida ahli baytga katta e'tibor berilishi unga nisbatan asossiz ravishda shialik bilan aloqadorlikni bog'lashga turtki bo'lgan. Bugungi kunda Eron, Pokiston, Amerika va Angliya kabi o'lkalarda shialik belgilarini o'zida aks ettirgan Nurbashiya va Zahabiya jamoalari hali ham faol harakat olib bormoqdalar.

⁶⁰ Nese'fi, nsân-Kâmil, s. 142.

Mavzu bo'yicha savollar

- O'n ikki tariqat tushunchasi nimani anglatadi?
- Dastlabki shia tariqatlarning xususiyatlari nimada ko'rinadi?
- Tariqatlarning bir-biridan farqlari nimada?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Shia tasavvufiy oqimlari va ularning qarashlari

O'tilgan mavzuni o'zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Bertels Ye.E. Sufizm i sufiyskaya literatura: Izbrannie trudi / Otv. red. A.N.Boldirev, Sost. M.N.O.Osmanov. - Moskva: Nauka, 1965.
2. Karimov E. Kubraviyskiy vakf XVII-XIX vv. – Tashkent: Fan, 2008.
3. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.
4. Shimmel A. Mir islamskogo mistisizma. – Moskva: Enigma, 2000.
5. Knish A. Musulmanskiy mistisizm. – Moskva: Dilya, 2004.
6. Tasavvuf atamalari izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.

8-MAVZU. BAHOUDDIN NAQSHBAND HAMDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING ISLOM OLAMIDAGI O‘RNI, MAVQEYI VA AHAMIYATI

Reja:

1. Yusuf Hamadoniy va xojagon tariqati yuzaga kelishi.
2. Xojagon-naqshbandiyaning o‘ziga xos jihatlari.
3. Naqshbandiyaning mujaddidiya tarmog‘i.

Tayanch iboralar: *xojagon, mujaddidiya, rashhalar, Hakim Termiziy.*

1.Yusuf Hamadoniy va xojagon tariqati yuzaga kelishi.
Umuman olganda XI-XII asrlarga kelib, mo‘g‘ullar bosqinidan keyingi tanazzul holatga tushib qolgan musulmon o‘lkalarga sufiylarning ko‘chib borishi kuchayganini ko‘ramiz. Ular qatorida suhravardiya sulukining vakili Shayx Zayniddin Ko‘hi-orifoniy otasining tavsiyasiga ko‘ra Bag‘doddan tashrif buyurib Toshkentning Ko‘hi orifon mavzeyida o‘rnashgan bo‘lsa, ayrimlar Sayram, boshqalar Kesh vohasiga, Yusuf Hamadoniy esa Buxoroga o‘rnashadilar. Mazkur zotlarning tashrifdan maqsadi tasavvuf ta’limotini yoyishdan tashqari, mo‘g‘ullari bosqinidan keyin inqirozga yuz tuta boshlagan islomiy bilimlar va shariat ahkomlari, aqidaviy masalalarni qayta jonlantirish, aholi orasida targ‘ib qilishdan iborat edi. Abdulxoliq G‘ijduvoniy tomonidan ustoz xotiralariga bag‘ishlab yozilgan “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” tahliliy nazar bilan o‘qilsa, Yusuf Hamadoniyni asosiy ishi shariat ahkomlarini mustahkamlash, ilmiy bahs-munozaralar muhitini tiriltirish, o‘lkada islomiy hayotni qayta jonlantirishdan iborat bo‘lgani ko‘rinadi. Shuning uchun Yusuf Hamadoniy shaxsiyatini o‘rganish tariqat mavqeyini anglashda o‘ta muhimdir.

XI asr boshlarida Yusuf Hamadoniy Buxoroda tasavvuf ta’limotini targ‘ib qilish uchun tashrif buyurdi. Uning o‘rinbosarlaridan biri Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy xojagon tariqatida ustoziga davomchilik qilgan. Bunga qadar yurtimizda Najmiddin Kubro asos solgan kubraviya tariqati keng tarqalgan edi. Tasavvufning yirik namoyandasi Abu Ya‘qub Yusuf ibn Husayn ibn Ayyub Hamadoniy, 1048-yilda Hamadon shahrining Buzanjird qishlog‘ida tavallud topgan. Shar’iy

ilmlarni Abu Is'hoq Sheroziydan, tasavvuf ilmini Abu Ali Formadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnoniy singari oriflardan o'zlash-tirgan. Zamonasining yetuk shayxlari Abdulqodir Jiloniy (G'avsu-l-a'zam), Shayx Hamiduddin Mo'ltoni, Hujjatu-l-islom Imom Muhammad G'azzoliy bilan muloqotda bo'lgan. Eron, Turkiya, Bag'dod, Movarounnahr shaharlariga safar qilib, ilm tahsil qilgan, asrdosh mashoyixlar kabi ilmiy-ma'rifiy yig'inlar, tasavvufiy suhbat-lar uyushtirgan.

Yusuf Hamadoni umri mobaynida ko'p mamlakatlarga safar qilgan. Qur'onni yod olgan. "Maqomot"ida aytilishicha: "...Alar (Yusuf Hamadoni) yolg'onchi, xudbin, poraxo'r, maqtanchoq, kaz-zoblarni, nohaq qon to'kuvchilarni, zolimlarni nihoyatda yomon ko'rardilar. Haromxo'r, poraxo'r, muttaham, fosiqlarni, obro' ortti-rish uchun shariatni niqob qiluvchilarni va boshqa xil munofiqlarni oldilariga chorlab, kechirim so'rashga, tavba qilishga majbur qilardilar. Ular ko'nmasalar, shayximiz dashnom berib, huzurlaridan quvib solar va ularni o'zlariga dushman bilardilar. Ko'pincha yovg'on xo'rda iste'mol qilib, suv bilan nonni kam yer edilar. Hech kimni so'kmas, haqorat so'zlarni ishlatmas va duoyi bad qilmas edilar..."

Yusuf Hamadoni qo'yidagi risolalar muallifidir:

1. «Rutbatu-l-hayot»
2. "Kashf";
3. "Risola dar odobi tariqat";
4. «Risola fi anna-l-kavna musaxxarun lil-inson»;
5. «Risola dar axloq va munojot».

2. Xojagon-naqshbandiyaning o'ziga xos jihatlari. Xojagon tariqati: "*Dil – ba yor-u, dast – ba kor*", degan g'oyani o'ziga bosh shior qilib olgan. Bu o'sha davr uchun juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega tub burilish edi. Bu shiorning bugun uchun ham ahamiyati aslo kamaygan emas. Mazkur g'oya amalda tasavvufni hayotga yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Tasavvufning boshqa ayrim yo'nalishlarida tarkidunyochilik kayfiyati ustunlik qilar, Haqqa yetish yo'lidagi sufiy dunyo ishlaridan batamom qo'l silkishga da'vat etilar edi. Ammo xojagon tariqati ana shu shior orqali masalani: "*Bu dunyo deb u dunyoni, u dunyo deb bu dunyoni unutmaslik kerak*", –

degan mo'tadil, ya'ni o'rta yo'lni tanladi va bu aholining turli qatlamlari o'rtasida keng yoyilishiga olib keldi.

Tariqatning rashhalari. XII-XIII asrlarga kelib shakllana boshlagan tariqat birlashmalari va sufiy jamoalarida dastlab o'ziga xos noan'anaviy amaliyotlar ko'zga tashlana boshlagan edi. Tinimsiz "jazba" qidirish, aql-hushdan ayrilib devonanamo ko'rinish kasb etish, shahardan-shaharga ko'chib yurish, tarkidunyochilik kayfiyati avj olishi, uzlatga chekinib xilvatnishinlik bilan xayr-ehson hisobiga kun kechirish avj ola boshladi. Xojagon-naqshbandiya tariqati vujudga kelgan davrdan boshlab tasavvufiy hayotga jo'shqin islohot bilan kirib keldi. Xojagon tariqatining asos g'oyalarini qisqa shiorlar ("rashha" – ko'pl. "rashahot" – arab. tomchi, qatra) orqali bayon qilib qilingan. Xojagon sulukini Movarounnahrga olib kirgan Yusuf Hamadoniylar ushbu tariqatning dastlabki to'rt "rashha" sini taqdim etdi. Xususan, "Maqomoti Yusuf Hamadoniylar" asarida u kishi: "Hush dar dam", "nazar bar qadam", "safar dar vatan", "xilvat dar anjuman", – der edi⁶¹", deyilgan. Tariqat asoslari bu qisqa shiorlar orqali bayon qilinishi sababi u zot "turkiyni bilmas edilar", degan iboraga borib taqalsa kerak. Chunki, Movarounnahr diyorida forsiy va turkiy qatlam qadimdan jips yashab kelgan va forsiyzabon bo'lmaganlar uchun tariqat asoslarini qisqa – yodlash uchun qulay shaklda o'rgatish muhim edi. Bu shior – "rashha"lar hozirgi kunda bir qadar sodda va ko'proq amaliy jihatdan sharhlansa-da, o'z davridagi tasavvufiy hayot uchun inqilobiy fikrlarni o'z ichiga olgan edi. Aslida bu rashhalar xojagon tariqatining boshqa tariqatlarga nisbatan tutgan mavqeyini ko'rsatib bera oladi. Yusuf Hamadoniylar ilgari surgan rashhalarni tahlil qiladigan bo'lsak:

– "*Hush dar dam*" (har nafasda aql-hushni o'zda saqlash) – o'sha davrdagi ko'pgina sufiy doiralarda "jazba" (jazavaga tushish), o'zni yo'qotib devonasifat ko'rinishda hayot kechirish, aql-hushdan ayrilish fazilat o'laroq talqin qilina boshlagan edi. Bunday holatni hozirda ham Hindiston va Shimoliy Afrika hududlarida tarqalgan tariqatlarda saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Xojagon-naqshbandiya "hush dar dam" shiori bilan avvalboshdanoq "jazba"ga intilmaslik yondashuvini e'lon qildi. Bu mavqe aynan sof islom

⁶¹G'ijduvoniylar, Xoja Abdulxoliqlar. Maqomoti Yusuf Hamadoniylar. Tarj. S.Sayfullah, N.Hasan. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 23.

nuqtai nazarini ifoda etib, Qur'on, hadislar va shariat manbalarida aqlsizlik yoki ongsizlikka doimo salbiy munosabat bildirilgan. Majnunlik va devonalik aslo fazilat hisoblanmagan. Qur'on oyatlarida ketma-ket "...shoyadki aqlingizni ishlatsangiz" iborasi kelishi bejiz emas⁶². Imom G'azzoliy "Ihyo ulumi-d-din" asarida ham aql madhiga alohida bob bag'ishlab, aql fazilatiga tegishli hadislarni sanab o'tgan⁶³. Yusuf Hamadoniy shaxsiyatiga kelsak, Abdulxoliq G'ijduvoni u zot haqida: "Tafsir, hadis, fiqh, usul, furu' va kalomga doir yetti yuzta kitobni yod olgan, ikki yuz o'n uch nafar mashoyix bilan suhbat tutgan... Yangi oy kirganda Samarqand peshvolarini chaqirar, ular bilan shariat ilmidan bahs o'tkazardi... madrasada talabalarga dars berar edi⁶⁴", – degan ta'riflarni keltirgan. Aytish mumkinki, Yusuf Hamadoniy bu "rashha"da o'zi o'rnak bo'lib, hayotiga joriy qilgan edi;

– *"Nazar bar qadam"* (oyoq ostiga qarab yurish) – o'sha davr sufiylari orasida "go'zal yuz istagi" shior darajasiga chiqqan edi. Ayrim qalandar va darveshlar nomahramlarga qarashdan tiyilmas, ular orasida har qanday go'zal narsani tomosha qilish Allohning tajalliysini mushohada qilish, deb talqin qilina boshladi. Yusuf Hamadoniy xojagon tariqatiga "nazar bar qadam"ni kiritish orqali bu holatga keskin javob qildi. Bu ham islom ta'limoti bilan hamohang bo'lib, Qur'ondagi "Mo'minlarga ayting, nigohlarini quyi tutsinlar⁶⁵" oyatiga asoslangandir. Maqomotda kelishicha, Yusuf Hamadoniyning o'zi ham nomahramlarga tikilib qaramas, yurganda ohista qadam tashlar, jumladan oyoq kiyimga ham e'tiborli edi;

– *"Safar dar vatan"* (yashab turgan joyida o'zni musofirdek tutish) – zamondosh sufiylar shaharma-shahar kezib qalandarlik qilib yurishni tasavvufning o'ziga xos belgisi sifatida ko'rayotgan bir davrda, xojagon tariqatida o'troqlik targ'ib qilinishi, tariqatning darbadarlikka qarshi qat'iy va murosasiz mavqeda turishini ko'rsatib

⁶²Baqara surasi 73, 242; An'om surasi 151; Yusuf surasi 2; Nur surasi 61; G'ofir surasi 67; Zuxruf surasi 3; Hadid surasi 17. // Qarang: Qur'oni karim ma'nolarining o'zbek tilidagi tarjimasi va tafsiri.tarj. A.Mansur. Toshkent: Toshkent islom universiteti NMB, 2015.

⁶³ G'azzoliy, Abu Homid Muhammad. Ihyo ulumi-d-din. Toshkent: Toshkent islom universiteti NMB, 2014. – B. 190-204.

⁶⁴G'ijduvoni, Xoja Abdulxoliq. Maqomoti Yusuf Hamadoniy. Tarj. S.Sayfulloh, N.Hasan. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.– B. 16-18-25.

⁶⁵Nur, 30. //Qarang: Qur'oni karim ma'nolarining o'zbek tilidagi tarjimasi va tafsiri.tarj. A.Mansur. Toshkent: Toshkent islom universiteti NMB, 2015.

berdi. Sababi, qalandar joydan-joyga ko‘chib yurishda odamlarning qo‘liga qaram bo‘lib, xayr-ehson hisobiga yashashga majbur bo‘ladi. Bu esa tariqatning inson o‘z mehnati bilan kun kechirish borasidagi talabiga zid keladi. Musulmon kimsa tom ma’noda emas, ko‘chma ma’noda, ya’ni o‘tkinchi dunyoda musofir ekanini anglab yetishi muhim ekani ta’kidlangan. Bu rashhaning asosini “Dunyoda g‘arib-dek yoki yo‘lovchidek bo‘l (*Buxoriy rivoyati*)” degan mazmundagi hadisda ko‘ramiz. Xususan, ushbu hadis naqshbandiya tariqatining mashhur namoyandasi Alisher Navoiyning muhriga ham o‘yilgan⁶⁶.

– “*Xilvat dar anjuman*” (ko‘pchilik ichida qalban xoli bo‘lish) – tasavvuf ahlining asosiy xususiyati tarkidunyochilik va uzlatga chekinish, xonaqoh va zoviyalarda yashash deb tushunila boshlagan, xilvatnishinlik tariqat ahlining shioriga aylana borgan bir paytda xojagon tariqatida buning aksi o‘laroq ijtimoiylashuv va jamoadan ajralmay hayot kechirishga chaqiriq yangradi. Zotan, xilvatda yashashda ham boshqa odamlarga muhtojlik, tirikchilik yukini o‘zgalarga tashlash holati yuzaga keladi. Boshqa tarafdin xilvatga chekingan va tarkidunyo qilgan kimsa odamlar orasida “sufiy”, “zohid” degan nom olishi riyoga yo‘l ochadi, ya’ni toatni xolis emas, odamlarning ko‘zi va so‘zi uchun bajargandek holat yuzaga keladi. Bahouddin Naqshband ham “Bizning yo‘limiz suhbatdir. Xilvatda shuhrat, shuhratda esa ofat bordir. Yaxshilik jamoat bilandir”, deb ta’kidlagan. Boz ustiga bunday hayot kechirish rohiblikka o‘xshab qoladi. Islomda esa rohiblik yo‘q ekani qat’iy ta’kidlangan. Qur’onda “Rohiblikni esa o‘zlari o‘ylab topganlar, ularga buni buyurganimiz yo‘q⁶⁷” deyilgan.

Yuqoridagi to‘rt “rashha” tariqatning shakllanish bosqichida mustahkam mavqega ega bo‘lish, boshqa tariqatlarga nisbatan qanday pozitsiyada ekanini ko‘rsatish uchun samarali xizmat qilgan. Tariqat oyoqqa turib olgach, uning amaliy jihatlarini qaror toptirish, sufiy amaliyotining nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb bo‘la boshladi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun Abdulxoliq G‘ijduvoni quyidagi to‘rt “rashha”ni kiritgan deyiladi. “Rashha”lar amaliyotga doir bo‘lgani uchun qisqa to‘xtalib o‘tamiz:

⁶⁶ Navoiy dastxati. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi S.G‘aniyeva. Toshkent: Fan, 1991.

⁶⁷ Hadid, 27. // Qarang: Qur’oni karim ma’nolarining o‘zbek tilidagi tarjimai va tafsiri.tarj. A.Mansur. Toshkent: Toshkent islom universiteti NMB, 2015.

– “*Yod kard*” – (yod etish, esga olish) tasavvufda “zikr” deb nomlangan amaliyotning bajarilishi shartlarini ifoda etadi. “Rashahot”da kelishicha zikr til bilan qalb bog‘liqligida amalga oshadi, quruq til bilan emas. Ammo zikr tilsiz, qalbning o‘zi bilan bajarilishi mumkin. Bahouddin Naqshband aytganidek, “zikrdan maqsad qalbning doim Haq taoloni sevish va ulug‘lash bilan hozir bo‘lishidir, chunki zikr g‘aflatni ketkazadi”.

– “*Boz gasht*” – (qaytariq, qaytadan boshlash) xojagon-naqshbandiya zikr amaliyotida “la ilaha illalloh” kalimasini olgan bo‘lib, bunda “habsi nafas”da (nafasni ushlab turib) toq marta qaytariladi. Har safar muayyan sanoq bajarilgach, “Ilohiy anta maqsudiy va rizoka matlubiy” (Xudoyim, sen maqsadimsan, roziliging esa talabimdir) deb, sanoqni boshdan boshlanadi⁶⁸;

– “*Nigoh dosht*” – (saqlash, qo‘riqlash) zikr kalimalarini qaytarayotganda xayolidan boshqa narsalar o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik, fikru xayolini zikrdan chalg‘ituvchi narsalardan qo‘riqlab, jamlab turish;

– “*Yod dosht*” – (yodda tutish) yod etishdan (“yod kard”dan) farqli ravishda, eslashni emas esdan chiqarmaslikni nazarda tutadi⁶⁹.

Abdulxoliq G‘ijduvoni kiritgan so‘nggi ikki “rashha”ning nomi Hakim Termiziyning “Javobu kitob min ar-Ray” (Ray shahridan kelgan maktubga javob) asarida uchraydi. Hakim Termiziy “nigoh dosht”ni arabcha “hifz”, “yod dosht”ni esa “zikr” so‘zi bilan tenglaydi va biroz o‘zgacha ma‘no beradi. “Hifz” ya‘ni “nigoh dosht” amallarga o‘ta xassoslik bilan yondashish, ularni “qo‘riqlab-saqlab” yurishni, har bir shar‘iy amalni puxta bajarish va buyruq-qaytariqlarga qat‘iy rioya qilishni anglatadi. “Yod dosht”da esa yod etish va yodda tutish (zikr) jamlanadi⁷⁰. Bundan ko‘rinadiki, xojagon tariqati nazariy asoslari Yusuf Hamadoni g‘oyalari bilan bir qatorda o‘z zaminimizdan chiqqan allomalarimiz merosi bilan ham chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etgan va bunda Hakim Termiziy ilmiy merosi muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Abdurahmon Jomiy

⁶⁸ Koshifiy, Husayn ibn Ali. Rashahot ayni-l-hayot (arab tilida). Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiyya, 1971. – B. 60-61.

⁶⁹ Xadji Abdulgafur Razzak Buxari. Vvedeniye v sufizm (na osnove ucheniya Nakshbandiya). Moskva: Imidj Press, 2010. – S. 65.

⁷⁰ at-Termiziy, Muhammad ibn Ali al-Hakim. Javobu kitob min ar-Ray. // Salosatu musannafot lil-Hakim at-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi B.Radtke. Bayrut: 1992. – S. 184.

o‘zining “Nafahotu-l-uns” asarida keltirishicha, Bahouddin Naqshband ham Hakim Termiziy fikr-qarashlari va asarlaridan keng foydalangan, o‘zini unga izdosh deb bilgan. Bahouddin Naqshbandning: “Xar qachon aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziyni ruhoniyyatiga tavajjuhimga tushganda, menga ta’rif va tavsifga o‘z tasavvuf namoyon bo‘ladi”, – degan e’tirofi ma’lum va mashhur. Naqshbandning xos shogirdi Muhammad Porso ham Hakim Termiziy merosidan samarali foydalangani ma’lum⁷¹. Ammo, Bahouddin Naqshbandgacha bo‘lgan davrda, ya’ni xojagon-naqshbandiyaning shakllanish davridayoq tariqatga Hakim Termiziy ta’siri kuchli bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. Xojagon silsilasini Yusuf Hamadoniy olib kirgani holda, tariqat shakllanishida mahalliy ta’sir mavjudligini ham nazardan qochirmaslik kerak. Buning uchun tariqatning Bahouddin Naqshbandga qadar shakllangan an’analarini o‘rganishda “rashahot” tizimini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Quyidagi “rashha”larni esa Bahouddin Naqshband kiritgan ular ham amaliy ham nazariy ahamiyatga ega:

– *Vuqufi zamoniyy* – (vaqtga qat’iy rioya qilish) amaliy jihatdan muayyan zikr, vird, vazifalarning o‘z belgilangan vaqti va muddatiga rioya qilinishi shart. Bu soliklar uchun qat’iy tartib-intizomni shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Bu qoida ham islom dini talablariga asoslangan bo‘lib, har bir farz va sunnatda kelgan nafl ibodatlarining belgilangan vaqti bor. Masalan, farz namozlar vaqti kirgandagina o‘qilishi farz bo‘ladi, vaqtdan oldin o‘qilgani qayta o‘qiladi. Nafl namozlarni ishroq, zuho, avvobin, tahajjud kabilari ham muayyan vaqtlarda o‘qilishi belgilangan. Ya’ni zuho namozi aslida nafl bo‘lsa-da, u ham o‘z vaqtida o‘qilgandagina zuho namoziga o‘tadi. Zikr va vazifalar ham ibodat niyatida bajarilgani jihatidan ularning ham muayyan vaqtlariga rioya qilish tariqat talablariga kiradi. Bundan tashqari solik doimo o‘z vaqtini sarhisob qilib turishi lozim. Umrining qay qismi yaxshilikka, qaysi qismi yomonlikka va qaysinisini behudaga sarflanayotganini bilishi lozim.

– *Vuqufi adadiyy* – (sanoqqa qat’iy rioya qilish) Solik hamisha zikr chog‘ida adadga rioya qilishi lozim. Chunki zikir adadga rioya qilgandagina, o‘z fikr va hayolini idora eta oladi. Buning ustiga bunda

⁷¹Qarang: Usmonov I. Navodir al-usul hikmatlari. Toshkent: Fan, 2009. – B. 125.

“Hush dar dam”ga rioya qilish oson kechadi, zokir zikr vaqtida aqlini jamlab turadi, o‘zini yo‘qotib jazbaga berilib ketmaydi. Zikrda sanoqqa rioya qilish ham bir qator hadislarda kelgan. Masalan, farz namozlaridan keyin hamd, tasbeh va takbirlar aynan 33-martadan qaytarilishi, farz ibodatlar tarkibidagi harakatlarning sanog‘i va tartibi qat’iy belgilangani tariqat talablariga ham asos sifatida xizmat qilgan.

– *Vuqufi qalbiy* – (qalb hozirligi) bu qoida zikrning asosiy talabi deyish mumkin. Zero, zokir o‘z vaqtida va sanoqqa rioya qilgan holda zikrlarni ado etib borsa-yu xayoli joyida bo‘lmasdan boshqa narsalarga chalg‘ib bajarsa u “nigoh dosht” talabiga amal qilmagan bo‘ladi. Shuning uchun solik doimo Alloh taoloni yodda tutishi, uning qalbi hamisha Alloh yodi bilan band bo‘lmog‘i lozim, deyiladi.

Shu tariqa Abdulxoliq G‘ijduvoni asoslagan xojagon tariqati Bahouddin Naqshband xizmati bilan yangi bir daraja kasb etdi. Shuning uchun manbalarda endi bu tariqat xojagon-naqshbandiya deb atala boshladi. Xojagon-naqshbandiyaning XV asrdagi yirik vakili, Alisher Navoiyning piri va ustozlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ilk bor bu tariqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “*naqshbandiya*” deb atadi.

Shuni aytish kerakki, bu rashhalar – aslida, soliklarning zikr tushish mahali amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalari. Ammo ularning yana qanchadan-qancha ramziy, falsafiy va hayotiy ma’nolari bor. Bu qoidalarga amal qilish solikning zikr mahali o‘z ruhini nazorat etib, maqsadga yo‘naltirib turishi uchun zarur. Mazkur shiorlarning tor ma’nodagina zikr amaliyoti bilan bog‘liq. Ularning har biri yana shunday keng ma’nolarga egaki, sufiy nafaqat zikr paytidagina, balki, umri davomida ularga rioya etib borishi zarur.

Naqshbandiya ta’limotining o‘ziga xos jihatlari, xususan, uning islom ta’limotiga, ahli sunnat aqidasi, shariat asoslariga bog‘liqligi, xilvatga munosabati, jumladan, malomat qiluvchining malomatidan qo‘rqmaslik, el qatori hayot kechirish, tariqat belgisini bildiruvchi maxsus kiyim kiyimaslik va shuhratdan saqlanish, ma’naviy holni yashirish, riyo bo‘lmasligi uchun karomatni izhor etmaslik, raqsu samo‘ va jahriy zikrdan voz kechish, xizmat ahlidan va fidoiy bo‘lmoq, halol mehnat bilan tirikchilik qilish g‘oyalariga qat’iy amal qilgan.

Tariqatda zohir va botin masalasiga munosabat. Bu masalani to‘liq tushunib olish uchun naqshbandiyani unga eng yaqin va u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yassaviya bilan qiyoslashga to‘g‘ri keladi. Boshqa tariqatlar, jumladan, yassaviyadan farqli o‘laroq, Naqshbandiyada zohir va botin o‘zaro ajratildi. *“Zohir yuzidan xalq bilan, botin yuzidan Haq bilan”*, – degan qoida zamirida juda katta ma’no-mazmun – yashirin. Bu sufiylikni xalq orasida oshkor etmaslik, pesh qilmaslik, boshqalardan ajralib turmaslik, xilvatga chekinmaslik, mehnat qilib kun ko‘rishdan voz kechmaslik, oila, bola-chaqa boqish mas’uliyatini bo‘yinga olish, boshqalarning (qul va cho‘rilar) mehnatidan foydalanmaslik va hokazo kabi ezgu tartib-qoidalarga qat’iy amal qilishni talab etar edi.

Tariqatda mehnatga munosabat masalasi. Bahouddin Naqshbandning muridlikka kelgan har bir shogirdidan avval: *“Nima kasbu koring bor? Qo‘lingdan qanday ish keladi?”* deb so‘rashi, agar hech bir kasbi bo‘lmasa, tariqatga kirishdan avval borib biron kasbni o‘rganib kelishi uchun qaytarib yuborgani haqida hikoyatu rivoyatlar bor. Bu bejiz emas edi. Naqshbandiya dunyoviy ishlardan ajralmagan holda ham sufiy bo‘lishning yo‘lini tutgan tariqat edi.

Naqshbandiyaning keng tarqalishiga asos bo‘lgan omillar. Naqshbandiya tasavvufning islom olamida katta hududlarda tarqalgan va hozirgacha izdoshlariga ega tariqati hisoblanadi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida naqshbandiya tariqati davomchilari bor. Ushbu tariqatning zamon talablariga mosligi, uning barchaga ma’qulligi uning keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Naqshbandiyadagi dunyo ishlaridan voz kechmay turib ham Allohni tanish mumkinligi haqidagi qarash musulmon olamida mashhur bo‘lishi tariqatning keng aholi qatlamlari orasiga kirib borishini ta’minladi.

O‘sha vaqtlarda Movarounnahrda, shu jumladan, Buxoroda ham ko‘plab darvesh-qalandarlar bor edi. Ularning asosiy ishi darbadarlik sanalib, biror ish qilmas, hech kimga va hech narsaga muhtojlik sezmay, tilanchilikda yashashni faxr deb bilardilar. Naqshbandiya ularning hayot tarzini tom ma’noda o‘zgartirishga chaqirdi, *“Dil – ba yor-u dast – ba kor”*, deya ularni mehnatga chorladi. Bu borada dastlab naqshbandiya mashoyixlarining o‘zi o‘rnak ko‘rsatdilar. Natijada naqshbandiya ta’limotiga amal qiluvchilar soni kundan-kunga, yildan-yilga ortdi. Qalandarlar turg‘un hayotga qaytdilar. Ular

Haq taolo yo'lida ma'rifat hosil qilish bilan birga, o'z mehnatlari bilan kun kechirish mumkinligini anglab yetdilar.

XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan "Naqshbandiya" ta'limoti O'rta Osiyodan Afg'onistonga, Afg'oniston orqali Hindistonga va boshqa islom yurtlariga tarqala boshladi. Naqshbandiya ta'limoti Amir Temurning mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash, markazlashgan mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojni ta'minlashga intilishda, Temur va temuriylar davri umum-taraqqiyotida katta ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Aynan ana shu XV asrdan boshlab naqshbandiya islom olami-ning juda keng hududida yoyildi. U geografik tarqalishi jihatidan amalda qodiriyadan keyingi tariqatga aylandi. Naqshbandiya tarqalgan mintaqalarda uning mustaqil yo'nalishga aylanib ketgan bir qancha tarmoqlari ham yuzaga keldi.

Naqshbandiyaning Markaziy Osiyoda yoyilishi. Bahouddin Naqshband vafotidan keyin naqshbandiya vakillarining jipslashuvi, bu tariqatning ta'siri kengayishi va tashkiliy tuzilmalari mustahkamlanishida uning xalifasi va vorisi Alouddin Attor (1400-yili vafot etgan), Ya'qub Charxiy (1363-1447) ayniqsa, Xoja Muhammad Porso (1345-1420) xizmatlari katta bo'ldi. Naqshbandiya, asosan, shaharliklar, ya'ni hunarmand va savdo-sotiq sohasi vakillari tariqati edi. Shuning uchun Movarounnahrning ko'plab shahar va shaharchalarida mazkur tariqat xonaqohlari vujudga keldi. Bu tariqat sekin-asta o'z ta'sirini ko'chmanchi turkiy qabilalarga o'tkaza ham boshladi.

XV asrda Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy (1404-1490) zamona-siga kelib naqshbandiya o'z siyosiy va iqtisodiy ta'sirining eng yuksak cho'qqisiga erishdi, nufuzi haddan ziyod oshdi, atrofiga dehqonlar, savdogarlar va yer egalari doiralarini birlashtirdi, ularning qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Xoja Ahror temuriylar saltanati siyosiy faoliyatiga donolik bilan faol aralashdi, amalda deyarli qirq yil mobaynida mintaqaning hukmron siyosiy rahnamosiga aylandi. U temuriy mirzolariga maktublar yozar, ko'rsatmalar berar, ular o'rtasidagi o'zaro nizolarni bartaraf etish, urushlarning oldini olish, yovlashgan qarindoshlarni yarashtirishga intilar va ko'pincha bu borada ko'zlangan maqsadga erishar edi. Uning qarashiga ko'ra, bu dunyoda ruhiy-ma'naviy vazifani ado etmoq uchun siyosiy hokimiyatdan foydalanish kerak edi.

Alisher Navoiyning 1483-yili bitilgan “Hayratu-l-abror” dostonidagi bir bobni maxsus Xoja Bahouddin Naqshband bilan Xoja Ahrorga bag‘ishlaydi⁷². Xoja Ahrorni, jumladan, “jahon yerining dehqoni”, “jahon mamlakatining nigahboni (qo‘riqchisi)” deya ta’riflaydi va davomidan shunday yozadi:

*Yo ‘qki mamolikka nigahbon o‘lub,
Borcha salotin uza sulton o‘lub.*

*Ruq‘alari yetsa ne shah qoshig‘a,
Ish ani qo‘ymog‘lig‘ o‘pub qoshig‘a.*

Shoir talqiniga ko‘ra, Xoja Ahror mamlakatlarga nigahbongina bo‘lib qolmasdan, balki, barcha sultonlar orasida sulton bo‘ldi. Agar qaysi shohga uning maktublari yetib borsa, ular uni o‘pib qoshig‘a qo‘yadigan bo‘ldi. Ya’ni hukmdorlar uning xatlarida bildirgan fikrlariga amal qilar edi. Naqshbandiyaning siyosiy hayotdagi alohida o‘rni va mavqeyi keyingi asrlarda ham saqlanib qoldi. Boshqacha aytganda, Movarounnahrda podshohlarning naqshbandiy pirlarga murid tushishi va o‘z faoliyatida ana shu ulug‘ zotlar maslahatiga amal qilishi odat tusini oldi. Ko‘p hukmdorlar aynan naqshbandiy pirlari qabri yonida dafn etilgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

1500-yildan Movarounnahrda hokimiyat shayboniylar qo‘liga o‘tgach, Xoja Ahror xonadoni siyosiy hayotdan chekindi. Shayboniylar hukmronligi davrida naqshbandiya tariqatiga Maxdum A‘zam Dahbediy Kosoniy (vaf. 1543 yoki 1549-y.) rahnamolik qila boshladi.

Maxdum A‘zam vafotidan keyin naqshbandiyaning markazi yana Buxoroga ko‘chdi. Buxoro shahrining g‘arbida joylashgan Chor Bakrda makon tutgan Maxdum A‘zam muridlari bo‘lgan buxorolik shayxlar (ular “Jo‘yboriy shayxlar” yoki “Jo‘ybor shayxlari” nomi bilan tarixga kirgan) ta’siri kuchaydi. 1920-yilgacha hukm surgan Buxoro amirligida Jo‘ybor shayxlarining ham muayyan siyosiy ta’siri saqlanib qolgan edi. Amir chiqargan farmonlarining xalq orasida qanday qabul qilinganini aynan Jo‘ybor shayxlaridan so‘rab, olib borar edi. Shayxlar aholi o‘rtasidagi munosabatdan kelib chiqib fikr aytar edi.

⁷²Bu paytda Xoja Ahror hali hayot edi.

3.Naqshbandiyaning mujaddidiya tarmog‘i. XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida naqshbandiya tariqati taraqqiyotining yangi yuksalish davri boshlandi. Bu davrda “naqshbandiya” tariqatining bir tarmog‘i sifatida “naqshbandiya-mujaddidiya” tariqati yuzaga keldi. Bunda naqshbandiya tariqatining nazariyotchilaridan biri, ayni paytda yurtimizda faoliyat olib borayotgan deyarli barcha tariqatlarning silsilasida nomi zikr qilingan, XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Hind diyorining Sirhind shahrida tug‘ilgan Imom Rabboniy Ahmad Sirhindi Foruqiyni (1564-1624) o‘ziga xos o‘rni bor. Sirhindi o‘zining “Maktubot” nomli asarida naqshbandiya nazariyasi va amaliyotiga, xususan, “zikr”, “vahdat”, “pir va murid odobi” masalalariga ko‘pgina o‘zgarishlar kiritgan.

Ahmad Sirhindiyni otasi Shayx Abdulahad o‘g‘lining tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratadi. Xat-savodini chiqarish uchun uni boshlang‘ich maktabga topshiradi. O‘zi ham unga chishtiya va qodiriya tariqati odoblaridan ta‘lim berib boradi. Ahmad Sirhindi yoshligida nihoyatda tirishqoq va g‘oyatda iste‘dodli bo‘lib, Qur‘on tilovatini dastlab otasidan va Kamol Kashmiriy, hadis ilmini Shayx Ya‘qub Kashmiriy, tafsir va ba‘zi usul ilmlaridan esa, Qozi Bahlul Badaxshoniydan ta‘lim oladi.

Otasi vafotidan keyin Ahmad Sirhindi Makka ziyoratidan qaytib, Hasan Kashmiriyni tavsiyasiga ko‘ra, Shayx Muhammad Boqiydan ta‘lim oladi. Imom Rabboniy ikki oy ichida allomadan ilm sirlarini egallab, naqshbandiya tariqatining davomchisi sifatida ish boshladi.

Ahmad Sirhindiyni naqshbandiya tariqatidagi faoliyati XVII asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Hindiston boburiy Jaloliddin Muhammad Akbarshoh (1551-1605) va Nuriddin Muhammad Jahongirshoh (1605-1627) hukmronligi ostida edi. Ahmad Sirhindi bilan mazkur hukmdorlar o‘rtasidagi munosabat goho keskinlashib, goho iliqlashib turgan. U Akbarshohning dinlarni qorishtirish siyosatiga (diniy sinkretizmiga) va Jahongir shohning shialikka moyilligiga qarshi bo‘lgan.

Ahmad Sirhindi “Imom Rabboniy” va “Mujaddidu alfi soniy” ya‘ni “ikkinchi ming yillikning yangilovchisi” kabi sharaflil nomlar bilan shuhrat qozongan. Bu avvalo, “Alloh har yuz yilda bitta o‘z dinining yangilovchisini yuboradi”, – degan hadisdan kelib chiqqan

bo'lsa, ikkinchidan, Imom Rabboniy zamonasining eng ko'zga ko'ringan ulamolaridan biri sifatida "mujaddidi alfi soniy", ya'ni "hijriy ikkinchi ming yillikning yangilovchisi" deb e'tirof etilganiga ishora edi. Naqshbandiya tariqatining "mujaddidiya" deb atalib ketishiga ham Ahmad Sirhindiyning mazkur unvoni sabab bo'lgan edi.

Tarixiy manbalarda, Ahmad Sirhindiyning shogirdlari to'rt yuzdan oshiq, deb keltirilgan. Undan naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Movarounnahrda keng yoyilishiga ulkan hissa qo'shgan bir qancha movarounnahrlik shayx-allomalar ta'lim olib, yuksak maqomlarga erishganlar.

Imom Rabboniy nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad Sirhindi o'z zamonining mashhur davlat va siyosat arboblari, buyuk olimlar va mutasavviflar bilan keng aloqada bo'lib, ularga maktublar yozib turgan, turli mavzulardagi murakkab masalalar va yangi topilgan falsafiy, tasavvufiy va aqidaviy muammolarni yechib berishga intilgan. Mazkur maktublar keyinchalik uning shogirdlari tomonidan to'planib, "Maktuboti Rabboniya" nomi bilan mustaqil asar sifatida tanilgan.

Imom Rabboniyning 536 ta maktubi to'planib, "Maktuboti Imom Rabboniy" nomli kitobda jamlangan. "Maktubot-i Rabboniy" yoki qisqagina "Maktubot" nomi bilan mashhur asar – hindistonlik mashhur mutasavvif, naqshbandiya tariqati silsilasining shayxlaridan, mujaddidiya tarmog'i asoschisi Imom Rabboniy (Ahmad Sirhindi, 1563-1624) maktublari to'plami. Asar avvalboshidan 3 jilddan iborat bo'lishi ko'zlangan bo'lib, ular o'z ichiga Imom Rabboniyning 536ta maktubini jamlagan.

Birinchi jild 1616-yilda Imom Rabboniyning shaxsiy ko'rsatmasiga binoan shogirdi Yor-Muhammad Jadidi Badaxshiy-Toliqoniy tomonidan tuzilgan bo'lib, undagi maktublarning soni rivoyatda kelgan rasul-payg'ambarlar va Badr jangida qatnashgan sahobiylar soniga uyg'un tarzda 313ta bo'lishi ixtiyor qilingan. Ikkinchi jildagi maktublar 1619-yilda Imom Rabboniyning yana bir shogirdi Abdulhay Putniy tomonidan to'plangan bo'lib, bunda maktublar soni "al-asmou-l-husno" adadiga muvofiq ravishda 99ta deb belgilangan. Uchinchi jild Imom Rabboniyning vafotidan keyin 1630-yilda, uning yana bir shogirdi Muhammad Hoshim Keshmiy tomonidan to'planib, undagi maktublar soni Qur'oni karim suralari adadiga mos holda

114tani tashkil etdi. Uchala jildda umumiy hisobda 526ta maktub jamlanib, uchinchi jildga Imom Rabboniyning oxirgi 10ta maktubi ham ilova qilindi. Natijada maktublar soni 536taga yetdi. “Maktuboti Rabboniy” asari umumiy mazmunda Imom Rabboniyning shariat, aqoid, tariqat odoblari, turli bid’at-xurofotlarga munosabat va boshqa bir qator o‘z davrida dolzarb bo‘lgan masalalar atrofidagi fikr-mulohazalari, tavsiyalari, chaqiriqlarini o‘zida jamlab olgan. Kitobning asosiy mavzusi turli mahalliy ta’sirlar va tashqi g‘oyalar natijasida o‘zgarishlarga uchrab borayotgan naqshbandiya tariqatining turli tarmoqlari vakillariga, ularning siymosidagi musulmon jamoalariga murojaatlardan iborat bo‘lib, ularni yot g‘oya va amaliyotlardan chetlashish hamda sof sunniy aqida musaffoligi saqlab qolishga undovlardan iborat. Bu ayniqsa, o‘sha davrda Hindistonda yangi diniy islohot o‘tkazish orqali barcha mavjud dinlarni birlashtirish g‘oyasi bilan chiqqan Jaloliddin Akbar davrida mahalliy musulmonlarning o‘z e’tiqodlarini saqlab qolishlarida muhim o‘rin tutgan. Asar Movarounnahrda juda ham ardoqlangan va hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmay keladi. Asar keyinchalik Toshkent, Qozon, Hindiston matbaalarida bir necha marta nashr qilingan va naqshbandiya tariqatida yozilgan eng katta hajmli kitoblardan biri bo‘lgan. Asar arab, fors, turk tillarida to‘liq nashrdan chiqqan. Ayrim qismlari (to‘liq emas) rus, ingliz va boshqa tillarga o‘girilgan.

Naqshbandiya-mujaddidiya shayxlari XVIII-XIX asrlarda O‘rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi hududlari ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Ayniqsa, XVIII asrda hukmron tabaqalar tomonidan olib borilgan diniy islohotlar va siyosiy tadbirlarda mujaddidiya shayxlarining faol ishtiroki yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buxoro amirligi XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida mang‘itlar sulolasi vakillaridan Muhammad Doniyol (vaf. 1785-y.), Amir Shohmurod Ma’sum (hukm.y. 1785-1800) va Amir Haydar (hukm.y. 1800-1826) hukmronligi davrida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bevosita yoki bilvosita ushbu tariqat namoyondalarining rahnamoligi va aralashuvi ostida kechgan.

Movarounnahrlik allomalardan Musoxon Dahbediy, mavlono Abdulg‘ofur Samarqandiy, mavlono Yusuf Samarqandiy, shayx Abdulhay Sag‘oniyoniy, mavlono Solih Ko‘lobiy, mavlono Muhammad Siddiq Keshmiy, shayx Tohir Badaxshoniy, xoja

Muhammad Hoshim Keshmiy va Badriddin Sirhindiylar ham naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Movarounnahrda kirib kelishi va tarqalishiga katta hissa qo'shganlar.

Ahmad Sirhindiyaning bir yarim asr keyin yashagan Valiyulloh Dehlaviy (1703-1762) uning ta'limotini davom ettirib, amaldagi mujaddidiy an'analarini yangiladi, o'zining shariatga bo'lgan sharh va tushunchalarini kiritdi.

Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining keng yoyilishida tariqat shayxlarining o'rni beqiyos bo'lgan. Ahmad Sirhindiyaning uchinchi o'g'li shayx Muhammad Ma'sum (1599-1668) naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Hindistondagi eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri hisoblanadi. U ko'plab valiylarni tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ayniqsa, undan movarounnahrlik bir qancha shayx-allomalar ta'lim olib, naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Movarounnahrda keng yoyilishiga o'z hissasini qo'shganlar. Shayx Muhammad Ma'sum o'z davrining ilg'or shayx-allomalari bilan yozishmalar orqali muloqotda bo'lib turgan. Bu yozishmalar asosida "Maktuboti Ma'sumiya" kitobi yuzaga kelgan. Mazkur kitob uch jildidan iborat bo'lib, unda muallifning 652ta maktubi to'plangan. Bu kitob 1976-yili Pokistonning Karachi va undan tanlab olingan maktublar 1979-yili Istanbulda nashr etilgan. Uning Istanbul nashri nusxasi 1807, 1808, 1860 raqamlari ostida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi fondida saqlanmoqda.

O'rta Osiyoning ko'plab mujaddidiya shayxlari orasida eshonhoji nomlari bilan mashhur bo'lgan, hoji Habibulloh Buxoriy (vaf. 1700-y.) murshidi Muhammad Ma'sum Sirhindiyaning aqid ilmining sir-asrorlarini Hindiston va Makka safari paytida o'rganadi. Shu bois ham uni, Shohmurodning o'g'li bo'lgan Mir Husayn "hijriy XII (milodiy XVIII asr) islom asrining mujaddidi" deb ataydi va shu tariqa hoji Habibullohni XIII islom asri (milodiy XIX asr) mujaddidi Shohmurod va II ming yillik mujaddidi Ahmad Sirhindiylar bilan bog'laydi.

Naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining rivojlanishiga sabab bo'lgan omillardan biri, tariqat shayxlarining ilm-fan sohalarida keng faoliyat olib borganlari va bu mintaqada ta'lim sohasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlaridir. Mujaddidiya shayxlari xonaqohlardan tashqari madrasalarda ham ta'lim berganlar. XVIII

asrning oxiri – XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ayniqsa, mang‘it hukmdori Buxoro amiri Shohmurod Ma’sum (hukm.y. 1785-1800) davrida hukmron tabaqalarning naqshbandiya-mujaddidiya tariqatini qo‘llab-quvvatlashi tasavvuf arboblarning jamiyat hayotiga sezilarli ta’sir o‘tkazishlariga ham qulay shart-sharoit yaratdi. Ayniqsa, eski madrasalarni qayta ochib, yangilarini qurishga Shohmurod Ma’sum va Amir Haydar (hukm.y. 1800-1826)larning jonbozlik ko‘rsatgani ham fikrimizning yorqin isbotidir.

Mujaddidiya shayxlarining madrasa ta’limi o‘ziga xos bo‘lib, O‘rta Osiyoda ma’naviy-ma’rifiy sohalar rivojiga katta hissa qo‘shgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Ahmad Donish (1827–1897) kabi yirik ulamolar va ma’rifatparvarlar Buxoroda islom dinini isloh qilish fikri bilan chiqib, muayyan dasturlar tuzganlar. Ahmad Donish mujaddidiya ta’limoti bilan juda yaxshi tanish bo‘lgan. Odil hukmdorlaridan biri hisoblangan Amir Shohmurodning o‘tmishda yuritgan siyosati Ahmad Donish kabi ilg‘or fikrli o‘zbek ma’rifatparvarlari uchun o‘rnak hisoblangan.

XVIII asrning II yarmidan boshlab, O‘rta Osiyoning mujaddidiya shayxlari ushbu ta’limotni Markaziy Osiyo va Volga-Ural mintaqasida tarqalishiga salmoqli hissa qo‘shadilar. Mujaddidiyaning ko‘plab shayxlari O‘rta Osiyoda ushbu ta’limotni mustahkamlab, bu yerdagi avvaldan mavjud bo‘lgan naqshbandiy jamoalar bilan birga asta-sekinlik bilan boshqa tariqatlarni siqib chiqargan mahalliy ta’lim markazlariga asos soladilar.

Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati vakillari boshqa tariqat a’zolari bilan ham aloqada bo‘lgan. Jumladan yassaviya, qodiriya, xalvatiya tariqatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda o‘zlarini ushbu tariqat namoyandalari deb yurituvchilarni hozirda Farg‘ona vodiysida ko‘proq uchratish mumkin. Mazkur tariqat an’analari, rasm-rusumlari hozirga qadar ham O‘zbekiston va Qozog‘iston sufiy jamoalari amaliyotida qo‘llanib kelinadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

-Yusuf Hamadoniyning xojagon tariqati vujudga kelishdagi o‘rni?

-Naqshbandiya-xojagonning o‘ziga xos jihatlari nimada?

- Bahouddin Naqshband hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
- Imom Rabboniy va mujaddidiya tarmog‘i xususiyati?

Mustaqil ish topshiriqlari:

O‘zbekistonda soxta tariqatchilik faoliyatlari

O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ahmad Sirhindiy. Al-Maktubot ar-Rabboniyya. – Bayrut: Dor al-Kutub al-ilmiyya, 2004.
2. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford 1971.
3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.
5. Кыш A. Musulmanskiy mistitsizm. – Moskva: Dilya, 2004.
6. Shimmel A. Mir islamskogo mistitsizma. – Moskva: Enigma, 2000.
7. Tasavvuf atamalari izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.

9-MAVZU. MUSULMON OLAMIDA TASAVVUFNING HOZIRGI HOLATI

Reja:

1. Kichik Osiyo hududlarida tariqatlarning bugungi holati.
2. Mavlaviya tariqati.
3. Turkiyadagi naqshbandiya jamoalari.

Tayanch iboralar: *subkontinent, “Muhibbon”, “Majlisi mashoyix”, takya, zoviya, roja, suluk.*

1. Kichik Osiyo hududlarida tariqatlarning bugungi holati⁷³.

Tariqatlar, xususan naqshbandiylik Usmonilar imperiyasi davrida, keyinchalik Turkiya tarixida muhim ahamiyatga ega edi. Chunonchi, Usmonilar davlatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jabhalari tasavvuf va tariqatlarning ta'siri ostida edi. Shunga qaramay, XX asrning boshlariga kelib Usmoni davlatining so'nggi yillarida tasavvufga qarshi ayrim tanqidlar boshlandi. Bu kabi muammolarga aniqlik kiritish maqsadida Usmoni Turkiyasidagi mutasavviflar matbuot va nashriyot ishlariga keng e'tibor bera boshladilar. Chunonchi, 1911-yildan boshlab “Jaridai sufiya”, “Tasavvuf”, “Muhibbon” kabi tasavvuf mavzusidagi jurnallar nashr etila boshladi. Ayni paytda ijtimoiy hayotda tasavvufning o'rnini ko'rsatuvchi bir qancha uyushma va jamiyatlar ham tashkil etildi. Chunonchi, Shayx Noiliy Badaviy tomonidan takya va tasavvuf ta'limotini isloh qilish uchun “Jamiyati sufiyai ittihodiya” tashkil etiladi. Jamiyat “Jaridai sufiyya” bilan hamkorlikda ish olib borib, ko'proq tasavvufiy hayotni isloh etish maqsadida kitoblar chiqaradi, konferensiya, seminar, suhbat va ijodiy kechalar uyushtirish kabi ma'rifiy-madaniy faoliyatlarga e'tibor qaratadi. Tasavvufiy hayotni qaytadan jonlantirish istagi bilan chiqqan uyushmalardan yana biri «Madrasatu-l-mashoyix» bo'lib, ko'proq shayxlarning farzandlarini ta'lim-tarbiyalab yetishtirishga e'tibor qildirdi. “Majlisi mashoyix” tasavvufiy hayotni nizomga solish

⁷³ Ushbu bo'lim N.Hasanning Turkiyada tariqatlar (XX asr) nomli maqolasi asosida tayyorlangan. Ba'zi o'rinlarda yangi ma'lumotlar kiritilgan. Ushbu kiritilgan yangi ma'lumotlar boshqa mualliflarga tegishli ekanini bildirish maqsadida havolalar bilan ta'minlangan. Qarang: N.Hasan. Turkiyada tariqatlar (XX asr) // Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta'limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Toshkent: Movarounnahr, 2014. – B. 81-111.

va nazorat qilish maqsadida Usmoni davlatining shayx-ul-islomlik maqomi qoshida barpo etilgan rasmiy davlat muassasasi edi. Asr boshida tashkil etilib, qonun va faoliyat jihatidan “Majlisi mashoyix” bilan deyarli bir xil bo‘lgan «Mashixatu-t-turuqi-s-sufiyya» esa shayxlarni tayinlash, zikr qilish shakli, tariqatga kirish shartlari, mavlud va hokazo diniy yig‘inlar uchun qo‘yilgan talablar kabi masalalarni tartibga soluvchi bir jamiyat bo‘lgan. Tasavvufiy islohotga yo‘nalgan bunday faoliyatlarga qaramay, jumhuriyat tashkil etilishi bilan xonaqohlar yopilgach (1925-y.), tasavvuf va tariqat bilan bog‘liq barcha rasmiy faoliyatlar o‘z-o‘zidan to‘xtatildi. Shunga qaramay, tasavvuf va tariqatlar Turkiyaning jumhuriyat davrida muhim iz qoldirgan edi. Xususan, birinchi jahon urushidan keyingi milliy istiqlol kurashidagi ahamiyati diqqatga molikdir.

Istanbulning Uskudar mavzesida joylashgan naqshbandiylarga mansub o‘zbeklar takyasi milliy istiqlol janglariga juda katta yordam ko‘rsatgan. XVIII asrda Usmoni hukmdorlari tomonidan O‘rta Osiyolik musofirlar, hoji va umrachilar uchun alohida ehtirom bilan barpo etilgan o‘zbeklar takya-xonaqohi O‘rta Osiyodan kelgan yuzlab mehmonlarga mezbonlik xizmati ko‘rsatib kelgan. Hatto takyaning shayxlari O‘rta Osiyodan olib kelingani qayd etiladi. Shu jihatdan o‘zbeklar takyasi Turkiston tasavvuf madaniyatini, xususan, yassaviylikka xos tariqat an‘anasini davom ettirib kelgan bir markaz sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, adabiyotlarda qayd etilishi-cha, takyadagi yig‘inlarda turkiy tilda “ilohiy” janridagi qo‘shiqlar kuylanar, Ahmad Yassaviyning hikmatlari o‘qilar, jo‘shqin va ravon hikmatlar jo‘rligida esa zikri arra ijro etilgan. Mutaxassislarning xulosasiga ko‘ra, o‘zbeklar takyasi O‘rta Osiyo madaniyatining Usmoni davlatidagi bir vakili edi. Uningcha, o‘zbeklar takyasi Usmoni turk xalqining nafaqat diniy hayotida, balki, ilm-ma‘rifat, kasb-hunar tarixida ham muhim o‘rin tutib kelgan.

1920-yil Istanbul dushman davlatlar tomonidan ishg‘ol etilgach, Istanbuldan Onado‘liga, ya’ni Turkiyaning ichki qismiga borib milliy istiqlol janglarida qatnashmoqchi bo‘lgan ziyoli va zobitlar yashirinchalik bu takyaga kelishgan ekan. Ayni paytda takya Istanbuldan Onado‘lidagi milliy istiqlol janglariga qurol-yarog‘ yetkazib beruvchi bir baza vazifasini o‘tagan, yaradorlar bu joyda yotib davolanishgan. Mazkur xizmatlari tufayli bo‘lsa kerak 1925-yil davlat farmoni bilan

takyalar yopilganida ham o‘zbeklar takyasi yopilmay ochiq qolgan ekan.

Turkiyada jumhuriyat davrida ko‘p takyalar faoliyati to‘xtatildi. Shunga qaramay ayrim tariqatlar o‘z faoliyatlarini davom ettirdilar. 1950-yillardagina tasavvufga bir qadar erkinliklar berilib, tasavvuf muhitidagi kishilar ijtimoiy, ma’rifiy, ta’limiy va madaniy sohalarda tasavvuf an’anasini davom ettira boshladilar. Kitob va maqolalar nashri va ustoz-shogird munosabatlariga e’tibor berildi.

Yuqorida aytilganidek Turkiyada tariqatlar faoliyati taqiqlanishi natijasida, tariqat birlashmalari o‘zlarini boshqacha nom bilan atashlariga to‘g‘ri keldi. Natijada tariqatlarning sho‘balari deb atalishi mumkin bo‘lgan birlashmalar “jamoat”lar nomini oldi⁷⁴. Bu holat ko‘proq tariqat sho‘balari boshliqlarining muayyan bir masjidda imomlik qilishidan kelib chiqqan. Masalan, Iskandarposho masjidi tariqat shayxi Mehmed Zohid Qutquning shu nomli masjidda imomlik qilishi natijasida shunday nomlangan, Ismoil og‘a jamoasi esa Mahmud Usta Usmon o‘g‘li shu nomli masjid imomi bo‘lganidan shunday atalgan.

1970-80 yillarda Turkiyada naqshbandiya tariqati faoliyati Muhammad Zohid Qutquning faoliyati bilan bog‘liq. Bu davrdan e’tiboran tasavvuf ahli orasida ijtimoiy-siyosiy hayotda faollik sezildi. Najmiddin Erbaqon va uning safdoshlari Milliy Nizom (Milliy Salomat) partiyasini tashkil etdilar. Bu partiyaning muassislari va a’zolari orasida tariqat muxlislari ham bor edi. 1983-yil hukumatni egallagan “Ona Vatan” partiyasi rahbari bosh vazir Turg‘ut O‘zal ham naqshbandiy muxlisi bo‘lgan. T.O‘zalning rahbarligi davrida diniy va tasavvufiy faoliyatlar nisbatan erkinlashdi.

1990-2000-yillarda Yevropa Ittifoqi mezonlariga ko‘ra inson huquqlari va erkinligi masalasi qayta ko‘tarildi. Natijada Turkiyada “takya” nomi bilan emas, “Jam va madaniyat uyi” nomi bilan bekto-shiy takyalari ochildi, hatto davlat byudjetidan mablag‘ ajratildi. Mavlaviy tariqatiga oid ba’zi takyalar (mavlaviyxonalar) davlat tomonidan ta’mirlanib jonlantirildi, mavlaviy shayxlari tomonidan samo‘ yig‘inlari o‘tkazish targ‘ib etildi. Boshqa tariqatlar uchun bevosita bunday yordam berilmasa ham faoliyatlari cheklanmadi.

⁷⁴ Sayetov I. Vizov modernu iz sentra Stambula: Djamaat “Ismail Aga” v obshchestvennoy jizni Tursii // Uchenye zapiski Kazanskogo Universiteta. 2/3/155/2013. – S. 90.

Bundan maqsad Yevropa Ittifoqi mezonlari bilan bir qatorda, Pokiston, Eron va Saudiya Arabistoni kabi o'lkalardan kirib keladigan keskin radikal oqimlardan ko'ra, Turkiyadagi mahalliy va mo'tadil tasavvufiy guruhlarining, ayniqsa, naqshbandiylikning keng tarqalib rivojlanishi ko'zda tutilgani ehtimoldan xoli emas.

2002-yilgi saylovda Rajab Toyyib Erdo'g'on boshchiligidagi "Adolat va taraqqiyot" partiyasi (AQ partiya) hukumat tepasiga kelgach tariqat faoliyatlari yanada kengaydi. Bugun Turkiyada naqshbandiylik, qodiriylik, xilvatiylik, ushshoqiylik, jarrohiya, bektoshiya va mavlaviya singari tariqatlar o'z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Bularning aksari ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatish bilan birga insonlarning axloqiy va ruhiy jihatdan kamol topishiga ham o'zlarining samarali hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

2.Mavlaviya tariqati. Asli xorazmlik bo'lib, mo'g'ul bosqini paytida Balxga, undan keyin Onado'liga ko'chib ketgan yurtdoshimiz Mavlono Jaloliddin Rumi (vaf.1273 y.) tomonidan Onado'lida ta'sis etilgan mavlaviylik tariqatining takyalari ham 1925-yil yopilgan. Lekin mavlaviylarning zikri samo' majlislari 1950-yillardan keyin madaniyat va xalq an'anasiga mansub faoliyat sifatida baholanib, ma'lum vaqtlarda ijro etilishiga davlat tomonidan izn berilgan va qo'llab-quvvatlangan. 2000 yillarga qadar yig'ilishlarini tor doirada o'tkazgan mavlaviy shayxlari so'nggi vaqtlarda davlatning ko'magi bilan faoliyatlarini bemalol davom ettirmoqdalar. Bulardan biri bo'lgan va Mavlononing ayrim asarlarini turkchaga o'g'irgan Shafiq Jonning (vaf. 2005y.) ishlarini Mavlono tadqiqot markazida uning shogirdlari davom ettirishmoqda. Mavlono nafaqat Turkiyada, balki butun dunyoda fikr-qarashlarining insoniyligi va mehr-muhabbatga to'laligi tufayli sevib ardoqlanadi, asarlari ixlos bilan mutolaa etiladi, shunga qaramay mavlaviy tariqati a'zolari juda kamchilikni tashkil qiladi⁷⁵.

XX asr boshida Turkiya jumhuriyat tizimiga o'tib, davlat dindan ajratilganiga qaramay, jamiyat hayotidan din, tasavvuf va tariqatlar butunlay yo'qolib ketmadi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshiga

⁷⁵Jaloliddin Rumiyning ayrim asarlari o'zbekchada nashr etilgan ("Ichindagi ichindadir", U.Abdulvahob tarjimasi, Toshkent: 2001; "Masnaviyi ma'naviy", Olti jild. J.Kamol tarjimasi, Toshkent: 2004-2006)

kelib tasavvufiy faoliyatlar shakl va uslubiy jihatdan o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, mamlakatda yana tasavvuf ta'limotiga keng e'tibor berilib, tariqatlar zamonaviy ko'rinishda rivoj topa boshladi. Turkiyada tasavvuf va tariqatlarning yashab qola olgani, jamiyat va xalq hayotining deyarli barcha jabhalarida insonlar ma'naviyatiga ta'sir etib tura olganining, albatta, muhim sabab va omillari bordir.

Shuni aytish kerakki, XX asr so'ngidan boshlab nafaqat Turkiyada, balki dunyoning boshqa o'lkalarida ham sufiy harakatlar jonlana boshladi. Turkiyada tasavvuf va xonaqoh ta'lim-tarbiya usuli eski davrdagilarga qaraganda son jihatidan kamaysa-da, tasavvufga nisbatan ommaviy qiziqish, tasavvufiy asarlarga talab, ularni tadqiq etish va nashr qilish rivojlandi.

3. Turkiyadagi naqshbandiya jamoalari. Turkiyada eng ko'p tarqalgan va ta'sir ko'lamiga ega tariqat naqshbandiylikdir. Mamlakatdagi naqshbandiylarning aksari Xolid Bag'dodiydan (vaf. 1827-y.) keyin davom etgan naqshbandiy-xolidiy tarmog'iga mansubdirlar. O'lkaning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatgan naqshbandiy guruhlar quyidagilardir:

Iskandarposho jamoati. Xalq orasida Iskandarposho jamoati nomi bilan mashhur bo'lgan bu naqshbandiy jamoasi umrining oxirgi yillarini Istanbuldagi Iskandarposho jome-masjidining imomi o'laroq o'tkazgan naqshbandiya-xolidiya tarmog'i shayxi Mehmed (Muhammad) Zohid Qutqu Bursaviyning (1897-1980) izdoshlaridan tarkib topgandir. M.Z.Qutqu 1880-yil Dog'istondan Onado'liga ko'chib kelib, Bursada qo'nim topgan sayyid oilasida dunyoga keladi. Asli buxorolik bo'lgan Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy takyasida xizmat qilayotgan Shayx Umar Ziyovuddin Dog'istoniya murid bo'ladi. Uning vafotidan keyin o'rinbosar (xalifa) bo'lgan Mustafo Fayzi Taqirtog'iyning huzurida sayru sulukini davom ettirib, yigirma yetti yoshida shayxlik ijozatini oladi. Mustafo Fayzining istagi bilan turli muzofot va qishloqlarga borib diniy xizmatlarda qatnashadi. Takyalar yopilgach, Bursaga qaytib imomlik qiladi. 1952-yili Kumushxonaviy dargohidagi do'sti va hamfikri (shayx-doshi) shayx Abdulaziz Bakkina Qozoniy vafot etgach, muridlarni tarbiyalash uchun Istanbulga joylashib, Fotih tumanidagi Iskandarposho jome masjidiga imom etib tayinlanadi va umrining oxiriga qadar bu dargohda imomlik bilan bir qatorda murshidlik faoliyatini

ham davom ettiradi. Ustozi shayx Abdulaziz Qozoniyni atrofida yigʻilgan ziyoli shaxslardan iborat yirik bir halqani boshqaradi. M.Z.Qutqu atrofida ziyoli yoshlar toʻplana boshlaydi. Ular orasida Qoʻrqut Oʻzal (Turgʻut Oʻzalning ukasi), Tamal Qoramullaoʻgʻli, Jaloliddin Oʻktam, Sabohiddin Zoim, Ersin Gurdoʻgʻan, Najmiddin Erbaqon, Nuriddin Toʻpchu, Oʻrxon Oʻkay, Koʻkxon Avliyooʻgʻli, Mazhar Oʻzman, Usmon Chatoqli, Mahmud Asʻad Joʻshon singari taniqli shaxslar bor edi.

M.Z.Qutquning qarashlari uning “Tasavvufiy axloq”, “Jannat yoʻllari”, «Ota-ona haqlari», “Xos suhbatlar”, “Ahli sunnat aqoidi”, “Nafs tarbiyasi”, “Hadislar bilan nasihatlar”, “Moʻminlarga vaʼzlar”, “Zikrullohning fazilatlar” kabi oʻnlab asarlaridan oʻrin olgan. Shuningdek, u Farididdin Attorning «Tazkiratu-l-avliyo» asarini ham turkchaga oʻgʻirgan⁷⁶.

M.Z.Qutqu 1980-yil vafot etgach, oʻrniga kuyovi va shogirdi ilohiyot/filologiya fanlari doktori, Anqara universiteti islomiy turkiy adabiyot kafedrası professori Mahmud Asʻad Joʻshon shayx etib tayinlanadi. Uning oʻzi diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan olim boʻlishi bilan birga, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardan ham yaxshi xabardor boʻlgan, xorijiy tillardan arab, fors, ingliz va nemis tillarini yaxshi bilgan. Uning koʻp ilmiy, adabiy, maʼrifiy, diniy-tasavvufiy asarlari, maqolalari nashr etilgan⁷⁷. Tafsir, hadis va tasavvuf ilmlaridan, chunonchi, Ahmad Ziyovuddin Kumushxona-viyni «Romuzu-l-ahodis», Abu Abdurrahmon Sulamiyni «Tabaqotu-s-sufiya» nomli kitoblari dars berdi. M.A.Joʻshon naqshbandiya tariqatidan tashqari qodiriya, kubraviya, suhravardiya, chishtiya, xalvatiya, jalvatiya, shoziliya va mavlaviya tariqatlaridan ham irshod qilish ijozatini olgan.

⁷⁶Uning ayrim asarlari oʻzbekchaga ham tarjima qilinib, yurtimizda nashr boʻlgan (Qarang: «Tazkirat ul-avliyo» (Toshkent, 1997), “Ahli sunnat aqoidi” (Toshkent: Movarounnahr, 1999), “Roʻza ruh shifosi” (Toshkent, 1999), “Imon qushining ikki qanoti” (Toshkent, 2000), “Moʻminlarning sifatlar” (Toshkent, 2006).

⁷⁷Olimning asarlari oʻzbekchaga ham oʻgʻirilgan. Qarang: “Tasavvuf va nafs tarbiyasi” (Toshkent, 1998), “Zikrullohning fazilatlar” (Toshkent, 2000), “Hoji Bektosh Vali. Maqolot” (Toshkent, 2000) “Islom, tasavvuf va axloq” (Toshkent, 2001), “Tasavvuf va goʻzallik” (Toshkent, 2004), “Yunus Emro va tasavvuf” (Toshkent, 2003), “Hajning nozikliklar” (Toshkent, 2001), “Ramazon va taqvo” (Toshkent, 2004), “Oʻquv va yozuv malakasi” (Toshkent, 2011), “Bebaho meros” (Toshkent, 2012) kabilar.

M.A.Jo'shon ustozining tavsiyasi bilan tashkil etilgan "Haq yo'l vaqfi"ning faoliyatlarini boshqaradi. Ta'lim-tarbiya, hamjihatlik va o'zaro yordamlashuv ishlarini keng yo'lga qo'yadi. Ta'lim, madaniyat, san'at, matbuot, nashriyot, tibbiyot, tijorat va hokazo sohalar bilan bog'liq ishlarni olib borish maqsadida jamg'arma, nashriyot va shirkatlar ochadi. Keng jamoatchilikka murojaat qilish niyatida "Islom", "Ayol va oila", "Ilm va san'at", "Gulcho'juq", "Panzahar" kabi ilmiy, ma'rifiy va ommabop jurnallar chop ettira boshlaydi. Mazkur nashrlarda o'sha davrning dolzarb masalalariga bag'ishlab o'z maqolalarini e'lon qilib turadi. Radio va televideniye kanallari ishga tushiriladi. Ularda nafaqat diniy-tasavvufiy, balki ilmiy, tarixiy, falsafiy, adabiy va ma'rifiy ko'rsatuvlar ham muntazam berib boriladi. Bu jamoaning tashabbusi bilan ta'lim-tarbiya sohasiga ham qo'l uriladi. Turli shaharlarda bolalar bog'chalari, boshlang'ich va o'rta maktablar, kollej va litseylar ta'sis etiladi. Turizm sohasida xalqqa xizmat ko'rsatish uchun turistik firmalar ochiladi.

90-yillarda mazkur jamoa a'zosi bo'lgan Najmiddin Erbaqon o'zini mamlakatning yagona siyosiy yo'lboshchisi, deb e'lon qilgani bois jamoada bo'linish yuz beradi. Jamoaning bir qismi unga, bir qismi esa M.A.Jo'shonning izidan ketadi. Shunga qaramay M.A.Jo'shon irshod faoliyatini davom ettiradi. U nafaqat Turkiya, balki o'lka hududlaridan tashqariga chiqib Yevropa, Amerika, Osiyo va Avstraliyada ko'plab shogirdlar orttiradi. U yerlardagi turli ilmiy, ma'rifiy, adabiy konferensiya, seminar va majlislarda faol ishtirok etadi. M.A.Jo'shon 2004-yil Avstraliyada avtohalokatga uchrab vafot etadi. Otasining vasiyatiga ko'ra tariqat rahnamosi sifatida shayx etib tayinlangan Muharram Nuriddin Jo'shon bugungi kunda jamoaning faoliyatlarini keng miqyosda olib bormoqda. 1963-yil Anqarada tavallud topgan Nuriddin Muharram Jo'shon Saudiya Arabistonidagi Qirol Fahd universitetida hamda Nyu-Yorkdagi Santa Roza kollejining menedjmentlik kollejida tahsil olgan. Ingliz va arab tillarini yaxshi biladi. Otasining ilmiy, madaniy merosini xalqqa yetkazish va fikr-qarashlarini tadbiq etish maqsadida M.A.Jo'shon nomli tadqiqot va ta'lim markazini tashkil etgan.

Turkiyadagi naqshbandiylarning tariqat silsilasini bilish nuqtai nazaridan quyida naqshbandiy-xolidiy tarmog'iga mansub Iskandarposho jamoasining silsilasini Xolid Bag'dodiydan Mahmud As'ad

Jo'shon va uning o'g'li Muharram Nuriddin Jo'shongacha yetib kelgan.

Erenko'y jamoati. Erenko'y jamoati, deb tanilgan yana bir naqshbandiy jamoasi Shayx Mahmud Sami Ramazono'g'li afandining izdoshlaridan tarkib topgandir. Sami afandi tariqat faoliyatini uzoq vaqt mobaynida Istanbulning Erenko'y tumanida olib borgani uchun Erenko'y jamoati nomi bilan mashhur bo'lgan. 1892-yil Adanada dunyoga kelgan Sami afandi Istanbuldagi Shayx Muhammad As'ad Irbiliydan (vaf. 1931 y.) tariqat ijozatini olgan.

M.S.Ramazono'g'li tasavvufiy ta'lim-tarbiya faoliyatlarini dastlab uyda, keyinchalik jome masjidlarda olib boradi. Uning suhbat halqalarida turli kasb-hunar egalari ishtirok etdilar. Xususan, tijorat va savdo ahli, ishlab chiqaruvchilar uning suhbatlarida ko'pchilikni tashkil etadi. 1984 y. Madinada vafot etib o'sha yerga ko'miladi. Muridlari tomonidan tashkil etilgan "Erkam yayinlari" nashriyoti Sami afandining asarlarini chop etgan. Sami afandidan keyin Erenko'y jamoatiga Muso To'pbosh afandi rahbarlik qila boshladi. "Sodiq Dono" laqabini qo'llagan Muso afandi davrida jamoat juda kengayadi. "Oltino'luk" nomli oylik ma'rifiy jurnal chop etiladi. Aziz Mahmud Hudoiy nomli vaqf ta'sis etiladi. Bu vaqf vositasida faqir, muhtoj, beva-bechora, yetim-yesirlarga yordam ko'rsatiladi, talabalar yotoqxona, keksalar qariyalar uyi bilan ta'minlanadi, bir qator ta'lim-tarbiya muassasalari tashkil etiladi. Jamoatning bir xususiyati shuki, u doimo o'zini siyosatdan chetga tortib keladi. Chunonchi, Muso To'pbosh siyosatga aralashgandan ko'ra yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan afzalroq, deb nasihat qilar ekan.

Muso To'pbosh 1999-yil vafot etgach, uning o'rniga farzandi Usmon Nuri To'pbosh o'tadi. Bu yangi davrda jamoat O'rta Osiyo va Bolqon hududlarida islomiy ta'lim-tarbiya faoliyatlariga e'tibor qaratmoqda, bir qancha o'quv muassasalari ochgan. "Shabnam", "Oltincho'juq", "Shafqat" kabi ilmiy, ma'rifiy va ommabop jurnallar chop etiladi⁷⁸.

Ishqchilar guruhi. Yana bir naqshbandiy-xolidiy shayxi Abdulhakim Arvosi (vaf. 1943-y.) bo'lib, u vafot etgach, o'rniga biror kishi xalifa bo'lmagan bo'lsa-da, ikki ilg'or shogirdi tasavvufiy

⁷⁸U.N.To'pboshning "Masnaviy" sharhiga bag'ishlangan bir asari Mavlono Jaloliddin Rumiy yubileyi munosabati bilan o'zbekchaga tarjima qilingan (qarang: U.N.To'pbosh. "Masnaviy" bog'chasidan bir ko'za suv», Toshkent, 2007).

asarlar yozishda davom etishgan. Bularning biri Najib Fozil Qisakurak, ikkinchisi Husayn Hilmi Ishiq. Ishiq afandining atrofiga yigʻilgan jamoaga xalq orasida ishiqchilar deyishgan.

Mashhur shoir Najib Fozil Qisakurak shayxi Arvosiyning “Riyozi-t-tasavvufiya” va “Robitai sharif” nomli ikki kitobini Usmoni turkchasidan zamonaviy turkchaga soddalashtirib lotin yozuvida chop ettirgan. Shuningdek “Buyuk Doʻgʻu” jurnalini nashr ettirib, adabiy-maʼrifiy suhbatlari bilan Turkiyadagi yoshlarning maʼnaviy-madaniy kamoliga muhim hissa qoʻshgan.

Asl kasbi kimyo muhandisi boʻlgan Husayn Hilmi Ishiq ham qolgan muridlarni boshqarib yoʻnaltirib turgan, diniy-tasavvufiy asarlar chiqargan. Uning shogirdlari “Turkiya” gazetasini, baʼzi oynomalarni koʻp ming tirajda chop ettirmoqdalar. H.H.Ishiq 2001-yilda vafot etgach, jamoat faoliyatlarini uning kuyovi Anvar Oʻren (vaf. 2013-y.) davom ettirgan. Jamoat asos solgan “Ixlos xolding” kompaniyasi uy-xoʻjalik jihozlari ishlab chiqaradi va sotadi. Jamoatning tashabbusi bilan «Turkiya gazetasi, radio va televideniyesi» (TGRT)tashkil etilgan.

Sulaymonchilar. Sulaymon Hilmiy Tunaxon afandining (vaf. 1959-y.) muridlardan tarkib topgan naqshbandiya jamoati xalq ommasi tomonidan *Sulaymonchilar* nomi bilan tanilgan. Sulaymon afandi madrasada oʻqib yurgan paytlari Turkistonlik naqshbandiy-mujaddidiy shayxi Mavlono Sirojiddin oʻgʻli Salohiddin Oʻshiy (mashhur mutasavvif shoir Huvaydo Chimyoniyning nabirasi) hazratlarining irshod halqasiga kiradi. Uning qoʻlida taʼlim-tarbiya topgach, 1936-yil tariqat ijozatini oladi va naqshbandiy shayxi sifatida irshod faoliyatini boshlaydi. Sulaymon afandi shogirdlariga Qurʼon, arab tili, mumtozdiniy ilmlardan dars beradi. 1949-yilda “Qurʼon kurslari”ning ochilishiga rasmiy ruxsat berilishi bilan Sulaymon afandining tashabbusi bilan Turkiyaning koʻplab joylarida Qurʼon oʻqitish kurslari ochiladi.

Sulaymon afandi 1959-yil vafot etgach uning oʻrinbosari qolmagan boʻlsa-da, kuyovi Kamol Qochar jamoa ishlarini boshqaradi. Uch safar ketma-ket Adolat partiyasi Kutahya deputati etib saylangan Kamol Qochar ayni paytda Yevropa kengashi qoshidagi turk parlamentar hayʼati aʼzosi ham boʻlgan.

Kamol Qochar boshchiligidagi bu jamoat Turkiyadagi faoliyatlardan tashqari Yevropadagi turk ishchilari orasida ham birinchi bo‘lib islomiy targ‘ibot faoliyatini boshlagan. Dastlab Qur‘on kurslari, 1974-yildan e‘tiboran esa Islom madaniyat markazlari va bu markazlarning uyushmasi tashkil etildi. 1990-yildan boshlab Germaniyada bu jamoatning 150dan ziyod jome masjidi ochilgan.

Sulaymonchilarning MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida noqonuniy faoliyat yuritgani, bir qator qonunbuzarliklarni amalga oshirgani ma‘lum. Shuningdek, ayrim MDH vaqtli matbuotida ushbu tariqatga ekstremistik oqim sifatida baho berilganini aytib o‘tish lozim.

Usmon Xulusiy afandi (1915-1990). Naqshbandiy-xolidiy tarmog‘i shayxi bo‘lgan bu zot Malatyaning Doranda tumanida tavallud topgan. Yoshlik yillarida naqshbandiy-xolidiy shayxi Ehromchizoda Sivasiy Ismoil Haqqiy Tuproq afandiga murid bo‘lgan “Xulusiy jome”da imomlik qiladi. Shu bilan bir qatorda duradgorlik, terichilik, o‘ymakorlik bilan shug‘ullanadi. Ustozining vafotidan keyin uning xalifasi sifatida faoliyat boshlaydi. Dorandada turli uyushmalar, jome masjid, kutubxona, imom-xatib maktabi, Qur‘on kursi, litsey, sanoat maslak litseyi va ilohiyot fakulteti ochishda faollik qiladi. 1986-yil o‘zining nomiga jamg‘arma (“Sayyid Usmon Xulusiy afandi vaqfi”)tashkil etadi. 1990-yil vafot etgan Xulusiy afandining naslu nasabi sayyidlardan bo‘lib, So‘munju bobo ismi bilan mashhur bo‘lgan Hamidi valiyning (Hoji Bayrami valiyning murshidi) o‘n ikkinchi bo‘g‘in avlodidir. Adabiyot muxlisi bo‘lgan Xulusi afandi barcha mutasavviflar kabi she‘rni irshod uchun bir vosita deb bilgan. Buni uning “Devoni Xulusiy Dorandaviy” nomli devonidan (Istanbul, 1986) o‘rin olgan mumtoz g‘azallari, ilohiy, qo‘shma va barmoqda yozilgan manzumalarida ko‘rish mumkin. Uning ko‘plab she‘rlari mashhur xonandalar tomonidan bastalangan va xalq orasida juda mashhurdir. Xulusi afandining maktublari vafotidan keyin to‘planib “Maktuboti Xulusi Dorandaviy” nomi bilan chop etilgan (nashrga tayyorlovchi Mehmet Oqqush. Anqara, 1996).

Muharram Hilmi Ko‘satürkman (1878-1964). Yana bir naqshbandiy-qodiriy shayxi Turkiyaning Elazig‘ (al-Aziz) viloyatida tavallud topgan M.H.Ko‘satürkman yoshligida naqshbandiy-qodiriy shayxi Arabkirli Umar Hudoiy Boboga shogird tushadi, keyin

kubraviy shayxi Muhammad Kufraviygaintisob etib, uning nazora-tida xilvatga kirib ijozat oladi. Shuningdek, Abdulboqi Bitlisiydan naqshbandiya, Cho‘rumli Hoji Mustafo afandidan shoziliya, Sayyid Ali Rizo Axiskaviydan akbariya, Ahmad Bobo Sanamiriydan rifoia tariqatlari bo‘yicha ijozat oladi. Madrasada ishlaydi. 1964-yil Elazig‘da vafot etadi. Suhbatlarida Mavlono Jaloliddin Rumiyning«Tariqi payg‘ambari mo ishq ast» (Payg‘ambarimizning yo‘li ishq yo‘lidir) so‘zini bot-bot ifodalaydigan M.Hilmi afandi she‘rlarida taassub va jaholatni, soxta shayxlarni qattiq tanqid qiladi. U «Maqomoti azkori ilohiya li soliki tariqat il-qodiriya», «Hadiyatu-z-zokirin», “Devoni Sirriy” kabi asarlarni qalamga olgan.

Muhammad Said Saydo (1890-1968). Yana bir naqshbandiy-xolidiy shayxi Muhammad Said Saydo Jazariy afandi Jizrada xolidiy shayx Umari Zangoniy oilasida tavallud topgan, naslu nasabi sayyidlardan bo‘lgan Mardinlik Piri Qurayshga mansub. Otasining vafotidan keyin Muhammad Said otasining shogirdi shayx Husayn Basratiyning himoyasida voyaga yetadi. “Saydo” taxallusi berilgan Muhammad Said tog‘asi Muhammad Nuriy Dershaviy va otasidan keyingi xalifa Abdulhakim Dershaviydan tahsil oladi. Keyin madrasada akasi shayx Sirojiddin qo‘lida ta‘lim olib, uning ijozatini oladi. 1920-yil akasi vafot etgach, madrasani boshqaradi. Mudarrislik chog‘ida Saydoga tog‘asi shayx Muhammad Nuri Dershaviy tomonidan tariqat ijozati beriladi. Shu asnoda tog‘asining huzurida hamda madrasa ta‘limi bilan birga tariqat faoliyatini boshlaydi. 1924-yil tog‘asining vafotidan keyin beshinchi murshid sifatida tariqat halqaboshisi bo‘ladi. Kamolga yetishgan Saydo ilk madrasa ijozatini Mulla Sulaymon Xusariy bilan Muammad Said Ramazon Butiyning otasi Mulla Ramazonga beradi. Ko‘plab shogirdlarini o‘sha mintaqadagi joylarga madrasa va dargoh ishlari uchun mas‘ul qilib tayinlaydi. Tasavvuf va fiqhga doir “Tasavvuf”, “Ahkom”, «Robita fi-r-robita», “Manzumot”, «Majmau-s-sag‘ir», «Tibbu-n-nabaviy» kabi o‘nlab asarlari chop etilgan. Saydo 1968-yil Jizrada vafot etadi.

Jizraning Qal‘a mahallasidagi shayx Saydo maqbarasidagi dar-gohda Saydoning izdoshlari childirma chalib ilohiy qasidalar kuylab, zikri jahriy marosimi o‘tkazib keladilar, bu esa takya-xonaqoh va klassik devon adabiyoti an‘anasining davom etayotganini ko‘rsatadi. Saydo dargohi ojizu bechoralar, musofirlar orom topadigan, ruhiy

bemorlar shifo topadigan, qiynalganlarning hojatlari hal bo‘ladigan muqaddas bir markaz hisoblanadi. Saydodan keyin farzandi Muhammad Nurulloh Saydo ilmiy, adabiy, tasavvufiy faoliyati bilan xizmat qilib, o‘ndan ortiq asar nashr ettiradi. Uning «Tasavvuf sirlari-1» (Toshkent, “Movarounnahr”, 1999) risolasi o‘zbekchaga tarjima qilingan. 1985-yil vafot etgan bu zotdan keyin tariqat halqasini bugungi kunda uning ukasi Umar Foruq Saydo Jazariy afandi davom ettirmoqda. Uning tasavvufiy suhbatlari jamlangan “Tasavvuf sirlari” (ikkinchi kitob) (Toshkent, “Movarounnahr”, 2001) risolasi ham o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Alvarli Muhammad Lutfiy afandi (1868-1956). Yana bir naqshbandiy shayxi va mutasavvif shoir Alvarli Muhammad Lutfiy afandi Arzirum shahrida tavallud topgan bo‘lib, dastlab otasidan, keyin shaharning taniqli olimlaridan ilm olgan. Arzirumning Hasanqal’asi-dagi jome masjidida imomlik qilgan. 1891-yil naqshbandiy shayxi Muhammad Piri Kufraviyga murid bo‘ldi. Uning xalifasi sifatida Hasanqal’ada irshod faoliyatini olib boradi. Birinchi jahon urushida ishtirok etadi. Arzirum dushmandan ozod etilgach, naqshbandiya-xolidiya shayxi sifatida irshod bilan mashg‘ul bo‘ladi. 1956 yil vafot etgan Alvarli afandi arab, fors va turkiyda she’rlar yozgan. Mazkur she’rlarni uning o‘g‘li Sayfiddin Mazlumo‘g‘li «Xulosatu-l-haqoyiq» nomi bilan nashr ettirgan (Istanbul, 1974). Bu devonida turli janrdagi yetti yuzdan ortiq she’ri o‘rin olgan. Barmoq vaznidagi sodda va ravon she’rlarining ayrimlari bastalangan.

Yuqorida tilga olinganlardan tashqari Turkiyada ta’sir kuchi oz bo‘lgan yana bir qancha naqshbandiy shayxlari va jamoalari bor. Chunonchi, Ehromchizoda Ismoil Haqqiy Tuproq afandi (vaf. 1973 y.), Muhammad Ehson O‘g‘uz afandi (vaf. 1991 y.), Dada Posho Muso afandi (vaf. 1974 y.) kabi naqshbandiy siymolarning shogirdlari ham diniy-tasavvufiy asarlar nashr ettirish, talabalarga tahsil berish singari xizmatlar yurgizib kelmoqdalar.

Bulardan tashqari, Shayx Nozim Qubrusiy (vaf. 2014-y.) guruhi ham o‘zini naqshbandiylardan deb biladi. Biroq bu guruh amaliyotida naqshbandiylardan keskin farqlanib turuvchi jihatlar ko‘p.

Jarrohiylar. Jarrohiya tariqati XVIII asrning boshida Shayx Nuriddin Jarrohiy (vaf. 1721-y.) tomonidan xalvatiyaning bir tarmog‘i sifatida Istanbulda barpo etilgan. Istanbulning Qoragumruk

mahallasidagi Nuriddin Jarrohiy maqbarasida joylashgan takya jarrohiylarning markazi hisoblanadi. Jumhuriyat davrida takyada eng faol xizmat qilganlardan shayx Muzaffar O‘zak (1916-1985) bo‘lgan. Istanbulda dunyoga kelgan M.O‘zak ushshoqiy shayxi Abdurahmon Somiy Saruxoniyning himoyasida tahsil oladi. Abdulhakim Arvosiy va Shafiq afandi kabi shayxlarning suhbatlarida bo‘ladi. Nafis san’at akademiyasidagi xattotlik va bezak darslarini olgan M.O‘zak jome masjidlarda muazzinlik, voizlik va sahhoflar bozorida sahhoflik (kitobfurushlik) qiladi. Hofiz Ismoil Haqqidan musiqa bo‘yicha saboq oladi. Xalvatiya-sha‘boniya shayxi Marashli Ahmad Tohir afandiga murid bo‘ladi. Qodiriya tariqatidan irshod ijozati bermoqchi bo‘lishganida, qabul qilmay, xilvatiy-jarrohiy shayxi Faxriddin afandiga murid bo‘ldi. Nihoyat 1965-yil bu tariqatdan xalifalik berilgan M.O‘zak ustozining vafotidan (1966) keyin jarrohiy takyasining o‘n to‘qizinchi turbadori va murshidi sifatida faoliyat boshladi. Istanbulning yirik jomelarida, qahvaxonalarda, jarrohiy takyasida va o‘zining sahhof do‘konida har turli saviyadagi kishilarga islom va tasavvuf haqida ma’ruza qiladi. Quddus, Bag‘dod, Shom va Qohira singari yirik shaharlarda tasavvufiy suhbatlar o‘tkazadi. M.O‘zakning va’zu xutbalari, targ‘ibot uslubi xorijliklarning e’tiborini tortadi. Amerika, Germaniya, Angliya, Gollandiya, Belgiya va Fransiyadagi bir qator madaniyat va san’at tashkilotlari tomonidan taklif etilgan M.O‘zak xorijliklar bilan tasavvufiy suhbatlar o‘tkazadi. Bu suhbatlari va Ishqiy taxallusi bilan yozgan Yunus Emro uslubidagi she’rlari ta’sirida ko‘plab Yevropaliklar unga murid bo‘ladilar. Uning tasavvufiy faoliyati va g‘arb o‘lkalariga qilgan sayohatlari natijasida bu tariqat Amerika va g‘arb davlatlarida ham tarqaladi. M.O‘zakning “Irshod”, “Anvoru-l-qulub”, “Ziynatu-l-qulub”, “Ishq yo‘li vuslat yo‘li”, “Gulzori orifon”, “Muhabbat – sharob” kabi asarlari Nyu York, Istanbul, Moskva va Toshkentda⁷⁹ chop etilgan.

M.O‘zak 1985-yil vafot etgach uning o‘rnini Safar Dal afandi egalladi. Safar Dal afandining vafotidan keyin esa jarrohiylarga Umar Tug‘rul Inoncher shayxlik qilayotir. Bu tariqatning faoliyati Qoragumrukda Nuriddin jomesidagi «Turk tasavvuf musiqasini tadqiqot va jonlantirish jamiyati» vositasida amalga oshirilmoqda.

⁷⁹Muzaffar Xilvatiy, “Muhabbat – sharob”, tarjimon – O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol. Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2014.

Haftada ikki marotaba – dushanba va payshanba oqshom vaqtida bu yerda suhbat majlislari o‘tkaziladi. Birida nashidalar o‘qilsa, ikkinchisida zikr halqasi quriladi. Jamoatning Turkiyadagi a‘zolari juda ko‘p bo‘lmasa-da, oralarida shoir, yozuvchi va san‘atkorlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Jamoatda takya odobi va musiqasiga alohida ahamiyat beriladi. Siyosatga aralashmaydilar. Shuningdek, bugungi kunda psixolog olim, professor Robert Freger “Rag‘ib bobo” taxallusi bilan Amerikada, madaniyat tarixi mutaxassisi professor Sa‘diddin O‘kten esa Turkiyada xilvatiylik mohiyatini tanitmoqdalar.

Sha‘boniylar. Xalvatiya tariqatining muhim bir tarmog‘i bo‘lgan sha‘boniya XVI asr xilvatiy shayxi Kastamonulik Shayx Sha‘boni Valiy (vaf. 1569-y.) tomonidan tashkil etilgan. Bu tarmoqning ilg‘or shayxlaridan biri bo‘lgan Mehmed Dumlu bugun Kutahyada yashaydi. Bu shaxs va tariqati to‘g‘risida internet sahifasida (www.halveti.net) ma‘lumotlar mavjud. Yana bir sha‘boniy shayxi Mustafo O‘zeren afandi (vaf. 1982 y.) 1911 yil Istanbulga ko‘chib kelgan va sha‘boniy shayxlaridan Ahmad Tohir Memish afandidan (vaf. 1954 y.) irshod ijozati olgan.

Ushshoqiylar. Turkiyada bir nechta ushshoqiy shayxlari faoliyat yurgizadi. Mehmed Nusrat Tura afandi (vaf. 1979-y.) oxirgi davrning ilg‘or ushshoqiy shayxlaridan bo‘lgan. Bir qancha diniy-tasavvufiy asarlari chop etilgan. Vafotidan keyin o‘rniga Najdatbek bilan Siddiq Najiy Eran degan zotlar o‘tganlar. Asosan Ushshoqiy vaqfi nomli saxovat tashkiloti faoliyat yurgizadi.

Qodiriya tariqati. Milodiy XII asrda Abdulqodir Giyloni (vaf. 1166-y.) tomonidan asos solingan qodiriya tariqatining Turkiyada bir nechta tarmoqlari mavjud. Ulardan birining shayxi Misboh Armanqul bo‘lib, bu zot Istanbulning To‘pxane mahallasidagi Qodiriyxona (rasmiy nomi Ismoil Rumi jomesi) takyasida shayxlik qiladi. Juma kunlari peshin bilan asr orasida jamoa bo‘lib zikr qildiradi. Muharram oyida takyada ashuro taomi pishirib tarqatiladi. Qodiriylik an‘analarini jonlantirishga harakat qilayotgan bu jamoa-ning a‘zolari unchalik ko‘p emas.

Rifoiya tariqati. Milodiy XII asrda Iroqda tashkil etilgan rifoiya tariqatining XX asrda Turkiyadagi yirik shayxlaridan biri Kan‘on Rifoiydir (vaf. 1950-y.). Vafotidan keyin o‘rniga xalifasi Samiha Oyverdi xonim (vaf. 1993-y.) bo‘lgan. Samiha xonim tarix, adabiyot

va tasavvufga doir bir qancha asarlar va romanlar yozgan. Samiha Oyverdi va yaqinlari “Qubbaolti” nomli vaqf ochib, uning qoshida nashr ishlari bilan shug‘ullanib keladilar. Chunonchi, “Qubbaolti akademi majmuasi” (jurnali) shular jumlasidandir. Madaniyat va san’atga ahamiyat beruvchi bu jamoa tarkibida ko‘plab ilm va san’at ahlini ko‘rish mumkin. Samiha Oyverdidan keyin bir necha tarmoqqa bo‘lingan ushbu tariqatning bugungi yo‘lboshchisi Ilhon Oyverdi xonimdir.

Arusiya tariqati. Aslida kelib chiqish yeri Shimoliy Afrika bo‘lgan bu tariqat, Umar Favzi Mardin orqali Turkiyaga ham kirib borgan. Undan keyin Mustafo Aziz Chinor va Mehmet Foiq Erbil kabi zotlar tomonidan davom ettirilgan.

Bektoshiylik tariqati. Xoja Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan Hoji Bektosh Valiy (vaf. 1271-y.) tomonidan asos solingan, boshqa bir qarashga ko‘ra Abul Vafo Bag‘dodiyga nisbat berilgan vafoiya tariqatining bir tarmog‘i sifatida Onado‘lida ta’sis etilgan bektoshiylik tariqatiga asrlar o‘tgach shia va hurufiylik ta’sirlari ham o‘tgan. Natijada tariqat mansublari orasida diniy qoidalarga loqaydlik yuzaga keladi. Jumhuriyat davriga kelib 1925-yil takyalar yopilganda bektoshiy takyalari ham tugatilgan. Ammo diniy qoidalarga amal qilmaydigan va shialikning ta’sirida qolgan alaviylik ko‘rinishi bilan sintezlashgan bektoshiylik davlat tomonidan nisbatan muhofaza etilgan. Buning evaziga esa bektoshiylarning aksari jumhuriyat xalq partiyasini qo‘llab-quvvatlab kelganlar. Boshqa tomondan esa ba’zi alaviylar yillar o‘tib sunniylashganlar yoxud o‘z madaniy o‘zliklarini muhofaza qilib jamiyatga moslashganlar. Boshqa bir qismi esa so‘lchi guruhlariga qo‘shilib ketgan. Aslida bektoshiya bir tariqat, alaviylik esa bir mazhab bo‘lib, bir-biridan alohida ikki ta’limot bo‘lgan. Ammo jumhuriyat davrida bir-biriga atayin yaqinlashtirilib jipslashtirilgan. So‘nggi davrlarda bektoshiy takyalarini “Jam va madaniyat uyi” nomi bilan ochishga rasmiy ruxsat berilmoqda.

Mavzu bo‘yicha savollar

- Musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan tariqatlar haqida nima bilasiz?
- Kichik Osiyoda faoliyat olib borayotgan mavlaviya tariqatining bugungi kundagi ahamiyatini ko‘rsating

- Hozirgi Turkiyadagi naqshbandiylar va ularning yetakchilari kimlar?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Kichik Osiyoda tariqatlarning yoyilishi va bugungi kundagi holati.

O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Sufism and the modern in Islam. Martin Van Bruinessen, Julia Day Howell. – London-New York, I.B.Tauris, 2005.

2. Sufizm v Syentralnoy Azii (zarubejnie issledovaniya) – SPb.: Filologicheskiy fa-kultet SPbGU, 2001

3. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.

4. Tasavvuf atamalari izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.

5. Knish A. Musulmanskiy mistisizm. – Moskva: Dilya, 2004.

6. Ali-zade A. Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Ansar, 2007.

10-MAVZU. SAUDIYA ARABISTONIDA TASAVVUF

Reja:

1. Bugungi kunda Saudiya arabistonida tariqatlarga munosabat.
2. Sanusiya tariqati.
3. Shoziliya tariqatining Saudiya hududidagi faoliyati.

***Kalit soʻzlar:** Saudiya Arabistoni podshohligi, salafiylik, NATO, arab bahori, Hijoz.*

1. Bugungi kunda Saudiya Arabistonida tariqatlarga munosabat. Tasavvufning har qanday muhitda yashovchanligi uning turli xalqlarning madaniy yutuqlari va milliy urf-odatlarini oʻzlashtirib, islomiy koʻrinishda qayta taqdim eta olish xususiyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan Saudiya Arabistoni Podshohligida tasavvuf XX asr birinchi choragidan eʼtiboran kuchli tazyiqqa uchrab kelayotganiga qaramay, u nafaqat saqlanib qoldi, balki muayyan koʻrinishda rivojlanib ham bordi.

Saudiya Arabistonidagi tasavvuf boshqa islom mamlakatlaridagi tasavvufdan farq qiladi. Bu mamlakatda tasavvuf koʻproq muayyan tizimli tariqatlar shaklida emas, balki shaxslar atrofida toʻplangan halqalar koʻrinishiga ega. Bu holat koʻp jihatdan mamlakatdagi oʻrnatilgan hukmron mafkura bilan bevosita bogʻliq. Umuman olganda, koʻrfaz mamlakatlari tasavvufining oʻziga xos jihati ham ularning uyushmaganligi va oʻz davlati hududidan chetga chiqqan olmaganligi bilan belgilanadi. Odatda, ommaviy tarzda koʻrfaz naqshbandiylari, qodiriylari, idrisiylari haqida ochiqchasiga soʻz yuritilmaydi.

Tarixda koʻplab tariqatlar yurti boʻlgan Hijoz mintaqasidagi sufiylik mamlakatdagi rasmiy diniy yoʻnalish – salafiylik tomonidan XX asr davomida qattiq siquvga olib kelindi. Ammo vaziyat 2001-yil 11 sentyabr voqealaridan soʻng tamomila oʻzgarib ketdi. Binobarin, 2001-yil 11-sentyabrdagi voqealarda Xalqaro Savdo markazi binolariga hujum uyushtirgan 19 terroristdan 17 tasi Saudiya Arabistoni fuqarolari boʻlib chiqqani mamlakat yuqori doiralarini tashvishga solib qoʻydi. Voqealarning keyingi rivojida NATOning Iroq va Afgʻonistonga harbiy amaliyotlar boshlashini SAP rasmiylari qoʻllab-quvvatlashi

oqibatida mamlakatda hukumatni g'ayridinlarga moyillikda ayblash va ichki terror faoliyati avj olib ketdi. Bu jarayonlarni jilovlash maqsadida mamlakatdagi ayrim ko'zga ko'ringan mutaassib diniy tashviqotchilarga targ'ibot ishlari bilan shug'ullanish man qilindi. Qolganlarining ham faoliyatini cheklash tatbiq qilina boshladi.

Ayni mana shu vaqtda mamlakat sufiylariga nisbatan yuqori doiralarida iliqlik munosabati paydo bo'la boshladi. Hozirga kelib, sufiylar SAPda ilgarigidek ochiqdan-ochiq tazyiqqa uchramayapti. Sufiy shayxlar, murid va darveshlar oshkora faoliyat olib bora boshladilar: mikrofonlarda jamoaviy mavlud, salovot va durud o'qishlar tatbiq etila boshladi. Sufiy majlislarga politsiya bostirib kelmayapti, sufiy adabiyot saqlash taqiqlanmay qoldi. Ilgari saudiyalik mutaassib salafiyalar tomonidan kufrda ayblanib kelingan molikiy mazhabining taniqli sufiy shayxi Muhammad Alaviy Molikiy ham to'satdan podshoh huzuriga kirib chiqadigan yaqin maslahatchilardan biriga aylanib qoldi. Saudiya Arabistonida tasavvuf yoshlar orasida tarqalib borayotgani haqida ma'lumotlar tarqalmoqda. "Arab bahori" nomini olgan jarayonlar ta'sirida saudiyalik yosh sufiylarda o'z marosimlarini bajarishda erkinlik talab qilib chiqish kayfiyati ustun bo'lmoqda Rasmiy doiralar ham o'zlarini go'yoki bu jarayonlarga qarshilik ko'rsatishga urinmayotgandek tutmoqdalar.

Ammo rasmiy ulamolar va sufiylar o'rtasida sovuq urush hamon to'xtagani yo'q. Jumladan, SAP bosh muftiysi, Ulamolar kengashi raisi shayx Abdulaziz Oli Shayx ar-Riyoz Markaziy masjidida 2011-yil 4-iyun juma namozida tasavvuf tariqatlari yo'lboshchilarini "zalolat va xurofot targ'ibotchilari" ekani hamda "ularning tutgan yo'llari musulmonchilikdan emasligi" haqida ma'ruza qildi. Undan oldingi 2010-yil fevral oyidagi juma ma'ruzasida esa tariqatlarni "zalolatdagi firqalar" deb baholagan edi.

Bundan tashqari, Saudiyaning "al-Vatan" gazetasining 2010 yildagi sonida qayd etilishicha, Madinadagi Umar ibn Xattob va Salmon Forsiy tarixiy masjidlari sufiylar nazdida g'oyatda e'zozlanishi bois mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yopilgan.

Bundan 30 yillar ilgari Shayx Abdulaziz ibn Boz davrida chiqarilgan fatvolar oqibatida SAPda tasavvufning siquvga olinishi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan edi. Hijriy 11.11.1401 yilda chiqargan 86-sonli fatvosida Ibn Boz saudiyalik sufiy yetakchilardan

bo'lgan Muhammad Alaviy Molikiyni "bid'at va xurofot targ'i-botchisi" hamda "zalolat va butparastlik da'vatchisi" deb baholagan edi. Bu fatvo ortidan chiqqan keyingi keskin fatvolar SAPda sufiylarga qarshi kampaniyani yanada o't oldirgan, natijada sufiy marosimlariga mamlakatda butkul chek qo'yilgan edi.

11 sentyabr voqealaridan keyin Podshoh Abdulloh bir necha turkum yig'ilishlar o'tkazib, mamlakatdagi turli mazhab, yo'nalishlarga bag'rikeng bo'lish, ularni e'tirof etish masalasini ko'tardi. Bunday yig'ilishlarda turli yo'nalish, mazhab vakillari ham ishtirok etdilar. Ular ichida eng muhtaram mehmonlar qatorida SAP sufiylari yetakchilaridan Muhammad Alaviy Molikiy ham bor edi. Shu voqealardan bir oz vaqt o'tib, Molikiy vafot etganida,

podshohning o'zi uning janozasida ishtirok etdi. Bir muddat oldin esa bunday o'zgarishlarni tasavvur ham qilish qiyin edi.

Bunday nisbiy erkinlik sharoitidan unumli foydalangan sufiylar sufiyona marosimlarni ochiq o'tkazish haqida e'lonlar berish, tasavvuf ham islomdan tashqarida emasligi haqida OAV orqali chiqishlar qilish, internet tarmog'i orqali ham faol sufiylik tashviqotini olib borish amaliyotini qo'llamoqdalar.

Ammo shu bilan birga salafiy jamoalarning mamlakatdagi sufiylarga nisbatan tazyiqiga nisbatan hukumat jim kuzatuvchi maqomida turganini ham ta'kidlab o'tish zarur.

Tarixiy jihatdan Hijoz mintaqasi podsho Abdulaziz Oli Saud tomonidan XX asrning birinchi choragida qo'shib olinishi, ikki muqaddas masjidning Muhammad ibn Abdulvahhob (vaf. 1792 y.) izdoshlari bo'lgan salafiy tomonidan egallab olinishi natijasida bu mintaqada diniy vaziyatning o'zgarishi sodir bo'ldi: jamoaviy zikr majlislari, Madinaga Payg'ambar (s.a.v.) qabrlari ziyorati uchun safarga chiqish, boshqa maqbaralarni ziyorat qilish, masalan, Makkadagi Xadicha bint Xuvaylid maqbarasi, Payg'ambar siyrati bilan bog'liq qadamjolarga ziyorat qilish (Hiro g'ori, Nur tog'i va boshqalar), mavlud kabi marosimlarni o'tkazish, bid'at deb e'lon qilindi.

2. Sanusiya tariqati. Sanusiya Shimoliy Afrikada keng tarqalgan tariqat bo'lib, o'z vaqtida mustamlakachilarga qarshi kurashgan faol kuch sifatida aholi orasida katta nufuzga ega bo'lgan. Sanusiylik tariqatining asoschisi sayyid Muhammad ibn Ali Sanusiy Kabir taxm. 1791-yil Jazoirida tug'ilgan. Tariqat vakillari uning nasabi Ali ibn

Abu Tolibga borib taqalishini e'tirof etadilar. U yoshligidan ilm talabida turli joylarga safar qilgan. Marokashning Fos shahrida o'qib yurgan kezlaridayoq darveshlar va sufiylar faoliyatiga yaqindan qiziqib kelgan. U Shimoliy Afrikada bo'lgan vaqtida qodiriya, Fosda esa toyyibiya tariqatiga intisob etgan edi. Uning dastlabki qarashlariga tijoniya tariqati katta ta'sir o'tkazgan bo'lsa-da, keyinchalik sanusiya vakillarida tijoniylarga nisbatan zid kayfiyat shakllangan.

Muhammad ibn Ali Sanusiy Hijozda ta'lim olib yurgan kezlarida bir nechta tariqatlarga a'zo bo'ldi. Idrisiya tariqati shayxi Ahmad ibn Idrisga shogird tushgan. Ahmad ibn Idrisning vafotidan so'ng uning muridlari ikkita tariqatga ajraldilar. Shulardan biri idrisiya hamda Muhammad ibn Ali Sanusiy asos solgan sanusiylik tariqatlari.

1829-yildan boshlab Muhammad ibn Ali Sanusiy turli mamlakatlarga safar uyushtirdi. Qohira va Makkada bir qancha tariqat vakillaridan ta'lim oldi. 1837-yili Makkada sanusiylikka asos soldi. Makkadagi molikiy faqihlarining ta'qibidan so'ng Muhammad Sanusiy o'z yurtiga qaytishga majbur bo'ladi. 1848-yili Jazoirga qaytib kelgan vaqtida Fransiya Jazoirni mustamlaka qilish harakatida edi. Muhammad Sanusiy vatani Jazoirni asta-sekinlik bilan fransuzlar qo'lga o'tib ketayotganini ko'rgach, o'zi istiqomat qiladigan joy Kirenaikani tanlab olib, u yerda bir nechta zoviyalar barpo etdi. Ular orasida mashhuri "Zoviyatu Bayzo" edi. Bu zoviyada shogirdlariga qilgan ta'sirli va'zlari natijasida uning tarafdorlari soni tobora orta bordi. 1856-yili Misr chegarasiga yaqin Yag'bubada sanusiylar zoviyasi ish boshladi. Bu zoviya 1895-yilga qadar mazkur tariqatning qarorgohi sifatida faoliyat yuritdi. 1859-yilda Liviyada Muhammad Sanusiy vafot etdi. Uning vafotidan so'ng tariqat rahbarligi uning o'g'illari Mahdi va Muhammad Sharif qo'lga o'tdi.

XIX asrning oxirlariga kelib sanusiy zoviyalarining soni Kirenaikada 45ta, Tripolitaniyada 28ta, Fazzonda 21tani, dunyo bo'ylab esa 146tani tashkil etgan. Ular orasida Yag'bubadagi zoviya eng kattasi va Muhammad Sanusiyning qarorgohi bo'lib, diniy-siyosiy markaz vazifasini o'tagan. Sababi ushbu joy Mag'rib mamlakatlari, G'arbiy Sudan savdo yo'llariga tutash bo'lib, Misr orqali Makkaga haj amalini bajarish uchun boruvchilar ham aynan mazkur hududdan o'tganlar. Shu jihatdan ham Yag'bubadagi zoviya juda mashhur bo'lgan.

Muhammad Sanusiy 1825-yili Hijozga kelgan vaqtida 36 yoshda edi. Hijozda 15 yil mobaynida faoliyat olib borishga muvaffaq bo'ldi. Sanusiy Makkada shayx Abdulhafiz ibn Darvesh Ujaymi qo'lida ta'lim olib, undan ijozat olishga ham erishadi. Undan "Sahihi Buxoriy"ni va Imom Molikning "Muvatto" asarini o'rganadi. Ujaymiy o'z davrida "Kichik hanafiy" nomini olgan olim bo'lgani bois o'z davrining taniqli ulamolalaridan bo'lgan. Shuningdek, Sanusiy yana shayx Makkiy Umar ibn Karim ibn Abdulkarim Attordan ham ta'lim olgan.

Shu davrlar mobaynida Muhammad Sanusiy Makkada dastlabki murshidi bo'lgan Ahmad ibn Idrisni uchratishga muvaffaq bo'lgan. Sanusiy undan hadis ilmini, shuningdek, idrisiya tariqatining (muhammadiya-idrisiya deb atalgan) ta'limotini o'rgangan edi. Ahmad ibn Idris Sanusiyni o'zining noibi etib tayinlab, unga nisbatan "sen bizdansen, biz sendanmiz" deb yuksak ehtirom bildirgan.

XIX asr Usmonilar davriga kelib sufiylar Hijozda juda e'tiborda bo'lganlar. Mintaqada zoviya va takyaxonalar juda ko'p bo'lib, sufiy tariqatlar ham keng tarqalgan edi. Hatto ayrim Hijozga xos yangi tariqatlar ham shakllana boshladi. Masalan, makkalik sufiy Ahmad ibn Idris asos solgan idrisiya tariqati. Ahmad ibn Idrisning o'zi shoziliya-xalvatiya tariqatiga mansub bo'lgan.

1826-yilda Sanusiy Abu Qubays tog'ida ilk zoviyasini qurdirmoqchi bo'lganda, qurilishga mahalliy zodagonlar tomonidan ruxsat etilmaydi. Sababi Abu Qubays tog'idagi joy sathi Ka'baning balandligidan yuqori bo'lgani uchun uni qurish rad etilgan edi. Ammo keyinchalik mahalliy zodagonlarga Sanusiy uzr izhor qilgach, ular tomonidan qurilishga ijobiy javob oladi. Hatto ular zoviyaning barpo etilishida ko'mak ham berganlar. Zoviya qurilishi 1827-yilda boshlanib 1828-yili nihoyasiga yetkazilgan.

Qisqa vaqt ichida Hijozda 20dan oshiq sanusiy zoviyalari barpo etildi. Shulardan 8tasi Muhammad ibn Ali Sanusiy tiriklik vaqtida bunyod bo'lgan. Sanusiy zoviyalari maktab, karvonsaroy, savdo markazi, qal'a, mahkama, sarrofxona, omborxona, fuqarolar uchun boshpana va boshqa vazifalarni bajargan.

Muhammad Ali Sanusiy Imom Molik, Ahmad ibn Hanbal hamda Abu Homid G'azzoliy qarashlaridan ta'sirlangan. Sanusiy ibodat masalasiga juda jiddiy qaragan. Yeb-ichish va kiyinishga zohidona yondashgan. Ijtihodga chaqirib, taqlidni qoralagan. Allohning yo'liga

yumshoqlik, shirinsoʻzlik bilan chaqirish tarafdori boʻlgan. Qoʻl mehnatini qadrlagan tijorat va dehqonchilik qilishga chaqirgan. Yurt himoyasi uchun dushmanlar bilan jang qilishni sharaf deb bilgan.

Ta'limoti. Sanusiylarning qarashlari Shimoliy Afrika va Sudan sahrolaridagi koʻchmanchilar orasida keng tarqalgan. Sanusiylik ta'limotiga koʻra, islom aqidalarini qayta tiklash uchun keladigan Mahdiyni kutish ham ushbu tariqat vakillari orasida keng tarqalgan. Shuningdek, sanusiylar ma'naviy birlikda musulmonlarning birlashishi tarafdoridirlar. Ular islom aqidasi asl holatda saqlab qolishga harakat qiladilar. Shunday boʻlishiga qaramay sanusiylar hech qachon sufiylik an'analari qarshi boʻlmagan va sufiylikdagi "avliyolik" masalasini ham inkor etmagan.

Shuni aytib oʻtish lozimki, Najd vahhobiyligi va Hijozdagi Sanusiya oʻrtasida ayrim oʻxshash va farqli jihatlar mavjud. Ularning ikkisi ham Usmonilardan norozi kayfiyatda boʻlgan, islohotchilik maqsadlarini koʻzlaganlar, qabilalarni jangovarlikka targʻib qilishga eʼtibor qaratganlar. Ammo shu bilan birga quyidagilarda ular oʻrtasida xilof mavjudligi koʻzga tashlanadi. Sanusiylar avliyolarning maqbaralariga nisbatan bagʻrikeng munosabatda boʻlib, ularni ziyorat qilishni tariqat odatlari sirasiga kiritadilar. Sanusiylar amirlikni imomlikdan ajratmaganlar. Ularning eʼtiqodiga koʻra diniy va dunyoviy hokimiyat bir sanusiy shaxs qoʻlida jamlanishi zarur. Muhammad Abdulvahhob esa amir Muhammad ibn Saud bilan ittifoq tuzib, faoliyat olib borgani ma'lum.

Sanusiylik tariqati vakillari oʻz qarashlari va ta'limotlarida Muhammad (a.s.)ning paygʻambarlik hayotini oʻrnak qilib oladilar. U kishining hayot yoʻli tariqat vakillari orasida namuna vazifasini oʻtagan. Sanusiylik ta'limotidagi oʻziga xos jihatlardan biri Muhammad (a.s.) timsolini nihoyat darajada ulugʻlash holatlari uchrab turadi. Ular oʻzlarining *avrod* va *ahzob* atalmish ibodatlarini paytida 40-martadan 100-martagacha Muhammad (a.s.) nomini tilga oladilar. Shu sabab sanusiylik tariqati vakillari oʻzlarini muhammadiylar deb ham ataganlar.

Sanusiylikning asosiy gʻoyalari islomni turli bid'at va xurofotlardan tozalashga qaratilgan. Shuningdek, tariqat asoschisi firqalarga boʻlinishni, mast qiluvchi moddalar iste'mol qilishni qattiq qoralagan. Ular mustamlakachilardan boshqa turli din va millat vakillariga

nisbatan bag'rikeng hamda xushfe'l munosabatida bo'ladilar. 1837-yildan boshlab Muhammad Ali Sanusiy mazkur tariqat a'zolari orasida "tariqat otasi" nomini oldi. Tariqat vakillari – sanusiylar esa uning ma'naviy o'g'illari sifatida e'tirof etiladigan bo'ldi. Sanusiylikda muraqqa' kiyish, aso ko'tarib yurish, bo'yniga tasbeh osib olish ta'qiqlangan.

Sanusiyning izdoshlari hamda tariqatdagi mashhur shaxslar. Shayx Muhammad ibn Ali Sanusiy (1791-1859), Shayx Mahdiy Muhammad ibn Ali Sanusiy (1844-1902) va Muhammad Sharif Sanusiy – Muhammad ibn Ali Sanusiyning o'g'illari, Shayx Ahmad Sharif Sanusiy (1873-1933 y.) – Mahdiyning amakisining o'g'li, Shayx Muhammad Idris Sanusiy (1890-1983) – Muhammad ibn Ali Sanusiyning nabirasi, Shayx Hasan Rizo Mahdiy Sanusiy (1969-1992), Shayx Muhammad ibn Sayyid Hasan Rizo Mahdiy Sanusiy (tav. 1951-y.) 1992-yildan hozirgacha tariqat shayxi.

Zikr. Sanusiya tariqati Ahmad ibn Idrisdan tarqalgan tariqatlar qatorida xafiy zikrni saqlab qola olgan yagona tariqatdir. Tariqat vakillari zikr vaqtida jazavaga tushishni taqiqlaydilar. Zikr vaqtida boshqa tariqat vakillarining ishtirok etishiga ruxsat etilgan. Sanusiylikda zikr qo'shiq va musiqa asboblari siz amalga oshiriladi. Zikr marosimida raqsga tushish qat'iyan qoralanadi. Ammo vaqt o'tishi bilan sanusiylik bir qancha o'zgarishlarga uchrashi natijasida zikr vaqtida ovozni baland ko'tarish (rifoilar kabi), tebranib o'tirish (qodiriylikdagi) kabi holatlar yuzaga keldi.

Muhammad Ali Sanusiy fiqh masalasida o'zini molikiylardan deb bilsada, sanusiylik bilan molikiy mazhabi o'rtasida namoz vaqtida qo'lni ko'tarish va qo'lni qovushtirgan holda ko'krak ustiga qo'yish, ruku va sajda vaqtida ovozni baland ko'tarish masalalarida ixtiloflar mavjud. Bu holat ba'zi molikiy vakillari tomonidan bid'at sifatida baholangan va qattiq tanqid ostiga olingan.

Muhammad Ali Sanusiy o'zining qarashlarini "al-Fahrassa" nomli kitobida bayon qilgan. Ushbu asar sufiylikka oid 150 kitobni o'z ichiga olib, Sanusiygacha bo'lgan roviylar silsilasini aks ettirgan. "Salsabilu-l-maiyn fi asonidi-l-arbain" kitobida sanusiylar zikri tarkib topgan qirq tariqatning zikr xususiyatlari bayon qilingan. "Shifou-s-sadr" kitobida esa sunniylikdagi muammoli vaziyatlar o'z aksini topgan. Sanusiylikka Abu Xomid G'azzoliyning qarashlaridan

tashqari vahhobiylik ta'limoti ham katta ta'sir o'tkazgan. Vahhobiylikdan ta'sirlangan sanusiylik ta'limotida har qanday bid'at, qimmatbaho va shoyi matodan libos kiyish, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, musiqa tinglash va kuylash keskin ta'qiqlanadi.

Sanusiylarning faoliyati. Sanusiylar Hijoz, Misr va Fazzanda o'z g'oyalarini targ'ib qilish uchun ko'plab zoviyalar tarmog'ini barpo etdilar. Tariqat vakillari mazkur mintaqalarda bemalol safar qilish, o'sha zoviyalarda bir necha kunlab turish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Sanusiylar Markaziy Sudanga eltadigan yo'lda fransuz mustamlakachilariga qarshi kurash ham olib bordilar. Deyarli o'ttiz yil mobaynida italiyaliklarning bostirib kirishiga qarshi Liviyada, ayniqsa Kirenaikada mustahkam turdilar. Bosqinchilarga qarshi kurashda ham ma'naviy ham harbiy jihatdan jonbozlik ko'rsatdilar. 1915-yilda italiyaliklar ittifoqchilar tomonida turib birinchilar qatorida birinchi jahon urushiga qo'shilishi, sanusiylarni muqarrar ravishda Turkiyaga qo'shib ketishiga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida Britaniya hukumati taxminan yigirma yil mobaynida Misrda muhojirlikda bo'lgan Muhammad Idrisni (Muhammad ibn Ali Sanusiyning nabirasi) faqat diniy rahnamo emas, siyosiy va harbiy rahbar sifatida ham Kirenaikada sanusiylarning rahbari deb tan oldi. 1951-yilda Muhammad Idris (Idris I) Birlashgan Liviya sultonligining amiri deb e'lon qilindi. Bu sultonlik tarkibiga Kirenaika, Tripoli va Fazzan kirgan. 1963-yili bu sultonlik qo'shma davlatga aylandi. 1966-yilda sanusiylik tarafdorlari Liviya, Misr, Aljir, Nigeriya, Chad, Sudan va Kamerunda taxminan 6 million kishini tashkil etgan. 1969-yil 1-sentyabrdagi harbiy to'ntarish natijasida Idris I taxtdan ag'darildi va Liviya arab respublikasi deb e'lon qilindi.

Hozirda Liviyada sanusiya tariqatiga Shayx Muhammad bin Sayyid Hasan Rizo Mahdiy Sanusiy boshchilik qilib kelmoqda.

3.Shoziliya tariqatining Saudiya hududidagi faoliyati. Shimoli-g'arbiy Afrikadagi Shozila qishlog'ida tug'ilgani bois Shoziliy nisbasi bilan tanilgan va Misrni qarorgoh sifatida tanlagan *Shoziliya* tariqatining asoschisi shayx Abu Hasan Mag'ribiy Shoziliy (vaf. 1258-y.) yoshligidayoq ilmga qattiq berilgan edi. Hatto ilmga shu daraja tashnaligidan ko'r bo'lib qolganini ham rivoyat qilganlar. Ko'zi ojiz bo'lgach, tasavvufga kirgan. Shoziliy, marokashlik

mashhur sufiy Abdu-s-Salom ibn Mashishning ta'lim-tarbiyasi ostida voyaga yetadi. Va'zu nasihatlarini ta'sirli bo'lganidan, ta'qib ostiga olinib, Iskandariyaga surgun qilinadi, ammo uning xalq orasidagi hurmat-e'tibori tobora kuchayaveradi. Shoziliy ko'p joylarni kezgan, olimu mashoyixlar bilan uchrashgan. Bir necha bor haj safarini ado etgan. So'ngi daf'a hajga ketayotib, Misrda vafot etgan. Shoziliy sayru sulukda odob va arkondan, tashqi qiyofadan ko'ra ko'proq mustahkam e'tiqod, ibodatlariga qattiq rioya qilgan va go'zal axloqqa ahamiyat bergan. Shu bilan birga xilvatga ham e'tibor qilmay, tasavvufni ijtimoiy hayotda faoliyat manbai deb bilgan. U imom G'azzoliyning "Ihyou ulumi-d-din", Abu Tolib Makkiyning "Qutu-l-qulub" asaridagi axloqiy asoslariga suyanib, o'z tariqatini quyidagilar asosida barpo etgan:

1. Yashirin va oshkora, har joyda Allohdan qo'rqish;
2. So'zda ham, amalda ham sunnatga qattiq amal qilish;
3. Rohat-farog'atda ham, qiyinchilikda ham insonlardan tama qilmay, har narsani yolg'iz Allohdan kutish;
4. Katta-kichik har bir masalada Allohning irodasiga taslim bo'lish;
5. Sevinchli va mahzun lahzalarda Allohdan panoh tilamoq.

Shoziliy muridlariga dunyo va din ishlarini har doim teng olib borish kerakligini, hech vaqt tilanchilik qilmaslikni tavsiya qilgan. O'z zamonasida hech qanday xonaqoh bunyod ettirmagan. Tasavvufning g'oyasi bo'lgan "fano" martabasiga ma'lum bir tizimga ko'ra, avrod va azkor o'qish orqali erishmoq mumkin, degan. O'zi belgilagan duolarni "hizb" nomi ostida yig'gan. Dastlab Tunisda shakllana boshlagan Shoziliya tariqati, asta-sekin uning xalifasi Abu Abbos Mursiy vositasida g'arbiy Misr va Jazoirga yoyildi. O'rta asr tarixchisi Ibn Tag'riberdiy Mursiy haqida "U zamonasining yetuk islomiy allomasi, tahqiq ilmi bilimdoni", deb yozgan. Uning shogirdlaridan biri Yoqut Arshiy (vaf.1332-y.) mashhur zohid edi. Iskandariyada vafot etgan hamda shayx Mursiy qabri yoniga dafn etilgan. Ularning qabri hozirgi kungacha ziyoratgoh sifatida mashhur.

Shoziliyning yana bir muridi «al-Hikamu-l-'atoiyya» asari muallifi asli misrlik Atoulloh Sakandariydir (vaf. 1309-y.). Bu tariqatning yorqin siymolaridan biri shayx Ahmad Zarruq (vaf.1493-y.) bo'lib, u ham mazkur tariqatning keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan. XIX

asrda shayx Muhammad ibn Muhammad sa'yi harakati bilan keng tarqalgan bu tariqat, Afrikada islomning keng yoyilishida va hatto mustamlaka bo'lgan shimoliy Afrika o'lkalarining istiqlol kurashlarida faollik ko'rsatgan. Bu tariqatning Istanbulda atigi uch takyasi bor. Usmoni podshohi sulton Abdulhamid II o'z davrida shoziliy shayxiga intisob etgan. Asta-sekin o'n uch tarmoqqa bo'lingan bu tariqatning eng mashhurlari shayxiya, shaybiya, zarqoviyadir. Asrimizning birinchi yarmida Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Fransiyada islomning yoyilishida shoziliya tariqatining xizmati katta bo'ldi. Chunonchi, mashhur fransuz mutafakkiri Rene Genon (hoz. ismi Abdulvohid Yahyo) ham musulmon bo'lgach, bu tariqatga kirgan. Tariqatning zarqoviya tarmog'iga qarashli alaviya shohobchasi Fransiyada "Les Amis del Islam" (Islom do'stlari) uyushmasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda, shu bilan birga Yevropaning boshqa davlatlarida ham bu uyushmaning qator bo'limlari ishlab turibdi.

Tariqat hayotini yoritib beruvchi asosiy manbalar Ibn Atoulloh Iskandariyning (vaf. 1309-y.) "Latoifu-l-minan" va Ibn Sabbog'ning "Durratu-l-asror" va Ibn Abbodning biografik asari "al-Mafoxiru-l-'oliya fi-l-maosiri-sh-shoziliya" asarlari hisoblanadi. Ushbu tariqatdan boshqa yangi tariqat shahobchalari paydo bo'lgan va yoyilgan. Har yili muayyan vaqtlarda Yuqori Misrdagi Shoziliy maqbarasi atrofida, marosimlar o'tkaziladi.

Shoziliyaning shahobchalaridan biri vafoiya tariqatiga misrlik Shamsiddin Muhammad Ahmad Vafo (1301-1359) tomonidan asos solingan bo'lib, o'g'li Ali (1357-1404) misrlik sufiylar orasida katta obro'ga ega bo'ldi. Bu tariqat Misrda hozirgi kungacha o'z faoliyatini davom ettirgan.

Mavzu bo'yicha savollar

-Saudiya Arabistonidagi tasavvufning boshqa islom mamlakatlariidagidan farqlari nimada?

-2001-yil 11-sentyabr voqealarining tasavvufga ta'siri qanday bo'ldi?

-Muhammad ibn Abdulvahhob paytidagi o'zgarishlar nimalarda aks etdi?

Mustaqil ish topshiriqlari: Saudiya Arabistonida tasavvuf

O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford 1971.
2. Mustafa Kara, Metinlerle Günümüz Tasavvuf Hareketleri.
3. Alikberov A.K. Epoxa klassicheskogo islama na Kavkaze: Abu Bakr ad-Darbandi i yego sufiyskaya ensiklopediya “Rayxan al-xaka’ik” (XI-XII vv.). – Moskva: Vostochnaya literatura, 2003. – S.684.
4. Muminov A. Cufiyskie gruppi v sovremennom Kazaxstane. <http://e-islam.kz/ru/qazaqstandagy-islam/vnutrennie-kategorii>
5. Babadjanov. B.M. Sobranie fetv po obosnovaniyu zikra djaxr i sama’. – Almati, 2008.
6. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
7. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir / U.Abdulvahob tarjiması. - Toshkent: 2001.
8. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma’naviy. Olti jild. / J.Kamol tarjiması. – Toshkent, 2004 2006.
9. Hayat Tarih Mecmuası, Aralık 1973.

11-MAVZU. HINDISTON VA POKISTONDA TASAVVUF

Reja:

1. Hindiston musulmonlarining tasavvufga munosabati.
2. Hindiston subkontinentida tasavvuf.
3. Chishtiya, suxravardiya tariqatlari.

***Tayanch soʻzlar:** hind tasavvufi, hindistoniy rang, Dehlaviy, arablar.*

1. Hindiston musulmonlarining tasavvufga munosabati. Aslida mavzuning asosiy qismiga oʻtishdan avval shunday bir savolga javob berish kerak: “Nima sababdan islom olamida paydo boʻlgan tasavvuf taʼlimoti “Hind tasavvufi” ruhida talqin qilindi?” Savol hamon dinshunoslikda aniq oʻz ilmiy tasdigʻiga ega boʻlmaganidek, rasman fanda inkor ham etilmagan. Binobarin, bu savolning mantiqiy javobi, mazmunan hind musulmonchiligining oʻzigagina xos xususiyatlariga, yaʼni baʼzi shu fikrga yaqin tadqiqotlarda xulosalangan hind va musulmonlarning oʻzaro mushtarak madaniy-ijtimoiy hayoti omiliga borib taqaladi. Zero, “Hindistonlik musulmonlar maʼnaviyati, urf-odatlar va hatto ular eʼtiqod qiladigan islom ham oʻziga xos chizgilar bilan Misr, Eron va Turkiya musulmonchiligidan ajralib turadi”.

Mazkur xulosa zahiridagi muhim xususiyatlaridan yana biri va balki asosiysi quyidagi voqelikka bogʻliqligi bilan xarakterli, yaʼni: avomdan chiqqan hind musulmonlari ilgari oʻz dinlari asosini yaxshi bilmaganlaridek, yangisini ham hali uqib ulgurmagan edilar. Lekin shu ahvolda ham ular asta-sekin oʻzlarini musulmon sanay boshlaganlar, natijada hind sarzaminidagi musulmonchilik sobiq eʼtiqod taʼsiri koʻrinishida – “hindistoniy rangda” shakllandi.

Holbuki, bir dinning oʻzga manzil-makonlarda majozan turfa ranglarda shakllanishi insoniyat tarixi uchun istisno emas. Masalan, zardushtiylik eʼtiqodi joriy boʻlgan Markaziy Osiyo mintaqasidagi islomning oʻzlashuvida ayrim avvalgi etiqod unsurlarining saqlanib qolishi yuqoridagi muqoyasaning jonli misoli desak, mubolagʻa boʻlmas. Darvoqe, Malik Kafurning Hindiston janubiga qilgan yurishida birga boʻlgan Dehlaviy, oʻsha vaqt hind musulmonlari yurish-turishlariyu dunyoqarashlariga shunday baho bergan edi:

***“Ular musulmon diniy urf-odatlariga to‘la-to‘kis amal qilma-
ganliklari uchun yarim hindlardir”.***

Bas, shunday ekan, har bir sohadagi singari diniy masalada ham, uning asliyatidan bexabar holda yuzaki tasavvurlar ta’siriga berilish, nafaqat biror ma’naviy qadriyatga nisbatan bepisandlik, balki shuningdek, u yoki bu xalqning hayoti va umuman, tarixiga ters tushunchada bo‘lish bilan barobar. Mazkur tushuncha oqibatida esa millatlar, xalqlar va hattoki davlatlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabat-
larga ham zarar yetishi mumkin Agar bu xususda bevosita Hindiston-
dagi islom masalasiga yondashsak, uning muxtasar ibtidosi quyida-
gicha kechgan. Arablarning Hindistonga yurishi tarixi ilmiy tahlillar-
da davriy va jug‘rofiy jihatdan turli sana va hududlar asosida qayd
qilingan. Bu o‘lkada islomning o‘zlashuvi, agar bir tomondan, arab
savdogarlarining muttasil safarlari davrida yerlik aholi orasida
qozongan obro‘-e’tiboridan ko‘rilsa, ikkinchi tomondan, savdogarlar
safida bu yerga kelgan sufiylarning bag‘rikenglik ruhiyati sharofati-
dan, deb xulosa qilingan.

Shu kabi nufuzli hind manbalarning yana biridagi bayonga ko‘ra, arablarda “Hind”ga yurishi aslida Muhammad (s.a.v.) hayotlik vaqt-
larida rejalashtirilgan ekan. Ammo afsuski, asar muallifining ushbu
ma’lumotni qayerdan olgani va nima sababdan rejaning amalga
oshmay qolganiga nashrda aniqlik kiritilmagan¹. Shunday bo‘lsa-da,
so‘ngi xulosada jon bordek tuyuladi. Chunki Hind yarim orolining
janubiy va janubi-g‘arbiy qismi islom dinidan muqaddam va keyin
ham arab savdogarlari uchun tijorat markazlaridan biri bo‘lgan. Shu
tariqa islom Hindistonga “Uch ochiq darvoza” orqali kirib kelgan:
yerdan, suvdan va Safedkoh tog‘ tizmasi – Xaybar yo‘lidan². Mazkur
ma’lumotlarga qo‘shimcha tarzda yana shuni ham qayd etish kerakki,
ba’zi tarixchilar islomning Hindistonda o‘zlashib qolishini quyidagi
omillarda ko‘rganlar:

“Hindlarning e’tiqodidagi islom o‘z mohiyatiga ko‘ra azobu
uqubatlarga asoslangan e’tiqod edi. Shuning uchun hindlarni rasmiy
islom emas, balki ularni mo‘g‘ullar tazyiqida dinu diyonat deya
quvg‘inlikka uchrab, uzoq yerlarga hijrat qilishga majbur bo‘lgan
muhojirlarning muqaddaslik darajasiga ko‘tarilishlari o‘ziga tortgan”.

Ikkinchi bir toifa tadqiqotchilar esa, avomning quyi qatlamlarida
mahalliy feodal siquvi va diniy-ijtimoiy mahkumlik zanjiridan ozod

qiluvchi yangi e'tiqodni qabul qilinishi sabablarini, deyarli, ko'pincha muqaddam toptalgan fuqarolik haq-huquqining tiklanishi sharoitlaridan deb bilganlar, zero:

“Past tabaqadagi hindlar uchun musulmonlar jamiyatidagi aqliy, jismoniy faoliyatning erkinligi, diniy-ijtimoiy tenglik, mansab-martabada cheklanmaslik va umuman, tabaqa tizimidan ozodlik, og'ir va mashaqqatli hamda majburiy ishlar mas'uliyatidan qutilish imkoniyatini yaratgan edi”.

2.Hindiston subkontinentida tasavvuf⁸⁰. Garchi hind tasavvufi tarixi taxminan VIII asrda arab savdogarlari bilan birga kelgan sufiylar tashrifi bilan boshlangan bo'lsa-da, lekin ularning bu diyorda qo'nim topishlari sanasi va ular kimlardan iborat ekani manbalarda turlicha bayon etilgan. Abulfazl Allomiyning “Oyin-i Akbariy” asariga ko'ra, Hindistonda yirik suluklardan jami o'n to'rtta bo'lib, ularning ichida xalq nazariga tushib keng tarqalganlari oltita bo'lgan: chishtiya, suhravardiya, qodiriya, shattariya, firdavsiya va keyinchalik naqshbandiya. Vaholanki, ba'zi nashrlarda Mo'ltondan to Laknavgacha va Panipatdan to Devgirgacha yana bir necha katta-kichik suluklar faoliyat ko'rsatgani yozilgan.

Abulfazl asaridagi ma'lumotga qo'shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, Shihobuddin Olamaroning “Masoliku-l-absor” kitobidagi qaydi bo'yicha, XVI asrda Dehli va uning muzofotida ikki mingga yaqin xonaqohlar bo'lgan. Shunga qaramay, tasavvufning Hindistonga kirib kelishi haqida tadqiqotchi olimlar hali ham bir umumiy to'xtamga kelganlaricha yo'q. Hozircha dinshunoslikda mavzu yuzasidan quyidagi uch davrga taluqli ma'lumotlar mavjud, ya'ni:

1.Arablarning savdo-tijorat safarlari va ularning ilk Hindistonga yurishi davri.

2.XIII asrdan sufiylarning Hindiston va Kichik Osiyoga ko'chish davri.

3.Tasavvufning hind adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan XIII-XIV asrlar davri.

Ammo so'nggi manbalarga qaraganda Hindistonda dastlab o'z faoliyatini boshlagan birinchi jamoa Ajmirdagi Chishtiya suluki bo'lgan.

⁸⁰ Ushbu bo'lim N.Nizomiddinovning Hind tasavvufi tarixiga nazar nomli maqolasi asosida tayyorlandi. Qarang: N.Nizomiddinov. Hind tasavvufi tarixiga nazar // Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta'limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Toshkent: Movarounnahr, 2014. – B. 245-291.

Chishtiya tariqati. Sulukning asoschisi Xoja Abu Is'hoq Shomiy bo'lib, u Kichik Osiyodan Xurosondagi Chishtga kelgach, Mimshod Ali Dinovariyga murid tushib, ta'lim olgan. Chishtiya sulukini Hindistonga olib kelgan Muhyiddin Chishtiy Sanjariy 1142-yili Seyistonning Sanjar shahrida tug'ilgan. U o'n to'rt yoshida yetim qolib, otasi ko'zi tirikligida meros qilgan bir tegirmon va mo'jazgina bog'i orqasidan kun ko'rgan.

Muhyiddin balog'atga yetgach, diniy ilmlarni chuqurroq egallash uchun oldin ikki yil Samarqandda o'qidi, so'ng Buxoroi sharifda Qur'oni karimdan mukammal ilm olish maqsadida Mavlono Husomiddin qo'lida tahsil ko'rdi. U shundan keyin tasodifan Nishopurning muzofotida chishtiy sulukining taniqli namoyandasi Xoja Usmon Horuniy bilan uchrashib, yigirma yil uning xizmatini qiladi. Xizmatni o'tab, Nishopurdan Ajmirga qilgan safarida juda ko'p nufuzli sufiylar bilan muloqotda bo'lib, qator qadamjolarni ziyorat qiladi. Safar vaqtida Muhyiddin Hamadon va Tabrizdan o'tganida Shayx Abu Yusuf Hamadoniy va Abu Said Tabriziylar bilan uchrashgani ham rivoyat qilinadi.

Shayxning Hindistonga kelishi quyidagicha qayd etilgan. Muhyiddin oldin Lohurga kelib tushib, shaharda ma'lum muddat yashab, so'ng Dehliga ketadi. Shaharda uning ko'rsatgan karomatlari sharofati bilan juda ko'p hindlar islomni qabul qiladi. 1165-yili sufiy Ajmirga ko'chib o'tgach, bu dargoh dunyodagi chishtiya suluki namoyandalari uchun asosiy qadamjoga aylanadi.

Shundan keyin nufuzi ortgan suluk Hindistonning Mo'ltan, Lohur, Badaun, Kanauj va Nagore shaharlariga yoyiladi. Chishtiya suluki tarixidagi muhim voqealardan biri – chishtiya sulukiga hinduiylik e'tiqodidagi fuqarolar ham qiziqib, hatto unga ergashganlaridir. Zero, chishtiya sulukining o'ziga xos insonparvar jihatlari mahalliy avom orasida mashhur va matlub bo'lgan.

Soliklar chilla o'tirish, xonaqohda taqvo va muroqabada bo'lish, uzoq sukut saqlash singari amaliyot qatori "zikri samo"da ham dong taratganlar. Lekin bunday zikr uslubi shariat peshvolariga ma'qul tushmagan. Bundan tashqari, chishtiya tariqati makon topgan yerda rojalar va sufiylar o'rtasida ba'zi kelishmovchiliklar kelib chiqqan.

Hindistondagi chishtiy sulukida Muhyiddinning yetuk shogirdlaridan biri Qutbiddin Baxtiyor edi. Agiograflarning qayd etishicha,

uning 1186-yili Fargʻona vodiysining Oʻsh shahrida tugʻilgan ekan. Qutbiddin oʻz boʻlajak ustozini Muhyiddinni Bagʻdodda tahsil olib yurgan kezlari uchratgan edi. Oʻsha paytda Bagʻdodda Shihobuddin Suhravardiy taʼlim berar edi. Muhyiddinga murid tushgan Qutbiddin ustozini ortidan Hindistonga ravona boʻlgan. Dehlida uni juda katta izzatu hurmat bilan kutib olganlar. Muhyiddin muridi haqida xabar topgach, oʻzi qisqa muddatga Dehliga kelib, shogirdini Ajmirga chorlaydi. Shogird ustozini soʻzini yerda qoldirmay yoʻlga tushganida, shahar darvozasi qarshisida toʻplangan tevarak atrofdagilar Qutbiddindan Dehlini tashlab ketmasligini oʻtinib soʻraydilar. Shahar aholisining oʻz muridiga koʻrsatgan himmati va izzatidan taʼsirlangan Muhyiddin shogirdini Xudoning himoyasiga havola qilib, unga ortiga qaytishiga ruxsat beradi.

Tasavvuf tarixida oʻz nomiga taxallus va boshqa turli sifatlar qoʻshilgan sufiylarning uchrab turishi tabiiy hol. Undagi ikki taxallusning birinchisi “baxtiyor”ni ustozini Muhyiddin, ikkinchisini esa, sulukning nufuzli vakillaridan Nizomiddin bergan edi. Qutbiddin ham shular jumlasidan ekani ayniqsa, uning ikkinchi taxallusidan maʼlum, yaʼni “koki”. Ushbu sufiy haqidagi Ibn Battutaning taʼrificha, “koki” taxallusi uning boshqa bir fazilatiga yoʻyiladi, yaʼni:

“U muborak, kamtar inson boʻlib, “koki” deb nomlanishiga sabab shuki, uning oldiga qarzdorlar faqirlik va muhtojlikdan yoki qizini uzatish uchun hech vaqosi yoʻqligidan shikoyat qilib kelishsa, ularga tilla yoki kumush tanga berardi. Shu sababli u zot Koki nomi bilan tanilgan. Alloh uni rahmat qilsin!”

Mazkur suluk faoliyatida samoʻga muhim ahamiyat berilgan. Qaysidir sufiy *“Musiqani tovushini eshitish Allohga boʻlgan muhabbatni olovlantiradi”*, degan gʻoyani ilgari surgani “samo” talabgorlariga ragʻbat bagʻishlagan. Chunki Hindistonda musiqa, qoʻshiq va raqs ibodat uchun diniy eʼtiqodning qanchalik ajralmas qismi boʻlsa, muayyan maʼnoda biz tanishgan tasavvufning baʼzi suluklarida ham “samo” tinglash jarayoniga shunchalik ahamiyat berilgan. Hind manbalarida yozilishicha, samoʻ vaqtida hatto Radha va Krishnani ulugʻlovchi qoʻshiqlar aytilgan. Mahalliy tillarni yaxshi bilgan Fariduddin Shakarganj oʻsha tillarda ijod qilgan. Malik Muhammad Jaysiy esa oʻzining “Padvamat” asarida Ram, Sita va Honumon qissasiga murojaat etgan. Dehlida omma ruhiyatiga singib ulgurgan

va qachonlardir upanishadlarda ta'kidlangan "Insonni Allohga eng yaqin yo'l bilan eltuvchi musiqa"ga bag'ishlangan qo'shiqlar bayrami haftalab davom etgan.

"Muhyiddinning vafotidan keyin uning u qadar ma'lum bo'lmagan ikki noibi – bengaliyalik Abdulla Karomatiy va seylonlik Pir Karim o'z suluklarini tuzib, o'z ismlariga monand "*karamatiya*" va "*karimiya*" deb nomlaganlar. Vaholanki, noiblarning piri hayotlik davrida uning Bengaliya yoki Seylonda bo'lganini tasdiqlovchi biror ma'lumot yo'q. Muhyiddin hayotining so'ngi kunlarida shogirdi Fariduddin nomini ko'p tilgan olgan va hatto o'z dafni jarayoniga taalluqli marosimlarni qanday o'tkazilishini ham unga vasiyat qilgan.

3.Chishtiya sho'balari: "*Faridiya*". Hind tasavvufida "Bobo Farid" nomi bilan tanilgan Fariduddin Mansur Shakarganj ustozi Shayx Muhyiddin hayotligida uning eng asosiy vorisi sifatida faoliyat ko'rsatib, sufiy vafotidan so'ng sulukning «faridiya» sho'basiga asos solgan. U asli kobullik bo'lib, bobosi Chingizxonning hujumi yillari Panjobga kelgach, Mo'lton yaqinidagi Kathval shaharchasida qozilik qilgan.

Fariduddin yoshligidan diniy muhitda o'sib, Bahouddin Zakariyoning qo'lida ta'lim oldi. O'n yetti yoshida Shayx Qutbiddin huzuriga borib, uning xizmatiga tushadi. Undagi iqtidor va ruhoniylar takomillikni sezgan odamlarning Xudo marhamatlariga noil bo'lish umidida sufiy dargohidan qadamlari uzilmay qoladi. Lekin tabiatan yolg'izlikka moyil Fariduddin uzlatda hayot kechirish istagi bilan Dehlini tashlab, Xansiga ketadi. Biroq, bu yerda ham unga tashriflardan xoli yashash nasib qilmaydi va u umrining so'ngi 16 yilini Mo'lton muzofotida o'tkazadi.

Fariduddin nomiga "shakar ganj"ning qo'shilishi tarixi bolaligida onasi o'g'lini ibodatga o'rgatish uchun qo'llagan bir odatdan boshlangan edi. Ya'ni, joynamoz tagiga onasi qo'ygan shirinlikni o'g'li faqat ibodatni tugatganidan keyingina olib og'ziga solishi mumkin bo'lgan.

O'rta asrlarda Panjobning mashhur sufiylaridan bo'lgan Shayx Bobo Farid o'zining irfoniylar kamoloti bilan Hindistonning talay viloyatlarida e'zozlandi. Uning panjobiy she'riy misralari o'z davrida sikhlarining beshinchi gurus Arjun Dev nazariga tushib, sikhizmning nufuzli diniy manbasi "Granth sohib" matniga kiritilgan. Bu kabi

sufiylarning Hindiston uygʻonish davridagi “Bhaktiy harakati” va sikhizm tarixida katta rol oʻynagani chishtiy sulukining diniy va ijtimoiy maʼrifiy-madaniy jabhalarda ham koʻrsatgan xizmatlarining bir koʻrinishi edi. Bobo Farid uzoq umr koʻrib, 93 yoshida dunyodan koʻz yumgan.

Hind oʻlkasida chishtiya sulukining mashhur boʻlishiga yana bir sabab shuki, uning “faridiya” atalmish shoʻbasidan keyinchalik ikki “nizomiya” va “sobiriya” yoʻnalishlari kelib chiqqan. Ulardan birining asoschisi Nizomiddin Avliyo – “Mahbubi ilohiy” va ikkinchisi Alouddin Ali Ahmad Sobiriy edi.

“*Nizomiya*”. Chishtiya sulukining mashhur vakili Nizomiddin Avliyoning ajdodlari buxorolik boʻlgan. U besh yoshida otasi oʻlimidan keyin oʻz zamonasining ilmli ayoli boʻlmish onasi Zulayho qoʻlida tahsil oladi. Nizomiddin 21 yoshida Bobo Faridga shogird tushib, maʼnaviy kamolotga erishgach, uning noibi sifatida Dehliga boradi. Lekin saroy muhitidagi udumlar unga yoqmaydi. Xususan, odatga koʻra yangi oy koʻrinishi bilan hamma podshohni tabriklab baxt-saodat tilaganida, u oddiy tabrik bilan cheklanadi. Bunday bepisand munosabatdan dargʻazab boʻlgan podshoh, basharti kelasi oyda ham shu ish qaytarilsa, sufiyni jazolashi mumkinligini bildiradi. Ammo keyingi oyda past tabaqadan chiqqan boshqa bir hukmdor bu podshohning joniga qasd qilib “Xusrav Xon” nomi bilan taxtni egallaydi. Oradan koʻp oʻtmay Gʻiyosiddin Toʻgʻluq taxtga chiqib, yangi sulola silsilasini boshlab beradi. Biroq sufiyning saroyga munosabati avvalgidek oʻzgarmay qolaveradi. Oxiri xalq ichida izzat va hurmatda boʻlgan sufiyga Dehlini tashlab chiqib ketish buyurilganida, u shunday deydi: “*Hanuz Dehliy dur ast!*” – “Dehli hali ham uzoqda!” Oʻz ilmi va ibratli hayoti bilan “Sulton ul-avliyo” maqomiga muyassar Nizomiddin 91 yoshda vafot etib, Gʻiyospurda dafn qilinadi.

Sufiyning eng mashhur muridlaridan biri mutasavvif shoir va faylasuf Amir Xusrav Dehlaviy boʻlgan. Buni shundan ham bilsa boʻladiki, “*Men hamma narsadan va hatto oʻzimdan ham hafsalam pir boʻlganida, faqat “Turk”dan* (Dehlaviy nazarda tutilgan) *hech charchamaganman*”, –degan ekan Nizomiddin Avliyo. U zot shu bois Amir Xusravga “*Turkulloh*” unvonini bergan. Mumtoz sheʼriyatda “turk” sevimli maʼnosini anglatgani uchun bu unvonni ustoz “Mahbubi ilohiy”ga sinonim sifatida shogirdiga nisbatan qoʻllagan.

Tasavvufning diniy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy mavzulardagi dunyoqarashlari deganda Sa'diy, Rumiy, Jomiy, Navoiy va boshqa mashhur shoirlar ijodi zikrisiz fikr yuritish mumkin bo'lmaganidek, "Hind tasavvufi" to'g'risida ham Nizomiddin Avliyo va Xusrav Dehlaviy hayoti va ijodi bayonisiz biror tugal xulosaga kelish qiyin. Chunki sharqshunos olimlar alohida urg'u bilan ta'kidlaganlaridek, tasavvuf falsafasi asoslarini omma ichida targ'ib qilishda she'riyat diniy va ilmiy manbalardan qolishmaydigan darajada muhim vazifani bajargan. Bu borada zullisonayn mutasavvif shoir Xusravning asarlari tasavvuf targ'iboti sohasida, ayniqsa, ko'p millatli Hindiston sharoitida juda qo'l kelgan.

Shu jumladan, Xusrav Dehlaviyning forsiydagi ash'oridan uning arab, turk va hindchada yozilgan satrlari ham badiiy jihatdan hech qolishmagan. Adibning badiiyatdagi beqiyos iqtidori va imkonini yaxshi bilgan Nizomiddin Avliyo uni ilk bor Nizomiy Ganjaviy yaratgan "Xamsa" ruhida asar yozishiga undagan. Shoirning esa, yangi ijod namunalariga qo'l urishdan oldin Shayxdan fotiha olish odati bo'lgan. Ustoz shunda Qur'oni karimdan oyatlar o'qib, shogirdi ijodiga baraka va mashhurlik tilagan.

Shayx uzoq umr ko'rgani uchun o'z hayotida uch Dehli sultonlari davrida yashaganida ham saroy saxovatlariga daxlsiz bo'lgan. "Barcha davrlar uchun eng ulug' hind-musulmon sufiysi" sifatida tan olingan Nizomiddin Avliyoning bemisl fazilatlarini uning muridi Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan maxsus "qavvoliy" qo'shiq janrida yozilgan g'azallarda kuylangan. "Qavvoliy" odatda uch tilda yozilgan – forsiy, hind va urduda. Samo' musiqasi esa uch yoki to'rt cholg'u jo'rligida ijro etilgan – tabla, sarangi va setor. Qavvoliy goh yakka va goho jo'rovoz hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Nizomiddin Avliyoning muridlari keyinchalik butun Hindiston bo'yicha yoyilib, ular orasida Shayx Nosiruddin "Chirog'i Dehli" nomi bilan tanilgan. U muroqaba ilmida juda peshqadam bo'lib, shunga yarasha uning muxlislari ham bo'lgan. Ammo sufiy yolg'izlikda umrguzaronlik qilish istagida ustozni dargohidan ketib, tog'u toshlardagi biror g'orda yashashga ruxsat so'raganida Avliyo unga doim odamlar ichida bo'lishni maslahat bergan. Shayx Nosiriddinnig shahar aholisi ichida ortib borayotgan obro' e'tibori sulton Muhammad To'g'loq nazarida taxtga xavf solayotgan tuyulib, sulton

uni saroy ishiga jalb qilish orqali obro'sini to'kmoqchi bo'lgan. Ammo murodi hosid bo'lmagach, yollanma qotil orqali suiqasd uyushtirgan. Bu kutilmagan suiqasddan so'ng, muarrix tili bilan ifodalaganda "Dehli chirog'i o'chgan". So'ng Sayyid Muhammad Gesudarozi o'z ustozini Dehlidagi "Shohjahonobod"ga dafn qilgan.

Agar sufiy hayoti ma'lumotlariga kelsak, uning qisqacha mazmuni shunday. Sulton Muhammad To'g'loq o'z poytaxtini Dekkandagi Davlatobod shahriga ko'chirganini e'lon qilib, Dehli aholisini yangi poytaxtga ko'chib o'tishiga buyruq berganida, endi 15 yoshga to'lgan Gesu Darozning otasi vafot qiladi va uning onasi, buyruqdan bexabar ikki o'g'li bilan Dehliga keladi. Yigitcha bu vaqtda Dehlida yashagan Shayx Nosiriddin shaxsiyati va faoliyati bilan qiziqib, unga murid bo'lishga qaror qiladi. 1398-yili Amir Temur qo'shinlari Attokni bosib olib, Dehliga yurish boshlaganida Muhammad Gesudarozi Feruz Shoh Bahmoniy hukmronlik qilayotgan Dekkanga ko'chib o'tib, Gulbarga degan mavzeda joylashadi. Bu yerda u 105 yoshga kirgunicha yashab, o'tgan yillar mobaynida yuzdan ortiq asar yaratadi. Muhammad Gesudarozi o'z asarlarini asosan tasavvuf va islom falsafasiga bag'ishlagan.

"Sobiriya". Maxdum Alouddin Ali Ahmad Sobir 1197-yili Xirotda tavallud topgan. Uning otasi yetti yoshligida olamdan o'tgan, onasi o'ta kambag'alligi bois o'g'lini akasi Bobo Faridga tashlab ketadi. Bola balog'at yoshiga yetganida tog'asi uni oshxonaga ishga beradi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, Hirotdan qaytib kelgan ona o'g'lini ozib-to'zib ketganini ko'rib, akasi Bobo Faridga shikoyat qiladi. Tog'asi bu ahvol sababini so'rab surishtirganida jiyani aytadiki: «Men oshxonaga ishga kirganman, unda tayyorlanadigan taomlarni yeyishga emas!» Yigitning bunday sabr-toqatli ekanidan dalolat beruvchi javobidan ta'sirlangan sufiy unga "Sobir" unvonini berib, keyinroq uni o'zining ishonchli vorisi sifatida Kaliarga jo'natadi. Bu yerda u kasallikka chalinib, so'ng oyoqqa turgach masjidga juma namozini o'qishga kirganida uni namozxonlar tashqariga haydab chiqarishadi. Agiograflar ishontirishicha, sufiyga nisbatan qilingan nojoiz nohaqlikka javoban to'satdan masjid qulab tushib aksariyat joniga jabr yetadi. Shundan keyin Kaliarda jazo sifatida vabo tarqaladi, joni omon qolganlar shaharni tark etishadi. Aholisiz qolgan

shahar vaqt o'tishi bilan o'rmonga, xarobalar esa nafaqat jonivorlar, balki sufiy va uning Shamsuddin Turk nomli muridi makoniga aylanadi. Taxminan yigirma yil uzlatda yashagan sufiy 1291-yili vafot etadi.

Hamza Shohiya. Sho'bag'a Mo'ltonlik Bahovuddin Zakariyoning shogirdi Hamza asos solgan. U sufiy bo'lishidan ilgari qorovulchilik qilgan. Bir kuni tunda o'ziga berilgan joyni qo'riqlab turganida daf'atan xayolini shunday fikr chulg'agan:

“Menga Yaratganni unutish uyat emasmi? Axir meni har lahza, har kuni, har doim himoyalayotgan qolib, nahotki shu joyni qo'riqlash bilan umr o'tkazsam!” U shu xulosadan so'ng o'z ishidan bo'shab, xuddi shu kuni darveshlikni ixtiyor etgach, shundan boshlab uning hayot yo'li Gesudarozi va Nosiriddin xonaqohidan to Nizomiddin Avliyo dargohigacha yetib borgan.

Chishtiya sho'balarining tarixi to'g'risida nashr etilgan risolalardagi sulukning faoliyati davri, ba'zi adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarga qaraganda “ikki yuz yillik muddat” bilan cheklanmay hatto G'arb mamlakatlarida ham davom etgan.

Chishtiya suluki G'arbda. Pir Inoyat Xonning chishtiya sulukiga mansub “Nizomiya sho'basini” Yevropagacha olib kelishidan ko'zlagan maqsadi Yevropaliklar uchun maxsus “Tasavvuf ta'lim markazi”ni tuzish edi. U keyinchalik mistik mavzularda Amerikada ham ma'ruzalar o'qigan.

Inoyat Xon yoshligidan hind musiqa san'atiga qiziqqan va bu sohada mahorat kasb etib san'atkor va shoirlar anjumanlarida qatnashib, Tipu sulton qiziga uylangan bobosi professor Mavlo Baxsh tuzgan “Musiqa akademiyasi”da ham ishlagan. Professor Mavla Baxsh o'z nabirasi iqtidorini ko'rib, uni o'n yetti yoshida Maharaja Sayajiy Rao saroyiga yuborgan va u saroyda musiqa hamda lingvistik bilan shug'ullanib, shuningdek, professional darajada arab, fors va sanskrit tillarini egallagan. Uning Birma, Seylondan keyin Haydarobodga qilgan safari hayotida juda muhim o'rin tutgan. Chunki u yerda ilk bor o'z murshidi – Nizomiya sho'basining o'n yettinchi vakili Xoja Sayyid Muhammad Abu Hasan Madaniyni uchratgan va murshid uni o'z sulukiga olgan.

Pir Inoyat Haydarobodda bir necha yil yashab, so'ng 1910-yili u o'z ukasi Mahbub Xon va qaynisi Ali Xon bilan Amerikaga keladi.

Uning hind musiqasi mavzuidagi birinchi ma'ruzasi Nyu-York shahridagi Kolumbiya universitetida o'tadi. Ammo uning tasavvuf mavzuidagi ma'ruzasi yig'ilganlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatib, tahsinlarga sazovor bo'ladi. Shundan keyin Pir Inoyat Xon Angliya, Fransiya hamda Rossiyaga safar qiladi. U 1923-yili Amerikada o'qigan ma'ruzalaridan keyin, 1925-yili yana Yevropaga kelib, tariqat targ'iboti xususidagi rejalarini amalga oshirgach, nihoyat, 1926-yili vataniga qaytadi. Mahalliy aholi uni juda iliq kutib oladi. Oradan bir yil o'tgach, u o'pka xastaligi bilan og'rib, Dehlida vafot etgan. Inoyat Xonning "samo'" xususidagi musiqiy iqtidori G'arbda tasavvufga nisbatan katta qiziqish uyg'onishida katta o'rin tutgan. Chunki uning o'zi, ta'rif joiz bo'lsa, suluk targ'ibotida "eng yaxshi va jarangdor cholg'u sozi" edi. Pir Inoyat Xonning safar davrida va keyin vatanida yozgan ilmiy asarlari Gollandiyada chop etilgan.

Suhravardiya suluki. Hindistonda Suhravardiya sulukining faoliyati bu yerga bag'dodlik Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlari Shayx Hamiduddin, Sayyid Nuriddin, Shoh Turkmon va Shayx Jaloliddin Tabriziylar tashrifidan boshlangan.

Tarixan sulukning Hindistonda tarqalishida Shayx Bahouddin Zakariyo Qurayshiyning xizmatlari juda katta. Asli Quraysh qabilasidan chiqqan Bahouddinning bobosi Muhammad ibn Qosim Qurayshiy ismli kishi bo'lib, u Hajjoj ibn Yusuf Iroqda voliylik qilgan vaqtida Sindga yuborgan askarlari ichida jangda qatnashib, Mo'ltan shahrida yashab qoladi. Shu boisdan 1182-yili Mo'ltonda tug'ilgan sufiy uchun Hindiston o'z ona vatani bo'lgan.

U yoshligidayoq Makkaga safar qilib, Shihobuddin Suhravardiya murid tushadi. Bahouddin piri rahnamoligida tez kamol topib, yana vataniga qaytadi. Aytishlaricha, unga uch marotaba xirqa olish nasib qilgan: bir safar tushida va ikki safar uztozi Shihobuddin qo'lidan.

Sufiylikda o'z zamondoshlari orasida juda yuqori nufuzga ega bo'lgan Bahouddin Zakariyo taxminan 1267-yili vafot etgach, Mo'ltan shahrida dafn qilingan.

Bahouddin Zakariyoning eng kenja o'g'li Sadriddin o'z sulukining peshqadam vakillaridan biri bo'lib, u ham otasi kabi Mo'ltonda faoliyat ko'rsatgan. Otasi o'limidan oldin juda katta boyligini meros qilib yetti o'g'iliga teng bo'lib bergan edi. Sadriddin o'ziga tegishli yetti ming oltin «muhr»ni olganida, yerdan olingan hosil ulushidan

bo‘lak qolgan merosini kambag‘allarga bo‘lib beradi. Sadriddin 1285-yili vafot etib Mo‘ltondagi otasi maqbarasi yoniga dafn etilgan.

Shayx Ahmad Ma’shuq sulukda Sadriddinning sinashta shogirdlaridan biri bo‘lgan. U avval savdogar bo‘lib, Qandahordagi o‘z do‘konidan mollarini Mo‘ltonga keltirib sotish ishlari bilan shug‘ullangan. Shu tarzda safarning birida u Sadriddin bilan uchrashib qolgach, uning hayoti butkul o‘zgarib ketgan. Ahmad tezda Sadriddinga murid tushib, uning shogirdlari ichida o‘zining iqtidori bilan sulukning mashhur sufiylardan biri bo‘lib yetishgan.

Sulukning navbatdagi nomdor sufiylaridan biri Shayx Jaloliddin Tabriziy avval Shayx Abu Tabriziy va uning vafotidan keyin Shayx Shihobuddin Suhravardiyning muridi bo‘lgan. Uning tug‘ilgan yeri haqida ikki xil shahar nomi qayd etiladi: hozirgi Uttar Pradeshdagi Etavah va Eronning Tabriz shahri.

Jaloliddin dastlab Ramazon Xon nomli savdogarning yordami bilan bilim olgan. So‘ng u Bengaliyada xonaqoh qurib, u yerda och-yalang‘och va beva-bechoralarga oziq-ovqat sadaqa qilib turgan. Sufiyning insonparvarligidan ta’sirlangan mahalliy podshoh Lakshman Sen uning sharafiga maxsus dargoh va masjid qurdirib, sufiylar va muridlarning faoliyati uchun mablag‘ ham ajratgan.

Shayx Jaloliddin Tabriziy hayotiga taalluqli ma’lumotlar ichida yana shunday qaydlar ham borki, ularda Pandua shimolidan o‘n besh mil uzoqlikdagi Deotalada chillaxonasi bo‘lib, bu joy keyin Tabrizobod nomi bilan mashhur bo‘lgan. Sufiy o‘z umrining deyarli yarmini o‘tkazgan chillaxonaga Jaloliddin Tabriziy vafotidan keyin uning muridlari ham dafn etilgan.

Suhravardiya suluki haqida so‘z borganda yana shuni alohida urg‘u bilan qayd etish lozimki, sulukning musulmon olamida tutgan o‘rni va mohiyati nuqtai nazaridan vatandoshimiz Shayx Najmiddin Kubroning nomi nafaqat ushbu ta’limot taraqqiyotidagi xizmati, balki u zotning mo‘g‘ullarga qarshi kurashda ko‘rsatgan shaxsiy va ma’naviy jasorati bilan ham mashhur.

Suhravardiya sho‘balari: Jaloliya. Sho‘baning asoschisi Sayyid Jaloliddin Shoh Mir Shukuh (1192-1291) bo‘lib, u Bahouddin Zakariyoning Mo‘ltondagi noibi edi. Uni Sayyid Buxoriy ham deb atardilar. Jaloliddin Buxoroda tug‘ilib balog‘atga yetgach, Hindistonga kelib, Uch shahrida yashagan. Sho‘baning muxlislari xalq orasida

«jaloliy faqirlar», deya atalgan. Ular boshlariga qora ro‘mol o‘rab, bilaklariga taqinchoq taqib yurganlar. Shuningdek, ular o‘zlari bilan birga surnay ham olib yurganlar va uni doim zikr tushishdan avval chalganlar.

Mahdumiya. Sho‘bani Mir Sayyid Jaloliddin Mahdumi Jahoniyon Jahongasht Buxoriy tuzgan. Bu zot sufiylar ichida juda katta obro‘ga ega bo‘lib, jahongashtalik bobida bemisl mashhur edi. Bundan tashqari, u o‘z davrining ma‘lum va ulug‘ zotlari bilan muloqatda bo‘lib, barcha suluklar ichra tan olingan sufiy sanalgan. U haqida Eron va Afg‘oniston shaharlarida juda ko‘p g‘ayrioddiy voqealar sodir bo‘lgani zikr qilinadi. Jaloliddin Mahdumiy 1383-yili vafot etib, Uch shahriga dafn qilingan.

Miran Shohiya. Miran Muhammad Shoh Mavji Daryo Buxoriy, Jaloliddin Shukuhpo‘sh avlodidan edi. U Akbar davrida yashagan, podshoh uni juda hurmat qilgan va uning oxirgi Chitor qal‘asini egallashi, agiograflar ma‘lumoticha, sufiyning duosi bilan amalga oshgan. Bu voqeaning sodir bo‘lishiga sabab shu ediki, imperator o‘z qo‘shini bilan qal‘ani egallashiga ko‘zi yetmaganda unga kimdir Miran Shohga murojaat qilishni maslahat bergan. Shu bo‘yicha, Akbar sufiy huzuriga xizmatkorlarini yuborib, undan o‘z qarorgohiga kelib, fath uchun duo qilishini so‘ragan. Chitor qal‘asi erta tongda Akbar tasarrufiga o‘tadi. Shoh bundan xursand bo‘lib, Miran Shohiyni markazga chorlaydi. Sufiy saltanat sohibi marhamatiga binoan Lohur shahrini tanlaydi va u Batalada uy-joy va 9 lakx rupiy bilan siylanadi.

Miran Shohiy 1604-yili vafot etgan va uning o‘g‘li otasini Bataladan Lohurga keltirib Anarkali qabri yoniga dafn qilgan. Shundan so‘ng Panjobning hokimi Ranjir Singh sufiyning Lohurdagi maqbarasiga qarab turishgan mas‘ul etilganlarga oyiga 40 rupiya miqdorida maosh tayinlagan.

Ismoil Shohiya. Bu sho‘bani o‘z davrida Miyon Vadda nomi bilan tanilgan Hofiz Muhammad Ismoil tuzgan. 1585-yili tug‘ilib, otasi uni juda yoshlik chog‘idan Chinobdagi Pir Mahdum Abdulkarim huzuriga yuboradi. Abdul Karim tabiatiga xos komillik nishonalari tufayli, u barcha ishlardan ozod bo‘lib, piri fotihasi bilan Lohurga jo‘nab, u yerda Qur‘oni karimni to‘g‘ri o‘qish va boshqa diniy mavzular bo‘yicha mudarrislik qiladi. Uning qo‘lida tahsil topgan shogirdlari

juda tez “Hofizi Kalom” darajasiga erishadilar. «Hayotining so‘nggi damiga qadar muttasil mazkur vazifa bilan mashg‘ul Hofiz Muhammad Ismoil 1683-yili vafot etgan.

Davla Shohiya. Sho‘baning asoschisi sulukda Bahouddin Zakariyodan keyingi sakkizinchi vakil edi. U 1581-yili tug‘ilgan. Uning otasi Abdurahim Xon Lo‘diy sulton Ibrohim Lo‘diyning avlodidan bo‘lib, Bahlul Shoh Lo‘diyning nabirasi edi. Yoshlikda yetim qolgan Shoh Davla bir hindga qul qilib sotilgan edi.

Garchi mavjud manbalarda Shoh Davlanning qullik davrida biror ustoz qo‘lida o‘qigani ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ammo uning tahsil olgan dargohida ilm-bilimga berilib kamolotga yetgani ma‘lum qilingan. Kunlarning birida u qiroathonada o‘tirganida daf‘atan hayotini darveshlikda o‘tkazishga qaror qilib, Sialkotda Said Nosir Mastga shogird tushadi. Shoh Davla ustoz o‘rinbosari bo‘lgach, unga ustoz xirqasi beriladi. Piri vafotidan so‘ng, Davlanning borgan sari ta’sir doirasi kengayib, masjid va ko‘priklar qurdiradi. Umrining oxirigacha Gujaratda yashagan Shoh Davla kambag‘alparvar bo‘lib, u hatto o‘z mehribonchiligini jonvorlardan ham darig‘ tutmaydi.

Uning shogirdlar ichida musulmonlar bilan bir qatorda hindular ham bor edi. U 1676-yili vafot qilgach, Gujaratda dafn etiladi.

La‘l Shohboziya. Suhravardiya sulukining navbatdagi sho‘basiga asos solgan – Bahouddin Zakariyoning shogirdlaridan biri Sayyid La‘l Shohboz (Shohabbos) qizil kiyimni yaxshi ko‘rgani uchun «la‘l» laqabini olgan edi. Garchi u dastlab hayotining asosiy qismini qiroatxonalarda o‘tkazgan bo‘lsa ham, ammo kundalik hayotda islom qoidalariga amal qilmas, negaki, dinda man etilgan mast etuvchi narsalardan qaytmas edi. Uning muxlislari ham diniy masalalarda ustoz kabi yashashni ma‘qul ko‘rardilar. Bunday tarzi hayotga e’tiroz bildirganlarga ular o‘zlarini oqlash uchun derdilarki, “Ustozning qo‘li tegishi bilan suv ham sharobga aylanadi”.

Sayyid La‘l Shohabbos 1324-yili vafot etgan, uning mozoriga ziyorat uchun hali ham odamlar kelib turishadi, garchi hozir bu sho‘ba soliklari kam bo‘lsa ham, lekin ular ham qizil kiyimda yurib pirlari odatiga taqlid qiladilar.

Muxtasar bayon etilgan sho‘balardan tashqari suhravardiya sulukida yana “Suhagiya” va “Rasulshohiya” kabi sho‘balar ham turli davrlarda faoliyat ko‘rsatgan. Ammo ularda targ‘ib qilingan hayot

tarzi islomiy ma'naviyat taqozolariyu shariat ahkomlari talabiga javob bermagan.

Qodiriya suluki. Shayx Abdulqodir Jiloniyning qodiriya suluki Hindistonda uning vafotidan uch yuz yil o'tgach, ushbu silsilaning o'ninchi vakili Sayyid Muhammad G'avs tomonidan barpo etilgan. U Halabda tug'ilib, yoshlik yillari hind viloyatlarida ko'p sayohatlar qilgan. Oxiri Lohurga qaytib, nihoyat Uch shahrida yashab qolgan. Qodiriya asoschisining shon-shuhrati deyarli butun Hindistonga taralgan. Uning atrofidagi muridlari qatorida Dehlining afg'on hokimi Iskandar Lo'diy ham bo'lgan.

Hukmdor-murid o'z tushida Shayx Abdulqodir tomonidan olgan buyrug'i bilan piri komilga qizini ham bergan, ammo orada farzand bo'lmagan. Shundan so'ng, Muhammad G'avs faqat ikkinchi bor uylanganida Abdulfattohning qizi – xotini Fotimadan to'rt o'g'il ko'rgan va u 1517-yili Uchda vafot etgan.

Sufiyning o'g'illari ichida Abdulqodir II yoshligida juda rohat farog'atda yashagan. Lekin otasi vafotidan keyin padariga tahassub qilgan o'g'il-xalifaning hayoti butkul o'zgarib ketgan. U dunyoga qo'l siltab, qolgan hayotini yo'qchilikda kechirgan. Holbuki, uning aka-ukalari davlat ishlarida yuqori mansablarda ishlagan. Abdulqodir esa, davlat tomonidan taklif etilgan imkoniyatlarga ham befarq qaragan. U 1533-yili Uchda vafot etgan.

Qodiriya sho'balari: Navshohiya. Sho'ba asoschisi Shoh Hoji Muhammad o'n yettiga kirganida uzlatga chekinish uchun cho'llarda yashay boshlaydi. Uning ota-onasi o'g'lini ortiga qaytarib, Panjobdagi Navshahrga olib kelib, uni yerlik bir e'tiqodli kishining qiziga uylantiradilar. Shunda ham yolg'izlikka moyil sufiy tunlari daryo bo'yida muroqabaga berilib, kunduzlari masjidda Qur'oni karim mutolaasi bilan mashg'ul bo'lgan. Oradan olti yil o'tgach, u mashhur Sulaymon Shoh Qodiriy haqida xabar topib, unga murid bo'lib, tez orada tasavvuf ilmida yetuklik darajasiga erishgach, piridan Navshoh Ganjbaxsh taxallusini oladi.

Cufiy juda mehmondo'st bo'lib, g'ariblarga doim yemak-ichmakda yordam berar, o'zida ozuqa qolmaganida esa, eshikma-eshik yurib tilamchilik bilan yemak to'plab kambag'allarga ulashardi. Hoji Muhammad 1605-yili vafot etgan.

Navshohiy sho‘basi Hoji Muhammad vafotidan keyin uning shogirdlari Pok Abdurahmon va Pir Muhammad “Sachyar” (“sachyar” – haqiqiy do‘st) o‘rtasida ikkiga bo‘linib ketadi. Ular har ikkisi ham o‘ziga yarasha sufiyona iqtidor va karomatga ega edilar.

Mavzu bo‘yicha savollar

- Hind tasavvufining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- Arablarning Hindistonga yurishi jarayonlarini tushuntirib bering.
- Tadqiqotchilarning Hind e‘tiqodiga qarashlari qanday?

Mustaqil ish topshiriqlari:

O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford 1971.
2. Mustafa Kara, Metinlerle Günümüz Tasavvuf Hareketleri.
3. Alikberov A.K. Epoxa klassicheskogo islama na Kavkaze: Abu Bakr ad-Darbandi i yego sufiyskaya ensiklopediya “Rayxan al-xaka’ik” (XI-XII vv.). – Moskva: Vostochnaya literatura, 2003. – S.684.
4. Muminov A. Cufiyskie gruppi v sovremennom Kazaxstane. <http://e-islam.kz/ru/qazaqstandagy-islam/vnutrennie-kategorii>
5. Babadjanov. B.M. Sobranie fetv po obosnovaniyu zikra djaxr i sama’. – Almati, 2008.
6. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
7. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir / U.Abdulvahob tarjiması. - Toshkent: 2001.
8. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. Olti jild. / J.Kamol tarjiması. – Toshkent, 2004 2006.
9. Hayat Tarih Mecmuası, Aralık 1973.

12-MAVZU. YEVROPADA TARIQATLAR FAOLIYATINING O'RGANILISHI

Reja:

1. G'arb olami va tasavvuf.
2. Fransiya tasavvufshunoslik maktablari.
3. G'arb adabiyoti va tasavvuf.

***Tayanch iboralar:** mistisizm, neoplatonchilik, tasavvuf maktablari, tasavvuf markazlari, tasavvuf adabiyoti.*

1. G'arb olami va tasavvuf. Bugungi kunda tadqiqotchilar tasavvufni G'arb olamida keng tarqalayotganini va aholi tomonidan iliq qabul qilinayotganini e'tirof etmoqdalar. Aynan Yevropa mamlakatlari, shuningdek, AQSH, Kanada va Avstraliyada bu jarayon oxirgi o'n yil ichida birmuncha jadallashgani namoyon bo'lmoqda. Afsuski, hozirgi kunda tasavvuf tariqatlarining G'arb mamlakatlarida tez sur'atlarda tarqalishining sabablarini tahlil etuvchi mukammal tadqiqotlar yetarli emas.

Amerikalik tasavvufshunos olim K.Ernestning qayd etishicha, bugungi kunda sufiylik bir tomondan globallasuv va sekulyarizatsiya jarayonlariga moslashishga urinayotgan bo'lsa, boshqa tomondan tarixiy asosini ham saqlab qolishga muvaffaq bo'lmoqda.

G'arbda tasavvufga nisbatan qiziqishning kulminasion nuqtasi II Jahon urushidan keyin Janubiy Osiyodan ko'psonli musulmon aholining Yevropa mamlakatlariga ko'chib o'tishi bo'ldi.

G'arb tadqiqotchilariga xos xususiyat islomshunoslikni qomusiy jihatdan o'rganish bo'lib, ushbu tadqiqotlar tarkibida tasavvuf alohida o'rin tutgan. Ular orasida vengriyalik olim I.Goldsiyer (1850-1921)ni keltirish mumkin. U sufiylikni neoplatonchilik bilan aloqadorligini qayd etgan. Uning fikricha, sufiylikda eng muhim nuqta bu Yaratganga bo'lgan muhabbatdir. Ushbu davrda sufiylikni yahudiylik va xristianlik dinining mahsuli sifatida qarovchi tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Ulardan gollandiyalik olim K.Snuk-Xyurgronyeni (1857-1936) keltirish o'rinli.

Ammo bu qarashlar bugungi kunda o'zining ilmiy va xolis tasdiq'ini topmaganligi bois biz yuqoridagi fikrlarni inkor etishimizga

to'g'ri keladi. Xususan, har bir din va falsafiy ta'limot tarkibida alohida ravishda o'sib ulg'aygan mistik jarayonlar o'zaro farqlarni ham yuzaga keltiradi. Mistisizmning ikki xarakteri bor: passivlik (harakatsizlik) va methodsizlik (usul yo'qligi). Tasavvufda bidoya va nihoya, boshlanish, kamol topishga erishuv va bu yo'ldagi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mistisizmda esa harakat va g'ayratga ehtiyoj yo'q va insonning yaratilishi kifoya.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida tasavvufni zamonaviy tadqiqot metodlari asosida o'rganish boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida A.Arberri, X.Ritter, F.Mayer, M.Molya kabi G'arb olimlarining ilmiy izlanishlarini ushbu turkumga kiritish mumkin. Mana shu davrdan tasavvuf falsafasi hamda she'riyatini tarixiy va fenomenologik asosda o'rganilgan tadqiqotlar soni ortib bordi.

Tasavvufni o'rganish Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Rossiyada ilg'or darajada bo'lib, boshqa mamlakat olimlari ularning ilmiy izlanishlaridan keng foydalanadilar. Rus olimi, Michigan universitetining dekani, tasavvufshunos, professor A.D.Кнышning fikriga ko'ra, G'arbda sufiylik XII-XIII asrdayoq ma'lum edi. Ammo o'rta asrlarda Yevropaliklarning Sharqqa nisbatan qiziqishlari orta borishi natijasida dastlab, Kembrij universitetida 1632 yilda, keyin Oksfordda 1636 yilda arab va boshqa sharq tillari kafedralari tashkil qilingan. 1942 yilga kelib (A.Arberri misolida) sufiylik haqida ma'lumot beruvchi ilk yirik tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Ammo ushbu dargohdagi izlanuvchilarning aksariyati sufiylikning tashqi jihatlarini katta ahamiyat berib o'rganishlari natijasida kishilar tasavvurida tasavvufga nisbatan uydirma ba'zan soxta qarashlar uyg'onishiga olib keldi (P.Rikot tadqiqoti misolida).

G'arb olamida tasavvufga bo'lgan qiziqish sufiyona she'rlarni lotin tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi. Aziziddin Nasafiyning "Maqsadul-aqso" asarini Branderburgli A.Myullerning tarjima qilishi ham g'arbliklarda tasavvufga nisbatan iliq munosabat uyg'otdi. Oradan yuz yil o'tib Hofiz she'riyati G'arbda mashhurlikka erishib, uning qarashlari xalq orasida ommalashdi. Britaniyalik V.Jons (1746-1794) A.Arberri nazdida Yevropalik olimlar orasida sharqshunoslik sohasidagi ilk yirik olimdir. U Britaniya qirolligi topshirig'i bilan Hindistonda maxsus xizmatda bo'ladi. Hindistonda fors she'riyati bilan tanishib, tasavvufga nisbatan qiziqishi ortadi. U tasavvuf

ildizlarini hinduiylikdan izlashga uringan. V.Jons, D.Malkolm, J.Grexmlar tasavvufning ilk asoslarini Britaniya mustamlakasi ostidagi mamlakatlarda deb bilganlar. Ular tasavvuf, hinduiylik va buddizm orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishga uringanlar.

2. Fransiya tasavvufshunoslik maktablari. Fransiya tasavvufshunoslik maktabining yirik vakillari qatorida Sorbonna universitetining faxriy professori Lui Massinonni (1883-1962) keltirish mumkin. U sharqshunos va islomshunos olim sifatida musulmon madaniyati va tasavvufi yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borgan. Massinon Parijdagi L.Massinon sufiylikka oid atamalarni o‘rganishda muhim va o‘ziga xos qadam tashladi. Ushbu izlanish metodologik jihatdan tasavvufga ichki tomondan nazar solishni talab etdi. U tasavvufdagi atamalarni Qur’onga tayanishi haqidagi fikrni qo‘llab quvvatladi va uni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Shu jihatdan qaraganda Massinonning tadqiqoti qimmatli adabiyotlardan sanaladi.

Yana bir fransiyalik olim J.G.Tassi islom tasavvufini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan. U Fariduddin Attorning asarlarini tarjima qilish bilan birga islom va xristianlik orasidagi o‘xshashliklarni kuzatishga muvaffaq bo‘lgan. Knyishning fikriga ko‘ra, mazkur fransiyalik olimning izlanishlarida adabiyot va lingvistik birinchi o‘rinda bo‘lib, islomshunoslik mukammal darajada emas. U o‘z ilmiy izlanishlari jarayonida tasavvufiy adabiyotlarga filologik nuqtai nazardan yondoshadi.

Fransiyadagi tasavvufshunoslik ikki xil tartibda amalga oshiriladi. Birinchisi, sharqshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish turi bo‘lib, bunda hudud tanlanmaydi, umumiy masshtabda o‘rganilib, filologik tahlil amalga oshiriladi. Bu turdagi tadqiqotni amalga oshirgan fransiyalik olim S.de Sassi (vaf.1838) asosan tasavvufning tarixiy jihatlarini yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Ikkinchi tur vakillari tasavvufga zamonaviy nuqtai nazardan qaraydilar. Asosan tasavvufshunoslikning bugungi va ertangi rivojiga munosabat bildiradilar. Sotsiologik jihatdan tahlil qilib oldindan, tasavvufni G‘arb olamiga ko‘rsatayotgan ta’sirini va uning oqibatlarini o‘rganadi.

Fransuz sayyohlari va harbiylari tomonidan yozib qoldirilgan xotira kitoblari ham tasavvufshunoslar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bular jumlasiga Ye. de Nevo (1845), Sh.Brosslar (1859), M.Mersye (1869), A.Dyuveirye (1884)larni keltirish mumkin.

Kapitan L.Rinna kuzatuvlarini yozuvga tushirib, sufiylarning tarixi va odatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan. Uning Shimoliy Afrikadagi tariqatlar va ularning soni, yashash manzillari haqida bergan ma'lumotlari haligacha sotsiologik tadqiqot olib boruvchi olimlar uchun yo'llanma vazifasini o'taydi. Fransiyalik tasavvufshunoslar bugungi kunga kelib tasavvufni ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini o'rganish ustida ish olib bormoqdalar.

N.S.Semenov ilk bor tasavvuf bo'yicha Germaniyada akademik ilmiy izlanish olib borgan shaxs sifatida XIX asrda yashagan nemis ruhoniysi Frid Avgust Tolukni e'tirof etadi. F.Toluk tasavvufni islom tarkibidagi bir shahobcha sifatida o'rganadi. Yana bir nemis tadqiqotchisi Fon Xamer tasavvufni Payg'ambarning ilk sahobiylariga ergashuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan yo'nalish sifatida baholagan. Ba'zi tadqiqotchilar esa tasavvufni xristianlikdagi tarkidunyochi oqimlar bilan solishtirgan holda o'rgandilar. Nemis olimlari Alfred fon Kremer va Frid Avgust Toluk fikriga ko'ra, islom tasavvufi zahirida Sharq xalqlari ruhiyatining o'ziga xos yig'indisi aks etadi. A.Kremer "Islomdagi ilohiy qarashlar tarixi" nomli ilmiy izlanish olib borganini qayd etish zarur. Muallif mazkur tadqiqotni yevrosentrik va islomiy qarashlardan xoli bo'lgan holda amalga oshirgan. U tasavvufni ikkiga ajratadi: 1. Mo'tadil, zohidlik amaliyotiga asoslangan toifa; 2. Fikriy jihatdan chuqur mulohazaga, har bir masalada botinga ahamiyat beruvchilar.

3.G'arb adabiyoti va tasavvuf. Sufiy shoirlar tomonidan ta'lif etilgan klassik fors she'riyatining g'arb tillariga tarjima qilinishi Yevropaliklar xususan, nemis xalqi madaniyatiga ham katta ta'sir o'tkazmay qolmadi. Nemis tarjimonlari Y.Xammer va F.Ryukertlarning ijodi tufayli nemislar sufiylik an'analari bilan yaqindan tanishdilar.

Nemis tadqiqotchilaridan S.de Sassi Fariduddun Attorning "Pandnoma"sini, missioner E.Trumpa hind sufiysi Abdullatifning "Risola" poetik asarini, Y.Xammer esa Ibn Forizning "Qasida"sini nemis tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'lgan. Bular orasida E.Trumpa tasavvufni buddizmdan kelib chiqqan ta'limot sifatida qaraydi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi tasavvufni o'rganuvchi yirik olimlar qatorida germaniyalik zamonaviy tasavvufshunoslardan

Yurgen Paulni keltirish mumkin. Yu. Paul Markaziy Osiyoda tasavvufning tutgan oʻrni, oʻlka ijtimoiy hayotiga koʻrsatgan taʼsiri haqida izlanishlar olib borib, tasavvuf tariqatlari haqida monografiya va oʻnga yaqin maqolalar chop ettirgan. Uning ilmiy izlanishlarida asosan Naqshbandiylik tariqati va uning vakillari faoliyatiga bagʻishlanganini koʻrish mumkin.

Shu oʻrinda tasavvufshunoslik sohasida salmoqli faoliyat yuritgan germaniyalik dinshunos, islomshunos Annemari Shimmel (1922-2003) ni keltirish lozim. Uning rus tiliga tarjima qilingan “Мир исламского мистицизма” kitobi ushbu sohada amalga oshirilgan yirik tadqiqotlardan hisoblanadi. Uning mazkur tadqiqoti barcha hududlar doirasida amalga oshirilgan umumlashma kitob boʻlib, unda tasavvuf tarixi va bugungi kuni hamda fors sheʼriyatidagi majoziy obrazlarning tasavvufiy talqini haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Rossiyada XIX-XX asrlarga kelib bir nechta rus sharqshunoslari orasida tasavvuf yoʻnalishida ilmiy izlanishlar olib borish koʻzga tashlanadi. A.Krımskiy, V.Jukovskiy, Ye.Bertels I.Petrushevskiyilar Rossiyada tasavvuf bilan chuqur ilmiy asosda shugʻullangan ilk yirik tadqiqotchilardandir. A.Krımskiyga koʻra, tasavvuf haqida tasavvur uygʻotuvchi manbalar bu oʻrta asr Eron shoirlarining poetik ijodi bilan bogʻliq boʻlib, ularning sheʼriyatida sufiylikning u yoki bu jihati aks etgan. Unga koʻra, tasavvufning paydo boʻlish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, teokratik davlat tizimining oʻzgarishi, ushbu yoʻlda xalqning ezilishi va xalifalikka boʻlgan kurashning avj olishi bilan bogʻliq sanalib, tasavvuf odamlarning zulm va jabrga qarshi kurashi sifatida yuzaga kelgan. Qayd etish lozimki, olimning Gʻarbiy Yevropa islomshunoslari ijodiga S.de.Sasi, F.Toluk, A.fon Kremer, R.Dozi keng taʼsir oʻtkazgan. Uning ijodiga taʼsir oʻtkazgan tadqiqotchilar kiradi. Aynan ushbu olimlarning ilmiy izlanishlaridan tasavvufning ilk davriga, keyin esa falsafasiga oid maʼlumotlarni ajratib olgan. Krımskiyning mazkur izlanishi, uning tasavvufni paydo boʻlishi haqida yetarlicha xulosa va natijalarga erishishiga olib kelgan. U nemis tadqiqotchisi F.Tolukning “islom tasavvufining asoslari shakllanishiga xristianlik va buddizm katta taʼsir oʻtkazgan” degan fikrni yoqlamaydi.

A.Krımskiy shu bilan birga A.Kremerning tasavvufning paydo boʻlishi haqidagi qarashlariga ham eʼtiroz bildiradi. Maʼlumki,

Kremer tasavvufni arab iqlim sharoiti natijasida vujudga kelgan ta'limot sifatida ko'radi. Rus tadqiqotchisi Krinskiy esa tasavvufni arab muhiti mahsuli deb qaramaydi. Uning fikricha, tasavvuf eronliklar orasida vujudga kelgan va arablar qarshiligiga uchragan. Shuningdek, tadqiqotchi tasavvufni shialar va ismoiliylar bilan munosabatiga ham alohida e'tibor qaratgan.

Yana bir rus olimi V.Jukovskiy hamisha o'zining tadqiqotlarida tasavvufni fors she'riyati bilan bog'lab o'rganishga katta ahamiyat bergan. Bu borada fors she'riyatining o'rni beqiyosligini anglagan shaxs tasavvufiy jummlarni va an'analarni oson tushunadi, deb hisoblagan. Uning forsiy she'rlar va devonlarni tadqiq etishi, adabiyot va tasavvufni bog'lab o'rganishi G'arb tadqiqotchilari uchun yangi soha emas edi. Bu yo'nalishda Jukovskiydan farqli o'laroq Ye.Bertels Xuroson tasavvufini akademik tarzda o'rgangan yirik olim sifatida tarixda qoldi.

Moskva va Peterburgda tasavvuf tarixini akademik tarzda o'rganish o'rta asrlarga oid tasavvufiy matnlarni tadqiq etish bilan boshlandi. Rus olimlarining qiziqishlari Markaziy Osiyo va Kavkazdagi tariqatlarning o'lka siyosiy va ijtimoiy hayotida qanday o'rin egallagani bilan belgilangan. Markaziy Osiyoda naqshbandiylik tariqatiga mansub sufiy-eshonlarning xalq ozodlik harakatiga ko'rsatgan ta'siri va ularning jamoa orasida tutgan beqiyos o'rni rus olimlari uchun tadqiqot obyekti qilib olindi.

Umuman olganda, tasavvufni ilmiy jihatdan o'rganish uch yo'nalishda amalga oshiriladi: 1. Falsafiy nuqtai nazardan o'rganish. 2. Islomshunoslik doirasida o'rganish (musulmonlarga xos qarashlar asosida). 3. Amaliy jihatdan o'rganish (sotsiologik tarzda tahlil qilish orqali izlanish olib borish. Bu holat ko'proq fransiyalik tadqiqotchilarga xos).

Rus olimi A.D.Knish esa tasavvufshunoslikni quyidagi yo'nalishlarga ajratadi:

- tasavvufni paydo bo'lish tarixi;
- tasavvuf falsafasi va tushunchalari;
- tasavvuf amaliyoti va ruhiy holatlari bilan bog'liq jihatlar;
- sufiy tariqatlar tarixi, ularning turli davrlar va mintaqalarda musulmonlar ijtimoiy hayotida tutgan o'rni;
- sufiy adabiyotlarini tahlil qilish

Shu o‘rinda tasavvufni o‘rganishning 2 turini bugungi kunda eng ko‘p tarqalganini qayd etish lozim. Birinchisi, ilmiy jihatdan, akademik tarzda, obyektiv o‘rganish bo‘lsa ikkinchisi, qaysidir tariqatga mansub shaxs tomonidan mazkur tariqat asoslari yoki tasavvuf tarixi, amaliyoti kabi jihatlarning o‘rganilishidir. Bu kabi manbalarning e‘tiborga molik jihati muayyan yo‘nalish vakilining aynan o‘zi tomonidan bitilganidadir.

Hozirgi kunda sufiylikka oid ilmiy doiradagi izlanishlar ko‘payib borayotganini ta’kidlash o‘rinlidir. Islomshunoslikning alohida shahobchasi hisoblangan tasavvufshunoslik o‘zining qarashlari va metodologiyasiga ega. Shu vaqtgacha tasavvufning tarixi, rivojlanish bosqichlari va tariqatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq adabiyotlar nashr qilingan bo‘lsa, endi XXI asrga kelib G‘arbda tariqatlarning jadallik bilan tarqalayotganini sotsiologik va siyosiy jihatdan tahlil qiluvchi manbalar yaratish dolzarblik kasb etmoqda.

Sufiylikni klassik o‘rganish turi ham mavjud bo‘lib u quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Muhim deb topilgan sufiylikka oid manbalarni ilmiy muomalaga kiritish;
2. Tasavvufshunoslikda muhim shaxs sifatida qaraladigan sufiylarni alohida o‘rganish;
3. Ilmiy qarashlarni ishlab chiqish.

Tasavvufni xalqaro doirada o‘rganish turi mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishda L.Massinon, Dj.S.Trimingem va A.Shimmellarni kiritish mumkin. Yuqoridagi mualliflar birgina hudud bilan chegaralanmay, barcha qit‘alarda tarqalgan tariqatlar va ular bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etganlar.

Bugungi kunda mashhurlikka erishgan va tasavvufiy izlanishlarni olib borayotgan, natijada esa dunyoning eng rivojlangan mamlakatlariida ko‘plab tarafdorlar orttirayotgan shialikdagi – ne‘matullohiylik boshqa tariqatlardan zamonaviy qarashlari va murosakorligi bilan ajralib turadi.

Ne‘matullohiylikning xonaqohlari Amerika, Yevropa, Avstraliya va Afrika mamlakatlarida ochilgan. 2004-yilga kelib mazkur tariqatning xonaqohlari Moskvada, 2006-yilda esa Sankt-Peterburgda ham o‘z faoliyatini boshlagan[10]. Ne‘matullohiylikning sobiq rahnamosi doktor Javod Nurbaxsh psixiatr bo‘lganligi sababli sufiylarning ichki

kechinmalari bilan bog‘liq tomonlariga katta ahamiyat beradi. Shu sababli ne‘matullohiylikda ruhiy holatlar, “ruhiy poklik”, ”ruhiy yetuklik” kabi tushunchalar ko‘p qo‘llaniladi.

Javod Nurbaxsh Tehron universitetining tibbiyot fakultetida tahsil olgan. Uning ko‘plab asarlari g‘arb tillariga xususan, rus tiliga ham tarjima qilingan. “Psixologiya sufizma”, ”Besedi o sufiyskom puti”, “Ray sufiyev” nomli kitoblari shular jumlasidandir. J.Nurbaxshning fikriga ko‘ra, sevgi ruhning yagona boshqaruvchisidir. Sevgi yurakdagi pardani parchalasa, yurak egasi bema’ni istaklardan, qo‘rquv va nafs balosidan xalos bo‘ladi. Sevgi bu Xudoning tuhfasidir. Yurakni sevgiga hozirlash tariqatning vazifasidir. Sevgiga erishish bu – haqiqatdir. Nafs domida yonayotgan yurak hech qachon sevgiga erisholmaydi. Sevgi uchun toza yurak, ishqqa moyil qalb, ko‘ngil qo‘ygan narsalardan ozod bo‘lish talab etiladi. Uning risola va maqolalarida ko‘proq inson ruhiyati, uni tanazzuldan olib chiqishga qaratilgan choralar va haqiqatga erishishda tasavvufdan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Yevropada an‘anaviy sufiylik tariqatlaridan shoziliya va uning shahobchasi bo‘lmish burxoniy, naqshbandiya va ne‘matullohiya, tijoniya vakillari keng tarqalgan. Ular orasida son jihatidan naqshbandiylik va ne‘matullohiylik yetakchilik qiladi. G‘arbiy Yevropada naqshbandiylikning turli yo‘nalishlari faoliyat olib boradi. Buyuk Britaniyada pokistonlik va hindistonlik shayxlar asos solgan naqshbandiya-mujaddidiya yo‘nalishi mavjud. Shuningdek, Muhammad Aslam Sohib asos solgan mujaddidiya-aslamiya markazi Kigl va Lyutton shaharlarida faoliyat yuritadi. Londondagi tasavvuf maktabi esa naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining hind shayxi Ozod Rasulga aloqador. Ushbu maktabning asosiy a‘zolari Yevropaliklar ekanligi e’tiborni tortadi.

Sufiylik targ‘ibot markazlari tarixiylikka asoslansa-da, izlanishlari mobaynida zamonaviylikka, bugungi kundagi muammolarga, inson ruhiyatiga katta e’tibor berishi bilan tasavvuf tadqiqot markazlaridan tubdan farq qiladi. Shu sababli Yevropa mamlakatlari aholisi o‘zining ruhiy muammolariga yechim sifatida mazkur markazlarning adabiyotlarini mutolaa qilmoqda. Shu tufayli tasavvufni globallashuv sharoitiga moslashuvini o‘rganish, jamiyat hayotidagi o‘rnini

koʻrsatib berish, ilmiy asosda namoyon etish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Gʻarbda transnatsional uyushmalarga aylanib borayotgan bir qator tariqatlar ham hozirga kelib “islomsiz tasavvuf” tamoyillarini ilgari surayotgani kuzatilmoqda. Asrlar mobaynida musulmonlar tomonidan umum eʼtirof etib kelinayotgan shariatni inkor etish orqali boshqa din vakillarini tariqatga kirgizish, haqiqiy sufiy din va shariat masalasiga eʼtiborsiz munosabatda boʻlishni singdirish, sufiylik taʼlimotini insoniyatning birlamchi maqsadi sifatida talqin etish kabilar anʼanaviy tasavvufga mutlaqo yot gʻoyalar ekani sir emas.

Islom shiariati tasavvufning dastlabki maqomi va tariqatga kirishning asosiy sharti sifatida eʼtirof etilgan. Nainki musulmon boʻlmagan, balki shariatni bilmagan, unga amal qilmagan kishining tariqatga kirishiga izn berilmagan. Ahmad Yassaviy:

Shariatsiz tariqatga kirganlarni,
Shayton lain imonini olar emish –

deya, shariatni mukammal egallamagan unga amalda rioya qilmagan kishi tariqatga kirishi mutlaqo mumkin emasligi aytib oʻtgan. Boz ustiga tasavvuf hech qachon insonning pirovard hayotiy maqsadi sifatida talqin etilmagan. Tasavvuf ajdodlarimiz uchun musulmonlikni kamolotga yetkazishning bir vositasi edi, xolos.

Afsuski, tariqatlar oʻzlarining mintaqaviy xususiyatlarini yoʻqotib, tobora qamrovini kengaytirishga boʻlgan urinishlar koʻzga tashlana boshlandi. Bunda ular jahon dinlariga xos jihatlardan biri – “universalizm”ga murojaat qilib, kishilarni millatidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va hatto dinidan qatʼiy nazar oʻz tariqatlariga qabul qilishlari mumkinligini daʼvo qilmoqdalar.

Tasavvuf bugungi kungacha islomshunoslik tarkibida oʻrganilib kelinayotgani sababli, tasavvufshunoslikni oʻrganuvchi alohida ilmiy tadqiqot markazlari yoʻq. Gʻarb mamlakatlari, Rossiya va Markaziy Osiyodagi oliy oʻquv yurtlarining sharqshunoslik va islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazlari tarkibida tasavvufga oid ilmiy izlanishlar olib borilib, adabiyotlar chop etilmoqda. Bunda Buyuk Britaniyaning Oksford va Kembrij, Shvesariyaning Bern, Germaniyaning Boxum universiteti yetakchilik qiladi.

Qayd etish lozimki, Gʻarb olimlari, dastlab tasavvufni fors sheʼriyati bilan bogʻliq sanab, uni adabiyotning bir janri sifatida

baholab o'rgangan bo'lsalar, bugunga kelib sotsiologik va siyosiy jihatdan atroflicha o'rganish an'anaga aylanib bormoqda. Bu masalada ilmiy adabiyotlar nashr qilinishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sufiy shoirlarning qarashlarini tasavvufning asosi deb bilib, shundagina iborat hisoblash o'zini oqlamadi. Vaqt o'tib tasavvufning kelib chiqish ildizlari va musulmon tasavvufi hamda xristianlik o'rtasidagi o'xshashlik kabi masalalar g'arbliklar e'tiborini o'ziga jalb etdi. Ammo yuqoridagi ikki masalaga olimlar tomonidan turlicha munosabat bildirilganiga qaramay hamon qat'iy va aniq xulosalar keltirilmagan. To'g'rirog'i bir to'xtamga kelinmagan.

Shu bilan bir qatorda, mazkur masala dolzarbligicha turgan bir vaqtda tasavvuf va shialik o'rtasidagi o'zaro munosabat olimlar uchun o'rganish obyektiga aylanganini ham ta'kidlash o'rinli. Garchi tasavvufdagi shialik unsurlari atroflicha ko'rib chiqilsa-da, shialik tariqatlari, ularning aniq belgilari va ta'limoti haqida kompleks tadqiqot amalga oshirilmagan.

G'arb olimlari orasida asosan filologlar tasavvufiy adabiyotlarni tarjima qilish bilan shug'ullanganlar. Kamdan-kam hollarda sharqshunoslar sufiylikka oid manbalarni o'rganganlar. Tasavvufshunos mutaxassislar orasida mazkur kitoblarning tarjima va tahlillari bilan shug'ullanuvchilar ozchilikni tashkil etadi.

Dastavval, tasavvufga oid tadqiqotlar musulmon bo'lmagan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib g'arbda istiqomat qiluvchi, musulmon oilalarida ulg'aygan, amaliy jihatdan ham tasavvuf ilmidan boxabar bo'lgan olimlar ilmiy izlanishlari ham katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Shunday ekan, tasavvufning zamonaviy ko'rinishlari, bugungi kundagi tariqatlar va ularning faoliyati, sufiylikka oid internet saytlari haqida munosabat bildirish davr talabiga aylanib bormoqda.

Mavzu bo'yicha savollar

- Tasavvufni o'rganishda G'arb olami yondashuvlarini ko'rsating
- Fransiya tasavvufshunoslik markazlari faoliyatini yoritib
- Adabiyot va tasavvufni bog'lab o'rganuvchi g'arb tadqiqotchilarini ko'rsating

Mustaqil ish topshiriqlari: Yevropa va Amerikada tariqatlar

**O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan
adabiyotlar:**

1. Sufism and the modern in Islam. Martin Van Bruinessen, Julia Day Howell. – London-New York, I.B.Tauris, 2005.
2. Sufizm v Syentralnoy Azii (zarubejnie issledovaniya) – SPb.: Filologicheskiy fakultet SPbGU, 2001
3. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar. Usmanov I. va boshqalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
4. Tasavvuf atamaları izohli lug‘at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
5. Knish A. Musulmanskiy mistisizm. – Moskva: Dilya, 2004.
6. Ali-zade A. Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva: Ansar, 2007.

13-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TASAVVUFSHUNOSLIK: KECHA VA BUGUN

Reja:

1. Yurtimiz allomalari tomonidan komil inson obrazining yoritilishi.
2. Tasavvufning Komil inson tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi.
3. Komil insonga xos axloqiy xususiyatlar.

Tayanch iboralar: *komil inson, axloq, olami akbar, olami asg‘ar.*

1. Komil inson tushunchasi. Tasavvuf – tarbiyaviy jihatdan inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm. Bu tushuncha komil inson konsepsiyasida aniq ko‘zga tashlanadi. Inson uchun qayg‘urish, uning ma’naviy kamolotini o‘ylash tasavvufning doimiy o‘zak masalasi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash sufiylarni ko‘p qiziqtirgan. Insonning hayotdagi o‘rni, jamiyat bo‘lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralgan; chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mahv etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi. Tasavvuf ahli inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “nafs” yoki “nafsi ammora” deb atadilar va uni tarbiyalashni maqsad qildilar. Mol-dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, xirsu havasga berilish qat’iy qoralandi, insonni va insoniyatni noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li – nafsni jilovlab, qanoat bilan halol yashash, ruhiyat – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni qaror toptirish zarur, deb targ‘ib qilindi.

Ushbu fikrlar ulug‘ shayxlarning “tasavvuf” tushunchasiga bergan ta’rif-izohlarida aniq ifodalangan. “Tasavvuf nima?” degan savolga Shayx Nuriy javob berib aytadiki: “Tasavvuf – nafs lazzatlaridan voz kechishdir”. Yoki Shayx Safiy Alimshoh javobi bunday: “Tasavvuf – nafs manzillarini bosib o‘tishdir”. Shayx Ruvaym: “Tasavvuf – Xudo yo‘lida o‘zdan kechmoqdir”, deydi.

Tasavvufdagi “nafs” ya’ni “o‘zlik” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Avvalo, “Kim o‘zini (nafsini) anglasa Parvadigorini tanibdi”

degan hadis sufiylarni asrlar davomida o'zlikni anglash, nafs tarbiyasi bilan shug'ullanishga chorlab keldi. Nafsning nimaligini anglab yetish uchun eng avvalo uning Yaratuvchisi unga qanday ta'rif berganiga e'tibor qaratildi. Qur'oni karimning Shams surasida aytilgan: **“Kim uni (nafsni) poklasa najot topdi, kim uni bulg'asa noumid bo'libdi** (9-10 oyatlar) so'zlar sufiylar orasida nafsni poklash orqali najotga, kamolotga erishish yo'llarini qidirishga undadi. Bundan “tazkiyatun-nafs” deb nomlangan alohida ilm vujudga keldi. Nafs nima, uning turlari qanday degan savollarga javob berish kerak edi. Chunki Qur'oni karimda: **“To ularga bu haqiqat ekani ayon bo'lguncha har tarafdin oyat-belgilarimizni ko'rsatamiz va o'z(nafs)larida ham...”** (Fussilat surasi 53-oyat), deyilgan. Ya'ni nafsni o'rganish ilmi Alloh taoloning maqsadlarini anglash uchun bir vosita ekani ayon bo'ladi. Avvalo, hozirda ko'pchilik tushungandek, nafs mutlaq salbiy tushuncha emasligini bilib olish kerak. Nafsning lug'aviy ma'nosi o'zlik, falsafiy atama bilan aytganda “ego”dir. Ana shu o'zlikni jilovlash, boshqara bilish komillikka intiluvchi insonning asosiy tutumiga aylanishi lozim. Aks holda nafs – “ego” uni yengib qo'ysa, u xudbin va xudnamo ya'ni egoist va egotsentrist kimsaga aylanadi. Shuning uchun birinchi navbatda, nafsning kategoriyalari, uning qay holatda salbiy va qaysi holatda ijobiy tus olishini ko'rib chiqamiz. Mutasavviflar nafsni uch turga bo'lib o'rganganlar:

1. “an-Nafsu-l-ammoratu bi-s-sui” – yomonlikka buyuruvchi nafs. Bunday nafs egasini butkul o'ziga bo'ysundirib olgan bo'lib, istagan narsasini buyuradi va bajartiradi. Bu haqda Qur'oni karimda Yusuf (a.s.) tilidan aytiladiki:

“O'z(nafs)imni ham oqlamayman. Albatta, nafs, agar Parvardigorim rahm etmasa, yomonlikka buyuruvchidir...” (Yusuf surasi 53-oyat).

Bunday nafs xudbinlikni rivojlantiradi. Uning domiga tushgan kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, beshafqat, riyokor bo'lib qoladi. Buning muolajasi uchun tasavvuf tiyilish, qanoat, sabrni talab etadi. Inson o'z havo'i nafsni istaklariga yo'l bermasdan uni tiyib, oziga qanoat qilishga o'rgatib borishi, sabr qilishga undashi lozim. Chunki o'ziga qo'yib bersa, inson dabdaba va hashamatga berilib, mol-dunyo yig'ishni hayotining

mazmuniga aylantirib olishi hayotiy tajribadan ma'lum. Komillikka inson birinchi navbatda o'zini dunyoparastlik botqog'iga botib qolishdan saqlab qolishi shart qilindi. Shundagina u har qanday og'ir holatda ham chin ma'noda sabrli, har qanday qiyin sharoitda ham shukrli bo'la oladi.

2. “an-Nafsu-l-lavvoma” – malomat qiluvchi nafs. Qur'oni karimning Qiyomat surasida: **“Malomat qiluvchi nafsga qasamki...”** (Qiyomat surasi 2-oyat) deyiladi. Inson gunoh-ayb ishlar qilganda ich-ichidan afsus va nadomat tuyg'usini tuyishi, savobli, yaxshi amallar qilganda esa ko'proq qilishga undovchi o'zlik – malomat qiluvchi nafsdir. Hozirgi o'zbek tilida bu tuyg'uni vijdon so'zi bilan ifodalanadi. U biror nojo'ya ish qilganda qiynaladi, doimo ezgulik tarafda bo'lishga undaydi, yovuzlik qilishga qo'ymaydi. Bu taqvodorlarning nafs bo'lib, taqvo – Allohdan qo'rquv uni asosiy oziqlantirib turuvchi omildir. Quruq vijdonga tayanishni da'vo qiluvchi, aksar holda unga zid ishlarni qilib qo'yishi mumkin. Taqvo esa insonni hech bir holatda mas'uliyatdan ozod emasligini doimo eslatib, vijdonni uyg'oq saqlashga yordam beradi.

3. “an-Nafsu-l-mutmainna” – osoyishta nafs. Bunday nafs egasi har qanda hoyu hasvaslar ustidan g'olib bo'lgan komil insondir. U hech qanday holatda imonu vijdoniga xilof ish qilmaydi va o'zi ham buni bilganidan ko'ngli xotirjam bo'lib, ortiqcha xavotirlarga berilmaydi. Mutasavviflarning fikricha aynan mana shu barcha nafs bosqichlarni bosib o'tgan komil insonning o'zligidir. Payg'ambarimiz (a.s.): “Men ezgu xulqlarni barkamol qilish uchun yuborildim”, deganlari rivoyat qilingan. Axloqini yuksaltirgan inson Payg'ambar (a.s.) yuborilishlari maqsadiga erishgan bo'ladi. Inson o'z o'zligini gunohlardan tiyilish, bardavom savobli ishlarga mashg'ul qilish, yuksak axloqqa erishish, ham ruhan, ham ma'nan, ham aqlan, ham jismonan barkamol kimsa o'laroq shakllantirishga tomon yo'nalishi shart qilingan. Shunda undagi ezgu axloq uni ezgulikdan boshqa yo'lda yurishga yo'l qo'ymaydigan darajaga yetkazadi. Alloh bunday bandani barcha yaxshiliklariga muvaffaq etadi va undan rozi bo'ladi, u ham Parvardigoridan rozi va tirikligidayoq jannatiga loyiq holda hayot kechiradi. Qur'oni karimning Fajr surasining so'nggi oyatlarida shunga ishora qilinadi:

“Ey osoyishta nafs! Parvardigoringga rozi bo‘lib, rozi bo‘lingan holda qayt! Bandalarim orasiga kirgin-u jannatimga kir” (Fajr surasi 27-30 oyatlar)

Ba’zi manbalarda nafsning yetti turi (“atvori sab’a”) sanab o‘tilgan. Ya’ni yuqoridagi tasniflarga qo‘shimcha tarzda “nafs roziya”, “nafs marziya”, “nafs mulhima” va “nafs komila” yoki “sofiya” kabi nafs turlari ham keltirilgan. Ushbu tasniflar ko‘pincha muridning o‘zligida bosib o‘tgan maqomiga yarasha o‘zgarish yuzaga kelishini ko‘rsatib berish uchun qo‘llanilgan⁸¹.

Shuningdek, komil insonga ilm egasi bo‘lish ham xos. Zero, Odam (a.s) ilmi tufayli farishtalardan ustun qilindi va uning ilmi Allohning Yer yuzidagi o‘rinbosari bo‘lishi uchun sabab bo‘ldi. Komil inson – barcha dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan, ruhi sof, fayzu karomatdan serob, surati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot, Navoiy tili bilan aytganda:

Foniyvasheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi.

Hush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi.

Tasavvuf ahli peshvolari yozib qoldirgan asarlar, sufiyona ruhdagi she’ru dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorug‘likning zulmatga, xayrning sharrga, fayzu kamolning noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh bo‘lamiz. Voqean, tasavvuf shayxlari, zulm va qorong‘ulik lashkariga qarshi ma’rifatni qurol qilib olib jangga kirgan pahlavonlarga o‘xshab ketadilar (Tustariy: “Ma’rifat jaholatga qarshi jangdir”). Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat” asaridan: “Ismoil Dabbos dedi-kim, haj niyati qilib, borurda Sherozga yetishdim. Bir masjidga kirdim. Shayx Mo‘’minni ko‘rdimki, o‘lturib xirqasini yamaydur erdi, salom qildim va o‘lturdim. Mendan so‘rdikim, ne niyating bor? Dedim: haj niyatim bor. Dedi: Onang bormi? Dedim: bor. Dedi: yonib onang mulozamatiga bor. Men ellik haj qilibmen – bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim, sen onang ko‘ngli shodligin menga ber!”

2. Tasavvufning komil inson tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi. Komil zotlar – jamiyatning tirik vijdoni, kishilar ularga qarab hushyor tortar, dunyo bexudligidan o‘ziga kelib, o‘z qalbiga,

⁸¹ Batafsil ma’lumot uchun qarang: Turar U. Tasavvuf tarixi. Tarj. N.Hasan. -Toshkent: Istiqlol, 1999. –B. 83-85.

qilayotgan ishlariga razm solardilar, tavba-tazarru qilardilar. Ularning afʼolu aʼmoli insonlar diliga quvvat, koʻziga nur bagʻishlagan. Mohiyatan olganda, komil inson haqidagi tushunchalarning muxtasar magʻzi shundan iborat. Ammo bu haqda ulugʻ allomalarning qiymat va ahamiyatini yoʻqotmagan qarashlari, fikrlari bor. Komil inson tasavvuf adabiyotida koʻp marta tilga olinib, munozaralarga sabab boʻlgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Sayyid Abdulkarim Jiliy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning “Insoni komil” nomli risolalarini maxsus tilga olib oʻtish mumkin. Aslida esa komil inson tushunchasi birinchi marta Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240) tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida komil inson – bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kull tushunchalari bilan maʼnodoshdir.

Ibn Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli Muhammad paygʻambardir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Paygʻambarimiz xalq va Haq muqobilida turardilar va orada vosita edilar. Shunday boʻlgach, hamma odamlarni ham va hatto anbiyo va avliyolarni, donishmandlarni komil inson deb atash joiz emas. Agar Paygʻambardan oʻzga zotlarga nisbatan bu sifat aytilar ekan, buni shartli taʼrif yoinki shu ulugʻ martabaga hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilish kerak. Sayyid Abdulkarim Jiliy fikriga koʻra, har bir inson ikkinchisining oʻrnini bosadigan nusxadir va bir-birining qarshisida turgan koʻzgu kabidir. Bitta odamdagi xislat va sifat ikkinchisida aks etib turadi. Ammo farqi shundaki, bu akslanish baʼzilarida feʼl-harakat boʻyicha boʻlsa, baʼzilarida esa quvvat, yaʼni xislat-xususiyatlar bilan namoyon boʻladi. Demak, isteʼdod va qobiliyat, xususiyat va sifatiga koʻra, bir-biriga oʻxshash odamlar behad koʻp. Bularni umumiy nom bilan xalq, odamlar, kishilar deb qoʻya qolamiz. Biriga qarab ikkinchisining xulqu atvori, darajasiga baho bera olamiz. Ammo shunday komil va akmal kishilar borki, ular kamolotda nafaqat oʻzga odamlardan, balki bir-biridan ham keskin farqlanib turadilar. Bularni anbiyo va avliyo deb ataymiz. Bularning ham darajalari bor: baʼzilar komil, baʼzilar akmal, bir qismi fozil, yana bir qismi afzal, yana bir guruhi esa afzalu akmaldir. Sayyid Abdulkarim Jiliy mazkur tasnifni aytib, yana qoʻshib qoʻyadi: “Komil inson, voqean, Muhammad paygʻambardir

va qolgan anbiyoyu avliyoning kamoloti unga nisbatandir, xuddi fozilning afzalga nisbatidyek”.

Ammo Shayx Aziziddin Nasafiyning “Komil inson”, “Maqsadi aqso”, “Zubdatu-l-haqoyiq” nomli va boshqa risolalarida komil inson masalasi bir muncha boshqacha yoritilgan. Unda bu tushuncha insonning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, martabalar topishi bilan bog‘liq holda olib qaraladi. Natijada biz Aziziddin ta’riflarida aynan hayotiy odamga xos belgilar, axloqiy sifatlarni ham ko‘ramiz. Yana shuni ham aytish kerakki, Nasafiy islomdagi bir nechta ilmning insonga bo‘lgan qarashlari va munosabatini chog‘ishtiradi. Nasafiyda komil inson ruh tushunchasi bilan zich aloqada tekshiriladi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida olib qaraladi. Shuning uchun umumiy tushunchalardan aniq tushunchalarga o‘tib turish bor. Buning sabablaridan yana biri Aziziddin Nasafiyning kamolotni uruj (ko‘tarilish) va nuzul (tushish) nazariyasi asosida tushunishidir. Bu nazariya o‘z navbatida katta olam va kichik olam tushunchalari bilan bog‘lanib ketadi. Chunki Nasafiy Ibn Arabiyga qo‘shilib, insonni “olami asg‘ar” (kichik olam) va moddiy olamni birgalikda “olami akbar” (katta olam) deb ataydi. — Ulug‘ olamdagi jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjud, deydi u. Shu tariqa inson – olami kabirning kichraytirilgan nusxasi hisoblanadi.

3. Komil insonga xos axloqiy xususiyatlar. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta’rif berib yozadi: “Bilgilki, Komil inson deb shariat va tariqat va hakqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi sifatlar kamolga yetgan bo‘lsin: yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif”. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Uning fikricha, tariqat yo‘liga kirgan soliklar vazifa-maqsadi ushbu to‘rt fazilatni egallashdir. Kimki “o‘zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi”.

Nasafiyning mazkur ta’rifidan ikkita xulosa kelib chiqadi. Biri shuki, olim nazarida komil inson hayotdan tashqari bo‘lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdur. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko‘tarila oladi. Ikkinchi xulosa shuki, Nasafiyga ko‘ra, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martabadir.

Komil inson haqida yuqorida bayon etilgan fikrlarni o‘zaro jamlasak, quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

– Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi.

– Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida kamolga erishadi.

– Shuning uchun har bir pok axloqli, taqvodor shaxs komillikka intilishi va bu yo‘lda nasiba olishi mumkin.

– Komillikning oliy belgisi Haq yo‘lidan borib xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni yo‘lga solsa, Haq yo‘lida fidoiy bo‘lsa, u shuncha komildir.

Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib olgan. Buning biri – maqtovgga loyiq axloq bo‘lsa, ikkinchisi – o‘zlikni anglash. Shu ikki asosning bor yoki yo‘qligiga qarab u odamlarni uch qismga ajratgan. Birinchisi, yuksak axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o‘zini anglamagan odamlar. Ikkinchi, yuksak axloqiy xislatlar bilan bezangan, ammo o‘zini anglamagan odamlar. Uchinchisi, yuksak axloqiy sifatlar bilan bezangan va o‘zini anglagan odamlar. Olimning nazarida – uchinchi toifa odamlar komil insonlardir: “Binobarin, insonning kamolotga erishishi yuksak axloqqa ega bo‘lish va o‘zlikni anglash bilan amalga oshadi”.

Shu tariqa, komil insonning o‘ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu-istagi deb qaralgan. Bundan yana shu ma’lum bo‘ladiki, o‘rta asarlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar – bir tomondan, jamiki ruhiy-ma’naviy qudrat, aqlu zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan ulug‘ bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan shu cho‘qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson hisoblangan. Ammo masala qanday qo‘yilishidan qat’i nazar, komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo‘ldi, insonni sharafligi, ezgulik ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qildi. Har zamon, har lahza insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo‘ya qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashadi, imon va vijdon binosining poydor bo‘lishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda har taraflama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilar ekan, barkamollik nafaqat jismoniy va aqliy, balki ruhiy ma'naviy to'kislikni ham qamrab olishini ta'kidlab o'tish joiz. Insonni jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy, ruhiy jihatdan komil qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz merosining o'rnini e'tirof etgan holda, mutasavvif bobolarimizning, jumladan Hakim Termiziy, Abu Bakr Kalobodiy, Aziziddin Nasafiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi tasavvuf darg'alari-ning asarlaridan keng istifoda etish mumkinligini anglab yetmog'imiz darkor. Sof tasavvufiy adabiyot, tasavvufiy meros har qanday mutaassiblik, g'uluv va jaholatga qarshi kurashda ulkan ma'naviy xazina, tuganmas zaxira vazifasini bajara oladi.

Mavzu bo'yicha savollar

- Tasavvufda komil inson nimani ifoda etadi?
- Komil inson deb kimga aytilgan va bu to'g'risida qanday fikrlar bor?
- Komil inson qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?
- Komil inson axloqi deganda nimalarni tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Navoiy ijodida komil inson g'oyasining yoritilish

O'tilgan mavzuni o'zlashtirish yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
2. Jo'zjoniy A. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001.
3. Triningem Dj.S. Sufiyskiy ordeny v islame. – Moskva: Nauka, 1989.
4. Tasavvuf atamaları izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
5. Knish A. Musulmanskii mistitsizm. – Moskva: Dilya, 2004.
6. Zarrinko'b A. Jo'stujo' dar tasavvufi Iron // Sino. – 2002. – № 8. –B.10-13.
7. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqi Muhsiniy. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
8. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Tasavvufiy qarashlarga asos bo'lgan oyat va hadislar tahlili.
2. Zikr marosimlari turlari va mintaqaviy ko'rinishlari.
3. Tariqatlarning umumiy va farqli jihatlari.
4. Nursafardiyaning an'anaviy tasavvufga yot g'oyalari tahlili.
5. Shia tasavvufiy oqimlari va ularning qarashlari.
6. Kichik Osiyoda tariqatlarning yoyilishi va bugungi holati.
7. O'zbekistonda soxta tariqatchilik faoliyatlari.
8. "Hind tasavvufi" tarixi.
9. Misr tasavvufiy muhiti tarixi.
10. G'arb tasavvufshunosligining yirik maktablari.
11. Tasavvuf va adabiyot.
12. Tasavvufiy manbalarda soxta sufiylikka munosabat.
13. Yassaviya tariqatida zikr marosimi va uning hozirgi kundagi ko'rinishlari.
14. Yevropa va Amerikada tariqatlar faollashuvi.
15. Tasavvufning inson ma'naviy-ruhiy kamolotidagi o'rni.

Seminar mavzulari

1. Tasavvuf va hozirgi zamon kursiga kirish.
2. Zamonaviy dunyoda tasavvufga munosabat va globallashuv sharoitida tariqatlar faoliyati.
3. Tariqatlarning transmilliy uyushmalarga aylanib borish tendensiyalari.
4. Neosufizm tushunchasi.
5. Markaziy Osiyoda zamonaviy tariqatchilikning ko'rinishlari.
6. MDH hududida tariqatchilikning faollashuvi.
7. Sunniy va shia tasavvufining o'zaro munosabati.
8. Bahouddin Naqshband hamda naqshbandiya tariqatining islom olamidagi o'rni, mavqeyi va ahamiyati.
9. Musulmon olamida tasavvufning hozirgi holati.
10. Saudiya Arabistonida tasavvuf.
11. Turkiyada tasavvuf va tariqatlar.
12. Hindiston va Pokistonda tasavvuf.
13. Evropada tariqatlar faoliyatining o'rganilishi.
14. O'zbekistonda zamonaviy tasavvufshunoslik: kecha va bugun.

TEST

1.O‘zi uchun berilgan nafaqani tarqatib yuborib, qo‘l mehnati hisobiga kun kechirishni afzal deb bilgan, haddan ortiq tarki dunyochiligi uchun tanqid qilingan sahobiy kim edi?

- A. Salmon Forsiy (r.a.)
- B. Umar ibn Xattob (r.a.)
- C. Abu Dardo (r.a)
- D. Abu Bakr Siddiq (r.a.)

2. “Jabroil hadisi” deb nomlangan mashhur hadisda dinning 3 ta tarkibiy qismlaridan qay birining zikr etilishi islomdagi ilk ruhiy-ma’naviy izlanishlarga yo‘l ochdi deb hisoblanadi?

- A. Islom(shariat)
- B. Ehson (Allohni ko‘rib turgandek ibodat qilish)
- C. Imon (aqoid)
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

3. Tashqi amallar yoki e’tiqodiy tushunchalardan farqli ravishda ruhiyat, hissiyotlar, insonning ibodat vaqtidagi ruhiy-ma’naviy kechinmalari bilan bog‘liq tushuncha-...

- A. Imon
- B. Ehson
- C. Shariat
- D. Aqoid

4.Zohid so‘zi Qur’ondagi qaysi oyatda ko‘plik shaklda uchraydi?

- A. Yusuf surasi 20-oyat
- B. Yunus surasi 20-oyat
- C. An’om surasi 52-oyat
- D. Anfol surasi 52-oyatda

5. Xulafoi roshidinlardan kimning tasavvufiy qarashlari “muhasabatun-nafs” (o‘zini boshqarish) ilmining tub g‘oyalariga asos bo‘lgan?

- A. Umar ibn Xattob (r.a.)
- B. Ali ibn Abu Tolib (r.a.)
- C. Usmon ibn Affon (r.a.)
- D. Abu Bakr Siddiq (r.a.)

6. Hakim Sanoiy “Hadiqatul- haqiqat” asarida Imom A’zam va Imom Shofeiya qanday ta’rif beradi?

- A. Imom A’zam va Imom Shofeiyni zohid deya ta’rif beradi
- B. Imom A’zamni sufiy, Imom Shofeiyni esa zohid deb ataydi
- C. Imom A’zam va Imom Shofeiyni sufiy deb ta’riflaydi
- D. Imom A’zamni zohid, Imom Shofeiyni sufiy deb ataydi

7. Tasavvufiy manbalarda ta’kidlanishicha insonning ma’naviy komillikka yetishishi, Allohning roziligiga erishishi uchun ma’lum bir bosqichlarni bosib o’tishi lozim bo’ladi. Mazkur bosqichlarni ketma-ketligi to’g’ri berilgan javobni belgilang:

- A. 1-shariat, 2-ma’rifat, 3- haqiqat, 4- tariqat
- B. 1-shariat, 2- haqiqat, 3- tariqat, 4- ma’rifat
- C. 1- shariat, 2-tariqat, 3-ma’rifat, 4-haqiqat
- D. 1-shariat, 2-ma’rifat, 3-tariqat, 4-haqiqat

8. “Shariat – bir daraxt, tariqat-uning mevalari. Daraxt bo’lmasa novda ham, yaproq ham, meva ham bo’lmaydi...” ushbu so’zlar kimga tegishli?

- A. Hakim Abu Bakr Varroq
- B. Najmiddin Kubro
- C. Hakim Sanoiy
- D. Bahoviddin Naqshbandiy

9. Qur’oni Karimdagi qaysi oyati karimada dunyoviylik va diniylik o’rtasidagi muvozanatni barqaror ushlab turish, tarki dunyochilik kayfiyatiga berilib ketmaslikga ishora qilinadi?

- A. Qasas surasi 77-oyat
- B. Muhammad surasi 38-oyat
- C. An’om surasi 52-oyat
- D. Nur surasi 36-37-oyat

10. Hakim Sanoiyning “Hadiqatul-haqiqat” asarida “In ba himmat faqih-u b-on sufiy, On imomu mudarrisu zohid” jumlasini bilan “sufiy” deganda nimani nazarda tutadilar?

- A. Imom A’zamning faqihliklari
- B. Imom Shofeiyni nazarda tutilib, u zotning movutdan rido kiyib yurganlariga ishora
- C. Imom A’zam nazarda tutilib Abdulloh ibn Muborak ta’rifi bilan “odamlarning eng faqihi” ekanliklari

D. Imom A'zam ham movutdan rido kiyib yurganlariga ishora

11. Qur'oni karimda "valiylik", "valoyat" kalimalari jami nechta o'rinda uchraydi?

A. valoyat-2 marta, valiy (birlik shaklda) 24 marta, ko'plik shaklda(avliyo) – 64, jami 84 marta

B. valoyat-2 marta, valiy (birlik shaklda) 44 marta, ko'plik shaklda(avliyo) – 24, jami 62 marta

C. valoyat-4 marta, valiy (birlik shaklda) 24 marta, ko'plik shaklda(avliyo) – 64, jami 86 marta

D. valoyat-1 marta, valiy (birlik shaklda) 24 marta, ko'plik shaklda(avliyo) – 64, jami 83 marta

12. "Do'st" ma'nosini bildiruvchi valiy so'zi Qur'oni karimda necha xil ma'noda kelgan deyiladi?

A. 2 xil ma'noda

B. 3 xil ma'noda

C. 4 xil ma'noda

D. faqat bitta ma'noda

13. Hakim Termiziyning valiylikning ta'rifi, sifatleri, valiy insonning darajalari va xususiyatlari haqida bayon etgan asarlari berilgan to'g'ri qatorni belgilang:

A. «Ilmul avliyo», «Xatmul avliyo», «Ma'rifatul asror», «G'avrul umur»

B. «Ilmul avliyo», «Xatmul avliyo», «Ma'rifatul asror», «Kitob al ehtiyotot»

C. «Ilmul avliyo», «Xatmul avliyo», «Ma'rifatul asror», «Kitob al-manohiy»

D. «Ilmul avliyo», «Xatmul avliyo», «Ma'rifatul asror», «Kitob al- hajj va asrorihi»

14. Xos avliyolarning tabaqaviy bosqichlari mavzusi(rijolul-g'ayb)ga birinchilardan bo'lib o'z asarida to'xtalib o'tgan olim kim?

A. Hakim Termiziy

B. Bahoviddin Naqshbandiy

C. Najmiddin Kubro

D. Nurulloh Saydo al- Jazariy

15. Tasavvuf manbalarida quyidagilardan qaysi soʻzga maʼnodosh boʻlgan ahli koʻngil, ahli dil, ahli dard, orif, majzub, ishq eli, valiyulloh, xos qullar, eranlar, azizlar, xudoning xalqi, mardi xudo, mardon, ahlulloh, darvesh kabi bir qancha soʻz va iboralar ham ishlatiladi?

- A. Avliyo soʻziga
- B. Karomat soʻziga
- C. Uns soʻziga
- D. sufiylik soʻziga

16. Karomat soʻziga berilgan xato taʼrifni aniqlang:

- A. Voliy, solik oʻzini Alloh taolo uning shohtomiridan ham yaqin ekanini his etish holati
- B. Aqlni lol qoldiradigan gʻayritabiiy hodisa
- C. Aziz-avliyolarda sodir boʻlib, paygʻambarlarda uning koʻrinishiga moʻjiza deyiladi
- D. Alloh oʻz bandasining taqvosi va toat-ibodatidan rozi boʻlganining alomati oʻlaroq, U tarafidan bandaga siylov sifatida amalga oshadi

17. Notoʻgʻri javob berilgan qatorni aniqlang:

- A. Islom aqidasi koʻra avliyolarning karomati paygʻambarlarning moʻjizalari bilan har jihatdan tengdir
- B. Tariqat soʻzi lugʻaviy jihatdan shariat soʻzi bilan bir maʼnoni anglatadi
- C. Tasavvufiy manbalarda karomat sohibi uni yashirishi va oshkor qilmasligi kerak degan shartlar mavjud.
- D. Shariat islom dinidagi hamma kishilar uchun birday amal qilinishi lozim boʻlgan tartib-qoidalarini oʻzida jamlangan boʻlsa, tariqat bevosita inson ruhiyati bilan bogʻliq boʻlib, uning ham oʻziga xos talab va qoidalari mavjud boʻlib, ular shariat tartib-qoidalaridan farqlanib turadi.

18. Olimlarning aniqlashicha taasavvufda nechta tariqat tarmoqlari mavjud boʻlgan?

- A. 160 dan ziyod
- B. 190dan ziyod
- C. 160 ga yaqin
- D. 190 ga yaqin

19. Quyida keltirilgan qaysi maqomlarni har bir kishi tinimsiz harakat, o‘z bilimini muntazam ravishda oshirish uchun tirishish va buning uchun pir tomonidan belgilab qo‘yilgan qoidalarga qat‘iy amal qilish orqali egallashi mumkin?

- A. Tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo
- B. Qurb, muhabbat shavq
- C. Uns, mushohada, mukoshafa
- D. Yuqoridagilarning barchasini

20. Nechinchi asrdagi agiografik manbalarda avliyolarning karomatlari haqidagi rivoyatlar ko‘paygani kuzatiladi?

- A. XII
- B. XI
- C. XIV
- D. XIII

21. Ilk davrdagi musulmon olimlar va yirik mutasavviflar o‘sha davrdagi sufiy va zohidlarning qaysi amallariga salbiy munosabat bildirib u xristian rohiblarining odati ekanligiga ishora qilganlar?

- A. Dag‘al yung matodan(suf)dan kiyim kiyishlarini
- B. Doimiy tavba qilish, tarkidunyochilik kayfiyatida yurishlarini
- C. Faqirlikni ulug‘lashlarini
- D. Tungi bedorlikni

22. Tasavvufni dastlabki davrlarda ilm sifatida shakllanish jarayonini tobeiylardan bo‘lgan kimning shaxsiyati bilan bog‘laydilar?

- A. Hasan Basriy
- B. Xoris Muhosibiy
- C. Ibn Atiyya
- D. Raboh ibn Amr

23. Nechanchi asrda tasavvuf nazariyoti va amaliyotida katta o‘zgarishlar ro‘y berib bir qancha sufiylik maktablari vujudga kela boshladi?

- A. IX asr
- B. VIII asr oxiri
- C. X asr
- D. XI asr

24. Tasavvufiy “komil inson” g‘oyasi haqida ilk bor XIV asrda yashab o‘tgan kim fikr bildirgan edi?

- A. Abdulkarim Jiliy
- B. Alouddavla Simnoniy
- C. Imom Rabboniy
- D. Ahmad Sirhindiy

25. Qaysi davrlarga kelib tasavvufning mumtoz yo‘riqnoma asarlari yozidi?

- A. X asr oxiri XI asr boshlarida
- B. XII asr oxiri XIII asr boshlarida
- C. IX asr oxiri X asr boshlarida
- D. XII asr O‘rtalari XIII asr boshlarida

26. Nechanchi asrlarda tasavvuf g‘oyalarining musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida keng tarqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yaqqol namoyon bo‘la boshladi?

- A. XII-XIII
- B. XI-XII
- C. XIV- XV
- D. X-XI

27. IX asr davomida paydo bo‘lgan sufiy Basra maktabi bilan bir qatorda qaysi maktablar ham ko‘zga tashlana boshladi?

- A. Bag‘don va Xuroson maktablari
- B. Bag‘dod va Kufa maktablari
- C. Bag‘dod va Madina maktablari
- D. Bag‘dod va Makka maktablari

28. Ushbu ta’limot - abadiy yagona Allohgina bor, moddiy olam esa ro‘yo deb hisoblovchi ta’limot. Bu ta’limotga ko‘ra, moddiy olam va narsalar dunyosi haqiqiy emas, Haqiqat faqat Alloh bo‘lib, moddiy olam Allohning tajallisi, shu‘lasi hisoblanadi. Ushbu ta’limot tasavvufdagi eng munozarali mavzulardandir... Qaysi ta’limot haqida so‘z yuritilmoqda?

- A. Vahdatul-vujud
- B. Vahdatu-sh-shuhud
- C. Vahdatul-mavjud
- D. Muhosibiy ta’limoti

29. Lugʻaviy jihatda “guvohliklar birligi” ma’nosini anglatuvchi qaysi ta’limot Halloj, Jiyliy va Simnoniy kabi mutasavviflar tomonidan ilgari surilgan bir-birini taqozo etmaydigan, mustaqil gʻoyalarning nomi boʻlib, matnlarda uchraydigan atamaning ma’nolari turli davrlarda turlicha ma’nolarni anglatib kelgan?

- A. Vahdatu-sh-shuhud
- B. Vahdatul-vujud
- C. Vahdatul-mavjud
- D. Toʻgʻri javob berilmagan

30. Qaysi davrdan boshlab Sharqdagi musulmon davlatlari hamda ayrim Evropa davlatlarida tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi, tasavvufning tobora kuchayib borishi koʻzga tashlandi?

- A. XX asrning 90-yillaridan
- B. XIX- XX asr boshlaridan
- C. XX asrning 60-yillaridan
- D. XX asrning 40-yillaridan

31. Ilk abbosiylar davrida Xurosonning Movarounnahr hududiga yaqin shaharlarida qaysi fiqhiy mazhab ustun boʻlgani manbalarda qayd etiladi?

- A. Hanafiylik
- B. Shofeiylilik
- C. Hanbaliylilik
- D. Molikiylilik

32. Movarounnahrdagi ilk tasavvuf davri qaysi shaxsiyatlar nomlari bilan bogʻliq?

- A. Hakim Termiziy, Abu Bakr Kalobodiy, Yusuf Hamadoniy
- B. Hakim Termiziy, Abu Bakr Kalobodiy, Bahovuddin Nashqbandiy
- C. Hakim Termiziy, Yusuf Hamadoniy, Najmiddin Kubro
- D. Hakim Termiziy, Abu Bakr Kalobodiy, Najmiddin Kubro

33. Hakim Termiziyning nechta asari va savol bilan murojaat qolgan zamondoshlariga yozgan risola va maktublari bizgacha yetib kelgan?

- A. 60 ga yaqin asar va 200dan ziyod risolalar
- B. 90 ga yaqin asar va 200dan ziyod risolalar

C. 60 ga yaqin asar va 250dan ziyod risolalar

D. 60 ga yaqin asar va 250dan ziyod risolalar

34.Oʻzida islomning ilk uch asrida tasavvufdagi koʻtarilgan mavzular, sufiylarning qarashlari, ixtilofli masalalar jamlagan, Movarounnahr va boshqa mintaqada sufiylarining aqidaviy masalalar boʻyicha qarashlari ochib berilgan asar nomini toping.

A. “Taarruf li-mazhab ahli-t-tasavvuf”

B. “Asroru-s-siyom”

C. “Ihyo”

D. “al-Akyos va-l-mugʻtarrun”

35.Qachonga kelib Naqshbandiya tariqati Movarounnahrda tashkil topib, rivojlangan boʻlsa-da, lekin uning markazi Hind diyoriga koʻchgan edi?

A. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab

B. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab

C. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab

D. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab

36.Fors tilidagi qaysi kitobning yozilish sabablaridan biri shoir yashagan davrlarda islom dinining odamlar hayotidagi oʻrni zaiflashuvi, yuzlab soxta shayx va eshonlarning sahnaga chiqishi, natijada axloqsizlikning kuchayishi edi?

A. “Maslaku-l-muttaqin”

B. “Riyozi-s-solihiyin”

C. “Siroju-l-muslimin”

D. “Nazmu-l-faroid”

37.Soʻfi Olloyorning «Maslaku-l-muttaqin» asari necha ming baytdan iborat?

A. 12ming

B. 9 ming

C. 3 ming

D. 10 ming

38.«Aqiyda bilmagan shaytona eldur, Agar ming yil amal deb qilsa eldur». (Yaʼni zaruriy aqidni bilmagan kishilar har qancha ibodat qilsalar ham sof aqiydani bilmaganlari sababli qilgan ibodatlar ularga naf bermaydi). Ushbu keltirilgan baytlar muallifi kim?

A. Soʻfi Olloyor

- B. Bahovuddin Naqshbandiy
- C. Abu Mansur Moturidiy
- D. Abu Rayhon Beruniy

39. Hanafiy mazhabi ta'limotining himoyachisi sifatida namoyon bo'lgan hindistonlik qaysi olim o'zining mashhur asarida hanafiy mazhabi ta'limotini boshqa mazhablardan ustun qo'ygani uchun ham asosan boshqa mazhab ulamolari adabiyotlarida unga ta'nalar bildirilgan?

- A. Ahmad Sirhindi
- B. Anvarshoh Kashmiriy
- C. Musoxon Dahbediy
- D. Hoji Habibulloh

40. "Maktubot" asarining muallifi kim?

- A. Ahmad Sirhindi
- B. Anvarshoh Kashmiriy
- C. Musoxon Dahbediy
- D. Hoji Habibulloh

41. Arab tilida "zanjir", "xalqalar" ma'nosini bildiradigan tasavvufga oid atamani belgilang.

- A. Silsila
- B. Xadra
- C. Qutb
- D. Suluk

42. Ushbu izohga mos variantni belgilang: ma'naviy vorisiylik shajarasi; tariqatdagi o'ziga xos ta'lim va amaliyot (zikr turlari), turmush tarzini keyingilarga etkazuvchi shaxslarning ma'naviy-uzviy zanjiri- bu...

- A. Silsila
- B. Xadra
- C. Qutb
- D. Suluk

43. Noto'g'ri javobni belgilang.

A. Shajaraning silsiladan farqi silsilada odatda ustoz shogird bog'liqligi emas, balki ajdodlar ketma-ketligi aks ettirilgan.

B. Hadislardagi isnod tizimi ham silsilaga bevosita ta'sir o'tkazgan.

C. Tariqatlarda silsila muhim ahamiyat kasb etadi, zero u tariqatlarning shariatga muvofiqligini va ishonchli ekanini ko'rsatuvchi hujjat-dalil hisoblanadi.

D. Silsila tariqatning ma'naviy sanadi hisoblanadi. Tariqat pirlari uning halqalarini tashkil etadi va tariqat asoschisining ma'naviy vorislari, deb e'tiborga olinadi.

44.Tariqatlar zikr ko'rinishlariga ko'ra bir-biridan farqlanadimi?

A. Ha

B. Yo'q

45.Qiyomiy va jahriy zikr turlariga ta'rif to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A. Qiyomiy- tik turgan holda zikr tushadigan tariqatlar – qodiriya; jahriy- ovoz chiqarib zikr qiluvchi tariqatlar – xalvatiya.

B. Qiyomiy- o'tirib zikr qiladigan tariqatlar – naqshbandiya; jahriy- ovoz chiqarmay zikr qiluvchi tariqatlar – naqshbandiya;

C. Qiyomiy- tik turgan holda zikr tushadigan tariqatlar – qodiriya; jahriy- ovoz chiqarmay zikr qiluvchi tariqatlar – naqshbandiya;

D. Qiyomiy- o'tirib zikr qiladigan tariqatlar – naqshbandiya; jahriy- ovoz chiqarib zikr qiluvchi tariqatlar – xalvatiya.

46.Xadra-...

A. (arab. hozir bo'lmoq.) jahriy zikrga asoslangan bir qator tariqatlar, tomonidan qabul qilingan zikr turi bo'lib, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

B. (arab. tinglash, eshitish.) deganda tasavvuf atamasida zikr amaliyoti davomida musiqa, qo'shiq, she'r va boshqa shunga o'xshash narsalarni eshitish nazarda tutiladi.

C. darveshlar, qalandarlar, shuningdek, g'arib va miskinlar istiqomat qiladigan uy – qalandarxona, darveshxona.

D. (arab. Juldur- qo'sqa) -eskirgan kiyim.

47.Quyidagi jamoaviy zikrlardan qaysilari ulamolarning tanqidiga uchragan?

A. Samo va davron

B. Zikri qiyom va sam'o

C. Zarbi asmo va zikri arra

D. Sam'o va zikri arra

48. Arab mamlakatlarida zoviya deb ataluvchi (arab. الزَّوْيَةُ – burchak, hujra) – sufiylar, darveshlar tushadigan va yashaydigan maskanning O‘rta Osiyodagi muqobil(boshqacha nomlanish)i nima?

- A. Xonaqoh
- B. Takya
- C. Xujra
- D. rabot

49. Qur’oni karimda necha o‘rinda musulmonlar Allohni mudom zikr etishga chaqiriladilar?

- A. 80 dan oshiq yerida
- B. 90 dan oshiq yerida
- C. 70 dan oshiq yerida
- D. 100dan oshiq yerida.

50. Eng birinchi xonaqoh nechanchi asrda va qayerda bunyod etilgan?

- A. Falastindagi Ramla shahrida, VIII asr oxirlarida
- B. Iroqning Basra shahrida, VIII asr oxirlarida
- C. Iroqning Kufa shahrida, VIII asr oxirlarida
- D. Iroqning Basra shahrida, X asr oxirlarida

GLOSSARIY

Avliyo – valiy, do‘stlar. Allohning eng yaqin do‘stlari, sevimli qullari ma’nosida ishlatiladi.

Baqo – fanoning ziddi, davomiylik. Tasavvufiy atamada qulning o‘zida mavjud narsalardan kechib, Allohga oid haqiqatlar bilan baqoga erishish. Bashariy irodadan ilohiy, eng oliy irodaga yuksalish.

Botin – ichki, pinhon, sir, asrori ilohiya. Soliklarning siyrati, ruhi va ichki olami.

Vajd – topmoq, sufiylikda ishq va ishtiyoq g‘alabasi natijasida o‘zidan ketish.

Vara’ – taqvoning yuksakroq bosqichi, buyurilgan va man etilgan barcha diniy amrlarni mukammal tatbiq etish.

Vasl – yetishish, erishish, vosil bo‘lish. Haq visoliga yetishmoq. Vasl yoki vuslat – tasavvufiy hayotdagi yo‘qchilikning nihoyasiga aloqador.

Darvesh – darbadar sufiy. “G‘iyosu-l-lug‘ot”da izohlanishicha, darvesh so‘zining asl ma’nosi eshiklardan narsa tilovchidir. Darveshning qadimgi shakli darovez – eshiklarga osiluvchi bo‘lib, keyinchalik u darvesh shaklini olgan.

Zavq – totmoq. Ilohiy tajalliylarning boshlanishi. Haqdan yetadigan irfon nuri.

Zikr – eslamoq, sufiylikda Allohni yod etish bilan bog‘liq ibodat marosimi.

Zuhd – parhezkorlik, dunyoga qiziqmaslik, Allohning zikridan chalg‘imaslik uchun dunyodan va undagi narsalardan ehtiyot bo‘lish.

Intiboh – qalbdagi g‘aflatning barham topishi, bedorlik, ruhiy uyg‘onish.

Istiqomat – to‘g‘rilik, to‘g‘ri harakat etish, rost yo‘lga yetishish.

Latifa – nozik xilqat, sezish, his etish mumkin bo‘lgan, ammo so‘zda ifodalab bo‘lmaydigan yashirin, sirli va nozik ma’no, ishorat.

Maqom – turoq, manzil, ma’naviy mavqe, martaba, to‘xtam. Maqomga riyozat, mujohada bilan erishiladi.

Ma’rifat – kashf va ilhom bilan hosil bo‘lgan vositasiz, ma’naviy va ichki tajriba bilan o‘rganiladigan ilm, tasavvufiy irfon.

Mujarrad – toqlik, bo‘ydoqlik. Tasavvufda tajarrud, ag‘yor va mosivodan tamoman forig‘ bo‘lib, Haqqa tavajjuh etishdir.

Mukavvin – takvin sifatiga sohib bo‘lgan zot. Borliq, olamning mukavvini – Allohning o‘zi.

Murid – tariqat odobiga ko‘ra, ma’lum bir shayxga bog‘lanib, aqlu irodasini Haqning mutlaq irodasiga bo‘ysundirgan va suluk martabasini egallagan kishi. Muridlik muhiblikdan so‘ng erishiladigan bir darajadir.

Muroqaba – banda o‘ziga oid biror quvvat yo‘qligi shuuriga ega bo‘lishi «la havla va vala quvvata illa billah» deyishi, urug‘ ekkan dehqonning yomg‘ir kutishi kabi Allohning rahmat va fayzini kutish uchun Haq tomoniga yuzlanish.

Muhib – sevuvchi, haqiqat, ma’no, ya’ni botin ahliga mansub shaxs. Muhib “Haqqal yaqin” bosqichida Alloh visoliga vosil bo‘lgan.

Obid – ko‘p ibodat qiladigan, doimiy mashg‘uloti ibodat va toat bo‘lgan, ibodat bilan najot topishiga ishonadigan kishi.

Orif – irfon sohibi, anglagan va tanigan. Sufiylarning nuqtai nazarida irfon Alloh tuhfasini bo‘lgani uchun ilmdan ustun biladilar.

Rizo – rozilik, xushnudlik, mamnunlik. Tasavvufda Alloh hukmi va irodasiga to‘la taslim bo‘lish. Rizo – qayg‘u va qadarning achchiqligini qalb sevinchi ila qarshilamoq.

Robita – aloqa, shayxning surat va shaklini zehnda taxayyul va tasavvur qilish. Robitai mavt – o‘limni eslash, “o‘lmasdan burun o‘lish”. Robitai qalb yoki robitan huzur — qalbgaga tavajjuh qilish, Allohni “jon tomiri”dan ham yaqin his qilish, o‘ylash va hushyor tortish.

Sabr – mujohada va riyozat bilan nafsning rohatini va orzusini tark etish.

Sukr va sahv – sarxushlik va hushyorlik. G‘aybat va huzur holining oliy shakli. Sukr (yoki sukr) o‘zini unutgan, o‘zidan kechgan oshiqning holi. Sahv esa buning aksi: o‘zini unutganning o‘ziga kelish, hushyor bo‘lish, tamkin holati; g‘aybat holining zoil etilishi. Sukr holisiz sahv holi ham bo‘lmas.

Samo‘ – sufiylarning musiqa yordamida zikr tushishi (ko‘pincha musiqa bilan, qo‘shiq bilan).

Solik – birorta tasavvuf maslagiga mansub shaxs.

Suluk – yo‘lga kirish, nafsni tuzatish va vuslatga erishish uchun tasavvuf yo‘liga qadam bosish, bu yo‘lning usul, odob va arkonini ijro etishga kirishish. Sayr va suluk – usuliga mos bir shaklda

tasavvuf yoʻlida yurish, bir joyda toʻxtab qolmaslik. Solik – yuruvchi kishi tasavvufda muttasil Haq tomonga sayr qiluvchi kishiga aytiladi.

Tavajjuh – yuzlanish, zehnni diqqat ila bir narsaga qaratish. Tasavvufiy mohiyatda tavajjuh Allohga yuz burmoq, yoʻnalmoq yoki tushunchani husni mutlaqqa toʻliq tobe, aylamoq demak. Tavajjuhda solik oʻzligidan kechmagan boʻlsa-da, shunga harakat qilishi keraq. Tavajjuh vajddan avval yuz beradigan hol sanaladi.

Tavakkul – Allohga tayanib sababni tark etish, Allohni vakil qilish, sababga emas, sababni yaratganga, Musabbibga ishonish, rizq qaygʻusida boʻlmaslik.

Tavba – gunohlardan qaytish, Allohga qalbi salim bilan qaytish,.

Tajrid – insonlardan alohida, yashash, dunyo tashvishini oʻylamaslik.

Takvin – bor etmoq, ijod qilmoq, biror bir narsani yoʻqlikdan borliqqa chiqarmoq, Allohning xos sifatlaridan biri. Alloh ana shu sifat ila har qanday narsani yoʻqdan bor, bordan yoʻq etadi.

Talvin – bir rangdan boshqa rangga oʻtish, bir holdan boshqa holga oʻzgarishdir. Talvinning natijasi tamkin hisoblanadi. Tamkin bir manzilda qaror topmoq, vazminlik va ruhiy ulugʻvorlikka erishmoq maʼnosini anglatadi.

Tasfiya – qalbni sof holga keltirmoq, haqiqatni idrok etmoq, mujohada va riyoziyat pokizaligi

Tahammul – chuqur va teran mulohazalarga berilish, diqqat ila mushohada yuritish.

Uzlat – xilvat va uzlatga chekinish.

Fano – yoʻq boʻlish, oʻlish. Tasavvufda oʻzlikni yoʻqotib, butun borliqdan kechishdir.

Xarobot – bashariy sifatlarning xarob va jismoniy vujudning foniy boʻlishidir.

Xirqa – shayx, murid va darveshlar kiyadigan maxsus kiyim. Bu soʻzning lugʻaviy maʼnosi yamoq, parcha yoki quroqdan tikilgan kiyim demak. Atamada esa, pir bilan murid orasida aloqa oʻrnatish, «muridning nafs bilan oʻzi orasida shayxning hukmronligini qabul aylashi»dir.

Hol – biz yashab turgan zamon va holat, vaqt, maʼlum bir paytda keladigan (vorid) va tushadigan, kechadigan maʼnaviy his va hayajonlar, shavq, huzn, uns, mushohada, yaqin, xavf, qabz kabi

hollar. Sufiylar nazdida hol – ne'matdir, mehnat orqali qo'lga kiritilmaydi, maqomlarga esa mehnat, riyozat bilan erishiladi.

Qanoat – qismatga rozi bo'lish, yeyish, kiyinish va maskan ehtiyojini zarurat chegarasida saqlash, ochko'z bo'lmaslik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford 1971.
2. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009.
3. Sufism and the modern in Islam. Martin Van Bruinessen, Julia Day Howell. – London-New York, I.B.Tauris. 2005.
4. Suhrevardiy. Avorif al-maorif / Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. T.5.
5. Ernst K. Sufizm. — Per. s angl. A. Gorkavogo. – Moskva: FAIR-PRESS, 2002.
6. Khanam Farida. Sufism an Introduction. – New Delhi: Goodword books, 2009.
7. Sufizm v Sentralnoy Azii (zarubejnye issledovaniya) – SPb.: Filologicheskiy fakultet SPb GU, 2001.
8. Milstein R. Sufi Elements in the late fifteenth century painting of Herat. -London-New York.
9. Rafiq al-Ajam. Mavsua mustalahot at-tasavvuf al-islamiy. – Bayrut: Maktaba Lubnon noshirun, 1999.
10. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – Toshkent: “Sharq”, 2013.
11. Islam: ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Nauka, 1991.
12. Tasavvuf atamalari izohli lug‘ati / Tahrir hay‘ati I.Usmonov va boshq. – T.: Movarounnahr, 2015.
13. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar / mas’ul muharrir I.Usmonov. – T.: Movarounnahr, 2014.
14. Кыш A. Musulmanskiy mistitsizm. – M.: Dilya, 2004.
15. Yuldashxodjayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko‘rinishlari / Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
16. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999.
17. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqi Muhsiniy. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – B. 52-57.
18. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot / Tarj. va nashr I.Haqqul, A.Bektosh. –T.: Movarounnahr, 2004.
19. Yusupova M., Raximova Z., Ibragimov O. Sufiyskiye traditsii v iskusstve Maverannaxra XV-XVII vv. – T.: San‘at, 2010

20. Alikberov A.K. Epoxa klassicheskogo islama na Kavkaze: Abu Bakr ad-Darbandi i yego sufiyskaya ensiklopediya “Rayxan al-xaka’ik” (XI-XII vv.). – Moskva: Vostochnaya literatura, 2003.
21. Muxtorov B. Globallashuv sharoitida qodiriya tariqati faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. – T., TIU, 2016. Magistrlik dissertatsiyasi.
22. Subhan A. Sufis and Sufism. Ed. by Neeru Misra. – Manohar, 2004.
23. Petrushevskiy I.P. Islam v Irane v VII-XVvekax. – Len-d: Izdatelstvo Leningradskogo universiteta, 1966.
24. Babadjanov. B.M. Sobraniye fetv po obosnovaniyu zikra djaxr i sama’. – Almaty, 2008.
25. Alikberov A.K. Epoxa klassicheskogo islama na Kavkaze: Abu Bakr ad-Darbandi i yego sufiyskaya ensiklopediya “Rayxan al-xaka’ik” (XI-XII vv.). – Moskva: Vostochnaya literatura, 2003. – S.684.
26. Karimov E. Kubraviyskiy vakf XVII-XIX vv. – Tashkent: Fan, 2008.
27. Muminov A. Cufiyskiye gruppi v sovremennom Kazaxstane. <http://e-islam.kz/ru/qazaqstandagy-islam/vnutrennie-kategorii>
28. Mustafa Kara, Metinlerle Günümüz Tasavvuf Hareketleri. Istanbul: 2010.
29. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir / U.Abdulvahob tarjiması. - Toshkent: 2001.
30. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. Olti jild. / J.Kamol tarjiması. – Toshkent, 2004-2006.
31. Sirriye E. Sufis and Anti-Sufis. – Curzon: Curzon Press, 1999.
32. at-Tasavvuf fi-s-Saudiya va-l-Xalij / Tadqiqotlar to‘plami. – Dubai, 2011.
33. Suhravardiy. Avorif al-maorif. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. T.5.
34. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari/ Tarj. A.Samad va O.Sharofiddinov. – Toshkent: Fan, 2007.
35. Ahmad Sirhindiy. Al-Maktubot ar-Rabboniyya. – Bayrut: Dor al-Kutub al-ilmiyya, 2004.
36. Timoti J. Uinter (Abdulkhakim Murod). XXI asrda islom

(Postmodern dunyoda qiblani topish) / F.Nizomov tarj. – Toshkent: Sharq, 2005.

37. Chittick W.C. Sufism. A Beginner's Guide. Oxford: Oneworld Publications, 2008.

38. Yuldashxodjayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.

39. Abdulmun'im al-Hifniy. Al-Mavsua as-sufiyya. – Qohira: Maktaba madbuliy.

40. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. T. 17. Nashrga tayyorlovchilar S.G'aniyeva, M.Mirzaahmedova. Arabcha va forsha matnlarni tarjima qilib nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir S.Rafiddinov. – T.: Fan, 2001.

41. al-Kalobodiy, Abu Bakr Muhammad. at-Taarruf li-mazhabi ahl at-tasavvuf. Dor Sodir, 2005.

42. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

43. G'aribiy N. "Qissai amoliy" sharhi va tavhid manzumasi. – T.: TIU NMB, 2008

44. So'fi Allohyor. Sabotul ojizin. – Toshkent: Cho'lpon, 1991.

45. Shihobiddin Ahmad ibn Ibrohim Tunisiy. Nashrul la'aliy bisharhi bad'il amaliy. – Bayrut, 2007.

46. Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh Sa'duddin Taftazoniy. Sharh aqoid an-Nasafiy. – Qohira: Maktaba al-Azhariyya li-t-turos, 2000.

47. Bobrahim Mashrab. Mab dai Nur / I.Abdulloh nashrga tayyorlagan. –T.: Fan, 1994.

48. Xoja Muhammad Porso. Fasl al-Xitob.(Toshbosma). –T.: G'ulom Hasan Arifjonov.

49. Tojuddin Yolchiqul o'g'li. Risolai aziza sharhu sabotul ojizin. – Toshkent: 2000.

50. Xolid Naqshbandiy. Al-iqd al-javhariy fi-l-farq bayna qudrat al-abd va kasbihi inda al-Maturidiy va-l-Ash'ariy / Ash-Shayx Xolid Naqshbandiy – al-alim va-l-mujaddid. Nizor Aboza tadqiqi. Bayrut, Damashq: – Dor al-fikr al-muosir, 1994.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1-mavzu: “Tasavvuf va hozirgi zamon” kursiga kirish	5
2-mavzu: Zamonaviy dunyoda tasavvufga munosabat va globallashuv sharoitida tariqatlar faoliyati	14
3-mavzu: Tariqatlarning transmilliy uyushmalarga aylanib borish tendensiyalari.....	27
4-mavzu: Neosufizm tushunchasi	39
5-mavzu: Markaziy Osiyoda zamonaviy tariqatchilikning koʻrinishlari	48
6-mavzu: MDH hududida tariqatchilikning faollashuvi.....	56
7-mavzu: Sunniy va shia tasavvufining oʻzaro munosabati	68
8-mavzu: Bahouddin Naqshband hamda naqshbandiya tariqatining islom olamidagi oʻrni, mavqeyi va ahamiyati	77
9-mavzu: Musulmon olamida tasavvufning hozirgi holati	94
10-mavzu: Saudiya Arabistonida tasavvuf.....	110
11-mavzu: Hindiston va Pokistonda tasavvuf	121
12-mavzu: Yevropada tariqatlar faoliyatining oʻrganilishi	137
13-mavzu: Oʻzbekistonda zamonaviy tasavvufshunoslik: kecha va bugun.....	148
Mustaqil taʼlim mavzulari.....	156
Seminar mavzulari	156
Testlar	157
Atamalar lugʻati.....	168
Foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati	172

**Tuychiyeva Nilufar,
Mirodil Xaydarov**

TASAVVUF VA HOZIRGI ZAMON

O‘quv qo‘llanma

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 09.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 9,1. Shartli bosma taboq 10,3.

Adadi 50 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10